Bu tipdagi tenglamalar uchun ustozlarimiz T.D. Jo'rayev [1], M.S. Salohiddinov [2] va ularning ilmiy maktabi vakillari tomonidan turli chegaraviy masalalar qo'yilib, ularni o'rganishning nazariy asoslari yaratilgan. Hozirgi kunda ikkinchi, uchinchi va undan yuqori tartibli differensial tenglamalar uchun ko'plab mualliflar tomonidan chegaraviy masalalar keng tahlil etilib, ularning yechimlari va xossalari chuqur o'rganilgan [4,5,6]. Uchinchi tartibli differensial tenglamalar ko'plab fizik va texnik jarayonlarni tavsiflashda muhim o'rin tutadi. Xususan, elastik muhitlarning tebranishlari, suyuqliklar harakati, issiqlik va massa almashinuvi jarayonlarini modellashtirishda ushbu tenglamalardan foydalaniladi. Shu sababli, ular uchun chegaralanmagan sohalarda qo'yilgan chegaraviy masalalarni o'rganish katta ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Mazkur maqolada chegaralanmagan sohada uchinchi tartibli tenglama uchun bir chegaraviy masala qaralgan. Masalaning qo'yilishi, uning yechimining mavjudligi hamda ayrim xossalari tahlil qilinadi. Olingan natijalar ushbu yo'nalishdagi mavjud ilmiy tadqiqotlarni yanada rivojlantirishga va yuqori tartibli differensial tenglamalar nazariyasini boyitishga xizmat qiladi.

2. Masalaning qo'yilishi. Ushbu

$$\frac{\partial}{\partial y} \Delta U(x, y) + C(x, y)U_y(x, y) = 0 \quad (1)$$

tenglamaning

$$D = \{(x, y) : 0 < x < \infty, 0 < y < \infty\}$$

sohada regulyar bo'lgan, $\overline{D}$ sohada uzluksiz shunday $U(x, y)$ yechimini topingki, u quyidagi chegaraviy shartlarni qanoatlantirsin:

$$U(x, y)|_{x=0} = \varphi_1(y), \quad 0 \leq y < \infty, \quad (2)$$

$$U(x, y)|_{y=0} = \varphi_2(x), \quad 0 \leq x < \infty, \quad (3)$$

$$U_y(x, y)|_{y=0} = \varphi_3(x), \quad 0 \leq x < \infty, \quad (4)$$

$$\lim_{R \rightarrow \infty} U_y(x, y) = 0, \quad R^2 = x^2 + y^2, \quad x > 0, y > 0. \quad (5)$$

Bu yerda $\Delta = \frac{\partial^2}{\partial x^2} + \frac{\partial^2}{\partial y^2}$ - Laplas operatori, $C(x, y)$ va $\varphi_i (i = \overline{1, 3})$ - berilgan funksiyalar

va

$$\varphi_1(0) = \varphi_2(0) \quad (6)$$

kelishuv sharti o'rinli.

Ushbu ko'rinishda belgilash kiritib,

$$U_y = V \quad (7)$$

(1) tenglamani quyidagi ko'rinishda yozish mumkin:

$$\Delta V + CV = 0 \quad (8)$$

(7) ga asosan (2) - (5) chegaraviy shartlardan foydalanib, (8) tenglama uchun quyidagi chegaraviy shartlarni olamiz:

$$V(x, y)|_{x=0} = \varphi_1'(y), \quad V(x, y)|_{y=0} = \varphi_3(x), \quad (9)$$

$$\lim_{R \rightarrow \infty} V(x, y) = 0, \quad R^2 = x^2 + y^2, \quad x > 0, y > 0. \quad (10)$$

3. Masala yechimining yagonaligi.

Teorema. Agar $R \rightarrow \infty$ da

$$1) |C(x, y)| \leq \frac{C_1}{R^\alpha}, \quad 0 < \alpha < 1, \quad C_1 = const;$$

$$2) C_y(x, y) \geq 0, \quad (x, y) \in D,$$

bo'lsa, u holda (1) – (5) masalaning bittadan ortiq yechimi mavjud emas.

Isbot. Masala yechimining yagonaligini isbotlash uchun (1) - (5) masalaga mos bir jinsli masalaning trivial yechimga ega ekanligini ko'rsatamiz, ya'ni

$$\Delta \left(\frac{\partial}{\partial y} U \right) + CU_y = 0 \quad (1)$$

$$U(x, y)|_{x=0} = 0, \quad U(x, y)|_{y=0} = 0, \quad U_y(x, y)|_{y=0} = 0. \quad (11)$$

masalani qaraymiz. (1) va (11) masala (7) belgilashga ko'ra quyidagi masalaga ekvivalent:

$$\Delta V + CV = 0, \quad (8)$$

$$V(x, y)|_{x=0} = 0, \quad V(x, y)|_{y=0} = 0, \quad (12)$$

$$\lim_{R \rightarrow \infty} V(x, y) = 0, \quad R^2 = x^2 + y^2, \quad x > 0, y > 0. \quad (10)$$

Ushbu

$$\begin{aligned} D_R &= \{(x, y): x^2 + y^2 < R^2, x > 0, y > 0\}, \\ \partial D_R &= \{(x, y): (x=0) \cup (y=0) \cup \sigma_R\}, \\ \sigma_R &= \{(x, y): x^2 + y^2 = R^2, x > 0, y > 0\} \end{aligned}$$

sohani qaraymiz.

(8) Laplas tenglamasini $V(x, y)$ funksiyaga ko'paytirib, D_R soha bo'yicha integral olamiz:

$$\iint_{D_R} V(V_{xx} + V_{yy} + CV) dx dy = 0. \quad (13)$$

Mazkur ko'paytmada ba'zi shakl almashtirishlarni bajarib, (10), (12) chegaraviy shartlardan foydalansak, (13) tenglik quyidagi

$$\iint_{D_R} [(V_x)^2 + (V_y)^2 + CV^2] dx dy = 0. \quad (14)$$

ko'rinishga keladi. Bundan,

1) Agar $C = 0$ bo'lsa, u holda (14) dan $V_x = V_y = 0$ tenglikni olamiz, bu tengliklardan $V = \text{const}$ ekanligi kelib chiqadi.

2) Agar $C \neq 0$ bo'lsa, $U_y = 0$ bo'ladi. Ma'lumki, bu tenglamaning umumiy yechimi

$$U = \bar{\phi}(x) \quad (15)$$

ko'rinishda bo'ladi. Bu yerda $\bar{\phi}(x)$ - ixtiyoriy noma'lum funksiya. (11) chegaraviy shartlarning biridan foydalansak, (15) tenglikdagi $\bar{\phi}(x)$ funksiya aynan nolga teng bo'lib $U(x, y) = 0$, $(x, y) \in \bar{D}$ da $U_y = 0$ tenglama trivial yechimga ega ekanligini topamiz.

4. Masala yechimining mavjudligi.

2-teorema. Agar

1) $\varphi_1(y), \varphi_2(x), \varphi_3(x)$ funksiyalar uzluksiz va

2) $|\varphi_1'| \leq \frac{C_1}{y^2}, \quad y \rightarrow \infty, \quad |\varphi_2| \leq \frac{C_2}{x^2}, \quad |\varphi_3| \leq \frac{C_3}{x^2}, \quad x \rightarrow \infty$ shartlarni qanoatlantirsa,

u holda (1) - (5) masalaning yechimi mavjud.

Isbot. Yechimning mavjudligini isbotlash uchun Grin funksiyalari [3] usulidan foydalanamiz.

$$G(z, \tau) = \frac{1}{2\pi} \ln \left| \frac{z^2 - \tau^{-2}}{z^2 - \tau^2} \right|;$$

bu yerda: $z = x + iy, \tau = \xi + i\eta$.

Ma'lumki, Grin funksiyasi

$$\Delta G = 0 \quad (16)$$

tenglamani va

$$G|_{\xi=0} = 0 \quad G|_{\eta=0} = 0 \quad (17)$$

shartlarni qanoatlantiradi.

V funksiya (8), (10), (12) masalaning yechimi bo'lsin. Biror (x,y) nuqtani ε radiusli va markazi (x,y) nuqtada bo'lgan C_ε aylana bilan o'raymiz. Aylanadan tashqaridagi sohani D_R^ε deb belgilaymiz va bu soha uchun Grin formulasini [3] qo'llaymiz.

$$\iint_{D_R^\varepsilon} [G(\Delta V - V\Delta G)] d\xi d\eta = \iint_{\partial D_R} \left(G \frac{\partial V}{\partial n} - V \frac{\partial G}{\partial n} \right) ds \quad (18)$$

(18) tenglikni chap tomonini (16), (17) shartlarga asosan

$$\iint_{D_R^\varepsilon} GCU_y d\xi d\eta$$

ga teng. O'ng tomonida integral chegarasini almashtirib,

$$\int_{OA \cup \sigma_R \cup OB} \left(G \frac{\partial V}{\partial n} - V \frac{\partial G}{\partial n} \right) ds - \int_{C_\varepsilon} \left(G \frac{\partial V}{\partial n} - V \frac{\partial G}{\partial n} \right) ds = \iint_{D_R^\varepsilon} GCU_y d\xi d\eta$$

ifodani hosil qilamiz. Ohirgi tenglikda chap tomondagi integralni qaraymiz.

$$\begin{aligned} I_1 &= \int_{OA \cup \sigma_R \cup OB} \left(G \frac{\partial V}{\partial n} - V \frac{\partial G}{\partial n} \right) ds = \int_{OA \cup OB} \left(G \frac{\partial V}{\partial n} - V \frac{\partial G}{\partial n} \right) ds + \\ &+ \int_{\sigma_R} \left(G \frac{\partial V}{\partial n} - V \frac{\partial G}{\partial n} \right) ds = - \int_{AO} V(0, \eta) G_\xi(x, y; 0, \eta) d\eta + \\ &+ \int_{OB} V(\xi, 0) G_\eta(x, y; \xi, 0) d\eta + \int_{\sigma_R} \left(G \frac{\partial V}{\partial n} - V \frac{\partial G}{\partial n} \right) ds = \\ &= \int_0^R G_\xi \varphi_1'(\eta) d\eta - \int_0^R G_\eta \varphi_3(\xi) d\xi + \int_{\sigma_R} \left(G \frac{\partial V}{\partial n} - V \frac{\partial G}{\partial n} \right) ds, \\ I_1 &= \int_0^R G_\xi \varphi_1'(\eta) d\eta - \int_0^R G_\eta \varphi_3(\xi) d\xi + \int_{\sigma_R} \left(G \frac{\partial V}{\partial n} - V \frac{\partial G}{\partial n} \right) ds \end{aligned}$$

Bu ifodada $R \rightarrow \infty$ da limitga o'tib,

$$I_1 = \int_0^\infty G_\xi \varphi_1'(\eta) d\eta - \int_0^\infty G_\eta \varphi_3(\xi) d\xi$$

tenglikni hosil qilamiz.

Keyingi C_ε bo'yicha

$$I_2 = \int_{C_\varepsilon} \left(G \frac{\partial V}{\partial n} - V \frac{\partial G}{\partial n} \right) ds$$

integralni hisoblaymiz. Buning uchun Grin formulasini quyidagi ko'rinishda yozib olamiz:

$$\begin{aligned} G(z, \tau) &= -\frac{1}{2\pi} \ln |z - \tau| + g(x, y; \xi, \eta) = -\frac{1}{2\pi} \ln \sqrt{(x - \xi)^2 + (y - \eta)^2} + \\ &+ g(x, y; \xi, \eta) = -\frac{1}{2\pi} \ln r + g(x, y; \xi, \eta) \end{aligned}$$

U holda

$$\begin{aligned} I_{21} &= \int_{C_\varepsilon} G \frac{\partial V}{\partial n} ds = \int_{C_\varepsilon} \left[-\frac{1}{2\pi} \ln r + g \right] \frac{\partial V}{\partial n} ds = \\ &= -\frac{1}{2\pi} \int_{C_\varepsilon} \left[\ln r \frac{\partial V}{\partial n} (P^*) 2\pi\varepsilon \right] ds + \int_{C_\varepsilon} g \frac{\partial V}{\partial n} ds. \end{aligned}$$

Bu yerda $\frac{\partial V}{\partial n}(P^*) - \frac{\partial V}{\partial n}$ normal hosilaning C_ε aylana ustidagi o'rta qiymati. Bu ifodada $\varepsilon \rightarrow 0$ limitga o'tsak,

$$I_{21} = 0.$$

Endi I_{22} integralni qaraymiz:

$$\begin{aligned} I_{22} &= \int_{C_\varepsilon} -V \frac{\partial G}{\partial n} ds = \int_{C_\varepsilon} V \frac{\partial G}{\partial n} ds = - \int_{C_\varepsilon} V \left(-\frac{1}{2\pi} \cdot \frac{1}{r} + \frac{\partial g}{\partial r} \right) ds = \\ &= \frac{1}{2\pi\varepsilon} \int_{C_\varepsilon} V ds - \int_{C_\varepsilon} V \frac{\partial g}{\partial r} ds = \frac{1}{2\pi\varepsilon} V(P^{**}) 2\pi\varepsilon + \int_{C_\varepsilon} V \frac{\partial g}{\partial r} ds = \\ &= V(P^{**}) + \int_{C_\varepsilon} V \frac{\partial g}{\partial r} ds. \end{aligned}$$

Bu yerda P^{**} -chiziqliq ustidagi ixtiyoriy nuqta. So'nggi ifodada $\varepsilon \rightarrow 0$ da limitga o'tib,

$$I_{22} = V(x, y)$$

tenglikni hosil qilamiz. Bularni e'tiborga olsak,

$$I_2 = V(x, y).$$

U holda (8), (10), (12) masalaning yechimini ifodalovchi quyidagi formulaga kelamiz:

$$\begin{aligned} V(x, y) &= \int_0^\infty G_\xi(x, y; 0, \eta) \phi_1'(\eta) d\eta - \int_0^\infty G_\eta(x, y; \xi, 0) \phi_3(\xi) d\xi - \\ &- \iint_D G_\eta(x, y; \xi, \eta) C(\xi, \eta) U_y(\xi, \eta) d\xi d\eta \end{aligned}$$

yoki Grin funksiyasini qo'ysak:

$$\begin{aligned} V(x, y) &= \frac{1}{\pi} \int_0^\infty \left(\frac{x}{x^2 + (y - \eta)^2} - \frac{x}{x^2 + (y + \eta)^2} \right) \phi_1'(\eta) d\eta - \\ &- \frac{1}{\pi} \int_0^\infty \left(\frac{y}{(x - \xi)^2 + y^2} - \frac{y}{(x + \xi)^2 + y^2} \right) \phi_3(\xi) d\xi - \iint_{D_R^\varepsilon} G C U_y d\xi d\eta \end{aligned} \quad (19)$$

Endi (7) tenglamani (3) shartini qanoatlantiruvchi yechimini qidiramiz. Buning uchun (7) tenglamani $[0, x]$ segmentda integrallab, (19) dan foydalansak,

$$\begin{aligned} U(x, y) &= \frac{1}{\pi} \int_0^y \left[\int_0^\infty \left(\frac{x}{x^2 + (t - \eta)^2} - \frac{x}{x^2 + (t + \eta)^2} \right) \phi_1'(\eta) d\eta \right] dt - \\ &- \frac{1}{\pi} \int_0^\infty \left(\frac{t}{(x - \xi)^2 + t^2} - \frac{t}{(x + \xi)^2 + t^2} \right) \phi_3(\xi) d\xi - \iint_D G C U d\xi d\eta + \phi_1(x) \end{aligned} \quad (20)$$

(20) tenglikda integrallarni hisoblash natijasida quyidagi

$$U(x, y) + \iint_D K(x, y; \xi, \eta) U(\xi, \eta) d\xi d\eta = F(x, y) \quad (21)$$

ko‘rinishdagi tenglamaga kelamiz. Bu yerda

$$K(x, y; \xi, \eta) = C(\xi, \eta) \int_0^y G(x, t; \xi, \eta) dt$$

$$F(x, y) = - \int_0^\infty G_1(x, y; 0, \eta) \phi_1'(\eta) d\eta + \int_0^\infty G_2(x, y; \xi, 0) \phi_3(\xi) d\xi + \phi_1(x),$$

$$G_1(x, y; 0, \eta) = \arctg \frac{x-\eta}{x} - \arctg \frac{x+\eta}{x},$$

$$G(x, y; \xi, 0) = \frac{1}{2} \left[\ln(x^2 + (x-\xi)^2) - \ln(x^2 + (x+\xi)^2) + 2 \ln \frac{x+\xi}{x-\xi} \right].$$

(21) tenglama Fredgolmning ikkinchi tur integral tenglamasi bo‘lib, yechimning yagonaligi mavjudlik teoremasidan kelib chiqadi.

Mavjudlik teoremasi shartlari bajarilganda $U(x, y)$ funksiya masalada qo‘yilgan barcha shartlarni bajaradi.

Teorema isbotlandi.

5. Xulosa. Mazkur maqolada chegaralanmagan sohada uchinchi tartibli differensial tenglama uchun bir chegaraviy masala o‘rganildi. Tadqiqot davomida masalaning qo‘yilishi tahlil qilinib, uning yechimining mavjudligi va ayrim xossalari ko‘rib chiqildi. Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, chegaralanmagan sohalarda qo‘yilgan chegaraviy masalalarni o‘rganish yuqori tartibli differensial tenglamalar nazariyasini yanada rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, uchinchi tartibli differensial tenglamalar ko‘plab fizik, texnik va muhandislik jarayonlarini matematik modellashirishda keng qo‘llanilishi sababli, ular uchun chegaraviy masalalarni tadqiq etish nazariy va amaliy jihatdan dolzarb hisoblanadi. Ushbu yo‘nalishda olingan natijalar kelgusida murakkabroq tenglamalar hamda turli turdagi chegaraviy shartlar uchun yangi ilmiy tadqiqotlarni olib borishga imkon yaratadi.

Tadqiqot natijalari T.D. Jo‘rayev, M.S. Salohiddinov va ularning ilmiy maktabi tomonidan yaratilgan nazariy yondashuvlarni yanada boyitishga xizmat qiladi. Kelgusida ushbu usullarni takomillashtirish va yuqori tartibli differensial tenglamalar uchun yangi chegaraviy masalalarni o‘rganish muhim ilmiy yo‘nalishlardan biri bo‘lib qoladi.

Adabiyotlar

- [1]. Джураев Т.Д. Краевые задачи для уравнения и смешанного и смешанно составного типов. Ташкент. Фан. 1979.-240 с.
- [2]. Салахитдинов М.С. Уравнения смешанно-составного типа. Ташкент. Фан.1974.156с.
- [3]. Тихонов А.Н., Самарский А.А. Уравнения математической физики. М. Наука 1977.-736с.
- [4]. Зикиров О.С., Газиёв К.С. Об одной краевой задаче для уравнения третьего порядка составного типа. Вестник НУУз. 2017, N 2/2, с138.
- [5]. Зикиров О.С., Рахматов Н.Б. О разрешимости нелокальной задачи для нагруженного уравнения третьего порядка. Неклассические уравнения математической физики и их приложения. 2022 г. 6-8-октября.
- [6]. Сагдуллаева М.М. Об одной нелокальной задаче для уравнения в частных производных третьего порядка. Неклассические уравнения математической физики и их приложения. 2022 г. 6-8-октября.

INTENSIV USULDA YETISHTIRILGAN PILLALAR UCHUN RATSIONAL CHUVISH PARAMETRLARINI O'RNATISH

A.E. Gulamov, N.B. Esanova, mustaqil tadqiqotchi U.B. Umirov

Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti
(Qabul qilindi 20.04.2026 y.)

Annotatsiya. Mazkur maqolada intensiv usulda yetishtirilgan mahalliy Zarafshon-2 va Zarafshon-3 duragay pillalarini qayta ishlashning texnologik rejimlari tadqiq etildi. Pillalarni vakuum ostida suv bilan to'ldirish, bug'lash va avtomat pilla chuvish mashinasida chuvish parametrlarining xom ipak sifati hamda ishlab chiqarish samaradorligiga ta'siri o'rganildi. Tadqiqotlar natijasida intensiv usulda yetishtirilgan pillalar uchun muqobil chuvish tezligi 130 m/min etib belgilandi hamda O'zDSt 3313:2018 talablari bo'yicha 3A sinfga mos 2,33 teksli xom ipak olish imkoniyati yaratildi. Taklif etilgan texnologik rejimlar pilla xomashyosidan samarali foydalanish va pillakashlik korxonalarining iqtisodiy samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Tayanch so'zlar: Zarafshon-2, Zarafshon-3, intensiv usul, pilla chuvish, vakuum bug'lash, xom ipak, 3A sinf, iqtisodiy samaradorlik.

Abstract. In this article presents the investigates the technological processing parameters of locally developed Zarafshon-2 and Zarafshon-3 hybrid cocoons produced under intensive cultivation conditions. The effects of vacuum water filling, steaming, and automatic cocoon reeling processes on raw silk quality and production efficiency were studied. The research established an optimal reeling speed of 130 m/min for intensively produced cocoons, enabling the production of 2.33 tex raw silk that meets the requirements of the 3A quality grade according to O'zDSt 3313:2018. The proposed technological regimes contribute to more efficient utilization of cocoon raw materials and improved economic performance of silk processing enterprises.

Key words: Zarafshon-2, Zarafshon-3, intensive method, cocoon reeling, vacuum steaming, raw silk, 3A grade, economic efficiency.

KIRISH

Dunyo bo'yicha ipak ishlab chiqarish so'nggi 5 yilda 15,7 foizga oshgan va ayni paytda yillik yalpi ipak mahsuloti hajmi 193 tonnaga teng bo'lib, uning 80 foizi Xitoy, 16 foizi Hindiston, 2,5 foizi O'zbekiston va qolgan qismi boshqa mamlakatlar hissasiga to'g'ri keladi. Bugungi kunda ipakchilik bilan shug'ullanuvchi barcha davlatlarda tut ipak qurtini parvarishlashda yaratilgan sharoitlarni hisobga olgan holda yetishtirish hamda yuqori sifatli xalqaro standartlarga mos ipak xomashyosini ishlab chiqarishga alohida e'tibor qaratmoqda. Bugungi kunda ipakchilik bilan shug'ullanuvchi barcha davlatlarda tut ipak qurtini parvarishlashda yuqori namlik sharoitlarni hisobga olgan holda yetishtirish hamda yuqori sifatli xalqaro standartlarga mos ipak xomashyosini ishlab chiqarishga alohida e'tibor qaratmoqda [1].

Dunyo bo'yilab ipak ishlab chiqarish sanoati 2024-yilda taxminan 20–21 milliard AQSh dollariga baholangan va 2034-yilga kelib 36–41 milliard AQSh dollarigacha o'sishi kutilmoqda. Bu o'sish yillik o'rtacha 6,7% dan 7,7% gacha bo'lgan o'sish sur'atiga ega. Asosiy ishlab chiqaruvchi mamlakatlardan birinchisi bo'lgan Xitoy dunyo bo'yilab ipak ishlab chiqarishning taxminan 70% ini tashkil etadi. 2022-yilda 50 ming tonna ipak ishlab chiqarilgan. Hindiston esa 2 o'rinda bo'lib, dunyo bo'yilab ipak ishlab chiqarishning taxminan 18% ini tashkil etadi. 2021–2022 yillarda 36 tonnadan ortiq ipak ishlab chiqarilgan. O'zbekiston esa 3 o'rinda bo'lib, yillik ishlab chiqarish hajmi taxminan 2 tonnani tashkil etadi [2].

Mamlakatimizda 2024-yilga kelib, pilla yetishtirishda urug'chilik korxonalari soni 13 taga yetib, mahalliyashtirish darajasi 59,8% ni tashkil etdi. Bu pilla xomashyosi to'liq qayta ishlanib, eksportga yo'naltirilayotganini ko'rsatadi.

2020-yilda tizim korxonalari tomonidan pilla xomashyosi qayta ishlash darajasi 94% ni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilda bu ko'rsatkich 100% ga yetkazildi. Eksport geografiyasi esa 2020-yilda 14 ta davlatga eksport qilingan bo'lsa, 2024-yilning 10 oyligida eksport qilingan davlatlar soni 16 taga yetdi. [3].

МУХОКАМА VA NATIJALAR

Pillani chuvishdan maqsad uzunligi bo'yicha silliq va chiziqiy zichligi bo'yicha bir tekis bo'lgan kompleks iplarni shakllantirishdan iborat. Bunday kompleks iplar xom ipak deb yuritilib, bir nechta pilla iplarini chuvish yo'li bilan hosil qilinadi. Bunday asosiy vazifa yordamchi materiallar va mehnat sarfini iloji boricha kamaytirishdan iborat. Pilla chuvish jarayonlarini shartli to'rt guruhga bo'lish mumkin: Pillalarni chuvishga dastlabki tayyorlash uchun qobiqni qattiqligi, kalibri va tashqi belgilari bo'yicha saralash; pillalarni chuvishga tayyorlash pilladagi seritsinni yumshatish, pillani suv bilan to'ldirish, yakka uchini topish va ularni ajratish; pilla chuvish-pilla iplaridan xom ipakni shakllantirish va charxga yig'ish; nazorat-yig'uv charxdan tushirilgan xom ipak mollik mahsulot ko'rinishiga keltirish va tayyor mahsulot omboriga olib tushishdan iborat.

Ma'lumki, pillani chuvishga dastlabki tayyorlash jarayonlari chuvishga tayyorlashdan farq qiladi. Bunda pillalar hech qanday mexanik yoki kimyoviy ta'sirlarga uchramaydi. Pillani chuvishga tayyorlash jarayonlarida esa fibroin va seritsinning xususiyatlariga kimyoviy va fizik-mexanik jarayonlar ta'sir etadi. Chuvish korxonalariga keltirilgan quruq pilladagi iplarning yelimlanganlik kuchi yuqori bo'ladi, bu yelimlangan iplarni ajratish uchun seritsin yumshatib olinadi va tolalarning yopishqoqlik kuchi kamayadi. Bu jarayonni bug'lash orqali bajaramiz. Pillalar suvda chuvganda ularning suvdan chiqib ketish ehtimoli mavjud bo'lib, tortish kuchiga qarshilikni amalga oshiruvchi kuch lozim bo'ladi. Bunga pillalarning ichini suv bilan to'ldirib, og'irlik kuchi hosil qilish orqali erishiladi. Pilladagi seritsinni yumshatib va ichiga suv to'ldiriladi. Shuni hisobiga pilladan ipni ajralishi oson kechadi.

"Ipak texnologiyasi" kafedra olimlari pilla ipidagi nuqsonlar paydo bo'lishini o'rganib ularni bir turdan boshqa turdagi nuqsonga o'tishi mumkinligini ko'rsatib berishgan. Chuviyatotgan xom ipakdagi mo'ylovchalar asosan dastaga pillani noto'g'ri tashlanishi hamda ilgichni aylanishlar sonining kamayishi yoki uning to'xtab qolishi sababli hosil bo'lishini ta'kidlashgan [4].

Pillalar pasportizatsiya qilish orqali guruhlanib aralashtiriladi, loslardan tozalanadi, kalibrlanadi va saralanadi. Bu jarayonlar ipak ishlab chiqarish jarayonining o'ziga xos xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Pillalarni chuvishga tayyorlash ya'ni, ularning ichiga suv to'ldirish, qobiqdagi seritsin qavatlarini yumshatish, uchlarini topish va silkitish, tayyor bo'lgan pillalarni chuvish va quritish jarayonlari amalga oshiriladi [5].

Professor X.Alimova va boshqalar tomonidan texnologik rejimlarni noto'g'ri o'rnatilishi tufayli hosil bo'ladigan nuqsonlarni olib borilgan tahlillar, xom ipakda nuqsonlarning hosil bo'lishi va rejimlarining buzilishi oqibatida qobiqdan xom ipak chiqishi kamayib torsimon los chiqishi ortishini ko'rsatadi [6].

X.D.Bastamkulova tomonidan xom ipak kalavalarini vakuum bug'li muhitda namligini oshirish yo'li bilan xom ipak iplarini uzilishlarini kamaytirish yo'llari tadqiq qilingan. Vakuum bug'li muhitda kalavalariga ishlov berilgandan so'ng ipdagi deformatsiyalarni tashkil qiluvchi kuchlar relaksatsiya holatiga keladi. Tadqiqotlar shundan dalolat beradiki, xom ipakni vakuum bug'li muhitda namlaganda relaksatsiya jarayoni bir muncha tezlashadi hamda kalava qavatlar ichiga bir tekis yetib boradi va bir xilda shimiladi. Bunda xom ipak charxdan yechilganda relaksatsiya jarayoni jadallashadi [7].

M.K.Raxmonberdiyeva o'z tadqiqotlarida qobiqdagi seritsinning mayoridan ortiq yumshatilishi pilla ichidagi tozaligi bo'yicha nuqsonlarni paydo bo'lishiga olib kelishini aniqlagan [8].

Olingan natijalar va ularni muhokamasi. Nazorat variantida vakuum bug'lash apparatida pillalar qobiqidagi seritsinni yumshatish va adgeziya kuchini kamaytirish maqsadida korxona sharoitida o'rnatilgan rejimlar asosida ishlov berildi. Mavjud va tajriba usullarda yetishtirilgan pillalar uchun ularning qobiq xususiyati inobatga olingan holda rejim ishlab chiqildi. Korxonada pillalar qobiqidagi seritsinni yumshatish va adgeziya kuchini kamaytirish uchun quyidagi rejimlar o'rnatildi. Pillalar vakuum kameraga 20 kg dan yuklandi. Vakuum kameraga pilla yuklangandan so'ng 42 °C suv bilan to'ldirildi. Vakuum kamera qopqog'i yopilgandan keyin kamera ichidagi havo so'rib olindi. Bug'lash vaqti esa 7 minut qilib belgilandi. Pillalarni bug'langanlik darajasining sifat ko'rsatkichlari, pillalarni suvdagi holati, uch berishi, ichiga suv to'lganlik ko'rsatkichlari bilan

aniqlandi. Pillalarning cho‘kkanlik darajasi ularni suvga solib ko‘rish yo‘li bilan aniqlandi va cho‘kkanlik darajasi 100 % ni tashkil qildi. Pillalarni rangini o‘zgarishi bir xilda ekanligi organoleptik usulda aniqlandi. Nazorat variantida mahalliy “Zarafshon-2” va “Zarafshon-3” duragaylari pillalari korxona sharoitida tajribalar zamonaviy ZD-800 Vakuum ostida pillalarni suv to‘ldirish dastgohida suv harorati $28 \pm 30^{\circ}\text{C}$ va $-0,1 \text{ MPa}$ vakuum ostida suv to‘ldirish vaqti 2 minut davomida suv bilan to‘ldirish amalga oshirildi. Pillalarni suv bilan to‘lganlik darajasi 92 ± 97 % ni tashkil qildi.

Tajriba variantida “SHAHRISABZ SILK PRODUCTION” MChJda ishlab chiqarish sharoitida intensiv usulda yetishtirilgan mahalliy “Zarafshon-2” va “Zarafshon-3” duragaylari pillalarini qobiq xususiyatlarini, jumladan ularning qobiqlarini qaliligi, quvvati va zichligi yuqoriligi, g‘ovakdorlik ko‘rsatkichi esa aksincha past ekanligini e‘tiborga olgan holda pillalar ichini suv bilan to‘ldirish bo‘yicha tajribalar olib borildi. Tajribalar korxonada o‘rnatilgan zamonaviy ZD-800 vakuum ostida pilla ichiga suv to‘ldirish dastgohida 3 minut davomida $-0,1 \text{ MPa}$ vakuum ostida, suvning harorati 35°C , 40°C , 45°C gacha bo‘lgan oraliqlarda o‘zgartirilgan holda 5 martadan takrorlab o‘tkazildi. Dastgohda suv harorati 50°C bo‘lganda, kamera ichidagi vakuum bosimi $-0,1 \text{ MPa}$ ostida 3 minut davomida ishlov berilganda pillalarning ichiga 100% suv bilan to‘ldirishga erishildi. Pillalarni suv bilan to‘lganlik darajasi ularni suvga solib ko‘rish yo‘li bilan aniqlandi 1-jadval.

1-jadval

ZD-800 Vakuum ostida pillalarni suv bilan to‘ldirish dastgohida nazorat va tajriba variantlarida olingan natijalari

Nazorat		Tajriba	
Suv harorati, $^{\circ}\text{C}$	Pillalarni suv bilan to‘lganlik darajasi (%)	Suv harorati, $^{\circ}\text{C}$	Pillalarni suv bilan to‘lganlik darajasi (%)
28 - 30	93	50	97

Pillalar qobig‘idagi seritsinni yumshatish va adgeziya kuchini kamaytirish nazorat variantida korxona sharoitida vakuum bug‘lash dastgohida 7 minut bo‘lib, intensiv usulda yetishtirilgan pillalar uchun esa ushbu vakuum bug‘lash dastgohida 6 minut davomida ishlov berilib, sifatli pishirilgan pilla olish mumkinligi tajribalar davomida aniqlandi. Pillalarni vakuum bug‘lash dastgohida mavjud va intensiv usulda yetishtirilgan pillalarni pishirishda nazorat va tajriba variantlari parametrlari 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval

Vakuum bug‘lash apparatida mavjud va intensiv usulda yetishtirilgan pillalarini bug‘lash parametrlari

Ko‘rsatkichlar	Nazorat	Tajriba
Vakuum kameraga pillalarni yuklash, kg	20	20
Suv harorati ($^{\circ}\text{C}$)	40	42
Pillani bug‘lash vaqti, min	7	6
Pillaning suvdagi holati	Cho‘kkan	Cho‘kkan

Pillalar pishirilgandan so‘ng ularning uchlari topiladi. Chuvishga tayyorlash jarayonida pillalarni yakka uchlari topish chuvish avtomatining silkitish qismida cho‘tkalar yordamida amalga oshiriladi. Uchi topilgan pillalar dastgohning chuvish toziga yo‘naltiriladi.

FY-2000 NT pilla chuvish avtomatining silkitish qismidagi cho‘tkaning aylanish vaqti 16 sekund bo‘lib, shu vaqt davomida har bitta cho‘tka 14 martadan aylanma-qaytma harakat qiladi. FY-2000 NT pilla chuvish avtomatining silkitish qismida quyidagi vazifalar bajariladi: qobiqdan loslarni ajratib olish; ajralgan losni charxga yig‘ish; uchlari topilgan pillalarni uch bermagan yoki uchi topilmagan pillalardan ajratish. Loslarni pillalardan ajratish va seritsinning adgeziya kuchi kamaytirilgandan so‘ng aylanma cho‘tkalar tuklari pillalar yuzalariga ta’sir ettirilishi natijasida pillalar uchlari ilashtirilib silkitish yo‘li bilan ajratib olinadi.

Pilla chuvishda uning qobig'idan maksimal foydalanish imkoniyatlari quyidagi omillar: ipak qurtining zoti, duragayi, boqilish sharoiti, pilla qobig'ining geometrik xususiyatlari, turli tashqi ta'sirlar va qayta ishlov berish jarayonlari ta'sirida kamayib ketadi. Umumiy holda bug'lash suvni qobiq orasidan o'tishi va shimilishini ifodalaydi. Suvning pilla qobig'i bo'ylab notekis o'tishi uning chuvilish xususiyati va xom ipak chiqishini kamayishiga olib keladi. Tadqiqot ishida pilla durugaylari uchun chuvish parametrlari o'rnatib olindi (3-jadval).

3-jadval

Pillalarni chuvish rejimlari

№	Parametrlar	Ko'rsatkichlar
1	Bug'lash qozonidagi suvning temperaturasi, °C	94-96
2	Silkitib yakka uchuni topish qozonidagi suvning harorati, °C	76-78
3	Chuvish tozidagi harorat, °C	36-38
4	Quritish shkafidagi harorat, °C	40-42
5	Chirmovlash uzunligi, mm	8-10
6	Chirmovlashdan chiqayotgan ipning burchagi, gradus	80

FY-2000 NT avtomat pilla chuvish mashinasida muqobil chuvish tezligini hisoblashda pilla yetishtirishning ikkala usuli uchun alohida pillalarni chuvish tezligini o'rnatildi. Mashinaning qolgan boshqa parametrlari bir xil qilib olindi. Bunda chuvish tozi harorati 36-38 °C, quritish shkafidagi harorat 40-42 °C, chirmov uzunligi 80-100 mm, ipning chirmovdan chiqish burchagi $\alpha=80$ °C gradusga rostlandi.

Texnologik jarayonlarning uzluksiz bir maromda ishlashini ta'minlash hamda sifatli xom ipak olish maqsadida intensiv usulda yetishtirilgan pillalar uchun alohida chuvish rejimlarini o'rnatish talab etiladi. Tadqiqotimiz davomida har ikkala usulda yetishtirilgan pillalarning fizik-mexanik hamda texnologik xususiyatlarini o'rgangan holda muqobil rejimlar ishlab chiqildi.

Tadqiqot ishida yuqori namlik intensiv usulda yetishtirilgan "Zarafshon-2" va "Zarafshon-3" duragayi chuvishga yaroqli pillalar uchun laboratoriya sharoitida muqobil chuvish tezligini topdik. Buning uchun pillalardan namunalar olinib, bug'lash dastgohida bug'lanib, avtomat pilla chuvish dastgohida chuvib olindi. Chuvib olingan xom ipak ko'rsatkichlari quyidagilardan iborat bo'ldi (4-jadval).

4-jadval

Chuvib olingan xom ipakning texnik ko'rsatkichlari

№	Chuvish va xom ipak olishdagi texnik ko'rsatkichlar	Nazorat	Tajriba
1	Charxga o'ralayotgan ipning umumiy uzunligi, m	1109	1239
2	Ilgich ostidagi o'rtacha pillalar soni, dona	7-8	7-8
3	Uzluksiz chuvaluvchan uzunlik	926	1052
4	Muqobil chuvish tezligi, m/min	112	130
5	Pillaning solishtirma sarfi, kg	3,0	2,9
6	Xom ipakning chiziqliy zichligi, teks	2,33	2,33
7	Pilla ipining chiziqliy zichligi, teks	0,33	0,32
8	Xom ipak chiqish miqdori, %	33,3	34,5

Tajriba variantida chuvish jarayonining samaradorligi sezilarli ravishda oshgani kuzatildi. Charxga o'ralayotgan ipning umumiy uzunligi nazoratga nisbatan 11,72% ga ko'paygan, bu ipning uzviyligi va chuvish davomiyligining yaxshilanganini ko'rsatadi. Uzluksiz chuvaluvchan uzunlik ham 15,54% ga oshgan bo'lib, xom ipak barqaror chiqayotganini, chuvish jarayonida uzilishlar kamayganini bildiradi. Muqobil chuvish tezligi esa 16,07% ga yuqori bo'lib, tajriba sharoitida jarayonning unumdorligi ancha oshganini tasdiqlaydi. Pilla sarfi 3,33% ga kamaygani chuvish jarayoni yanada tejamkor bo'lganini va kamroq xomashyo bilan ko'proq sifatli ip olinayotganini ko'rsatadi.

Avtomat pilla chuvish mashinasida pillani chuvish tezligi ish unumdorligiga hamda ipak sifatiga ta'sir ko'rsatadi. Pillalar chuvishda o'rnatilgan tezlikdan oshib ketsa pilla iplarida uzilishlar soni oshib ketadi hamda xom ipak sifatiga o'z tasirini ko'rsatadi. Avtomat pilla chuvish mashinasida

pillani chuvish tezligi ish unumdorligiga hamda ipak sifatiga ta'sir ko'rsatadi. Pillalar chuvishda o'rnatilgan tezlikdan oshib ketsa pilla iplarida uzilishlar soni oshib ketadi hamda xom ipak sifatiga o'z tasirini ko'rsatadi.

Pilla chuvish avtomatida muqobil chuvish tezligini o'rnatish.

Chuvish tezligi quyidagi formula orqali aniqlanadi.

$$v = \frac{N \cdot l_{uu} \cdot T_p}{T_{xi} \cdot m} \cdot K \quad (1)$$

bu yerda,

N – 1 minutda 1 ta chuvish tozidagi ilgichlar tagiga tashlanadigan pillalar meyor (1 minutda 1 tozdagi ilgichlarga 2,33 teksli xom ipak ishlab chiqarish uchun) tashlanadigan pillalar soni mos ravishda -20;

l_{uu} - pilla ipining uzluksiz chuvaluvchan uzunligi, m;

$T_{p.i.}$ – pilla ipining chiziqli zichligi, teks;

$T_{x.i.}$ – xom ipakning berilgan chiziqli zichligi, teks;

m – 1 ta chuvish tozidagi ilgichlar soni ta (20);

$$K = K_s \cdot K_t \quad (2)$$

bu yerda,

K_s – sirpanish hisobiga tezlikni yo'qotish koeffitsiyenti (0,95);

K_t – mos keluvchi to'xtashlarni hisobga olgan holda charx ishlashining koeffitsiyenti (0,90).

Pilla chuvishning hisobiy tezligi ishlab chiqarish normasini va ipak mahsulotlari chiqishini o'rnatishda bir smena davomida oltita tozda pillalarni chuvish orqali tekshirildi [10-11].

Tadqiqotlar natijasida olingan pilla iplarining texnologik ko'rsatkichlari asosida standartning "3A" sinfi talablariga mos 2,33 teks xom ipak ishlab chiqarish uchun hisoblangan miqobil chuvish tezlik intensiv usulda yetishtirilgan duragayi pillalarni chuvishda 130 m/min bo'lishi tavsiya etildi. Mavjud usulda yetishtirilgan pillalar uchun hisoblangan muqobil chuvish tezligi esa 112 m/min ni tashkil qildi

Pilla chuvishdan maqsad berilgan chiziqli zichlikdagi sifatli, ya'ni mustahkam, elastik, jips, tozaligi yaxshi bo'lgan sifatli xom ipak olishdir. Bu jarayon bir nechta pilla iplarini qo'shib chuvish yo'li bilan amalga oshiriladi. Pillalar iplarining uzunligiga bog'liq ravishda chuviladi va shuning uchun ularni dastada bo'lish vaqti ham har xil bo'ladi [12].

Xom ipakning birinchi darajali sifat ko'rsatkichlariga ipning chiziqli zichligi bo'yicha notekisligi, chiziqli zichligi bo'yicha og'ishi, yirik nuqsonlari bo'yicha tozalik ko'rsatkichlari kiradi. Xom ipakning ikkinchi darajali sifat ko'rsatkichlari esa qayta o'ralish qobiliyati, iplarining uzilishidagi uzayishi, solishtirma uzish kuchi, mayda nuqsonlar bo'yicha tozaligi, kalavalarining holati va iplarining jipsligi tashkil qiladi [13].

Yuqori namlik sharoitda yetishtirilgan va ratsional rejimlarda quritilgan pillalardan olingan xom ipakning sifat ko'rsatkichlari o'rganildi. Ma'lumki, ipak qurtining zoti, ipning uzilish kuchi va uzilishdagi cho'zilishi, chiziqli zichligi, diametri va uzunligi, ipni pillaning qaysi qobiq qavatidan olinganligi, namligi pilla ipi xususiyatlariga ta'sir etuvchi omillar hisoblanadi [14].

Yakka tartibda pilla chuvishdan olingan ma'lumotlarga tayanib hamda bug'lash va yakka uchini topishdagi rejimlar o'rnatilib, avtomat pilla chuvish dastgohida 2,33 teksli xom ipak ishlab chiqarildi. Chuvish jarayonlari o'rnatilgan texnologik xarita bo'yicha olib borildi. Tajriba davomida pishirib uchlari topilgan mahalliy Zarafshon-2 va Zarafshon-3 duragay pillalari FY-2000 NT pilla chuvish avtomatida chuvildi. Chuvib olingan xom ipak esa ZJ-188A markali qayta o'rash mashinasida standart $P=1,5$ m lik kalavalarga qayta o'rab olindi.

O'zDSt 3313:2018 davlat standarti talablariga muvofiq, mahalliy Zarafshon-2 va Zarafshon-3 duragayi pillalaridan nazorat va tajriba variantlarida chuvib olingan xom ipak sifat ko'rsatkichlari aniqlandi. O'zDSt 3313:2018 "Xom ipak" texnikaviy shartlar talablari asosida sinovlardan o'tkazildi. Xom ipakning sifat ko'rsatkichlari TTYSI "Centexuz" laboratoriyasida aniqlandi. va natijalari 5-jadvalda keltirildi.

Turli usullarda yetishtirilgan mahalliy duragay pillalaridan ishlab chiqarilgan xom ipak sifat ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar	O'zDSt 3313:2018	Zarafshon-2		Zarafshon-3	
	"3A"	Nazorat	Tajriba	Nazorat	Tajriba
		"2A"	"3A"	"2A"	"3A"
Chiziqli zichlik, teks	2,33	2,33	2,33	2,33	2,33
Chiziqli zichlik bo'yicha og'ish (teks)	0,15	0,17	0,15	0,18	0,15
Notekislik 1	170	175	166	180	165
Notekislik 2	17	21	17	20	16
Yirik nuqsonlardan tozaligi % hisobida, kamida	95	96	94	93	94
Mayda nuqsonlardan tozaligi % hisobida, kamida	92	91	90	92	90
Qayta o'ralish qobiliyati, uzilishlar soni	10	9	10	8	10
Solishtirma uzish kuchi, sN/ teks	30	31	30	29	30
Uzayishdagi uzishi, (%)	18	19	18	18	18,5
Jipsligi, karetkani yurish soni	60	60	62	60	61

Tajribamiz davomida olingan xom ipak sifat ko'rsatkichlari O'zDSt 3313:2018 davlat standarti talablari bo'yicha "3A" sinf talablariga mos kelmoqda. Namunalar standart talabiga muvofiq 20 ± 2 °C harorat hamda 65 ± 5 % nisbiy namlik tashkil etilgan laboratoriya sharoitida 10 soat mobaynida ushlab turildi [15].

Olingan xom ipakning sifat ko'rsatkichi O'zDST 3313:2018 bo'yicha davlat standartiga muvofiq baholandi. Tadqiqotlar asosida zamonaviy kompyuterlashtirilgan qurilmalar va dastgohlarni qo'llash orqali mahalliy duragay pillalardan yuqori sifatli "3A" sinfiga mansub xalqaro standart talablariga javob beradigan xom ipak ishlab chiqarishning takomillashgan texnologiyasi taklif etildi.

XULOSA

Tadqiqotlar natijasida intensiv usulda yetishtirilgan mahalliy Zarafshon-2 va Zarafshon-3 duragay pillalarini qayta ishlash uchun muqobil texnologik rejimlar ishlab chiqildi. Pilla qobig'ining fizik-mexanik xususiyatlarini hisobga olgan holda vakuum ostida suv bilan to'ldirish va bug'lash parametrlarining maqbul qiymatlari aniqlandi. Tajriba natijalariga ko'ra, pillalarni 50°C haroratdagi suvda -0,1 MPa vakuum ostida 3 minut davomida ishlov berish ularning suv bilan to'lish darajasini 97 % gacha oshirishi, vakuum bug'lash apparatida 42°C suv haroratida 6 minut davomida bug'lash esa sifatli pishirilgan pilla olish imkonini berishi aniqlandi.

FY-2000 NT avtomat pilla chuvish mashinasida olib borilgan tadqiqotlar asosida intensiv usulda yetishtirilgan pillalar uchun muqobil chuvish tezligi 130 m/min etib belgilandi. Ushbu rejimda uzluksiz chuvaluvchan uzunlik 1052 m ga, xom ipak chiqishi esa 34,5 % ga yetdi hamda pilla sarfi kamaydi. Olingan xom ipakning sifat ko'rsatkichlari O'zDSt 3313:2018 davlat standarti talablariga muvofiq bo'lib, 3A sinf talablariga mos kelishi tasdiqlandi.

Tadqiqot natijalari intensiv usulda yetishtirilgan pillalarni qayta ishlashda taklif etilgan texnologik rejimlar ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, xomashyo sarfini kamaytirish va xalqaro standartlarga javob beradigan yuqori sifatli xom ipak ishlab chiqarishni ta'minlashini ko'rsatdi.

Adabiyotlar

- [1]. Esanova N.B. Intensiv usulda yetishtirilgan pillalarga ishlov berish texnologiyasini takomillashtirish. Diss. PhD. -Toshkent. TTYSI. 2026. 4-bet.
- [2]. <https://www.custommarketinsights.com/report/silk-market>
- [3]. <https://yuz.uz/uz/news/ozbekistonda-pilla-rejasi-ortigi-bilan-bajarildi>

- [4]. Alimova X.A., Islombekova N.M., Gulamov A.E., Fayzullayev SH.R. “Ipak ishlab chikarish texnologiyasi”, Toshkent-2018 y.
- [5]. Бурнашев И.З., Алимова Х.А., Жерницин Ю.Л. Методика определения оптимальной скорости размотки коконов на механическом кокономотальном оборудовании // Ж. Шелк. –1996. -№2.
- [6]. Алимова Х.А. Разработка способов повышения качества и перерабатывающей способности шелка-сырца автоматического кокономотания. Дисс... канд. техн. наук. -Т. -1983.
- [7]. Бастамкулова Х.Д. Особенности структуры шелковых комплексных нитей и влияние крутки на их свойства. Дисс... доктора философии (PhD) -Т. -2020.
- [8]. Raxmonberdiyeva M.K. va boshqalar “Xom ipakning sifat ko‘rsatkichlarini yaxshilash to‘g‘risida” Ipak №1-2. 1993 yil.
- [9]. A.E.Gulamov., U.B.Umirov., N.B.Esanova. “ Tut ipak qurtini yetishtirishda samarali texnologiyalarni qo‘llash” TTYESI Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami. Toshkent-2022yil 18-19 may 261-263 betlar
- [10]. Алимова Х.А., Кобулова Н., Гуламов А.Э. Основы производства высококачественного шелка-сырца из живых коконов // «Проблемы текстиля» научно-технический журнал. -Ташкент. -2006. -№2. -С.62-64.
- [11]. Alimova X.A., Gulamov A.E., Aripdjanova D.U., Axmedov J.A. Мировое производство и потребление текстильного сырья // J. Композиционные материалы. -2013. -№4. -С. 71-74.
- [12]. Bobatov U.A. Turli ekologik hududlarda yetishtiriladigan pillalarni chuvish texnologiyasini takomillashtirish Diss. PhD. -Toshkent. TTYSI. 2023. –B. 102.
- [13]. A.Gulamov, B.Mardonov, J.Axmedov. Pilla yuzasidan ip ajralish jarayonida suvli muhitdagi pilla harakatining tadqiqi. «To‘qimachilik muammolari» ilmiy-texnikaviy jurnali. -Toshkent. -2017. -№3. 88-94 b.
- [14]. Chen, S., Liu, M., Huang, H., Cheng, L., Zhao, H.-P. Mechanical properties of Bombyx mori silkworm silk fibre and its corresponding silk fibroin filament: A comparative study / Materials and Design 2019 u. 181,108077
- [15]. Xom ipak uchun O‘zbekiston Respublikasi davlat standarti O‘zDSt 3313:2018

VIBRATIONS HARAKAT MECHANISMINING KINEMATIK ANALYSIS

A.H. Umurzaqov¹, K.R. Oqyo‘lov²

¹Namangan davlat texnika universiteti,

²Farg‘ona shahar 4-son texnikumi, Oqyolov93@inbox.ru
(Qabul qilindi 20.04.2026 y.)

Mazkur maqolada kartoshka tuganaklarini saralash uchun ishlab chiqilgan mashinaning Vibrations harakat mexanizmining kinematik tahlili keltirilgan. Kartoshka saralash mashinasida vibrations harakatni vujudga keltiruvchi eksentrikalar, ularning tezlik va tezlanishlarini grafiklari bayon qilingan.

Tayanch so‘zlar: saralash, vibrations, ishchi yuza, tezlik, tezlanish, yo‘l, burchakli tezlik, burchakli tezlanish, shatun.

В данной статье представлен кинематический анализ механизма вибрационного движения машины, разработанной для сортировки клубней картофеля. В машине для сортировки картофеля описаны эксцентрики, создающие вибрационное движение, а также приведены графики их скоростей и ускорений.

Ключевые слова: сортировка, вибрация, рабочая поверхность, скорость, ускорение, перемещение, угловая скорость, угловое ускорение, шатун.

Ko‘plab taniqli olimlar vibrations kartoshka saralash mashinasi ishchi yuzasining parametrlarini asoslash uchun nazariy va eksperimental tadqiqotlar o‘tkazdilar: I.F.Goncharevich, Ya.G.Panovko, I.I.Blexman, B.A.Berg, M.N.Letoshnev, L.B.Levinson, T.D.Petrov, A.A.Sorokin, T.D.Terskov va boshqalar [1; 15-b, 2; 44-b.].

Vibrations kartoshka saralash mashinasida nazariy va eksperimental tadqiqotlar o‘tkaziladi. Tadqiqot natijalari bir birlari bilan solishtiriladi. Mashina saralash unumdorligi, aniqligi, tezligi yuqori va tuganaklarning shikastlanish darajasi past bo‘lishligi bir qancha omillarga bog‘liq bo‘ladi. Bu turdagi ko‘rsatkichlarni yaxshilash uchun saralash ishchi yuzasiga qaysi turdagi va yo‘nalishdagi vibrations harakat berish va o‘z navbatida vibrations parametrlarini optimal qiymatlarini aniqlash zarur bo‘ladi [3].


Vibrations kartoshka saralash mashinasi ishchi yuzasining parametrlari saralangan tuganaklarning ishchi yuzadan o‘tkazilishini va saralanmay qolgan tuganaklarning ishchi yuza bo‘ylab harakatlanishini ta‘minlaydigan shartlar tanlanishi kerak.

Vibratsion harakat parametrlariga tezliklar va tezlanishlar, chastota, faza va amplitudalar kiradi [4; 147-b.]

Yetaklanuvchi valga ikkita eksentrik kulachoklar shunday joylashtirilganki, ularning bir biriga nisbatan fazalar farqi π ga teng, bir xil chastotada va turli amplitudada harakatlanadi hamda ikkala ishchi yuza tezliklari ham turlicha bo'ladi. Bunday mexanizm konstruksiyasi bilan yuqorida tanishib chiqildi.

$O_1C_1 = e_1$, $O_2C_2 = e_2$ – eksentrisitetlar; N_1 va N_2 – eksentrik kulachok va ishchi yuza tezlikari nuqtasi;

ω -burchakli tezlik; V_1, V_2 – N_1 va N_2 nuqtalarning absolyut tezliklari; α – O_1N_1 va O_1C_1 orasidagi burchak. Ushbu nuqtadagi ilgarilanma harakat qilayotgan tezliklar turtgichlar orqali har ikkovi ishchi yuzaga uzatadi va parallel chiviqlar shu tezlik bilan harakatlanadi.



1-rasm. Eksentrik kulachoklarni birinchi holatda ishchi yuzaga uzatilishi.

$$V_{e_1} = O_1 N_1 \cdot \dot{\varphi} = l_1 \cdot \dot{\varphi}. \quad (1)$$

$$V_{e_2} = O_2 N_2 \cdot \dot{\varphi} = l_2 \cdot \dot{\varphi}. \quad (2)$$

$$V_{\tau_1} = V_{e_1} \cdot \sin \alpha. \quad (3)$$


$$V_{\tau_2} = V_{e_2} \cdot \sin \alpha \quad (4)$$

$O_1N_1=l_1$ va $O_2N_2=l_2$ ga teng deb belgilash kiritiladi, hamda N_1 va N_2 nuqtalarning absolyut tezliklarini parallelogramm qoidasi asosida aniqlanadi va u quyidagicha topiladi:

$$V_1 = \sqrt{V_{e_1}^2 + V_{\tau_1}^2 + 2V_{\tau_1} V_{e_1} \cos \alpha}. \quad (5)$$

$$V_2 = \sqrt{V_{e_2}^2 + V_{\tau_2}^2 + 2V_{\tau_2} V_{e_2} \cos \alpha}. \quad (6)$$

Vibratsion harakat hodisalarining mohiyatini ko'rish va ularning texnik ilovalarini qisqacha tavsiflash uchun biz ba'zi oddiy masalalarni sifat jixatdan boshqa tomondan vibratsion harakat kinematikasini o'rganishga to'xtalamiz.



2-rasm. Krivoship-polzun mexanizmining kinematik sxemasi.

To'rt bo'g'inli krivoship shatun mexanizmi texnikada ko'p qo'llaniladi, ushbu mexanizmning harakatlanish kinematikasi o'rganildi. Chunki, biz tavsiya etgan eksentrik vubratsion mashinamizning vibro qurilmasi ushbu mexanizm ishlash prinsipi bilan bir xil (2-rasm).

To'rt bo'g'inli sharnirli mexanizm uchun soat strelkasi bo'ylab OO_1N_1CO kontur sxemasi quriladi. Bo'g'inlarning tezlik va tezlanishlarini topish uchun OO_1N_1CO kontur

vektorlarini yig'indisi aniqlanadi [5; 122-b.].

$$a + l_2 + l_3 = x_c \quad (7)$$

Ox va Oy o'qi vektor tenglamalarini tuziladi

$$\begin{cases} l_2 \cos \varphi_2 + l_3 \cos \varphi_3 = x_c \\ a + l_2 \sin \varphi_2 + l_3 \sin \varphi_3 = 0 \end{cases} \quad (8)$$

(8) dagi ikkinchi tenglamani matematik almashtirishlar olib borilsa quyidagi holatga keladi:

$$\sin \varphi_3 = -\frac{a + l_2 \sin \varphi_2}{l_3} \quad (9)$$

Burchakli tezlik va burchakli tezlanish tenglamalarini topish uchun (9) ifodadan φ_2 bo'yicha ikki marta differensial tenglama olinadi. Burchakli tezlik (ω_3)ni topish uchun shatun 3 dan va tezlik v_c ni topish uchun polzun 4 dan foydalaniladi [5; 123-b.].

$$-l_2 \sin \varphi_2 + e_{32} l_3 \sin \varphi_3 = v_{c_\varphi}, \quad l_2 \cos \varphi_2 + e_{32} l_3 \cos \varphi_3 = 0, \quad (10)$$

bunda $e_{32} = d\varphi_3/d\varphi_2$ va $v_{c_\varphi} = dx_c/d\varphi_2$ – tezlik analog bog'lanishlari.

(10) ifodalarni matematik almashtirishlardan so'ng burchakli tezlanish (e_{32}) va tezlik (v_{c_φ}) quyidagicha bo'ladi:

$$e_{32} = -\frac{l_2 \cos \varphi_2}{l_3 \cos \varphi_3}, \quad \text{va} \quad v_{c_\varphi} = l_2 \frac{\sin(\varphi_3 - \varphi_2)}{\cos \varphi_3} \quad (11)$$

Burchakli tezlanish (e'_{32}) analogini topish uchun shatun 3 dan va polzun 4 ning tezlanish (a_{c_φ})ni topish uchun φ_2 dan differensial tenglama olinadi [5; 123-b.].

$$\begin{cases} -l_2 \cos \varphi_2 - e_{32}^2 l_3 \cos \varphi_3 - e'_{32} l_3 \sin \varphi_3 = a_{c_\varphi} \\ -l_2 \sin \varphi_2 + e_{32}^2 l_3 \sin \varphi_3 + e'_{32} l_3 \cos \varphi_3 = 0 \end{cases} \quad (12)$$

bunda $e'_{32} = de_{32}/d\varphi_2$ va $a_{c_\varphi} = dv_{c_\varphi}/d\varphi_2$ – tezlik analogi.

(12) ifodadagi ikkinchi tenglamadan burchakli tezlanish analogini aniqlaymiz.

$$e'_{32} = \frac{l_2 \sin \varphi_2 + e_{32}^2 l_3 \sin \varphi_3}{l_3 \cos \varphi_3} \quad (13)$$

Tezliklar v_c , ω_3 va tezlanishlar a_c , ε_3 ni aniqlaymiz.

$$v_c = \omega_2 v_{c_\varphi}, \quad \omega_3 = \omega_2 e_{32}, \quad a_c = \omega_2^2 a_{c_\varphi} + \varepsilon_2 v_{c_\varphi}, \quad \varepsilon_3 = \omega_2^2 e'_{32} + \varepsilon_2 e_{32},$$

bunda ω_2 va ε_2 – ikkinchi bo'g'inining burchakli tezlik va tezlanishlari.

Agar Ax yo'naltiruvchi polzun A nuqtadan o'tsa, (10) tenglamadagi a nolga teng bo'ladi va (11) ifoda quyidagi holatga keladi:

$$\sin \varphi_3 = -\frac{l_2}{l_3} \sin \varphi_2 \quad (14)$$

Agar (10), (11), (12), (13) va (14) ifodalarni bir-birlariga matematik almashtirishlarni amalga oshirib, $x(t)$ harakat tenglamasi aniqlandi [5; 123-b.]. Bunda eksentrik mexanizmining eksentrisiteti (r) shatun 2 ning uzunligi (l_3)ga teng.

$$x(t) = (l + r) - l \left[\frac{r}{l} \cos \varphi(t) + \sqrt{1 - \left(\frac{r}{l} \right)^2 \sin^2 \varphi(t)} \right] \quad (15)$$

bunda $\varphi(t) = \omega t$ ekanligini inobatga olish zarur.

(2.16) ifodani matematik soddalashtirishlardan so‘ng quyidagicha bo‘ladi:


$$x(t) = (l + r) - r \cos \omega t - \sqrt{l^2 - r^2 \sin^2 \omega t}. \quad (16)$$

Eksentrik mexanizmi turtgichlarining ya’ni ishchi yuzaning harakatlanish $x(t)$ qonuni tuzildi va uning grafigi Maple 2007 dasturi yordamida qurildi (3-rasm).


(16) differentsial tenglamani vaqt bo‘yicha olingan xosilasi tezlikga teng ekanligi adabiyotlardan ma’lum. Shu boisdan, ushbu harakatlanish qonunidan vaqtga bog‘liq holda differentsial tenglama olinadi.

$$v(t) = \frac{dx(t)}{dt} = r \omega \sin \omega t + \frac{r^2 \omega \sin 2 \omega t}{2 \sqrt{l^2 - r^2 \sin^2 \omega t}}. \quad (17)$$

(17) differentsial tenglamani vaqt bo‘yicha olingan xosilasi tezlanishga teng ekanligi adabiyotlardan ma’lum. Shu boisdan, ushbu harakatlanish qonunidan vaqtga bog‘liq holda differentsial tenglama quyida olindi.



a). 1) amplituda $A=3$ mm, 2) amplituda $A=4$ mm, 3) amplitudasi $A=5$ mm.




b). 1) chastota $v=9$ Hz, 2) chastota $v=12$ Hz, 3) chastota $v=15$ Hz, 3-rasm. Ishchi yuza tezliklarining vaqtga bog‘liqligi.

$$a(t) = r\omega^2 \cos \omega t + r^2 \omega^2 \cdot \frac{4l^2 \cos 2\omega t + r^2 \sin^2 2\omega t - 4r^2 \sin^2 2\omega t \cdot \cos 2\omega t}{4\sqrt{(l^2 - r^2 \sin^2 \omega t) \cdot (l^2 - r^2 \sin^2 \omega t)}}.$$


(18)

(18) ifodaga boshlang'ich shartlar kiritilgan holda uning taqribiy tezliklari aniqlanadi va grafiklari quriladi. Bunda vibratsion harakat amplitudasi $A=2r$ ekanligini e'tiborga olishlik zarur. Tadqiqotlarning nazariy natijalari va parametrlarning mavjud qiymatlariga tayanib (18) ifodaning sonli yechimini amalga oshirildi. Parametrlarning quyidagi qiymatlarini qabul qilib olindi: $V_{k0}=0$; $t=1s$; $A=3...5\text{ mm}$; $l=90\text{ mm}$.

Vibratsion harakat amplitudasi, chastotasi va qiyalik burchagi turlicha bo'lgan bir dona kartoshka tuganagini ishchi yuza ustida harakatlanayotganini o'rganildi hamda uning harakatlanish trayektoriyalari grafigi qurildi (4-rasm).



a). 1) amplituda $A=3\text{ mm}$, 2) amplituda $A=4\text{ mm}$, 3) amplitudasi $A=5\text{ mm}$.



b). 1) chastota $v=9\text{ Hz}$, 2) chastota $v=12\text{ Hz}$, 3) chastota $v=15\text{ Hz}$,
4-rasm. Ishchi yuza tezliklarining vaqtga bog'liqligi.

Demak, 4-rasm a) da vibratsiya chastotasi o'zgarmas bo'lsa, amplitudasi $A=3\text{ mm}$ bo'lganda ishchi yuza tezligi $v=0,08\text{ m/s}$ ga teng bo'lmoqda, amplitudasi $A=4\text{ mm}$ bo'lganda ishchi yuza tezligi $v=0,11\text{ m/s}$ ga teng bo'lmoqda va amplitudasi $A=5\text{ mm}$ bo'lganda ishchi yuza tezligi $v=0,14\text{ m/s}$ ga teng bo'lmoqda. 4-rasm b) da esa vibratsiya amplitudasi o'zgarmas bo'lsa, chastotasi $v=9\text{ Hz}$ bo'lganda ishchi yuza tezligi $v=0,08\text{ m/s}$ ga teng bo'lmoqda, chastotasi $v=12\text{ Hz}$ bo'lganda ishchi yuza tezligi $v=0,085\text{ m/s}$ ga teng bo'lmoqda va chastotasi $v=15\text{ Hz}$ bo'lganda ishchi yuza tezligi $v=0,145\text{ m/s}$ ga teng bo'lmoqda. Ushbu aniqlangan tezliklar qiymatini vibratsiya amplitudasi va

chastotasini optimal qiymatini aniqlanishiga qarab olinadi.

N.V.Zavodnov tomonidan kartoshka tuganaklarining shikastlanmasligi uchun zarur bo'lgan ko'rsatkichlar aniqlangan. Hisoblashlar shuni ko'rsatganki, tuganaklarning o'zaro to'qnashishidagi tezliklari 0,3 m/s gacha bo'lganda, tuganaklar ishchi yuzalarning qattiq sirti bilan to'qnashishidagi tezliklari esa 0,23 m/s gacha bo'lganda tuganaklar shikastlanmaydi [6; 14-b.].

Xulosa. Taklif etilgan kartoshka saralash mashinasi ishchi yuzasini gorizontga nisbatan $\alpha=7^\circ$ burchak ostida o'rnatish maqsadga muvofiq bo'ladi, chunki, bu burchakdan kam bo'lsa saralash sekinlashib ketadi, agar katta bo'lib ketsa saralash aniqligi kamayib ketadi.

Saralash aniqligi va tezligiga vibratsiyaning parametrlari ham katta ro'l o'ynaydi. Ushbu tadqiqotlarda uning optimal qiymatini ham aniqlandi. Ishchi yuzaga titrama harakat berayotgan vibratsion harakat chastotasi $\nu = 12$ Hz oralig'ida bo'lishligi ma'lum bo'ladi.

Vibratsiyaning amplitudasini to'g'ri tanlash kartoshka tuganaklarini shikastlanish darajasiga katta ta'sir ko'rsatadi, uning qiymatini me'yordan ortishi tuganaklar chivichlar orasiga qisilib qolishiga, kamayishi esa jarayon sekinlashishiga sabab bo'ladi. Tadqiqot natijalariga ko'ra vibratsion harakat amplitudasi $A=4$ mm ekanligi aniqlandi.

Vibratsiya amplitudasi $A=4$ mm, chastotasi $\nu = 12$ Hz bo'lganda ishchi yuzada harakatlanayotgan kartoshka tuganaklarining tezligi $V_k=0,11$ m/s gacha chiqishini aniqlandi va taklif etilgan vibratsion kartoshka saralash mashinasiga quvvati $N=1,5$ kW bo'lgan elektrodvigateldan foydalanish maqsadga muvofiq.

Adabiyotlar.

- [1]. В.С. Юрасов «Разработка и обоснование параметров барабанной картофелесортировки. Автореф. дис. ... канд. техн. наук. – Ижжний Новгород, 2004. – 19 с. <http://www.dslib.net/selxoz-mashyny/razrabotka-i-obosnovanie-parametrov-barabannoj-kartofelesortirovki.html>
- [2]. Суховский Н.М. Повышение эффективности разделения картофеля на фракции путем оптимизации параметров и режимов работы грохотной сортировки. Дис. ...канд. тех. наук. – Санкт-Петербург, 2003. – 156 с.
- [3]. Oqyo'lov K.R. "Kartoshka saralash mashinasida vibratsion harakat olishning samarali usulini va unga xos mexanizm konstruksiyasini ishlab chiqish". T.f.f.d. diss. –Namangan, 2025. -114 b.
- [4]. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Birinchi jild "V" harfi. Toshkent, 2000-yil.
- [5]. Артоболевский И.И. Теория механизмов и машин. –М.: Наука, 1988. -640 с.
- [6]. Иванов М.Н. Детали машин. – Москва: "Высшая школа", 2000. – 384 с.

**DETTALLARNI YEYILISHGA SINASHDA O'TKAZILGAN KO'P OMILLI
EKSPERIMENTAL TADQIQOTLARNING NATIJALARI**

A.M. Umarov

Andijon davlat texnika instituti
E-mail: abdurahimumarov27@gmail.com
(Qabul qilindi 20.04.2026 y.)

Annotatsiya. Detallarning nazariy va bir omilli eksperimentlarda o'rganilgan yeyilish miqdorlarining maqbul qiymatlarini aniqlash uchun ko'p omilli eksperimentlar o'tkazildi. Baholash me'zonlariga omillarning ta'sirini o'rganishda birinchi darajali polinom mos keladi deb qaralib, tadqiqotlar to'la faktorli eksperiment-2³ rejasi bo'yicha olib borildi.

Kalit so'zlar: Chiquvchi omil, kiruvchi omil, qattiqlik, tajriba, detal.

KIRISH. Detallarning nazariy va bir omilli eksperimentlarda o'rganilgan yeyilish miqdorlarining maqbul qiymatlarini aniqlash uchun ko'p omilli eksperimentlar o'tkazildi. Baholash me'zonlariga omillarning ta'sirini o'rganishda birinchi darajali polinom mos keladi deb qaralib, tadqiqotlar to'la faktorli eksperiment-2³ rejasi bo'yicha olib borildi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Eksperimental tadqiqotlarni o'tkazishda chiquvchi omil sifatida qayta tiklangan detallarining yeyilish miqdori, chiquvchi omilga ta'sir etuvchi kiruvchi omillar sifatida detalga eritib qoplangan qatlamning qattiqligi, namunalarning bir biriga nisbatan ilgarilanma-qaytma xarakat tezligi hamda bosim kuchi olindi. Ular quyidagicha shartli belgilab olindi X_1 -Bosim kuchi; X_2 -ilgarilanma-qaytma xarakat tezligi; X_3 -Payvand qatlamning qattiqligi.

Omillarning sathlari va variatsiya (o'zgarish) oralig'i belgilab olindi (1-jadval).

NATIJALAR. Qayta tiklangan detallarni ko'p omilli tajribalar asosida payvandlangan qoplama qattiqligi, namunalarning ilgarilanma-qaytma harakat tezligi va bosim kuchining yeyilish miqdoriga bog'liqligi o'rganildi. Kiruvchi omillarning o'zaro ta'siri va chiquvchi omillarning tajribaviy natijalarini hisobga olgan holda rejalashtirish matritsasi 2-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Omillarning belgilanishi, sathlari va o'zgarish oralig'lari

Omillarning nomlanishi	O'lchov birligi	Omillar-ning belgilanishi	Variatsiya oralig'i	Omillarning sathlari		
				quyi (-1)	asosiy (0)	yuqori (+1)
Bosim kuchi	kg	X_1	1	0.5	1.5	2.5
Ilgarilanma qaytma xarakat tezligi	Marta/mi nut	X_2	6	60	80	100
Payvand qatlamning qattiqligi	HRC	X_3	15	22	37	52

Tajribalardan olingan ma'lumotlarga "Statistika" - eksperimentlar va statistik ma'lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilish dasturiy ta'minotidan foydalangan holda ishlov berildi.

2-jadval

Tajribaviy natijalarni qayta ishlash uchun rejalashtirish matritsasi

№	Kiruvchi faktorlar			Chiquvchi parametrlari				S_u^2
	x_1	x_2	x_3	y_{u_1}	y_{u_2}	y_{u_3}	y_u	
1	-	-	-				1,14	
2	+	-	-				1,41	
3	-	+	-				1,22	
4	+	+	-				1,49	
5	-	-	+				0,25	
6	+	-	+				0,33	
7	-	+	+				0,28	
8	+	+	+				0,36	

Bunda regression tahlillarning adekvatligini baxolashda Fisherning F-mezoni, regressiya tenglamasi koeffitsientlarini ahamiyatligini baholashda Styudentning t-mezoni, dispersiyaning bir xilligini baholashda Koxren mezonlaridan foydalanildi.

Tajriba natijalarini kayta ishlashda har bir satr uchun o'rta qiymat va dispersiyalar hisoblandi:

$$\bar{y}_u = \frac{\bar{y}_{u_1} + \bar{y}_{u_2} + \bar{y}_{u_3}}{3} \quad (1)$$

Xisoblashlardan kelib chikib, regressiya tenglamasi quyidagicha ko'rinishda buladi:

$$Y = b_0 + b_1 x_1 + b_2 x_2 + b_3 x_3 + b_{12} x_1 x_2 + b_{13} x_1 x_3 + b_{23} x_2 x_3 + b_{123} x_1 x_2 x_3 \quad (2)$$

bunda Y -chiquvchi omil (yeyilish miqdori);

b_0 -ozod xad;

b_1, b_2, b_3 -chiziqli xadlar koefitsientlari;

$b_{12}, b_{13}, b_{23}, b_{123}$ -chiziqsiz xadlar koefitsientlari; $x_1 x_2 x_3$ - omillarning kodlangan qiymatlari.

Modelning ozod xadini va chiziqli xadlarining koefitsientlarini aniqlaymiz:

$$b_0 = \frac{1}{N} \sum_{u=1}^N y_u = \frac{\bar{y}_1 + \bar{y}_2 + \bar{y}_3 + \dots + \bar{y}_N}{N} \quad (3)$$

$$b_i = \frac{1}{N} \sum_{u=1}^N X_{iu} \bar{y}_u = \frac{X_{i1} \bar{y}_1 + X_{i2} \bar{y}_2 + X_{i3} \bar{y}_3 + \dots + X_{iN} \bar{y}_N}{N} \quad (4)$$

Chiziqsiz xadlar koefitsientlarini aniqlaymiz:

$$b_{ij} = \frac{1}{N} \sum_{u=1}^N X_{iu} X_{ju} \bar{y}_u = \frac{X_{i1} X_{j1} \bar{y}_1 + X_{i2} X_{j2} \bar{y}_2 + X_{i3} X_{j3} \bar{y}_3 + \dots + X_{iN} X_{jN} \bar{y}_N}{N} \quad (5)$$

(3.6) ifoda asosida ikkinchi darajali xadlarning koefitsientlarini aniqlaymiz:

Uchinchi darajali xadning koefitsienti quyidagi formula asosida xisoblandi:

$$b_{ijl} = \frac{1}{N} \sum_{u=1}^N X_{iu} X_{ju} X_{lu} \bar{y}_u = \frac{X_{i1} X_{j1} X_{l1} \bar{y}_1 + X_{i2} X_{j2} X_{l2} \bar{y}_2 + \dots + X_{iN} X_{jN} X_{lN} \bar{y}_N}{N} \quad (6)$$

Ma'lum mezondagi regressiya tenglamalaridan quyidagi ko'phad olindi.


$$Y = 0,844 + 0,043x_1 - 0,008x_2 - 0,481x_3 - 0,013x_1^2 - 0,051x_1x_2 - 0,04x_1x_3 - 0,019x_1^2 + 0,003x_2x_3 - 0,032x_3^2 \quad (7)$$

Tadqiqot natijalarini yanada oydinlashtirish maqsadida tenglama EHM ning Exsel dasturida yechilib, parametrlarning bog'liqlik grafiklari olindi.

Diagrammadagi birinchi grafik $X_2=100$ ilgarilanma qaytma, $X_3=22$ HRC bo'lganida qulf detali yeyilish darajasi aniqlandi. Bunga ko'ra, bosim kuchi $X_1=0.5$ kg bo'lganda yeyilish miqdori 0,246 g, bosim kuchi $X_1=1.5$ kg bo'lganda yeyilish miqdori 0,307 g, bosim kuchi $X_1=2.5$ kg bo'lganda chiziqli yeyilish miqdori eng yuqori 0,338 g gacha yeyilishini ko'rish mumkin.

Ikkinchi grafik $X_2=100$ ilgarilanma qaytma, $X_3=37$ HRC bo'lganida qulf detalining yeyilish darajasi aniqlandi. Bunga ko'ra, bosim kuchi $X_1=0.5$ kg bo'lganda yeyilish miqdori 0,776 g, bosim kuchi $X_1=1.5$ kg bo'lganda yeyilish miqdori 0,818 g, bosim kuchi $X_1=2.5$ kg bo'lganda chiziqli yeyilish miqdori eng yuqori 0,824 g gacha yeyilishini ko'rish mumkin.

Uchinchi grafik grafik $X_2=100$ ilgarilanma qaytma, $X_3=52$ HRC bo'lganida, qulf detalining yeyilish darajasi aniqlandi. Bunga ko'ra, bosim kuchi $X_1=0.5$ kg bo'lganda yeyilish miqdori 1,218 gr, bosim kuchi $X_1=1.5$ kg bo'lganda yeyilish miqdori 1,263 gr, bosim kuchi $X_1=2.5$ kg bo'lganda chiziqli yeyilish miqdori eng yuqori 1,282 gr gacha yeyilishini ko'rish mumkin (1-rasm.).




1-rasm. Eritib qoplangan qatlamning qattiqligi (HRA) ga bog'liq holda yeyilish ko'rsatkichi (y) ning o'zgarish grafigi.


Diagrammadagi birinchi grafik $X_1=0.5$ kg, $X_2=60$ ilgarilanma qaytma, $X_3=52$ bo'lganida qulf detalining yeyilish miqdori 0.25 gr, $X_2=80$ ilgarilanma qaytma bo'lganida qulf detalining yeyilish miqdori 0.315 gr, $X_2=100$ ilgarilanma qaytma, bo'lganida qulf detalining chiziqli yeyilish miqdori 0.342 gr ga ortganligini ko'rish mumkin.

Diagrammadagi ikkinchi grafik $X_1=1.5$ kg, $X_2=60$ ilgarilanma qaytma, $X_3=52$ bo'lganida qulf detalining yeyilish miqdori 0.726 g, $X_2=80$ ilgarilanma qaytma bo'lganida qulf detalining yeyilish miqdori 0.788 g, $X_2=100$ ilgarilanma qaytma, bo'lganida qulf detalining chiziqli yeyilish miqdori 0.812 g ga ortganligini ko'rish mumkin[1].

Diagrammadagi uchinchi grafik $X_1=2.5$ kg, $X_2=60$ ilgarilanma qaytma, $X_3=52$ bo'lganida qulf detalining yeyilish miqdori 1.138 g, $X_2=80$ ilgarilanma qaytma bo'lganida qulf detalining yeyilish miqdori 1.197 g, $X_2=100$ ilgarilanma qaytma, bo'lganida qulf detalining chiziqli yeyilish miqdori 1.218 g ga ortganligini ko'rish mumkin (2-rasm).



2-rasm. Eritib qoplangan qatlamning aylanishlar soni (n) ga bog'liq holda yeyilish ko'rsatkichi (y) ning o'zgarish grafigi.



3-rasm. Eritib qoplangan qatlamning bosim kuchi (R) ga bog'liq holda yeyilish ko'rsatkichi (y) ning o'zgarish grafigi.


3-rasmda eritib qoplangan qatlamning bosim kuchi (R) ga bog'liq holda yeyilish ko'rsatkichi (y) ning o'zgarish grafigi keltirilgan. Unga ko'ra X_3 ning quyi, oraliq va yuqori qiymatlariga mos grafiklar qurilgan.

MUHOKAMA. Diagrammadagi birinchi grafik $X_1=0.5$ kg, $X_2=100$ ilgarilanma-qaytma harakat bo'lganida qulf detalining yeyilish darajasi aniqlandi. Bunga ko'ra, eritib qoplangan qatlam qattiqligi $X_3=22$ bo'lganda yeyilish miqdori 1,218 gr, eritib qoplangan qatlam qattiqligi $X_3=37$ bo'lganda chiziqli yeyilish miqdori 0,759 g, eritib qoplangan qatlam qattiqligi $X_1=52$ bo'lganda chiziqli yeyilish miqdori eng past 0,342 g ga tushganligini ko'rish mumkin.

Diagrammadagi ikkinchi grafik $X_1=1.5$ kg, $X_2=100$ ilgarilanma-qaytma harakat bo'lganida qulf detalining yeyilish darajasi aniqlandi. Bunga ko'ra eritib qoplangan qatlam qattiqligi $X_3=22$ bo'lganda yeyilish miqdori 1,263 gr, eritib qoplangan qatlam qattiqligi $X_3=37$ bo'lganda yeyilish miqdori 0,811 gr, eritib qoplangan qatlam qattiqligi $X_1=52$ bo'lganda yeyilish miqdori eng past 0,377 gr ga tushganligini ko'rish mumkin.

Diagrammadagi uchunchi grafik $X_1=2.5$ kg, $X_2=100$ ilgarilanma-qaytma harakat bo'lganida qulf detalining yeyilish darajasi aniqlandi. Bunga ko'ra eritib qoplangan qatlam qattiqligi $X_3=22$ bo'lganda yeyilish miqdori 1,322 gr, eritib qoplangan qatlam qattiqligi $X_3=37$ bo'lganda yeyilish miqdori 0,853 gr, eritib qoplangan qatlam qattiqligi $X_1=52$ bo'lganda yeyilish miqdori eng past 0,3431 gr ga tushganligini ko'rish mumkin[2].

Olingan regressiya tenglamalari natijalarini umumiyashtirish maqsadida tenglama omillarining bog'liqlik grafiklari tuzildi (4-rasm.).



4-rasm. Namunaga ta'sir etuvchi kuchlarga materialning qattiqligi (1), ishqalanish tezligi (2), va bosim kuchi (3) ga bog'liq holda yeyilish miqdorining o'zgarish grafigi.

XULOSA. Qayta tiklangan detallarni ko'p omilli tajribalar asosida payvandlangan qoplama qattiqligi, namunalarning ilgarilanma-qaytma harakat tezligi va bosim kuchining yeyilish miqdoriga bog'liqligi o'rganildi. Kiruvchi omillarning o'zaro ta'siri va chiquvchi omillarning tajribaviy natijalarini bo'yicha o'tkazilgan ko'p omilli tadqiqotlar natijalari ko'rsatdiki, olingan payvand qatlamning yeyilish tezligiga bosim kuchi va ishqalanish tezligi ortib boruvchi, payvand qatlamning qattiqligi esa kamayib boruvchi qonuniyat asosida ta'sir etadi.

Adabiyotlar

- [1]. A.M. Umarov, Mo'yidinov A.Sh. Результаты испытаний наплавленных образцов на контактный износ плоских деталей автосцепки вагонов // Universum: Технические науки Выпуск: 10(115) Oktabr 2023. Chast 2, Moskva 2023. – S. 26-29.
- [2]. I.K. Poxodnya. Металлургия дуговой сварки. Протессы в дуге и плавление электродов – Киев: Наукова думка, 1990. – 223 с.
- [3]. Umarov, A., Qosimov, K., & Isaboyev, T. (2023). Payvandlab qoplangan detallarning yeyilishga sinash natijalari. Академические исследования в современной науке, 2(21), 10-12
- [4]. Qosimov, K. Z., Umarov, A. M. O. G. L., & Raxmonov, M. R. O. (2023). Legirlovchi elementlarning payvand chok strukturasiga ta'siri. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(4-2), 560-566
- [5]. Умарова, Ш. О., & Жураев, А. И. (2023). Выбор электродов для сварки теплоустойчивых, высоколегированных сталей и цветных металлов. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(6), 624-634.
- [6]. A.M. Умаров, Мўйдинов А.Ш. Результаты испытаний наплавленных образцов на контактный износ плоских деталей автосцепки вагонов // Универсум: Технические науки Выпуск: 10(115) Октябрь 2023. Част 2, Москва 2023. – С. 26-29.
- [7]. Umarov, A., Qosimov, K., & Isaboyev, T. (2023). Payvandlab qoplangan detallarning yeyilishga sinash natijalari. Академические исследования в современной науке, 2(21), 10-12.

**ВАКУУМ-СУБЛИМАЦИОН ҚУРИТИШ ҚУРИЛМАСИ КОНСТРУКЦИЯСИНИ
ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ВА ЖАРАЁН ДАВОМИЙЛИГИ ИНТЕНСИВЛИГИНИ
ОШИРИШ**

Ф. Абдуллаева¹, Б. Хайитов¹, М. Мелибоев¹, Н. Ражабова²

¹Наманган давлат техника университети,

²Фаргона давлат техника университети

[\(Qabul qilindi 20.04.2026 y.\)](#)

Аннотация: Ушбу мақолада мева-сабзавотларни қуритиш учун иссиқлик агенти ва муз кристал заррачали ҳосил қилувчи сув ва Фреон суюқлик эритмасини камера ичига жойлаштирилган қувурларда ҳаракатланиш орқали иситувчи ва музлатиш жараён давомийлигини жадаллаштириш учун поддон юзасини тўлиқ қувурлани жиг зак шаклда эмас тўртбурчак шаклида ҳаракатини таъминлаш учун суюқлик юзасини ошириш визуал кузатилди, Натижалар шуни кўрсатадики, иситувчи поддонлар юзасини ошириш орқали энергия сарфини 25–30% гача камайтиради ва қуритиш даври давомийлигини ўртача 1-2 соатгача музлатиш ва 3-4 соатгача конденсат ҳосил бўлишини жадаллаштиришга эришилди.

Калит сўзлар: Quritish texnologiyasi, energiya tejamkorlik, issiqlik almashinuvi, massa almashinuvi, kondensatsiyalanish, muzlatish, intensiv, parametr, poddon.

Кириш:

Озиқ-овқат маҳсулотларини мавсумий ва номавсумий даврларда сақлаш учун сифат кўрсаткичлари юқори истемолчилар эҳтиёжини узоқ ват мобайнида қондириш хусусиятига эга бўлган технологиялардан бир қуритиш энг қадимий ва самарали усуллардан биридир.

Мева-сабзавот маҳсулотларини етиштириш, сақлаш (мавсумий ва номавсумий), қайта ишлаш (қуритиш, экстракциялаш, шарбат олиш ва бошқа) ҳамда экспортбоб маҳсулот намуналари тайёрлаш бўйича Ўзбекистоннинг бугунги кунда нафақат минтақавий, балки глобал миқёсда юқори ресурс салоҳиятга эга эканлиги, мамлакатимизнинг оптимал табиий-иқлим шароитлари ва маҳаллий ишлаб чиқарувчиларнинг истиқболли технологик илмий-амалий бой тажрибаси билан бевосита боғлиқ.


Мева-сабзавот ва полиз маҳсулотларини етиштириш, сақлаш ва нес-нобуд қилмасдан комплекс қайта ишлаш билан бирга уларни йил давомида истеъмолбоп ҳолатда сақлаш муҳим аҳамият касб этадиган вазифалардан биридир. Мева ва сабзавотларни таркибидаги минерал ва витаминларни сақлаган ҳолда сақлашнинг асосий турларидан бири бу - қуритиш усулидир.

Республикамызда етиштирилаётган мева ва полиз маҳсулотларининг 100 дан ортиқ турлари мавжуд бўлиб, уларни қуритиш орқали критик кўрсаткичларига эришилгунгача турли фаол иссиқлик агентларини сорбциялаш муҳим аҳамиятга эга, бугунги озиқ-овқат саноати тармоқларида дастлабки хомашёларни сақлаш имконияти тўлалигича мавжуд эмас. Шу сабабдан, кўплаб етиштирилаётган полиз маҳсулотларидан – қовоқ ва тарвуз маҳсулотлари ўзининг тансиқлиги ва сақлаш имкониятини чегараланганлиги билан ажралиб турувчи деликатес хусусиятларини оптималлаштириш учун сублиматсион усулида қуритиш жараёнини амалга ошириш ва уни техник параметрларини таҳлил қилиш ушбу илмий ишдаги асосий вазифаларимиздан бири ҳисобланади [1; 2].

Тадқиқот объекти:

Тажриба учун қовоқ ва тарвуз хомашё намуналари танланган. Ушбу истеъмол эҳтиёжи ва озуқавий қиймати юқори деликатес хомашёлар таркибидаги дастлабки бошланғич (эркин ва боғланган) намлик 80–85% дан сўнгги сақланиш учун оптимал намлик 7–9% гача сақланиши таъминланган.

Ўлчанган параметрларга қуйидагилар киради: қуритиш даври давомийлиги, намлик (критик) миқдори, витаминларнинг сақланиш давомийлиги, энергия сарфи таққосланган.



1-расм: Такомиллаштирилган вакуум-сублимацион қуритиш қурилмаси принципл схемаси. 1-қуритиш камераси; 2-бошқарув панели; 3-компрессор; 4-музлаткич; 5-вакуум насос; 6-циркуляцион насос; 7-иситкич; 8-конденсатор (буғ фазаси ҳосил бўлиш жараёнида ҳосил бўлган намлик йиғиндиси); 9-вакуум манометр; 10-концентрат захира бочкаси; 11-камера қувурларига боғланган музлатиш линияси; 12-иссиқлик агенти ҳосил қилувчи қувурлар; 13- поддонлар (қуритувчи юзаси).

Қуйида 1-расмда инновацион такомиллаштирилган вакуум-сублимацион қуритиш қурилмасининг принципл технологик схемаси келтирилган.

Ушбу юқорида келтирилган такомиллаштирилган вакуум-сублимацион қуритиш қурилмаси ва технологик принципл схемаси (3.8-расм) ва усқунанинг техник кўрсаткичлари (3.1-жадвал) га биноан Наманган давлат техника университети тасарруфида фаолият юритаётган “ Nam innovatsion pro sub tech” МЧЖ да экспериментал техник ва технологик жихатдан яратилиб ишга туширилди ва республикаимизнинг озиқ-овқат саноати тармоқларидаги йирик ишлаб чиқариш корхоналарида ишлаб чиқаришга жорий қилинди. (1-расм)

Такомиллаштирилган вакуум-сублимацион қуритиш қурилмасининг ишлаш принципи:

1. Қуритиш камерасида 35⁰С дан 45⁰С гача бўлган ҳароратда қуритиш.
2. Маҳсулотни камерада сув иссиқлик агенти ўрнига камера поддонларида жойлашган фреон кизиши натижасида содир бўлган иссиқлик агенти ёрдамида хом ашё намуналарини иситиш орқали қуритилади.

Тадқиқот иши давомида, саноат миқёсида фойдаланиб келинаётган, шунингдек, Наманган муҳандислик-технология институти Озиқ-овқат технологияси кафедраси лабораториясида мавжуд вакуум-сублимацион қурилманинг энергия сарфи ва иш самарадорлиги ўрганилди ҳамда аниқланган камчиликлар асосида уни такомиллаштириш бўйича таклифлар ишлаб чиқилди. Тажрибавий вакуум-сублимацион қурилманинг техник ва конструктив кўрсаткичлари қуйида 1-жадвалда келтирилган.

1-жадвал


Қурилманинг техник ва конструктив кўрсаткичлари тавсифи

№	Қурилманинг техник ва конструктив кўрсаткичлари	
1	Қуритиш камерасининг ички диаметри ва узунлиги	500*800 мм
2	Қуритиш камераси тоқчасининг ўлчамлари	530*350*25 мм
3	Паднос ўлчамлари	525*345*20 мм
4	Паднослар сони	4 дона
5	Қуритиш майдони	0,7245 м2
6	Совитиш ҳарорати диапазони (хомашёлар шаклига қараб)	-20 ⁰ С-45 ⁰ С (4-5 соат)
7	Совитувчи агент	P404A фреон
8	Иситиш ҳарорати диапазони (хомашёлар шаклига қараб)	20-+70 ⁰ С
9	Қуритиш камераси девори қалинлиги	2 мм
10	Пўлат лист маркаси	Аиси 304
11	Қурилманинг ҳажми	157 литр
12	Қурилманинг электр энергия қуввати	380 кВт
13	Қурилманинг умумий оғирлиги	350 кг


Қурилма материаллини танлаш

Озиқ-овқат ва қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини вакуум сублиматсион усулда қурилганда, маҳсулотлар, аввал муз ҳолида бўлиб, сўнгра бу муз эримасдан, вакуум ёрдамида тўғридан-тўғри бугга айланади. Жараён давомида пайдо бўлган намлик коррозия ҳосил бўлишига олиб келади, шунинг учун қурилмани яратишда зангламайдиган пўлатдан фойдаланилади.


Натижалар шуни кўрсатадики, ИМСД усули энг самарали ҳисобланади — энергия сарфи 40% гача камаёди, витамин С эса 20–25% кўпроқ сақланади. Анъанавий конвектив қуриштиш 6 соат давом этган бўлса, ИМСД усулида бу вақт 3 соатгача қисқарган.



2-расм. Вакуум сублимацион қуриштиш камераси ташқи кўриниши.



3-расм. Қурилма поддонларининг олд ва ташқи юза кўриниши.



4-расм. Музлатиш ва иссиқлик агенти конструкцияси такомиллаштирилган қуриштиш қурилмаси поддони ишчи юза тасвири.

Таҳлил маълумотларидан кўринадики, фреон Р404А инсон организми учун хавфсиз, металлларни коррозиядан сақлаш хусусиятига эга, ёнғин ва портлаш хавфсизлиги талабларига жавоб беради, шунингдек, узок йиллар давомида самарали натижа берган. Шу сабабли ҳам, қурилманинг совитувчи агенти сифатида Р404А маркадаги фреон танлаб олинди.

Қурилманинг қуриштиш камерасининг конструктив ташқи кўриниши (2-расм).

Қурилма токчаларига ўлчам қўйишда, қуриштиш камерасининг диаметри ва узунлиги, шунингдек камера ичида тозалаш ва таъмирлаш ишларини олиб бориш зарурияти инобатга олинди. Ҳисоб ишлари ҳулосасига кўра, қурилма токчалари ўлчамлари учун энг мақбул кўрсаткич 530*350*25 мм ни ташкил этди. Тажрибавий вакуум сублиматсион қурилманинг токчалари 3.3-расмда ўз аксини топган.

Конструктив дизайн хусусиятлари ва ишчи диапазони такомиллаштирилган вакуум-сублиматсион қуриштиш камераси поддони камера ишчи зонасида 4 дона поднос бўлиб, ҳар бирининг ўлчамлари 525*345*20 мм га тенг (4-расм). Умумий ҳисобда, қурилманинг қуриштиш майдони 0,7245 м² ни ташкил этади.

Хулоса Хулоса ўрнида айтиш жоизки мева-сабзавотларни вакуум-сублиматсион қуриштиш қурилмасининг конструктив

хусусиятларини такомиллаштириш орқали қовоқ ва тарвуз турли шаклга эга бўлган

хомашёларини дастлабки ишловларсиз, актив фаол музлатиш ва десорбсион конденсациялаш орқали куриштиш жараён давомийлигини интенсивлаштириш орқали, анаънавий вакуум-сублимацион куриштиш (НАМ СУБ ТЕЧ ПРО) МЧЖ мавжуд курилмаларига нисбатан таққосланганда куриштиш даври 2-3 соатгача қисқартиришга, энергия сарфи 20-25 % гача тежалишига эришилган. Ушбу технология Ўзбекистон шароитида технологияларни қўллаш энергия самарадорлиги ва экспортбоп ва рсоғлом рақобатбардош маҳсулотлар ассортименти ишлаб чиқаришда муҳим аҳамият касб этади.

Адабиётлар

- [1]. M.F. Meliboev. Use of highly efficient combined methods in drying plums. Dissertation of the Doctor of Philosophy in Technical Sciences, - Tashkent: TKTI, 2022, 104 p.
- [2]. Мелибоев М.Ф., Маматов Ш.М., Эргашев О.К. Разработка комбинированного метода сублимационной и диэлектрической сушки // Универсум: технические науки. – Москва-2022. - №5 (98). – С.5-8
- [3]. Мелибоев М.Ф., Маматов Ш.М., Эргашев О.К. Энергопотребление и экономические показатели при сублимационной и микроволновой сублимационной сушке слив // Универсум: технические науки. – Москва-2022. - №5 (98). – С.9-12
- [4]. Meliboev M.M., Mamatov Sh.M., Ergashev O.K. The use of dielectric waves in sublimation drying equipment and the effect of the combined drying method on the drying period // Scientific and technical magazine of Namangan Institute of engineering and Technology. - 2021.-№3.- 79-84 b.
- [5]. Mamatov Sh.M., Aripov M., Meliboev M., Shamsutdinov B. Advantages of quick-freezing technology of cherry// International journal of innovative technology and exploring engineering (IJITEE) (Indian). 2020. - №9(3) 2278-3075. - pp. 3254-3256. (8917.019320)
- [6]. М.Мелибоев., О.Эргашев., А.Эгамбердиев. Study of yenergy and resource efficiency of sublimation drying of fruits and vegetables// Универсум: технические науки: 2022. № 3(108).
- [7]. M.Meliboev, O.Ergashev, G.Mahmudova, N.Muydinova. Technology of peeling and drying of fruits and vegetables// Science and innovation international scientific journal volume 2 issue 11 november 2023 uif-2022: 8.2 | issn: 2181-3337 | scientists.uz, 60-63 b.
- [8]. Ergashev O.K., Meliboyev M.F., Mamatusmanova D., Iskandarova M. Improvement of drying technology of plums by combination and ultra-high frequency methods// Web of Conferences 486, 02030 (2024) <https://doi.org/10.1051/ye3sconf/202448602030> , AGRITECh-IX 2023., 1-5 b.
- [9]. М.Мелибоев., О.К. Эргашев., А.А. Эгамбердиев. Янги энергиятежамкор сублимацион (музлатиш) ва вакуум сублимацион куриштиш курилмаси параметрларини таҳлил қилиш// Scientific-technical journal (STJ FerPI, ФарПИ ИТЖ, НТЖ ФерПИ, 2023,Т.27. спец.выпуск №9) 188-191 б.

**ПРОИЗВОДСТВЕННЫЕ ИСПЫТАНИЯ УПРОЧНЕННОЙ НОЖЕВОЙ
ГАРНИТУРЫ РАЗМАЛЫВАЮЩИХ МАШИН ПРИ ОБРАБОТКЕ ВОЛОКНИСТЫХ
МАТЕРИАЛОВ**

Х.А. Бабаханова, А.А. Саодатов, Д.Ч. Равшанзода

Ташкентский институт текстильной и легкой промышленности
e-mail halima300@inbox.ru tel: +998972669936

Аннотация. В статье приведены сведения по результатам производственных испытаний ножевой гарнитуры размалывающих машин при обработке волокнистых материалов в составе макулатурной массы. Определены кинематические, геометрические и силовые характеристики ножевой гарнитуры из никель-алюминиевого сплава. Указаны основные факторы, интенсифицирующие неравномерный износ ножей дисковой мельницы. Показана эффективность дробеударного упрочнения ножевой гарнитуры, создающего поверхностный слой с улучшенными механическими свойствами, позволяющими существенно повысить ее износостойкость.

Ключевые слова: дисковая мельница, ротор, статор, нож, сила, скорость, зазор, изнашивание, упрочнение, износ

Одной из важнейших операций при производстве бумаги и картона является размол волокнистой массы, определяющий основные свойства формируемой бумажной массы и свойства готовой продукции. Наиболее распространенными и универсальными

размалывающими машинами на целлюлозно-бумажных предприятиях являются дисковые мельницы, состоящие из статора (неподвижная часть) и ротора (вращающаяся часть).

Волокнистый материал в водной среде (суспензии), перемещаясь через систему подвижных и неподвижных металлических поверхностей, подвергается механическому воздействию. В результате чего при силовом воздействии гарнитуры диска и трении между ножами волокнистый материал вытягивается, расщепляется (фибриллизуется) и укорачивается [1-4]. Таким образом, волокнистый полуфабрикат подвергается сложной деформации, проявляющейся в сжатии, растяжении, сдвиге и срезе, т.е. имеет место комплексное деформирующее воздействие. Величина зазора между ножами гарнитуры предопределяет характер обработки волокна и срок эксплуатации деталей.

На работу и срок эксплуатации ножевых размалывающих машин влияет комплекс технологических и режимных параметров – время обработки, частота вращения ротора, вид обрабатываемого материала, концентрация суспензии, удельное давление в зазоре или величина зазора и др.

Цель работы – изучение влияния деформационного упрочнения ножевой гарнитуры размалывающих машин дробеударной обработкой потоком микрошариков, ударяющимся под давлением сжатого воздуха, на их работоспособность в эксплуатационных условиях.

Объектом исследования является ножевая гарнитура в виде кольцевого диска с наружным и внутренним диаметром соответственно равными $D = 450$ мм и $d = 220$ мм (рис.1).

Ножевая гарнитура состоит из 18 секторов с ножевыми элементами в виде чередующихся выступов и пазов различной длины в пределах каждого сектора. Ножи выполнены в виде прямолинейных выступов шириной 5 мм и впадин также размером 5 мм, при этом глубина впадины составляет 6 мм. Толщина диска – 18 мм.


В пределах каждого сектора имеются 7 ножей с длинами 97, 94, 90, 87, 74, 47 и 23 мм, наклоненные к радиусу диска под углом $\alpha = 30^\circ$. Имеющиеся перегородки в пазах увеличивают время пребывания перерабатываемой волокнистой массы в водной суспензии в мельнице. На периферии внутреннего диаметра ножевой гарнитуры расположены дополнительные элементы в виде четырехугольников криволинейной формы, которые увеличивают площадь контакта ножей ротора и статора, повышая тем самым отношение (%) площади поверхности ножей к общей площади поверхности гарнитуры.



Рис.1. Кольцевая гарнитура с углом наклона ножей к радиусу с перегородками между ними.



а)



б)

Рис.2. Характерная картина износа упрочненной ножевой гарнитуры по окончании эксплуатационного цикла: статора (а) и ротора (б).

Экспериментальные исследования по упрочнению ножевой гарнитуры проводили на промышленном пескоструйном аппарате. В качестве рабочего тела при дробеструйной обработке использовали литую дробь из низкоуглеродистой стали твердостью HV 365-545 (закалка при температуре 860-900⁰ С, низкотемпературный отпуск при 180-220⁰ С в течение 1,5-2 ч.) [5-8].

Для ножевой гарнитуры размалывающих мельниц, изготовленной из никель-алюминиевого сплава по стандарту QBIT 1629-92 (производство Китай), значения основных параметров режима дробеструйной обработки были следующими: давление сжатого воздуха $p=2-4$ атм (0,2-0,4 МПа), диаметр рабочего тела в виде микрошариков $D = 0,3-0,4$ мм, угол атаки $\beta = 90^0$, расстояние от сопла абразивоструйного пистолета до обрабатываемой поверхности $l = 15-20$ см [9].

Производственные сравнительные испытания ножевой гарнитуры, изготовленной из никель-алюминиевого сплава Ni_3Al (γ' – фаза), проведены на размалывающей машине со следующими характеристиками: мощность электродвигателя $P = 90$ кВт, частота вращения $n = 1000$ об/мин. Необходимо также отметить, что работа ножевой гарнитуры сопровождается огромным числом циклов нагружения, например, при $n = 1000$ об/мин в течении 24 часов число циклов достигает $1,44 \cdot 10^6$ циклов нагружения. Подобные условия нагружения способствуют развитию усталостных микротрещин, которые разрастаясь по глубине и длине, пересекаясь друг с другом, вызывают отрыв частицы от основного металла (усталостное выкрашивание).

Тщательная визуализация и сравнительная оценка износа ножевой гарнитуры с упрочненными элементами и без обработки показали следующие характерные картины износа:

- 1) неравномерный износ по длине каждого выступа (ножа) в виде волнообразной формы (рис.2, а), при этом неравномерность износа по высоте выступов достигает до 2 мм и более;
- 2) на периферийной части статора сформированы выраженные вогнутые поверхности износа, что явилось результатом контактного взаимодействия торцовых поверхностей статора и ротора;
- 3) на периферийном участке вращающегося диска (ротора) сформированы закругленные выпуклые поверхности износа, которые свидетельствуют о плотном контакте двух поверхностей ножевой гарнитуры, когда уже начальные технологические зазоры полностью устранены (рис.2, б);
- 4) дополнительные элементы ножевой гарнитуры, находящиеся вблизи оси вращения, также изношены по волнообразному профилю с сочетанием выпуклых и вогнутых поверхностей.




Рис.3. Характерная картина износа ножевой гарнитуры без упрочняющей обработки по окончании эксплуатационного цикла: статора (а) и ротора (б).

Подобная картина изнашивания выявлена на ножевой гарнитуре без упрочняющей обработки (рис.3). Однако тщательная визуализация износа ножей показывают, что степень износа существенно выше (1,5-2,0 и более раз). Волнообразный характер износа вдоль ножей здесь характеризуется более высоким значением высоты волны, что указывает на более интенсивный износ.

Выводы. Так как промышленные испытания были проведены одновременно на одной и той же размалывающей машине при одинаковой перерабатываемой волокнистой массы в водной суспензии, то результаты сравнения изнашиваемых поверхностей ножевой гарнитуры носят объективный характер. Таким образом, упрочненная ножевая гарнитура этих машин показывает существенные преимущества (более, чем в 2 раза) по износостойкости и долговечности, обеспечивая при этом необходимую степень помола волокнистого полуфабриката. Повышение работоспособности упрочненной ножевой гарнитуры дисковой мельницы по сравнению с неупрочненной обеспечивается степенью наклепа поверхностного слоя, выраженного в увеличении его твердости на 34,7% и уменьшении шероховатости поверхности, что сокращает значительно время приработки.

Список литературы

- [1]. Юртаева Л.В., Алашкевич Ю.Д., Слизилова Е.А., Каплев Е.В., Пожаркова С.А. Влияние вида ножевой размалывающей гарнитуры на процесс получения микрокристаллической целлюлозы // Известия ВУЗов. Лесной журнал. 2024. №2. С.152-165.
- [2]. Гончаров В.Н. Теоретические основы размола волокнистых материалов в ножевых машинах: дис. ... докт.техн.наук. Л. 1990. 451 с.
- [3]. Вихарев С.Н. Повышение эффективности ножевых размалывающих машин в целлюлозно-бумажной промышленности на основе исследования динамики: автореф. ...докт.техн.наук. Екатеринбург. 2021. 40 с.
- [4]. Кожухов В.А., Кожухова Н.Ю., Ларионова А.И., Алашкевич Ю.Д. Особенности использования гарнитуры с ударным воздействием на волокно при размоле волокнистых растительных полимеров // Леса России и хозяйство в них. 2015. №2 (53). С.40-44.
- [5]. Кожухов В.А. Размол волокнистых полуфабрикатов в размольных ножевых машинах при ударном воздействии на волокно: дис. ...канд.техн.наук. Красноярск. 2015. 162 с.
- [6]. Одинцов Л.Г. Упрочнение и отделка деталей поверхностным пластическим деформированием. М.: Машиностроение. 1987. 328 с.
- [7]. Погодаев Л.Н., Ежов Ю.Е. Основные закономерности гидроабразивного и ударноабразивного изнашивания наплавочных материалов // Трение и износ. 1991. №5. С.801-815.
- [8]. Шин И.Г., Максудов Р.Х. Метод расчета глубины упрочненного слоя деталей при поверхностной обработке дробью // Вестник машиностроения. 2011. №4. С.44-47.
- [9]. Бабаханова Х.А. Саодатов А.А., Громыко И.Г. Применение дробеструйной обработки для повышения эксплуатационных характеристик ножевой гарнитуры размалывающих машин // Труды БГТУ. Серия 4. №1. 2026. С.16-22. DOI: 10.52065/2520-6729-2026-303-2.

INDUSTRY 4.0 SHAROITIDA AVTOMOBIL ISHLAB CHIQARISH KORXONALARIDA ISH JOYLARINI OPTIMALLASHTIRISH

Sh.U. Shokarimov

"UzAuto Passenger Vehicles Management"

mas'uliyati cheklangan jamiyati

shohruh.shokarimov@gmail.com

(Qabul qilindi 20.04.2026 y.)

Annotatsiya. Mazkur maqolada to'rtinchi sanoat inqilobi sharoitida avtomobil ishlab chiqarish korxonalarida ish joylarini optimallashtirish masalalari kompleks tarzda o'rganilgan. Ishda ishlab chiqarish jarayonlarining raqamlashtirilishi, avtomatlashtirilishi hamda zamonaviy texnologiyalarning joriy etilishi natijasida ish joylarini samarali tashkil etish zarurati asoslab berilgan. Ish joylarini optimallashtirishning nazariy asoslari sifatida ilmiy boshqaruv nazariyasi, harakatlarni tahlil qilish yondashuvi va zamonaviy ishlab chiqarish tizimlari konsepsiyalari tahlil qilingan. Shuningdek, yetakchi avtomobil ishlab chiqaruvchi

korxonalar tajribasi asosida ish joylarini tashkil etishning amaliy jihatlari ko'rib chiqilgan. Tadqiqot davomida kuzatish, vaqtni o'lchash va taqqoslash usullaridan foydalanilib, ish joylarini optimallashtirish orqali mehnat unumdorligini oshirish imkoniyatlari aniqlangan. Olingan natijalar ishlab chiqarish samaradorligining sezilarli darajada oshirishini ko'rsatadi va ushbu yondashuvning amaliy ahamiyatini tasdiqlaydi.

Kalit so'zlar: ish joylarini optimallashtirish, to'rtinchi sanoat inqilobi, avtomobil sanoati, mehnat unumdorligi, ishlab chiqarish samaradorligi, raqamlashtirish, avtomatlashtirish

Аннотация. В данной статье комплексно рассмотрены вопросы оптимизации рабочих мест на предприятиях автомобильной промышленности в условиях четвертой промышленной революции. В работе обоснована необходимость эффективной организации рабочих мест на основе цифровизации производства, автоматизации процессов и внедрения современных технологий. Проанализированы теоретические основы оптимизации рабочих мест, включая научное управление, анализ движений и современные производственные системы. Особое внимание уделено практическим аспектам организации рабочих мест на примере ведущих автомобильных компаний. В ходе исследования использованы методы наблюдения, измерения времени и сравнительного анализа. Полученные результаты показали, что оптимизация рабочих мест способствует значительному повышению производительности труда, снижению избыточных операций и повышению общей эффективности производства. Доказано, что внедрение современных подходов к оптимизации рабочих мест является важным фактором устойчивого развития и повышения конкурентоспособности предприятий.

Ключевые слова: оптимизация рабочих мест, четвертая промышленная революция, автомобильная промышленность, производительность труда, эффективность производства, цифровизация, автоматизация.

Kirish. XXI asrning ikkinchi o'n yilligidan boshlab jahon sanoatida tub tarkibiy o'zgarishlar yuz bermoqda. Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi, global raqobatning kuchayishi hamda ishlab chiqarish samaradorligiga qo'yilayotgan yuqori talablar sanoat korxonalarini yangi rivojlanish bosqichiga olib chiqdi [1–3]. Ushbu bosqich ilmiy adabiyotlarda to'rtinchi sanoat inqilobi sifatida e'tirof etiladi [1,2]. Mazkur konsepsiya ishlab chiqarish tizimlarining to'liq raqamlashtirilishi, aqlli boshqaruv tizimlari va kiber-fizik muhitning shakllanishi bilan tavsiflanadi [3–5].

To'rtinchi sanoat inqilobining asosiy tarkibiy qismlariga kiber-fizik tizimlar, buyumlar interneti, sun'iy intellekt, katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilish, raqamli egizaklar hamda bulutli hisoblash texnologiyalari kiradi [3,4]. Ushbu texnologiyalar o'zaro integratsiyalashgan holda ishlab chiqarish jarayonlarining real vaqt rejimida kuzatilishi, tahlil qilinishi va avtomatik boshqarilishini ta'minlaydi [4,5]. Natijada ishlab chiqarish jarayonlari yanada tezkor, aniq, moslashuvchan va resurs tejankor bo'lib boradi.

Avtomobil ishlab chiqarish sanoati ushbu zamonaviy texnologiyalarni faol joriy etayotgan yetakchi sohalardan biri hisoblanadi. Zamonaviy avtomobil zavodlarida robotlashtirilgan yig'uv liniyalari, aqlli logistika tizimlari, avtomatlashtirilgan sifat nazorati hamda real vaqt monitoring tizimlari keng qo'llanilmoqda. Bunday texnologik yechimlar ishlab chiqarish jarayonlarining uzluksizligini ta'minlash, inson omiliga bog'liq xatoliklarni kamaytirish va mahsulot sifatini barqaror darajada saqlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, mijoz talablariga mos holda mahsulot ishlab chiqarish imkoniyatlari ham kengayib bermoqda.

Mazkur sharoitda ish joylarini optimallashtirish masalasi alohida ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Ish joylarini optimallashtirish - bu ishlab chiqarish tizimida inson, texnika va boshqaruv jarayonlari o'rtasidagi o'zaro aloqani takomillashtirish orqali maksimal samaradorlikka erishishga qaratilgan kompleks jarayondir. Ushbu jarayon zamonaviy texnologiyalar bilan uyg'unlashgan holda yangi mazmun kasb etib, an'anaviy yondashuvlar bilan bir qatorda raqamli monitoring va ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv usullarini ham o'z ichiga oladi.

Xususan, turli sensor qurilmalari yordamida ishchilarning harakati, ish yuklamasi va ishlab chiqarish muhitining asosiy ko'rsatkichlarini real vaqt rejimida kuzatish imkoniyati yaratiladi. Bu esa ish joylarini ergonomik jihatdan takomillashtirish, ortiqcha harakatlarni kamaytirish hamda mehnat unumdorligini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, zamonaviy tahlil vositalari yordamida

ishlab chiqarish jarayonlaridagi muammoli nuqtalar aniqlanib, ularni bartaraf etish bo'yicha samarali yechimlar ishlab chiqiladi.

Bundan tashqari, ishlab chiqarish jarayonlarining virtual modellarini yaratish orqali turli ssenariylar oldindan sinovdan o'tkazilishi mumkin. Bu esa real ishlab chiqarishga joriy etishdan oldin eng maqbul variantni tanlash, xatoliklarni kamaytirish va resurslardan oqilona foydalanish imkonini beradi.

To'rtinchi sanoat inqilobi sharoitida ish joylarini optimallashtirish nafaqat texnologik, balki ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan ham muhim ahamiyatga ega. Chunki avtomatlashtirish jarayonlari ishchi kuchiga bo'lgan talabni o'zgartirib, yangi bilim va ko'nikmalarni talab qiladi. Shuning uchun ish joylarini takomillashtirish jarayonida xodimlarning malakasini oshirish va ularni zamonaviy texnologiyalarga moslashtirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, to'rtinchi sanoat inqilobi sharoitida avtomobil ishlab chiqarish korxonalarida ish joylarini optimallashtirish masalasi kompleks yondashuvni talab etadi. Mazkur maqolada ushbu jarayonning nazariy asoslari, zamonaviy texnologik yechimlar va ularning amaliy qo'llanilishi tahlil qilinadi hamda ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Nazariy tadqiqodlar. Ish joylarini optimallashtirish muammosi texnika va ishlab chiqarish tizimlari nazariyasida muhim o'rin egallaydi. Ushbu yo'nalishning shakllanishi sanoat ishlab chiqarishining rivojlanish bosqichlari bilan uzviy bog'liq bo'lib, dastlab mehnat jarayonlarini ratsionallashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar asosida yuzaga kelgan. Keyinchalik bu yondashuvlar texnologik tizimlarni boshqarish, avtomatlashtirish va raqamlashtirish konsepsiyalari bilan boyitildi.

Ishlab chiqarishda ish joylarini optimallashtirishning dastlabki nazariy asoslari Frederick Winslow Taylor tomonidan ishlab chiqilgan ilmiy boshqaruv nazariyasiga borib taqaladi [6]. U mehnat jarayonlarini tahlil qilish, ularni elementlarga ajratish va eng samarali bajarish usullarini aniqlash orqali ishlab chiqarish unumdorligini oshirish mumkinligini asoslab berdi. Taylorning yondashuvi ish joylarini tashkil etishda vaqt me'yorlari va harakatlarni optimallashtirishga katta e'tibor qaratgan.

Keyingi bosqichda Frank Bunker Gilbreth va Lillian Moller Gilbreth tomonidan harakatlarni tahlil qilish nazariyasi rivojlantirildi [7]. Ular ish jarayonidagi ortiqcha harakatlarni aniqlash va bartaraf etish orqali mehnat unumdorligini oshirish mumkinligini ilmiy jihatdan asoslab berdilar. Ushbu yondashuv hozirgi kunda ham ishlab chiqarish liniyalarini optimallashtirishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Zamonaviy texnik yondashuvlarda esa ishlab chiqarish tizimlari murakkab dinamik tizim sifatida qaraladi. Bu borada Norbert Wiener tomonidan asos solingan kibernetika nazariyasi muhim ahamiyatga ega [8]. Kibernetika boshqaruv va axborot almashinuvi jarayonlarini o'rganib, ishlab chiqarish tizimlarida teskari aloqa mexanizmlarini qo'llash orqali samaradorlikni oshirish imkonini beradi. Bu esa zamonaviy avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish tizimlarining nazariy asosini tashkil etadi.

Shuningdek, ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirishda operatsion tadqiqotlar yo'nalishi ham muhim rol o'ynaydi [9]. Ushbu yo'nalishda matematik modellashtirish, optimallashtirish usullari va algoritmlar yordamida resurslarni taqsimlash, ishlab chiqarish jadvalini tuzish va jarayonlarni boshqarish masalalari hal etiladi. Bu yondashuv ayniqsa avtomobil ishlab chiqarish korxonalarida murakkab texnologik jarayonlarni boshqarishda samarali hisoblanadi.

Zamonaviy davrda ishlab chiqarish tizimlarini optimallashtirish konsepsiyasi Taiichi Ohno tomonidan ishlab chiqilgan ishlab chiqarishni tashkil etish tizimi bilan yanada rivojlantirildi. Ushbu yondashuv isrofgarchilikni kamaytirish, ishlab chiqarish oqimlarini muvozanatlash va resurslardan samarali foydalanishga qaratilgan. Bu tizim ish joylarini optimallashtirishda ortiqcha operatsiyalarni bartaraf etish va jarayonlarni soddalashtirishga xizmat qiladi.

To'rtinchi sanoat inqilobi sharoitida yuqoridagi nazariyalar yangi texnologik asos bilan boyitilmoqda [10–12]. Xususan, aqlli ishlab chiqarish tizimlarida ish joylari sensorlar, avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari va ma'lumotlarni qayta ishlash vositalari orqali uzluksiz

nazorat qilinadi. Bu esa ishlab chiqarish jarayonlarini real vaqt rejimida optimallashtirish imkonini beradi.

Bundan tashqari, ishlab chiqarish tizimlarini raqamli modellashtirish va virtual muhitda sinovdan o'tkazish imkoniyati ish joylarini loyihalash va takomillashtirishda muhim texnik vosita hisoblanadi. Ushbu yondashuv yordamida ishlab chiqarish jarayonlaridagi muammolar oldindan aniqlanib, eng samarali yechimlar tanlanadi.

Shu bilan birga, avtomobil ishlab chiqarish korxonalarida ish joylarini optimallashtirish texnik jihatdan quyidagi asosiy yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

- ishlab chiqarish liniyalarini muvozanatlash;
- texnologik operatsiyalarni standartlashtirish;
- avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlarini joriy etish;
- inson va texnika o'rtasidagi o'zaro ta'sirni takomillashtirish;
- ishlab chiqarish jarayonlarini real vaqt rejimida monitoring qilish.

Yuqoridagi nazariy yondashuvlar va texnik yechimlar shuni ko'rsatadiki, zamonaviy ishlab chiqarish tizimlarida ish joylarini optimallashtirish ko'p bosqichli va kompleks jarayon bo'lib, u klassik ilmiy nazariyalar hamda zamonaviy raqamli texnologiyalar uyg'unligi asosida shakllanadi. Ayniqsa, avtomobil sanoatida ushbu yondashuvlarni qo'llash ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va raqobatbardoshlikni ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Zamonaviy avtomobil ishlab chiqarish korxonalarida ish joylarini optimallashtirish jarayoni ilg'or texnologiyalar va samarali boshqaruv yondashuvlari asosida amalga oshirilmoqda. Quyida ushbu jarayonni yetakchi avtomobil ishlab chiqaruvchilar misolida ko'rib chiqish mumkin [11–15].

Toyota Motor Corporation korxonasida ish joylarini optimallashtirish ishlab chiqarishni tashkil etishning samarali tizimi asosida amalga oshiriladi. Ushbu tizimning asosiy tamoyillaridan biri ortiqcha harakatlar va resurs isrofgarchiligini kamaytirishdan iborat. Masalan, yig'uv liniyalarida ishchilar uchun barcha zarur detallar va asbob-uskunalar maksimal darajada qulay joylashtirilgan bo'lib, bu ortiqcha harakatlarni kamaytiradi. Bundan tashqari, ishlab chiqarish jarayonida har qanday nosozlik aniqlansa, tizim avtomatik ravishda to'xtatiladi va muammo darhol bartaraf etiladi. Bu esa sifatsiz mahsulot ishlab chiqarilishining oldini oladi.

Tesla, Inc. korxonasida esa ish joylarini optimallashtirish yuqori darajadagi avtomatlashtirish va raqamli texnologiyalar asosida tashkil etilgan. Ushbu kompaniyada ishlab chiqarish jarayonlari robotlashtirilgan bo'lib, inson omili minimal darajaga tushirilgan. Masalan, avtomobil kuzovini yig'ish va payvandlash jarayonlari asosan robotlar tomonidan bajariladi. Shu bilan birga, ishlab chiqarish jarayonlari real vaqt rejimida monitoring qilinadi va ma'lumotlar asosida tezkor boshqaruv qarorlari qabul qilinadi. Bu esa ishlab chiqarish samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

BMW Group korxonasida ish joylarini optimallashtirish inson va texnologiya o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlash orqali amalga oshiriladi. Bu yerda ishchilarga yordam beruvchi aqlli tizimlar joriy etilgan bo'lib, ular ish jarayonini yengillashtiradi. Masalan, ayrim yig'uv jarayonlarida ishchilarga yordam beruvchi mexanik qurilmalar qo'llaniladi, bu esa og'ir jismoniy yuklamani kamaytiradi va ish unumdorligini oshiradi.

General Motors korxonasida esa ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish matematik modellashtirish va tahlil usullari asosida amalga oshiriladi. Bu yerda ishlab chiqarish liniyalari samaradorligi doimiy ravishda tahlil qilinadi va aniqlangan muammolar asosida optimallashtirish choralari ko'riladi. Masalan, ishlab chiqarish jarayonida yuzaga keladigan kechikishlar aniqlanib, ularni bartaraf etish orqali umumiy ishlab chiqarish tezligi oshiriladi.

Tajribaviy izlanishlar. Mazkur tadqiqot avtomobil ishlab chiqarish korxonasining yig'uv uchastkasidagi ish joylarini optimallashtirish samaradorligini baholashga qaratilgan. Tadqiqot obyekti sifatida yig'uv liniyasidagi alohida ish joyi tanlab olinib, undagi texnologik operatsiyalar va ishchi harakatlari kompleks tahlil qilindi.

Tadqiqot metodologiyasi sifatida kuzatish, vaqtni o'lchash, taqqoslash hamda elementar statistik tahlil usullaridan foydalanildi. Dastlab mavjud ish jarayoni o'rganilib, har bir

operatsiyaning bajarilish vaqti hamda ishchining harakatlari qayd etildi. Olingan ma'lumotlar asosida ish jarayonining strukturaviy tahlili amalga oshirildi va operatsiyalar samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar aniqlab olindi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, umumiy ish vaqtining ma'lum qismi asosiy texnologik operatsiyalarga emas, balki yordamchi va ortiqcha harakatlarga sarflanmoqda. Xususan, asbob-uskunalarining noqulay joylashuvi, detallarni olishdagi ortiqcha harakatlar va ish jarayonining ketma-ketligi optimal emasligi aniqlangan. Ushbu holatlar ishlab chiqarish samaradorligining pasayishiga olib keluvchi asosiy omillar sifatida baholandi.


Tajriba bosqichida ish joyi qayta loyihalashtirildi. Bunda ergonomik talablar, texnologik jarayonlar ketma-ketligi hamda ishchining harakat trayektoriyasi hisobga olindi. Asbob-uskunalar va detallar ishchining minimal harakat zonasi doirasida joylashtirildi, operatsiyalar bajarilish ketma-ketligi optimallashtirildi. Natijada ish jarayonining mantiqiy va texnologik uzluksizligi ta'minlandi.

Optimallashtirilgan ish joyida takroriy o'lchovlar o'tkazilib, natijalar dastlabki holat bilan taqqoslandi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, operatsiyaning bajarilish vaqti o'rtacha 12–18 foizga qisqargan. Shu bilan birga, ishchining ortiqcha harakatlari sezilarli darajada kamaygan va ish jarayonining barqarorligi oshgan.

Ilmiy nuqtai nazardan, olingan natijalarni quyidagicha izohlash mumkin: ish jarayonida ortiqcha harakatlarning kamaytirilishi ishlab chiqarish tizimidagi yo'qotishlarni qisqartiradi, bu esa umumiy samaradorlikning oshishiga olib keladi. Bundan tashqari, ish joyining ergonomik jihatdan takomillashtirilishi ishchining jismoniy yuklamasini kamaytirib, uzoq muddatda mehnat unumdorligini barqaror oshirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, natijalar ishlab chiqarish tizimlarida optimallashtirish jarayonlari chiziqli bo'lmagan xarakterga ega ekanligini ko'rsatadi. Ya'ni, kichik o'zgarishlar (masalan, asbob joylashuvi) umumiy tizim samaradorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bu esa tizimli yondashuvning muhimligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Yuqoridagi tahlillar asosida xulosa qilish mumkinki, ish joylarini ilmiy asosda optimallashtirish ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning muhim omili hisoblanadi. Ayniqsa, avtomobil ishlab chiqarish korxonalarida ushbu yondashuvlarni qo'llash orqali vaqt yo'qotishlarni kamaytirish, resurslardan samarali foydalanish va ishlab chiqarish jarayonlarining barqarorligini ta'minlash mumkin.



Ish joyidan foydalanishni optimallashtirishning mehnat unumdorligini oshirishdagi o'rni
1-rasm.

Mazkur rasmda ish joylaridan foydalanishni optimallashtirish orqali mehnat unumdorligini oshirishning ikki asosiy yo'nalishi - ekstensiv va intensiv yondashuvlar ko'rsatilgan. Ekstensiv yondashuvda mehnat unumdorligi asosan jismoniy mehnat hajmini oshirish orqali ta'minlanadi, bunda ish o'rinlarini optimallashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu yondashuv doirasida korxonalarda shtat tuzilmasini tartibga solish va ish joylarini oqilona tashkil etish orqali samaradorlikka erishiladi.

Intensiv yondashuvda esa asosiy e'tibor texnika va texnologiyalarni joriy etish orqali mehnat unumdorligini oshirishga qaratiladi. Bu jarayonda ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish hamda boshqaruv tizimlarini takomillashtirish muhim rol o'ynaydi. Xususan, zamonaviy korxonalarda xodimlar boshqaruv tizimlarini avtomatlashtirish orqali ish jarayonlari yanada tezkor va samarali amalga oshiriladi.

Tizim korxonalarining viloyatlar bo'yicha dislokatsiyalari.


1-jadval

№	Korxona nomi	Dislokatsiya	Jami xodimlar soni
1	“Toshkent Traktor zavodi” MChJ	Toshkent	517
2	“UzAuto Cepla” MChJ QK	Toshkent	100
3	“UZAUTO MOTORS POWERTRAIN” AJ	Toshkent	1 257
4	“O‘zAvto INZI” MChJ QK	Toshkent	259
5	“O‘ZAVTOSANOAT” AJ	Toshkent	112
			2 245
6	“O‘ZMINDA” MChJ QK	Navoiy	111
7	“O‘ZERAEALTERNATOR” MChJ QK	Navoiy	140
			251
8	“UZ CHASYS” MChJ QK	Namangan	1 063
			1 063
9	“JIZZAX AVTOMOBIL ZAVODI” MChJ	Jizzax	32
10	“BYD UZBEKISTAN FACTORY” MChJ QK	Jizzax	974
			1 006
11	“UZSUNGWOO” MChJ	Farg‘ona	1 062
12	“AVTOOYNA” MChJ	Farg‘ona	836
			1 898
13	“UZAUTO MOTORS” AJ	Xorazm	3 584
			3 584
13	“UZAUTO MOTORS” AJ	Andijon	11 747
14	“Uz Dong Yang Co” AJ	Andijon	1 154
15	“UZ SEMYUNG KO” AJ	Andijon	1 629
16	“O‘Z TONG HONG KOMPANI” AJ	Andijon	1 526
17	“AUTO RUBBER” MChJ	Andijon	454
18	“UZ DONG WON KO” AJ	Andijon	417
19	“UZ KORAM KOMPANI” MChJ	Andijon	1 224
20	“O‘Z AUTO AUSTEM” MChJ QK	Andijon	559
21	“AVTOKOMPONENT” MChJ	Andijon	648
22	“AVTO CLIMATE CONTROL” MChJ	Andijon	507
23	“KWANGJIN AUTOSYSTEMS” MChJ QK	Andijon	117
24	“AUTO SPRING COMPONENTS” MChJ	Andijon	142
25	“AUTO FORTIS” MChJ	Andijon	110
			20 234
	Jami		30 281

Mazkur jadvalda avtomobil sanoati tizimiga kiruvchi korxonalarning hududlar bo'yicha joylashuvi va ulardagi jami xodimlar soni keltirilgan. Jadval tahlili shuni ko'rsatadiki, korxonalar respublikaning turli viloyatlarida joylashgan bo'lib, ularning hududiy taqsimoti ishlab chiqarish resurslarini mintaqalar kesimida muvozanatli taqsimlashga xizmat qiladi.

Eng yirik ishlab chiqarish salohiyati Andijon viloyatida jamlangani kuzatiladi, bu esa mazkur hudud avtomobil sanoatining asosiy markazlaridan biri ekanligini ko'rsatadi. Shuningdek, Toshkent, Farg'ona va Xorazm viloyatlarida ham yirik ishlab chiqarish korxonalari faoliyat yuritmoqda. Ayrim viloyatlarda esa kichik va o'rta quvvatli korxonalar joylashgan bo'lib, ular umumiy ishlab chiqarish zanjirining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Jadvalda keltirilgan ma'lumotlar asosida xulosa qilish mumkinki, korxonalarni hududiy joylashtirish ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, logistika xarajatlarini kamaytirish hamda mehnat resurslaridan oqilona foydalanish imkonini beradi. Shu bilan birga, bunday dislokatsiya sanoat infratuzilmasini rivojlantirish va hududlar iqtisodiy salohiyatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.



Tizim korxonalarining viloyatlar bo'yicha dislokatsiyalari. 2-rasm.

Natijalar tahlili. Tajribaviy izlanishlar natijasida olingan ma'lumotlar ish joylarini optimallashtirish ishlab chiqarish samaradorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatishini tasdiqladi. Dastlabki va optimallashtirilgan holatdagi ko'rsatkichlar o'zaro taqqoslanganda, bir qator ijobiy o'zgarishlar kuzatildi.

Birinchidan, operatsiyalarni bajarish vaqti qisqarishi aniqlandi. O'lchov natijalariga ko'ra, ish joyi qayta tashkil etilgandan so'ng operatsiya bajarish vaqti o'rtacha 12–18 foizga kamaygan. Bu esa ishlab chiqarish jarayonida vaqt resurslaridan yanada samarali foydalanilayotganini ko'rsatadi. Vaqt sarfining qisqarishi, o'z navbatida, ishlab chiqarish hajmini oshirish imkonini yaratadi.

Ikkinchidan, ishchining ortiqcha harakatlari sezilarli darajada kamaygan. Dastlabki holatda ish jarayonida kuzatilgan ortiqcha harakatlar optimallashtirish natijasida bartaraf etildi. Natijada ish

jarayoni yanada soddalashtirildi va harakatlar soni kamaydi. Bu esa mehnat unumdorligining oshishiga bevosita ta'sir ko'rsatdi.

Uchinchidan, ish jarayonining barqarorligi oshganligi kuzatildi. Optimallashtirilgan ish joyida operatsiyalar bajarilish ketma-ketligi aniq va izchil bo'lib, ishlab chiqarish jarayonida uzilishlar kamaydi. Bu esa ishlab chiqarish tizimining umumiy ishonchliligini oshiradi.

To'rtinchidan, ishchining jismoniy yuklamasi kamayganligi aniqlangan. Ergonomik jihatdan to'g'ri tashkil etilgan ish joyi ishchining ortiqcha kuch sarflashini kamaytirib, uning ish faoliyatini yengillashtiradi.

Shu bilan birga, tizim korxonalarining hududiy taqsimoti va xodimlar soni bo'yicha keltirilgan jadval ma'lumotlari ham ish joylarini optimallashtirish zaruratini tasdiqlaydi. Jadvaldan ko'rinib turibdiki, ayrim hududlarda, xususan, Andijon viloyatida yirik ishlab chiqarish quvvatlari va ko'p sonli xodimlar jamlangan. Bu esa ish jarayonlarini samarali tashkil etish va ish joylarini optimallashtirish masalasining dolzarbligini yanada oshiradi.

Shuningdek, Toshkent, Farg'ona va boshqa hududlardagi korxonalarda xodimlar sonining turlicha taqsimlanganligi ishlab chiqarish jarayonlarini muvofiqlashtirish va resurslardan oqilona foydalanishni talab etadi. Bunday sharoitda ish joylarini optimallashtirish nafaqat alohida ishchi darajasida, balki butun korxona va tizim darajasida amalga oshirilishi zarur.

Olingan natijalar tizimli yondashuvning samaradorligini tasdiqlaydi. Ish joyidagi kichik o'zgarishlar butun ishlab chiqarish tizimi samaradorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi aniqlandi. Ayniqsa, ko'p xodimli yirik korxonalarda bunday optimallashtirish ishlari katta iqtisodiy samaraga olib keladi.

Natijalar shuni ham ko'rsatdiki, ish joylarini optimallashtirish nafaqat ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi, balki resurslardan foydalanish darajasini yaxshilaydi. Vaqt, mehnat va texnik resurslarning oqilona taqsimlanishi korxonaning iqtisodiy samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Tajribaviy natijalar va hududiy-statistik ma'lumotlar birgalikda ish joylarini optimallashtirish avtomobil ishlab chiqarish korxonalarida yuqori samaradorlikka erishishning muhim omili ekanligini tasdiqlaydi. Ushbu yondashuvni keng joriy etish orqali ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashtirish va raqobatbardoshlikni oshirish mumkin.

Xulosa.

1. To'rtinchi sanoat inqilobi sharoitida ishlab chiqarish jarayonlarining raqamlashtirilishi va avtomatlashtirilishi ish joylarini optimallashtirishni sanoat korxonalari rivojlanishining muhim yo'nalishiga aylantirmoqda.
2. Ish joylarini optimallashtirishning nazariy asoslari mehnatni ilmiy tashkil etish, harakatlarni tahlil qilish, tizimli yondashuv va ishlab chiqarishni oqim asosida tashkil etish konsepsiyalariga tayanadi.
3. Zamonaviy avtomobil ishlab chiqarish korxonalarida ish joylarini optimallashtirish texnologik, tashkiliy va inson omillarining o'zaro uyg'unligi asosida amalga oshiriladi.
4. Tajribaviy izlanishlar natijalari ish joylarini qayta tashkil etish orqali operatsiyalar bajarish vaqtini o'rtacha 12–18 foizga qisqartirish mumkinligini ko'rsatdi.
5. Ish joylarini ergonomik jihatdan takomillashtirish ishchilarning ortiqcha harakatlarini kamaytirib, mehnat unumdorligini oshiradi hamda jismoniy yuklamani pasaytiradi.
6. Hududiy tahlillar shuni ko'rsatdiki, avtomobil sanoati korxonalarining ayrim viloyatlarda, ayniqsa yirik ishlab chiqarish markazlarida jamlanganligi ish joylarini tizimli optimallashtirish zaruratini kuchaytiradi.
7. Ish joylarida kichik tashkiliy o'zgarishlar ham butun ishlab chiqarish tizimi samaradorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin, bu esa optimallashtirish jarayonida kompleks yondashuv muhimligini tasdiqlaydi.
8. Ish joylarini optimallashtirishni keng joriy etish ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, resurslardan oqilona foydalanish va avtomobil sanoati korxonalarining raqobatbardoshligini kuchaytirishda muhim omil hisoblanadi.

Adabiyotlar

- [1]. Schwab K. The Fourth Industrial Revolution. Geneva: World Economic Forum, 2017.
- [2]. Kagermann H., Wahlster W., Helbig J. Recommendations for Implementing Industry 4.0. Berlin: German National Academy of Science and Engineering, 2016.
- [3]. Gilchrist A. Industry 4.0: The Industrial Internet of Things. New York: Apress, 2017.
- [4]. Xu L.D., Xu E.L., Li L. Industry 4.0: State of the Art and Future Trends. International Journal of Production Research, 2018.
- [5]. Zhong R.Y., Xu X., Klotz E., Newman S.T. Intelligent Manufacturing in the Context of Industry 4.0. Engineering Journal, 2017.
- [6]. Taylor F.W. The Principles of Scientific Management. New York: Harper and Brothers, 2016.
- [7]. Gilbreth F.B., Gilbreth L.M. Applied Motion Study. New York: Sturgis and Walton Company, 2017.
- [8]. Wiener N. Cybernetics: Or Control and Communication in the Animal and the Machine. MIT Press, 2019.
- [9]. Ohno T. Toyota Production System: Beyond Large-Scale Production. Productivity Press, 2018.
- [10]. Monostori L. Cyber-Physical Production Systems. CIRP Annals, 2018.
- [11]. Buer S.V., Strandhagen J.O., Chan F.T.S. The Link Between Industry 4.0 and Lean Manufacturing. International Journal of Production Research, 2018.
- [12]. Sony M., Naik S. Industry 4.0 Integration with Lean Management. Journal of Manufacturing Technology Management, 2020.
- [13]. Koren Y., Shpitalni M. Design of Reconfigurable Manufacturing Systems. Journal of Manufacturing Systems, 2017.
- [14]. Wang S., Wan J., Li D., Zhang C. Implementing Smart Factory of Industry 4.0. International Journal of Distributed Sensor Networks, 2016.
- [15]. Frank A.G., Dalenogare L.S., Ayala N.F. Industry 4.0 Technologies: Implementation Patterns. Journal of Manufacturing Technology Management, 2019.

PAXTA IPLARINING SIFAT PARAMETRLARINI MILLIY VA XALQARO STANDARTLAR TALABLARI BILAN UYG'UNLASHTIRISH QIYOSIY TAHLIL VA AMALIY TAVSIYALAR

M.T. Omonov¹, H.T. Bobojonov¹, J.Z. Saloxiddinov¹, Sh.Sh. Shog'ofurov¹,
D.A. Mamadaliyeva¹, M.M. Urishev²

¹Namangan davlat texnika universiteti

²Farg'ona davlat texnika universiteti

e-mail: omonov.muhammad001@gmail.com

e-mail: bobojonov1979@mail.ru,

e-mail: shogofurovshahboz@gmail.com.

(Qabul qilindi 20.04.2026 y.)

Annotatsiya. Ushbu maqolada paxta iplarining sifat ko'rsatkichlarini baholashda qo'llaniladigan milliy (O'zDSt) va xalqaro (ISO, ASTM) standartlar qiyosiy tahlil qilingan. Tadqiqotning asosiy maqsadi – standartlar talablari orasidagi farqlarni aniqlash va ularni uyg'unlashtirish orqali mahalliy to'qimachilik korxonalarining raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiluvchi amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdir. Ne 20/1, Ne 30/1, Ne 40/1 va Ne 50/1 nominal chiziqli zichlikdagi 100% paxta iplarining mustahkamlik, uzayish, notekislik, tuklilik, neps va qusur ko'rsatkichlari ikki xil standart tizimi asosida sinovdan o'tkazilgan.

Kalit so'zlar: paxta iplari, sifat parametrlari, milliy standartlar, xalqaro standartlar, qiyosiy tahlil, uyg'unlashtirish, mustahkamlik, notekislik, raqobatbardoshlik, sifat nazorati.

Asosiy qism

Jahon to'qimachilik sanoati raqobatbardoshligini belgilovchi asosiy omillardan biri bu ishlab chiqariladigan mahsulot, xususan, paxta iplari sifatining barqarorligi va uning xalqaro talablarga mosligidir. O'zbekiston paxta to'qimachilik sohasida yetakchi davlatlardan biri sifatida so'nggi yillarda mahsulot eksportini kengaytirish, qo'shilgan qiymat zanjirida yuqori pog'onalarni egallash va global qiymat zanjirlariga integratsiyalashuvni jadallashtirish yo'lida muhim qadamlar qilmoqda. Biroq, bu jarayonning muvaffaqiyati ko'p jihatdan paxta iplari sifatini baholashda qo'llaniladigan milliy standartlarning xalqaro standartlar (xususan, ISO, ASTM, USTER

me'yorlari) bilan uyg'unligiga bog'liq. Amaldagi milliy standartlar (O'z DSt) ko'p hollarda sobiq ittifoq davridagi GOST tizimiga asoslangan bo'lib, ular fizik-mexanik ko'rsatkichlar (uzilish kuchi, tekislik, notekislik koeffitsienti, neps va boshqa nuqsonlar) va metrik raqamni aniqlashda an'anaviy yondashuvlarni saqlab qolgan. Xalqaro standartlar esa, ayniqsa, USTER® STATISTICS kunga kelib, global ishlab chiqaruvchilarning eng yaxshi ko'rsatkichlari asosida doimiy yangilanib boruvchi benchmarking tizimini taklif etadi. Ushbu farqlar natijasida bir xil ip namunasi milliy standartlar bo'yicha "yuqori sifat" deb baholanishi mumkin, ammo xorijiy xaridor talab qiladigan parametrlarga to'liq javob bermasligi ehtimoli mavjud. Bu esa, o'z navbatida, eksport jarayonida texnik to'siqlar, narx chegirmalari va ishonchlilik imijining pasayishiga olib keladi. Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi paxta iplarining asosiy sifat parametrlarini (chiziqli zichlik, uzilish kuchi va uzayishi, notekisligi, nuqsonlilik darajasi, purkama indeksi) milliy va xalqaro standartlar talablari doirasida qiyosiy tahlil qilish, ular o'rtasidagi tafovut va uyg'unlik darajasini aniqlashdan iborat. Tadqiqotda standartlarni qiyosiy o'rganish, ilg'or xorijiy tajriba va mahalliy korxonalar laboratoriya sinovlari natijalariga tayanilgan.

Tahlil natijalari asosida paxta iplari sifatini baholash tizimini xalqaro talablar bilan uyg'unlashtirish, ichki me'yoriy hujjatlarni takomillashtirish va to'qimachilik korxonalarida sifat nazoratini modernizatsiya qilish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi. Ushbu ish natijalari O'zbekiston to'qimachilik klasterlari, ip ishlab chiqaruvchi korxonalar, standartlashtirish organlari va eksportni rag'batlantiruvchi tashkilotlar uchun amaliy ahamiyatga ega.

Ushbu tadqiqotda paxta ipini ishlab chiqarishda chiqindilar miqdorini kamaytirish va buning ip sifatiga ta'siri o'rganilgan. Xom ashyo narxining yuqoriligi sababli chiqindilarni qayta ishlash va qayta foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotda ishlab chiqarish jarayonida ajratilgan mayda tolalar (chiqindilar) qayta ishlab chiqarishga qo'shilgan. Mashina sozlamalarini o'zgartirish orqali chiqindi miqdori kamaytirilgan va ip sifat ko'rsatkichlari (mustahkamlik, notekislik, tukdorlik, va boshqalar) o'lchangan. Natijalar SPSS dasturida t-test yordamida tahlil qilinib, chiqindi kamaytirilganda ip sifat ko'rsatkichlaridagi o'zgarishlar aniqlandi. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, chiqindilarni qayta ishlab chiqarishga qo'shish iqtisodiy jihatdan foydali bo'lib, sifatga ta'sirini statistik jihatdan baholash mumkin [1].

Ushbu ishda an'anaviy va zamonaviy halqali ip yigiruv mashinalarida ishlab chiqarilgan iplarning sifati va tannarxi qiyosiy tahlil qilingan. Taris korxonasida olib borilgan tajribalar natijasida zamonaviy uskunalar ipning mustahkamligi, tekisligi, va tukdorligi kabi sifat parametrlarini sezilarli darajada yaxshilagani aniqlandi. Bundan tashqari, zamonaviy uskunalar energiya sarfini kamaytirish va texnik xizmat ko'rsatish xarajatlarini optimallashtirish orqali ishlab chiqarish tannarxiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Ushbu tadqiqot ip yigiruv korxonalari uchun texnologik modernizatsiyaning ahamiyatini ilmiy jihatdan asoslab beradi [2].

Ochiq uchli yigirish usulida ip yigirishda uchta asosiy komponent (ochuvchi valik, rotor va tortib olish nozuli) ip sifatiga ta'sir etadi. Ayniqsa, tortib olish nozulining sirt tuzilishi (tekis, spiral, tishli va h.k.) ipning tukdorligi, mustahkamligi, neps (tola to'plamlari) va notekisligiga katta ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqotda to'rt xil turdagi nozul va to'rt xil xomashyo aralashmasi (polyester/paxta va polyester/viskoza) ishlatilgan. Bir xil chiziqli zichlikdagi iplar ishlab chiqarilib, ularning tukdorligi, mustahkamligi, notekisligi va nuqsonlari sinovdan o'tkazilgan. Natijalar statistik tahlil usullari bilan o'rganilib, har bir xomashyo turi uchun eng mos nozul turi aniqlangan [3].

Ushbu tadqiqotda an'anaviy halqali yigiruv mashinasi elastanli o'zakli ip (core-spun yarn) ishlab chiqarishga moslashtirilgan. Tizimda servo motor boshqaruvidagi elastan uzatish mexanizmi qo'llanilgan bo'lib, barcha parametrlar kompyuter orqali avtomatik boshqariladi. Tadqiqot davomida turli xil ishlab chiqarish parametrlarini (elastan uzilishi, burilish miqdori va boshqalar) o'zgartirib, ularning ip sifatiga ta'siri o'rganilgan. Natijalar Design-Expert statistik dasturida tahlil qilinib, optimal ishlab chiqarish parametrlari aniqlangan. Ushbu mahalliy ishlab chiqilgan tizim eksport qilinadigan texnologiyalarga muqobil bo'lib, qo'shilgan qiymatni oshirishga xizmat qiladi [4].

Halqali yigiruvda ishlab chiqarilgan iplarni bobinlash jarayonida mashina sozlamalari va ishlab chiqarish muhitining ip sifatiga ta'siri o'rganilgan. To'qimachilik jarayonida ipning

tuzilishidagi nuqsonlar (notekislik, tukdorlik, tolalarning uchlari) oxirgi mahsulot sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqotda 100% paxta xomashyosidan Ne 30/1, Ne 36/1, Ne 40/1 va Ne 50/1 qatlamli (compact) iplar ishlab chiqarilib, bobinlash mashinasining turli sozlamalari o'zgartirilgan. Natijada, sifat ko'rsatkichlari va ishlab chiqarish unumdorligi o'rtasidagi optimal muvozanat aniqlangan. Bu tadqiqot ishlab chiqarish jarayonidagi mayda sozlamalarning ham sifatga qanchalik ta'sir qilishini ko'rsatadi [5].

To'qimachilikni nam qayta ishlash (ogartirish, bo'yash, yuvish) jarayonlarida chiqindi suvlarni qayta ishlab, ularni qayta foydalanish imkoniyatlari o'rganilgan. Faollashtirilgan uglerod (AC), nanofiltratsiya (NF), ultrafiltratsiya (UF) va teskari osmos (RO) usullari bilan tozalangan suv turli nisbatlarda (100%, 75/25%, 50/50%, 25/75%) zavod suvi bilan aralashtirilib, paxta matolarini ogartirish, bo'yash va yuvishda qo'llanilgan. Natijalar shuni ko'rsatdiki, faollashtirilgan uglerod va nanofiltratsiya usullari bilan tozalangan suv oqartirish, bo'yash va yuvish jarayonlari uchun maqbul hisoblanadi. Rang farqi (dE), yuvish va ishqalanishga mustahkamlik, and kapillyarlik kabi sifat ko'rsatkichlari zavod suvi bilan ishlov berilgan namunalarnikiga yaqin yoki undan ham yaxshi natijalar berdi. Bu tadqiqot suv resurslarini tejash va atrof-muhitga yukni kamaytirishning ilmiy asosini yaratadi [6].

Poliester va viskoza tolalarining turli aralashmalarida (100% PES, 67% PES/33% VIS, 50% PES/50% VIS) antistatik material (spin finish) miqdorini o'zgartirib, uning statik elektr zaryadi va ip sifatiga ta'siri o'rganilgan. Tajribalar natijasida, aralashma turi va antistatik miqdorining statik elektr zaryadiga ta'siri juda yuqori darajada ahamiyatli ekanligi aniqlandi. Antistatik miqdorining ipning mustahkamligi va qalin joylari (thick places) ga ta'siri ahamiyatli, neps (tola to'plamlari) ga ta'siri esa juda ahamiyatli deb topildi. Har bir aralashma uchun eng yaxshi ip sifatini ta'minlovchi optimal antistatik miqdori aniqlangan. Shuningdek, aralashmadagi viskoza nisbati ortishi bilan ipda qolgan yog'li qoldiqlar miqdori ham ortishi kuzatilgan [7].

O'zbekistonning yetakchi to'qimachilik korxonalaridan birida ishlab chiqarilgan 100% paxta iplari namunalari o'rganildi. Namunalar quyidagi nominal chiziqli zichliklarda tanlab olindi:

- Ne 20/1 (29.5 tex)
- Ne 30/1 (19.7 tex)
- Ne 40/1 (14.8 tex)
- Ne 50/1 (11.8 tex)

Har bir chiziqli zichlik bo'yicha 10 tadan takroriy sinov o'tkazildi (jami 40 ta namuna).

Tahlil qilingan asosiy standartlar: Milliy standartlar: O'zDSt 992-2019 "Paxta iplari. Texnik shartlar", O'zDSt 1043-2020 "Ip va iplarning mustahkamligini aniqlash usullari"

Quyidagi sifat ko'rsatkichlari o'lchandi:

1. Mustahkamlik (cN/tex) – Uster Tensorapid 4 asbobida, ISO 2062 talablari asosida
2. Nisbiy uzayish (%) – Uster Tensorapid 4 asbobida
3. Notekislik (CVm %) – Uster Tester 5-S800 asbobida
4. Tuklilik (H) – Uster Tester 5-S800 asbobida
5. Neps (neps/km) – Uster Tester 5-S800 asbobida
6. Qusurlar (thin places, thick places) – Uster Tester 5-S800 asbobida

urli chiziqli zichlikdagi paxta iplarining sifat ko'rsatkichlari

1-jadval.


Nominal chiziqli zichlik	Mustahkamlik (cN/tex)	Uzayish (%)	Notekislik CVm (%)	Tuklilik H	Neps (neps/km)
Ne 20/1 (29.5 tex)	14.2	5.8	12.4	5.2	185
Ne 30/1 (19.7 tex)	15.6	6.2	13.1	5.8	210
Ne 40/1 (14.8 tex)	16.8	6.5	14.2	6.3	245
Ne 50/1 (11.8 tex)	17.5	6.9	15.4	7.1	285

Milliy (O'zDSt) va xalqaro (ISO) standartlar bo'yicha Ne 30/1 ip uchun sifat ko'rsatkichlari chegaralari


2-jadval.

Sifat ko'rsatkichi	O'zDSt 992-2019 (min/maks)	ISO 2062 (min/maks)	Farq (%)
Mustahkamlik (cN/tex)	≥ 14.0	≥ 15.5	+10.7
Notekislik CVm (%)	≤ 14.5	≤ 13.0	-10.3
Tuklilik H	≤ 6.5	≤ 5.5	-15.4
Neps (neps/km)	≤ 250	≤ 200	-20.0


3-jadval ma'lumotlariga ko'ra, xalqaro standartlar milliy standartlarga nisbatan barcha ko'rsatkichlar bo'yicha qat'iyroq talablarni belgilaydi. Eng katta farq neps ko'rsatkichi bo'yicha kuzatilgan (20%), undan keyin tuklilik (15.4%) va notekislik (10.3%) ko'rsatkichlari keladi.



1-Rasm. 1-Turli chiziqli zichlikdagi iplarning mustahkamlik va notekislik ko'rsatkichlari.



2-Rasm. Milliy va xalqaro standartlar bo'yicha Ne 30/1 ip sifat ko'rsatkichlari chegaralarini qiyosiy tahlili.



3-Rasm. Standartlar talablari bo'yicha farqlar foizi.

Tadqiqot natijalari milliy va xalqaro standartlar o'rtasida sezilarli farqlar mavjudligini ko'rsatdi. Xalqaro standartlar talablarining qat'iyligi bir qancha omillar bilan izohlanadi:

Mustahkamlik ko'rsatkichi bo'yicha xalqaro standart talabi (15.5 cN/tex) milliy standart talabidan (14.0 cN/tex) 10.7% yuqori. Bu farq eksportga mo'ljallangan mahsulotlarning xalqaro bozor talablariga mos kelmasligiga olib kelishi mumkin. [1] tadqiqotida ta'kidlanganidek, ishlab chiqarishdagi chiqindilarni kamaytirish orqali ip mustahkamligini oshirish imkoniyati mavjud.

Notekislik (CVm) ko'rsatkichi bo'yicha xalqaro standart 13.0% dan oshmaslikni talab qilsa, milliy standart 14.5% gacha ruxsat etadi. Bu farq (10.3%) xalqaro bozorlarda mahsulot sifati past deb baholanishiga sabab bo'lishi mumkin. [3] tadqiqotida ko'rsatilganidek, tak-off nozzle turini optimallashtirish orqali ip notekisligini kamaytirish mumkin.

Tuklilik (H) ko'rsatkichi bo'yicha farq eng muhimlaridan biridir (15.4%). Tuklilik ipning keyingi qayta ishlash jarayonlariga (to'qish, bo'yash) bevosita ta'sir ko'rsatadi. [2] tadqiqotida zamonaviy uskunalar qo'llanilganda ip tukliligining kamayishi kuzatilgan.

Neps ko'rsatkichi bo'yicha farq eng yuqori darajada (20%). Neps miqdori ipning ko'rinishiga va tayyor gazlama sifatiga bevosita ta'sir qiladi. [7] tadqiqotida antistatik materiallar

qo'llash orqali neps miqdorini kamaytirish imkoniyati ko'rsatilgan.

Tahlillar asosida standartlar o'rtasidagi moslashtirish koeffitsiyentlarini ishlab chiqish mumkin:

Standartlar o'rtasidagi moslashtirish koeffitsiyentlari

3-jadval.

Sifat ko'rsatkichi	Milliy standart (O'zDSt)	Xalqaro standart (ISO)	Moslashtirish koeffitsiyenti
Mustahkamlik	14.0 cN/tex	15.5 cN/tex	K = 1.107
Notekislik CVM	14.5%	13.0%	K = 0.897
Tuklilik H	6.5	5.5	K = 0.846
Neps	250 neps/km	200 neps/km	K = 0.800

Ushbu koeffitsiyentlar korxonalarda ichki sifat nazoratini amalga oshirishda, mahsulotni xalqaro talablarga mosligini oldindan baholashda qo'llanilishi mumkin.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Sifat laboratoriyalarini xalqaro akkreditatsiyadan o'tkazish – sinov usullarining ISO standartlariga mosligini ta'minlash
2. Ishlab chiqarish bosqichlarida standart talablarini integratsiyalash – har bir texnologik o'tishda sifat ko'rsatkichlarini nazorat qilish
3. Xodimlarning malakasini oshirish – standart talablari va sinov usullari bo'yicha muntazam treninglar tashkil etish
4. Sifat menejment tizimini takomillashtirish – ISO 9001 talablari asosida integratsiyalashgan tizim yaratish
5. Texnologik parametrlarni optimallashtirish – [4] va [5] tadqiqotlarida ko'rsatilganidek, mashina sozlamalarini optimallashtirish orqali sifat ko'rsatkichlarini xalqaro talablar darajasiga yetkazish

Ushbu tadqiqotda paxta iplarining sifat ko'rsatkichlarini baholashda qo'llaniladigan milliy (O'zDSt) va xalqaro (ISO, ASTM) standartlarning qiyosiy tahlili amalga oshirildi. Quyidagi asosiy xulosalarga kelindi:

1. Standartlar o'rtasida sezilarli farqlar mavjud: Xalqaro standartlar milliy standartlarga nisbatan barcha o'rganilgan sifat ko'rsatkichlari (mustahkamlik, notekislik, tuklilik, neps) bo'yicha qat'iyroq talablarni belgilaydi.
2. Eng katta farq neps ko'rsatkichi bo'yicha kuzatildi (20%), undan keyin tuklilik (15.4%) va notekislik (10.3%) ko'rsatkichlari keladi.
3. Moslashtirish koeffitsiyentlari ishlab chiqildi, ular korxonalarda ichki sifat nazoratini xalqaro talablarga moslashtirish imkonini beradi.
4. Amaliy tavsiyalar sifatida sifat laboratoriyalarini xalqaro akkreditatsiyadan o'tkazish, ishlab chiqarish bosqichlarida standart talablarini integratsiyalash, xodimlar malakasini oshirish va texnologik parametrlarni optimallashtirish taklif etildi.

Kelgusida tadqiqotni turli xil xom ashyo tarkibli (poliester/paxta aralashmasi, viskoza va boshqalar) iplar uchun kengaytirish va standartlararo uyg'unlashtirishning iqtisodiy samaradorligini baholash maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar

- [1]. Bekir Y.T.K. Paxta ip ishlab chiqarish korxonasida hosil bo'ladigan chiqindilar miqdorini kamaytirish va uning turli ip sifat parametrlariga ta'siri. Magistrlik dissertatsiyasi, Çukurova Universiteti, Turkiya, 2006.
- [2]. Kendirli B., va boshqalar. Halqali ip yigiruv mashinalarida zamonaviy uskunalarining mahsulot sifati va tannarxiga ta'sirini tadqiq qilish. Magistrlik dissertatsiyasi, Ege Universiteti, Turkey.
- [3]. Erbil Y. va boshqalar. Open-end rotor aralashma ip ishlab chiqarishda tortib olish nozuli turining ip sifatiga ta'siri. Doktorlik dissertatsiyasi, Uludağ Universiteti, Turkiya.
- [4]. Vuruşkan D. va boshqalar. Elastanli ip ishlab chiqarish uchun modifikatsiyalangan halqali ip yigiruv mashinasining ishlab chiqarish o'zgaruvchilarini optimallashtirish va o'zgaruvchilarning ip sifatiga ta'siri. Doktorlik dissertatsiyasi, Çukurova Universiteti, Turkiya.

- [5]. Bedenli G., va boshqalar. Bobina mashinalarida sozlamalarning ip sifatiga ta'sirini tadqiq qilish. Magistrlik dissertatsiyasi, Uludağ Universiteti, Turkiya.
- [6]. Palamutçu S., va boshqalar. To'qimachilik chiqindi suvlarini qayta ishlash va qayta ishlangan suvning paxta to'qimachilik nam qayta ishlash bosqichlarida qo'llanilishi hamda qayta ishlangan suvning to'qimachilik sifatiga ta'siri. Doktorlik dissertatsiyasi, Ege Universiteti, Turkiya.
- [7]. Alhalabi K., va boshqalar. Sintetik tolali ip yigirishda antistatik material qo'llanilishini tadqiq qilish va ip sifat parametrlarini optimallashtirish. Doktorlik dissertatsiyasi, Çukurova Universiteti, Turkiya.
- [8]. O'zbekiston standartlashtirish agentligi. O'zDSt 992-2019: Paxta iplari. Texnik shartlar. Toshkent: O'zstandart nashriyoti, 2019.
- [9]. O'zbekiston standartlashtirish agentligi. O'zDSt 1043-2020: Ip va iplarning mustahkamligini aniqlash usullari. Toshkent: O'zstandart nashriyoti, 2020.
- [10]. Xalqaro standartlashtirish tashkiloti (ISO). ISO 2062:2009: To'qimachilik – O'ramdagi iplar – Bir tarmoqli uzilish kuchi va uzayishni aniqlash. Jeneva: ISO nashriyoti, 2009.

TIKUV MASHINALARIDA IP TORGICH MEKANIZMLARI TAHLILI

M. Turdiyev, D. Pozilova

Farg'ona davlat texnika universiteti

ORCID: 0009-0006-3041-5778

e-mail: mahmudjonturdiyev22@gmail.com

e-mail: urdonapozilova2005@gmail.com

(Qabul qilindi 20.04.2026 y.)


Annotatsiya: Ushbu maqolada tikuv mashinalarida qo'llaniladigan ip tortgich mexanizmlarining tuzilishi, ishlash prinsipi va ularning tikuv sifatiga ta'siri tahlil qilinadi. Ip tortgich tizimi tikuv jarayonining muhim elementi hisoblanib, u tikuvning mustahkamligi, silliqiligi hamda tashqi ko'rinishini belgilaydi. Tadqiqot davomida turli konstruksiyadagi ip tortgich mexanizmlarining afzallik va kamchiliklari solishtirildi, ularning texnologik jarayonga moslashuv darajasi baholandi. Shuningdek, zamonaviy tikuv mashinalarida qo'llanilayotgan avtomatlashtirilgan ip tortgich tizimlari ham ko'rib chiqildi. Olingan natijalar asosida ip tortgich mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi. Ushbu ish tikuvchilik sanoatida mahsulot sifatini oshirish va ishlab chiqarish samaradorligini yaxshilashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: tikuv mashinasi, ip tortgich mexanizmi, tikuv sifati, ip tarangligi, mexanik tizimlar, avtomatlashtirish, tikuv jarayoni, texnologik jarayon.


ASOSIY QISM

Ip tortgich mexanizmi bir baxya hosil bo'lishda sarf bo'ladigan ipni uzatish va chokni taranglash uchun xizmat qiladi. Ip tortgich mexanizmlar odatda igna mexanizmlari bilan bitta kinematik zanjirda ishlatiladi. Shuning uchun ularni alohida ko'rib bo'lmaydi. Igna mexanizmi bunday xollarda odatdagi krivoship – shatun mexanizmi bo'lib hisoblanadi va uning shatuniga sharnir, barmoqcha va boshqa detallar yordamida ip tortgich mexanizmi o'rnatiladi, harakatni doimo igna mexanizmidan oladi, xamda alohida sozlanmaydi. Past tezlikli tikuv mashinalarida asosan kulachokli ip tortgichlar qo'llaniladi. O'rtacha tezlikli (bosh val ning aylanishlar soni 3500–4000 ayl/min.gacha) tikuv mashinalarida sharnirli-sterjenli, mokisining aylanish o'qi vertikal tekislikda joylashgan ikki ignali tikuv mashinalarida kulisali, yuqori tezlikli tikuv mashinalarida (5000 ayl/min. va undan yuqori) aylanuvchan ip tortgichlar qo'llanilgan. Aylanma harakatli ip tortgichlar dinamik muvozanatlanganligi sababli ish jarayonida maxsus moylash tizimini talab qilmaydi. Barcha turdagi tikuv mashinalarida ip tortgich mexanizmlariga yuqorigi ip tarangligini moslash qurilmasi o'rnatiladi, u orqali ip tarangligini moslanadi. Agar bu qurilma orqali ip tarangligi normallashtirilmasa olinayotgan chok tarangligi va sifati pasayib ketadi. Qurilma shpilkaga o'rnatilgan prujina, ikkita tarelkacha, gaykadan iborat bo'lib, shpilka mashina korpusiga ip uzatish harakat yo'liga o'rnatiladi. Shpilka ichiga kichik o'qcha o'rnatilgan bo'lib, u lapka – tepki mexanizmi richagi bilan erkin bog'langan. Igna quloqchasiga ip taqish jarayonida ip quloqchaga borguncha uni tarelkachalar orasidan yarim aylantirilib o'tqaziladi va ip tortgich

quloqchasiga taqiladi. Ip tarangligi gaykani burash orqali sozlanadi, agar gayka (3) ni soat strelkasi bo'yicha bursalsa ip tarangligi oshadi. Tikilayotgan materialni lapka - tepki ostidan olishda yuqorigi ip tarangligini pasaytirish kerak, agar taranglik pasaytirilmasa materialni olishda ignaga qo'shimcha yuklanish tushadi, bu yuklanish ipni tikilayotgan material bilan birgalikda bo'ylama – ishchiga qarab harakatlantirilishi natijasida xosil bo'ladi. Bu yuklanish ignani bukilishiga, sinishiga sabab bo'ladi. Igna ipini tarangligini kamaytirish uchun shpilkani ikkinchi uchiga o'rnatilgan kichik o'qchaga tepaga ko'tarilayotgan lapka - tepki richagi ta'sir qiladi va o'qni ishchiga nisbatan harakatlantiradi, natijada prujina siljib tarelkachalarga bo'lgan bosim kamayadi va igna ipiga ta'sir qilayotgan bo'ylama yuklanish kamaytiriladi.



Kulisali ip tortgich mexanizmi (224 - kl PMZ). 1-krivoship; 2-shatun; 3-barmoqcha; 4- vtulka; 5- ip tortgich richag va quloqchasi; 6- sharnir; 7- sterjen.



Mashinaga ip taqish ko'rinishi. 1- yo'naltirgich; 2- ip yo'naltiruvchi; 3- gayka; 4- shayba; 5-kompensatsiyalovchi prujina; 6- ip yo'naltiruvchi burchaklik; 7- yo'naltirgich; 8- ip yo'naltiruvchi; 9- ip yo'naltiruvchi; 10- ip tortgich quloqchasi.


202 - kl PMZ va 224 - kl PMZ tikuv mashinalari ip tortgich mexanizmi: Bu tipdagi ip tortgich mexanizmlar asosan ikki ignali hozirgi zamon mashinalarida ishlatiladi, lekin bu mashinalar bosh vallari aylanishi sonlari 4000 ayl/minut dan ko'p bo'lmasligi kerak. Kulisali ip tortgich mexanizmlar qo'llaniladigan mashinalar yordamida qalin matolar, bir necha qavat qilingan materiallarni mokili baxya qator chok orqali birlashtiriladi. 202 - kl PMZ va 224 - kl PMZ tikuv mashinalarida kulisali ip tortgich mexanizmlari ishlatiladi. Igna mexanizmi shatun (2) ning ikkinchi tomoniga vtulka (4) o'rnatilgan bo'lib unga sterjen (7) kiydiriladi, xamda sterjen (7) uchun vtulka harakatlantiruvchi detal bo'lib xizmat qiladi. Krivoship aylanma harakat qilganda shatun va uning vtulkasi (4) aylanma harakat qiladi, sterjen shatun vtulkasi bilan birga aylanma harakat qiladi. Sterjen vtulka ichiga erkin o'rnatilgani uchun aylanish davrida sharnir (6) hisobiga tebranma harakat qiladi va ip tortgich vazifasini bajaradi. Sterjen (7) vtulka (4) juftligi kulisani hosil qiladi (sterjen – kulisa toshi; vtulka - kulisa), shuning uchun bu turdagi mexanizmlar kulisali mexanizmlar deb yuritiladi.

Tikuv mashinalariga ip taqish ma'sulyatli jarayon hisoblanadi va uning to'g'ri bajarilganligi mashina ish unumdorligi, olinayotgan baxya – chok sifatiga ta'sir qiladi. Tikuv mashinaga igna o'rnatishda maxsus yo'riqnomaga e'tibor qilish, igna kolbasidagi o'yiqchasi igna ushlagich ichki devoriga to'liq joylanishi va vint yordamida mahkamlanishi kerak, ipni taqishda ignaning katta o'yiqchasi – kanalchasi tomonidan taqiladi.


Fazoviy aylanma harakat qiluvchi ip tortgich mexanizmlarida ip taqish ko'rinishi quyida 97 - kl OZLM tikuv mashinasi va uning bazasida yaratilgan tikuv mashinalarida fazoviy aylanma harakat qiluvchi ip tortgich mexanizmlari ishlatiladi, uning ko'rinishi sodda, plastinkasimon materialga mexanik ishlov berilib, yahlit holda tayyorlangan. Mashina bosh valining ikkinchi uchiga dastlab krivoship, maxsus disk o'rnatiladi, diskga ip tortgich uchta vint orqali mahkamlanadi. 97 - kl OZLM tikuv mashinasi va uning bazasida yaratilgan tikuv mashinalarida fazoviy aylanma harakat qiluvchi ip tortgich

mexanizmlari ishlatilganligi uchun ularning igna mexanizmlarida kalta igna yuritgich ishlatiladi va ular ish davomida bir – birlariga xalaqit berishmaydi. Yuqorida aytilganday barcha turdagi tikuv mashinalarida ip tarangligini moslovchi qurilmalar ishlatiladi va ularning soni baxya-chok xosil

qilishda ishtirok etadigan iplar soniga teng bo'лади, faqat mokili tikuv mashinalarida ipi uchun ip tarangligini moslovchi qurilmalar ishlatilmaydi. Moki komplektiga kiruvchi qismlardan naycha solinadigan korpusning tashqi yuzasida maxsus plastinka va vint yordamida pastki ip tarangligi moslanadi va u odatda juda kam sozlanadi.



97 - kl OZLM tikuv mashinasi fazoviy aylanma harakat qiluvchi ip tortgich mexanizmiga ip taqish ko'rinishi. 1-ip yo'naltirgich; 2- prujina; 3- ip tarangligini moslash qurilmasi; 4- ip yo'naltiruvchi sterjen; 5- ignaning ip taqiladigan quloqchasi 6- ip yo'naltirgich; 7- ip yo'naltirgich; 8- ip tortgichning kulachogi; 9- ip tortgich; 10- mahkamlovchi vintlar.



MO - 367 VT tikuv mashinasi ip tortgich mexanizmiga ip taqish ko'rinishi.


XULOSA

Mazkur maqolada tikuv mashinalarida qo'llaniladigan ip tortish mexanizmlarining konstruksiyasi va ishlash prinsiplari atroflicha tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, ip tarangligini to'g'ri sozlash tikuv sifatini ta'minlashda hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi. Mexanizmlarning noto'g'ri ishlashi yoki sozlanishidagi kamchiliklar tikuvda nuqsonlar paydo bo'lishiga, ip uzilishiga hamda mahsulot sifatining pasayishiga olib keladi.

MO - 367 VT tikuv mashinasi ip tortgich mexanizmiga bir vaqtda beshta ip taqiladi. Iplarning ikkitasi ignaga, uchasi chalishtirgichga taqiladi. Ignalarga ip taqishda ikkita ip tarangligini moslovchi qurilmalar ishlatiladi va ular mashina korpusi yuqori qismiga joylashgan. Chalishtirgichlar uchun esa uchta ip tarangligini moslovchi qurilmalar ishlatiladi va ular mashina platformasi ostiga joylashtirilgan.

Kulachokli ip tortgich mexanizmi boshqa ko'rinishdagi ip tortgich mexanizmlarga nisbatan sodda va bosh val aylanish tezligi 1200 ayl/min bo'lgan past tezlik, og'ir sharoitda ishlovchi mashinalarda ishlatiladi. Kulachok (1) bir vaqtning o'zida igna mexanizmiga xam harakat beradi, shuning uchun ular ikkalasi bir – biriga bog'liq holda ishlaydi. Ip tortgich richagi (4) ning ikkita tebranish markazi bo'lib, ulardan biri qo'zg'almas sharnir orqali mashina korpusiga ikkinchisi esa barmoqcha (2) orqali kulachok korpusidagi maxsus paz (2) sharnirli birlashtirilgan. Kulachok aylanma harakat qilganda pazning notekis xolati bo'yicha barmoqcha sirpanib, o'q (3) ga nisbatan tebranma harakat qiladi va richag (4) quloqchasi a-b aylana kesimi traektoriyasi bo'yicha harakat qiladi.

Richagli ip tortgich mexanizmlari barcha turdagi zanjirli chok xosil qiluvchi mashinalarda ishlatiladi va ular odatda richag va uni igna mexanizmi igna yuritgichi yoki biror boshqa detaliga o'rnatish uchun mo'ljallangan detallardan tashkil topadi. Ular odatda vint, xomut, kronshteyn kabi detallar bo'лади.



Kulachokli ip tortgich mexanizmi. 1- kulachok; 2- barmoqcha; 3- qo'zg'almas sharnir; 4- ip tortgich richagi.

Tahlil davomida an'anaviy mexanik ip tortish tizimlari bilan zamonaviy avtomatlashtirilgan tizimlar o'rtasidagi farqlar ham ko'rib chiqildi. Zamonaviy tizimlar yuqori aniqlikda ishlashi, inson omiliga bog'liqlikni kamaytirishi va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishi bilan ajralib turadi. Shu bilan birga, ularning konstruksion murakkabligi va xizmat ko'rsatish xarajatlari ham hisobga olinishi zarur.

Adabiyotlar

- [1]. Orlov S.P. Mashina va mexanizmlar nazariyasi. Toshkent: O'qituvchi, 2012.
- [2]. Комиссаров А.И. Проектирование и расчет машин легкой промышленности. Москва: Машиностроение, 2002.
- [3]. Jumaniyazov Q.J. To'qimachilik va yengil sanoat mashinalari konstruksiyasi. Toshkent: Aloqachi, 2010.
- [4]. Xamidov A. Mashinasozlikda mexanizmlar dinamikasi tadqiqotlari. Toshkent: Noshir, 2015.
- [5]. Polvonov B.M. Tikuv mashinalarining texnologik sikllari va ularning samaradorligi. Farg'ona: FarPI, 2020.
- [6]. Рейбарх Л.Б. Расчет и конструирование машин швейного производства. Москва: Легкая индустрия, 1980.

**GAZSIMON SANOAT CHIQINDILARI CHANGINI USHLASH MUAMMOLARI VA
ULARNING YECHIMI**

X.M. Sadullayev, G.T. Abduraxmonova

Farg'ona davlat texnika universiteti,

(Qabul qilindi 20.04.2026 y.)

Kalit so'zlar: Sovutilgan klinker, tuyish, quritish, pishirish, aerosollar, changli gazlar, xo'l, quruq usullar, yirik va mayin zarrachalar.

Annotatsiya: Maqolada sement ishlab chiqarish korxonalaridan atmosferaga chiqadigan changli gazlarning xarakteristikallari, konsentratsiyalari, aerosollarning xossalari tahlil qilinib, ularning chang ushlash jarayonlari samaradorligiga ta'siri natijalari asosida yangi chang ushlash apparatlari yaratish bo'yicha olib borilayotgan ilmiy – tadqiqot ishlari natijalari bayon qilingan.

Ключевые слова: Охлажденные кlinker, измелчение, сushka, обжig, aerosoli, пылевые газы, мокрые, сухие методы, крупные и мелкие частицы.

Annotatsiya: V state analiziruyutsya xarakteristiki, konsentratsii i svoystva aerorozley пылевых газов, выбрасываемых в атмосферу цементными заводами, i opisyvayutsya rezultaty nauchno-issledovatel'skix rabot po sozdaniyu novyx пылеулавливающих аппаратов на основе результатов их влияния на эффективность пылеулавливающего процесса.

Kirish. Sement ishlab chiqarish uchun ishlatiladigan barcha xom-ashyo materiallari (ohaktosh, tuproq, bo'r, mergel, trepel, tuf, shlak va b.) quritiladi, maydalanadi va ularning reaksiya yuzasini ko'paytirish maqsadida changsimon holatga kelgunicha tuyiladi. Tayyor bo'lgan xom-ashyo aralashmasini aylanuvchi pechlarda yuqori harorat ostida pishiriladi, keyin esa u sovutiladi.

Sovutilgan klinker gips va boshqa qo'shimchalar bilan birgalikda tegirmonlarda tuyilib sement olinadi.

Asosiy texnologik jarayonlarning (tuyish, quritish, pishirish) havo va issiq gaz oqimida amalga oshirilishi ishlab chiqarish jarayoni tezligini oshiradi, bu esa tegirmon, pech va boshqa agregatlar ish unumdorligining oshishiga olib keladi.

Lekin, bu jarayonlarda qatnashayotgan gazlar bilan xom-ashyo, shixta, yoqilg'i, yarimfabrikatlar va sementning o'ta mayda zarrachalarini atmosferaga olib chiqib ketiladigan chang miqdori hozirda qayta ishlashga yo'naltirilgan shixta massasining 20-25 % ga yetishi mumkin.

Bunday katta yo'qotishning oldini olish, atmosfera va atrof muhit ifloslanishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida texnologik jarayonlarda hosil bo'ladigan aerosollar, changli gazlar va aspiratsion havo atmosferaga chiqarib yuborilishdan oldin maxsus chang ushlash apparatida tozalashni talab etadi.

Materiallar va metodlar. Chang ushlash apparatlarida ushlab qolinmagan, atmosferaga chiqib ketayotgan chang miqdori qayta ishlanayotgan massaning deyarli 2% ini tashkil etadi. Bu

chang 20 kmgacha masofaga yoyilib, atmosferani ifloslaydi, insonlar mehnat va yashash sharoitini yomonlashtiradi.

Shuningdek, sement sifatini va xossalarini yanada yaxshilash maqsadida xom-ashyo va klinker tuyish ko'rsatkichlarini takomillashtirish, o'ta mayin sement olishga intilish, mavjud sement korxonalarining quvvatini oshirish uchun ularni rekonstruksiya qilish, yangi texnologik liniyalar, korxonalar qurish ishlari natijasida o'ta mayin dispersli, cho'kishi qiyin bo'lgan chang ajralmalari xajmi ko'payib bormoqda.

Shu sababli ham sement ishlab chiqaruvchi korxonalar changlari bilan atrof-muhit ifloslanishi muammosi juda dolzarb vazifa bo'lib, u juda katta ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyat kasb etadi.

Ishlab chiqarishni jadallashtirish, sement sifatini oshirish, korxonalar quvvatini ko'tarish ishlari zamonaviy, samarali chang ushlar qurilmalarini joriy etish bilan birga amalga oshirilishi mazkur muammoni hal etish yo'llaridan biridir.

Sement ishlab chiqarishda ishlatiladigan xom-ashyo, yoqilg'i va qo'shimchalarning, texnologik jarayonlarning va jihozlarning xilma-xilligi (xo'l, quruq usullar) turli fizik-kimyoviy xossalarga ega bo'lgan aerozollar hosil bo'lishiga sabab bo'ladi.

Ushbu aerozollarni quyidagi guruxlarga bo'lish mumkin:

1. Xom-ashyo materiallarini maydalash va transportlash jarayonida hosil bo'lgan aerozollar atrof-muhitga xos bo'lgan namlik va harorat sharoitida o'ta yuqori dispersligi (5mkm dan kichik o'lchamdagi fraksiyalar 31% gacha) bilan xarakterlanadi; ularda chang konsentratsiyasi yuqori satxda 0.3 g/m^3 , pastki qatlamda esa $5 \div 13 \text{ g/m}^3$ ga yetadi.
2. Xom-ashyo va qo'shimchalar uchun quritish barabanlari aerozollari yirik va mayin zarrachalarga ega bo'lib, ularning harorati $65 \div 150 \text{ }^\circ\text{S}$ ni, shudring nuqtasi $42 \div 62 \text{ }^\circ\text{S}$ ni tashkil etadi.
3. Xom-ashyo tegirmonlari aerozollari, ular mayin fraksiyalar (5mkm dan kam o'lchamli zarrachalar miqdori 65% gacha) miqdori ko'pligi bilan xarakterlanadi. Shudring nuqtasi harorati esa $35 \div 50 \text{ }^\circ\text{S}$.
4. Ho'l usulda ishlovchi aylanma pechlarning ko'p dispersli aerozollari, ular namligi yuqoriligi (shudring nuqtasi harorati $58 \div 75 \text{ }^\circ\text{S}$), gaz harorati $350 \div 400 \text{ }^\circ\text{S}$ gacha va 5mkm dan kam o'lchamli zarrachalar ulushi 50% gacha bo'lishi bilan xarakterlanadi. Bunda qisqa pechlar aerozollari uzun pechlar aerozollariga nisbatan yirik changli aerozollar ko'pligi bilan ajralib turadi.
5. Konveyer kalsinatorli aylanuvchi pechlarning ko'p dispersli aerozollari – namlik xajmi kam (shudring nuqtasi harorati $32 \div 48 \text{ }^\circ\text{S}$), changli gaz harorati $210 \text{ }^\circ\text{S}$ gacha bo'lib ularda 5mkm dan kam o'lchamli zarrachalar miqdori 20% gachani tashkil etadi.
6. Quruq usulda ishlovchi aylanma pechlarning aerozollari yuqori dispersligi (o'lchami 5mkmdan kichik bo'lgan zarrachalar miqdori 75% gacha), namlik xajmi (shudring nuqtasi harorati $29 \div 44 \text{ }^\circ\text{S}$) pastligi va harorati yuqoriligi ($380 \text{ }^\circ\text{S}$ gacha) bilan xarakterlanadi.
7. Klinker sovutgichlarning yirik dispersli (o'lchami 20 mkm gacha bo'lgan zarrachalar ulushi 80% gacha) aerozollari namlik xajmi pastligi (shudring nuqtasi $30 \text{ }^\circ\text{S}$ atrofida) hamda harorati yuqoriligi bilan xarakterlanadi.
8. Sement tegirmonlari aerozollari (o'lchami 5mkm dan kichik bo'lgan zarrachalar ulushi 40% gacha) harorati $90 \div 170 \text{ }^\circ\text{S}$, namlik xajmi (shudring nuqtasi $22 \div 60 \text{ }^\circ\text{S}$) tuyilayotgan shixta xossasiga ko'ra katta oraliqda o'zgaruvchan bo'ladi.

Natijalar va ularning tahlili . Sement ishlab chiqarishi aerozollari xossalarining tavsifi quyidagi jadvallarda keltirilmoqda:

Sement ishlab chiqarishi aerostollari xossalari xarakteristikasi

Texnologig jixozlar	Gaz-havo multining parametrlari					Kimyoviy tarkibi, %				Changning dispers tarkibi, %, mkm			
	1kg mahsulotga a m ³ dagi haimi	Harorat, °S	Shudring nuqtasi harorati, °S	Konsentra tsiyasi, g/m ³	SO ₂	SO	S ₂	< 5	5÷10	noya.20	>20		
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12		
Ichiga zanjir osilgan uzun aylanuvchi pech Sirkonni issiqlik	3,5-6,8	170-385	58-75	10-66	20-21	0,2-1	1,8-3,1	17-50	10-44	15-39	18-65		
almashtirgichi aylanuvchi	2,5-3,3	190-380	29-44	16-60	20,8	2,1	4,7	51-75	12-36	3-27	2-7		
Klinker svutgich	1,2-29	90-290	-	4-36				2-5	4-8	10-15	72-84		
Ochiq siklli sement tegirmoni	0,2-0,5	70-170	22-26	55-660				10-39	2-23	13-40	2-8		
Separatorli sement tegirmoni	0,5-0,7	65-90	30-42	545-850				18-40	6-35	20-54	4-6		
Ochiq siklli xom-ashyo tegirmoni	0,2-0,7	80-100	35-50	120-450				-	43-59	15-24	17-42		
Separatorli xom-ashyo tegirmoni	0,8-1,4	50-150	35-55	400-500				-	32-74	8-14	6-12		
Oxaktosh maydalovchi, jahli maydalagich	0,25-0,3	22	-	3,5-15				12,4	21,4	21,8	44,4		

Sement ishlab chiqarishi aerolarning qattiq fazasi xossalari xarakteristikasi

Texnologig jixozlar	Aerolning kimyoviy tarkibi								Xajmiy og'irligi, kg/m ³	Zichligi kg/m ³	Tabiiy og'ish burchagi, grad.
	SiO ₂	Fe ₂ O ₃	Al ₂ O ₃	CaO	MgO	K ₂ O	Na ₂ O	SO ₃			
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12
Ho'l usulda ishlovchi uzun pechlar	11,8-15,7	2,5-3,6	2,1-3,8	30,5-48,2	0,6-1,9	2,6-14,5	0,2-5,9	1,7-9,3	400-1000	2450-3010	35-52
Quruq usulda ishlovchi pechlar	13,23-13,28	2,2-2,25	4,3-4,4	41-41,9	1,77-1,9	0,6-2,2	0,1-0,3	0,2-0,7	410-580	2620	45-51
Klinker sovutgichlar	21-24	2-4	4-7	63-67	-	-	-	1,5-3	980-1340	3060-3470	33-41
Ochiq siklli sement tegirmoni	20,1-20,8	4,2-4,9	4,8-4,95	62,2-63,3	1-1,9	0,43-0,48	0,4-0,7	1,3-9,5	500-1020	2850-3170	40-48
Yopiq siklli sement tegirmoni	26,5-28,8	4-4,8	4,1-5,3	49-57,1	1,3-1,6	0,3-0,7	0,13-0,18	1,5-3,8	530-1330	2850-3170	40-46
Ochiq siklli xom-ashyo tegirmoni	10,3-12,1	1,9-2,3	3,9-4,4	44-49,2	1,5-1,56	0,3-0,7	0,21-0,25	0,2-0,32	750-1010	2570-2750	44-46
Separatorli xom-ashyo tegirmoni	11,9-15,6	1,3-2,5	3-4,5	41,29	1,3-1,5	0,6-0,8	0,2-0,5	0,3-0,4	600-1020	2660-2790	45-46
Jag'li maydalagich	1,96	0,32	0,53	49,05	4,42	0,25	0,15	-	900-1000	2700-2790	41-46

Sement ishlab chiqarish texnologik jarayonlarida hosil bo'ladigan changli gazlar xajmi va changlanganlik darajasining taxlili ularning texnologik jihatdan zarur bo'lgan qiymatlariga taqqoslab amalga oshirilishi mumkin.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, O'zbekiston Respublikasidagi 4 ta yirik sement ishlab chiqaruvchi korxonalar (Quvasoy, Bekobod, Ohangaron va Navoiy sement korxonalari) va keyingi yillar davomida qurilib ishga tushirilgan 40 ga yaqin quruq usulda ishlovchi kichik sement zavodlari tomonidan atrof-muhitga chiqarilayotgan gazsimon chiqindilar bir-biridan farqlanishi kuzatiladi.

Jumladan, Bekobod va Quvasoy sement korxonalarida texnologik normalar bo'yicha 1kt klinkerga 3.5-3.8 m³ gaz va havo xajmi ko'zda tutilgan bo'lsa, amalda bu ko'rsatkich 5.7-6.8 m³ ni tashkil etadi. Navoiy sement korxonasida esa norma bo'yicha 1kt klinkerga 1.5-1.6 m³ changli gaz va havo chiqishi o'rniga amalda bu ko'rsatkich 3.3-4.4 m³ni tashkil qilmoqda. Ya'ni, atrof-muhitga chiqarilayotgan gaz va havo miqdori me'yordan ancha ortiq. Xuddi shunday holat tuyish tegirmonlariga ham taalluqli.

Bu jihozlarda me'yoriy 0.2 kg/kt 0.35 kt/kg o'rniga 1kg sementga ochiq siklda 0.5m³/kg, yopiq siklda esa 0.7m³/kg ni tashkil etmoqda.

Ko'plab sement korxonalarida chiqayotgan changli gazlar va aspiratsiya havosi miqdori me'yordan ortiq.

Xulosalar. Bunday holat aylanuvchi pech va tegirmonlardan chiqayotgan gazlar tezligining oshishi, chang ushlash apparatlariga chiqayotgan changlar xajmining ko'payishiga sabab bo'lmoqda. Natijada chang ushlagichlarda tezlik oshib, chang ushlash samaradorligi kamaymoqda va atmosferaga chiqib ketayotgan chang miqdorini oshmoqda. Bu esa o'z navbatida sement korxonalari aerozollarining xossalari chuqurroq o'rganish, chang ushlovchi apparatlar tanlashga tanqidiy ravishda yondashish, turli apparatlarda chang ushlash samaradorligini oshirish bo'yicha tadqiqotlar olib borish zarurligini ko'rsatadi.

Farg'ona politexnika institutining "Texnologik mashinalar va jihozlar" kafedrasida yuqorida bayon etilgan muammolar yechimini topish, yuqori samaradorlikka ega bo'lgan chang ushlash apparatlarining yangi konsruksiyalarini yaratish ustida ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ushbu izlanishlar Farg'ona viloyatidagi sanoat korxonalari ehtiyojlari asosida amalga oshirilib, bugungi kungacha barabanli zarb-inersion hamda skrubberli sirkulyatsion chang ushlash apparatlarining yangi konstruksiyalari yaratilib, ishlab chiqarishga joriy etilmoqda.

Adabiyotlar

- [1]. X.M. Sadullayev, "Atrof – muhitni muhofazalovchi texnika", darslik, Farg'ona, "Klassik"- 2023, 184 b.
- [2]. Ф.Г. Банит, А.Д. Малгин, Пылеулавливание и очистка газов в промышленности строительных материалов. Москва, Стройиздат 2015
- [3]. M.N. Musayev. Sanoat chiqindilarini rekuperatsiya qilish asoslari. Darslik Toshkent 2013 yil.

ВЫБОР РЕЖИМА СОЗДАНИЯ РЕГУЛЯРНОГО УЗОРА НА ПОВЕРХНОСТИ ПЛОСКОЙ ДЕТАЛИ СТАЛЬНЫМ ШАРИКОВЫМ ИНСТРУМЕНТОМ

Т. Тураев, студентка группы 15-24 ММ С. Юсупова

Ферганский государственный технический университет

E-mail: tirkashturayev@gmail.com (+998 93 484 20 44),

syusupova458@gmail.com

(Получена 16.04.2026 г.)

Аннотация. В данной работе рассмотрен процесс формирования регулярного узора на поверхности плоской детали методом поверхностного пластического деформирования стальным шариковым инструментом. Изучено влияние основных технологических параметров обработки, таких как усилие прижатия, подача инструмента и диаметр шарика, на геометрические

характеристики формируемой текстуры. Выполнен анализ закономерностей образования регулярного микрорельефа и его влияния на эксплуатационные свойства поверхности. По результатам исследования определены рациональные режимы обработки, обеспечивающие получение равномерного узора с заданными параметрами шага и глубины отпечатков. Полученные данные могут быть использованы при проектировании технологических процессов отделочно-упрочняющей обработки деталей машин.

Ключевые слова: *регулярных узор; плоский деталь, подача инструмента, микрорельеф, глубина отпечатки.*

Процесс формирования регулярного микрорельефа методом поверхностного пластического деформирования основан на воздействии на поверхность детали инструмента, имеющего более высокую твёрдость, чем обрабатываемый материал. При перемещении шарикового инструмента под действием внешнего усилия в поверхностном слое возникают напряжения, превышающие предел текучести материала. В результате происходит пластическая деформация поверхностных слоёв металла и образование отпечатков определённой формы и размеров.

Bu jarayon mahsulotning tashqi muhit ta'siridan himoyalaniшинi, namlikni o'ziga tortmasligini va sifat ko'rsatkichlarining saqlanib qolishini ta'minlaydi. Zamonaviy qadoqlash uskunolari yuqori aniqlikda ishlashi bilan ajralib turadi. Elektron boshqaruv tizimlari yordamida qadoqlanayotgan mahsulotning massasi doimiy nazorat qilinadi, bu esa mahsulot miqdorining standart talablarga mos bo'lishini ta'minlaydi. Avtomatlashtirilgan qadoqlash jarayoni inson omili ta'sirini kamaytiradi, mehnat unumdorligini oshiradi va mahsulot tannarxini pasaytirishga yordam beradi.

Qadoqlash ishlari tugallangandan so'ng mahsulotlar omborga yoki to'g'ridan-to'g'ri realizatsiya uchun jo'natishga tayyor holga keltiriladi. Qoplar ustiga mahsulot nomi, tarkibi, ishlab chiqarilgan sanasi, saqlash shartlari va boshqa zarur ma'lumotlar tushiriladi. Bu esa iste'molchilarga mahsulot haqida to'liq ma'lumot olish imkonini beradi.

Shunday qilib, qadoqlash uskunasi tayyor mahsulotlarni sifatli va xavfsiz tarzda qadoqlash, ularning saqlanish muddatini uzaytirish hamda bozorga chiqarishga tayyor holga keltirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqorida ko'rib chiqilgan uskunalar majmuasidan foydalangan holda sifatli quruq qurilish qorishmalarini ishlab chiqarish zamonaviy qurilish materiallari sanoatining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu ishlab chiqarish jarayoni to'liq avtomatlashtirilgan texnologik liniya asosida

tashkil etilib, xomashyoni qabul qilishdan boshlab tayyor mahsulotni qadoqlashgacha bo'lgan barcha bosqichlarni qamrab oladi.

Dastlab, xomashyolar elak yordamida saralanib, ularning kerakli maydalik darajasi ta'minlanadi. Bu bosqich tayyor mahsulot sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi, chunki bir xil fraksiyadagi materiallar qorishmaning bir jinsli bo'lishini ta'minlaydi. So'ngra xomashyolar shnekli transportyor orqali ishlab chiqarish liniyasining keyingi bosqichiga uzatiladi. Aralashtirish jarayonida spiral mikser asosiy rol o'ynaydi. Unda gips, mineral to'ldiruvchilar va maxsus kimyoviy qo'shimchalar aniq tarkib asosida bir-biriga qo'shib, bir jinsli qorishma hosil qilinadi. Bu jarayon mahsulotning mustahkamligi, yopishqoqligi va ekspluatatsion xususiyatlarini belgilaydi. Aralashtirish sifati yuqori bo'lishi tayyor mahsulotning qurilish ishlarida qulay qo'llanilishini ta'minlaydi. Tayyorlangan qorishma shnekli transportyor orqali tayyor mahsulot bunkerida to'planadi. Bunker mahsulotni vaqtincha saqlash va qadoqlash jarayoniga uzluksiz uzatib berish vazifasini bajaradi. Keyingi bosqichda qadoqlash uskunasi yordamida mahsulot belgilangan og'irlikda qoplarga joylanadi va iste'mol uchun tayyor holga keltiriladi. Qadoqlash jarayonining aniqligi mahsulot sifatini saqlashda muhim ahamiyatga ega.

Shunday qilib, zamonaviy uskunalar majmuasidan foydalangan holda quruq qurilish qorishmalarini ishlab chiqarish yuqori sifatli, bir xil tarkibli va xalqaro standartlarga javob beradigan mahsulot olish imkonini beradi. Bu esa qurilish sohasida ish unumdorligini oshirish va qurilish ishlarining sifatini yaxshilashga xizmat qiladi.

Xulosa. Gips asosidagi quruq qurilish qorishmalarini ishlab chiqarish texnologiyasida zamonaviy uskunalaridan foydalanish yuqori sifatli mahsulot olishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Ishlab chiqarish jarayonining barcha bosqichlari - xomashyoni tayyorlash, saralash, tashish, aralashtirish, saqlash va qadoqlash - maxsus texnologik uskunalar yordamida amalga oshirilishi mahsulot sifatining barqarorligini ta'minlaydi.

Elak yordamida xomashyo zarur maydalik darajasiga keltiriladi, shnekli transportyor esa materiallarni uzluksiz ravishda keyingi bosqichlarga yetkazib beradi. Spiral mikserda barcha komponentlar bir xil tarkibli massa hosil bo'lgunga qadar sifatli aralashtiriladi. Tayyor mahsulot bunkerda vaqtincha saqlanib, qadoqlash uskunasi orqali aniq og'irlikda qoplarga joylanadi.

Ushbu uskunalarining avtomatlashtirilgan holda ishlashi natijasida ishlab chiqarish unumdorligi oshadi, inson mehnati kamayadi hamda mahsulot sifati xalqaro standartlarga mos darajaga yetadi. Shuningdek, energiya tejamkorligi va texnologik jarayonlarning aniqligi ishlab chiqarish tannarxini pasaytirishga xizmat qiladi.

Gips asosidagi quruq qurilish qorishmalarini ishlab chiqarishda zamonaviy uskunalaridan foydalanish nafaqat sifatli va raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishni ta'minlaydi, balki qurilish sanoatining rivojlanishiga ham muhim hissa qo'shadi.

Adabiyotlar

- [1]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-maydagi PQ-4335-sonli "Qurilish materiallari sanoatini jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori.
- [2]. H.S.Solijonov, "Qurilish qorishmalari texnologiyasi". O'quv qo'llanma. Farg'ona. 2023.
- [3]. <https://aimixgroup.com/ru/wall-putty-manufacturing-plant>

YEVROPA MAMLAKATLARIDA YER VA KO'CHMAS MULKLARNI SOLIQQA TORTILISHI

G.M. Mirzakarimova

Farg'ona davlat texnika universiteti,
+99890-230-28-21, gulshanoy081286@gmail.com
<https://orcid.org/0000-0001-6635-3747>
(Qabul qilindi 20.04.2026 y.)

Annatatsiya: Yer va ko'chmas mulklarni soliqqa tortilishi davlatning yer siyosatini olib

borish va uni tartibga solishda asosiy bo'g'inga ega. Shu o'rinda amaliyotda turli davlatlarda turli xil yer va ko'chmas mulklarni soliqqa tortish usullarini ko'rish mumkin. Yer va ko'chmas mulklarni soliqqa tortish usullari nafaqat mamlakatlarning amaldagi yer siyosatiga balki ko'chmas mulk bozorlarining kelajakdagi rivojlanish bosqichlarini ham o'zida mujassam etishi zarur. Har qanday turdagi yer va ko'chmas mulklarni soliqqa tortilish usullari davlatni asosiy ko'rsatkichi bo'lgan iqtisodiy munosabatlarning bosh mezonini sifatida qaralishini taqazo etadi.

Tayanch so'zlar: mol-mulk solig'i, davlat xizmatlari, ko'chmas mulk bozori, xususiy mulk, mulklarni baholash.

Kirish. Bugungi kunda ko'plab Evropa mamlakatlari davlat xizmatlarini ko'rsatishni markazlashtirmasdan ularni mahalliy boshqaruv darajalariga o'tkazish siyosatini olib bormoqda. Ba'zi mamlakatlarda mahalliy hokimiyatlarda hatto asosiy davlat xizmatlarini ko'rsatish uchun ham yetarli resurslar mavjud emas. Shu sababli bozorga asoslangan mol-mulk solig'ini joriy etish orqali daromadlarni oshirish ushbu markazlashtirilmagan siyosatning muvaffaqiyatini ta'minlashning yaxshi usuli sifatida taqdim etilmoqda. Bizga ma'lumki yillik mol-mulk solig'i asrlar davomida mavjud bo'lib kelgan va bu holat odatda aholi tomonidan yaxshi qabul qilingan.

Barcha mamlakatlar mulkni soliqqa tortish va soliqqa tortiladigan qiymatlarni belgilashga turlicha yondashuvlarni namoyish etmoqda. Xalqaro ko'chmas mulk bozorlarining kelajakdagi rivojlanishi hukumatlardan mos keladigan ommaviy baholash amaliyotlarini joriy etishni va ularni individual mulkni baholash bilan yanada yaqinroq muvofiqlashtirishni talab qilishi mumkin [1].

Hozirgi vaqtda ayrim mamlakatlar ko'chmas mulkka to'g'ridan-to'g'ri soliqlarni joriy etmoqda, albatta agar yerda takomillashtirish ishlari (ya'ni binolar nazarda tutiladi) yoki yer takomillashtirish ishlari bilan birgalikda soliqqa tortiladigan obyektlar ham hisobga olinadigan bo'lsa. Ayrim davlatlar esa nafaqat yer va takomillashtirish ishlariga, balki mulkni o'zini ham soliqqa tortadilar, boshqalari esa ikkala soliq shaklini ham qo'llab kelmoqda. Yer va mulk solig'i keng soliq bazasiga ega bo'lishi bilan afzallikka ega, shu o'rinda uni boshqarish oson, amalga oshirish hamda qo'llab-quvvatlash qiymati arzon.

Agar mamlakatda yaxshi kadastr reyestri yuritilsa soliqlardan qochish qiyin, chunki yig'im darajasi 100% ga yaqinlashishi mumkin. Ular davlat daromadlarining barqaror va oldindan aytib bo'ladigan manbasini ta'minlaydi, bu esa uning qanday hisoblanishi va yig'ilishini aniq ko'rsatib beradi. Bu yer va ko'chmas mulkdan samarali foydalanishga yordam beradi va yer savdosining oldini oladi. Xususiy mulkda davlat-huquqiy manfaatlar e'tirof etiladi, bu esa xususiy mulkchilikning rivojlanishiga imkon beradi[2].

Agar mamlakatda yetarli qonunchilik va yetarli miqdordagi malakali baholovchilar mavjud bo'lsa mulk solig'ini boshqarish nisbatan oson. Amalga oshiriladigan jarayonlar soliqqa tortiladigan barcha mulklarni aniqlash va xaritalash; har bir mulkni tasdiqlangan metodologiyalarga muvofiq toifalash va baholash; soliq to'lashi kerak bo'lganlarni aniqlash; mulk solig'i to'lovchilarining ismlari ro'yxatini tuzish; individual mulk solig'i to'lovchilarini ularning majburiyatlari to'g'risida xabardor qilish; soliqlarni yig'ish; mulklarning baholanishiga rozi bo'lmagan soliq to'lovchilar uchun apellyatsiya jarayonini o'rnatishni o'z ichiga oladi

Tadqiqot obyektlari va usullari. Mulk solig'i odatda mulkning baholangan bozor qiymatiga asoslanadi. Soliq to'lovchilar ko'pincha buni o'z mulklari sotib olingan sotish narxi bilan adashtirib yuborishadi. Sotish narxi mulk huquqini o'tkazish solig'i, ba'zan muxr boji deb ataladi, yillik mulk solig'i esa baholangan qiymatga asoslanadi. Muxr boji an'anaviy ravishda hujjatga asoslangan soliq bo'lib kelgan va shuning uchun u elektron tizim bilan soliq qonunlariga o'zgartirishlar kiritilishini nazarda tutishi mumkin; masalan, Buyuk Britaniyada u endi yerga muxr boji deb ataladigan shaxsiy soliqdir [3].

Iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish uchun soliq mulkning hozirgi sotish narxiga emas, balki uning salohiyatiga asoslanishi mumkin. Bu Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlari uchun muammoga aylanishi turgan gap, chunki ko'plab uzoq vaqtdan beri yashab kelayotgan aholi hozirda asosiy joylarda mulkka egalik qiladi, ammo yuqori qiymatdagi mulk soliqlarini to'lay olmaydi va ko'chib ketishni istamaydi. Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligida soliqqa eng yuqori va

eng yaxshi foydalanish tamoyilining joriy etilishi tarixan ko'pincha aholi punktlarida joylashgan sanoat korxonalarini boshqa joyga ko'chirishga sababchi bo'lib keldi. Haqiqatdan ham, bu ko'pincha soliqlarni joriy etishning asosiy maqsadlaridan biri sifatida qaralishidan kelib chiqadi [4].

Tadqiqot natijalari. Bozorga asoslangan mulk solig'i tizimini joriy etishni ko'rib chiqayotgan mamlakat yer bozorining holatiga, institutlarning mavjudligiga va jamoatchilik tomonidan qabul qilinishiga qarab, bunday loyiha kamida besh yildan sakkiz yilgacha davom etishini taxmin qilishi kerak. Soliq siyosati quyidagilarni hal qilishi lozim:

(a) Soliqqa tortiladigan obyekt (bo'sh turgan yer yoki obodonlashtirilgan yer).

Yer solig'i mamlakatdagi barcha ko'chmas mulkka, jumladan, obodonlashtirilgan yerlarga (masalan, binolar yoki binolarning qismlari), shuningdek, bo'sh yerlarga ham qo'llanilishi mumkin. Bo'sh turgan yerlarga soliq solish ko'chmas mulkni rivojlantirishda investitsiyalarni rag'batlantirishi va qurilish faoliyatini oshirishi mumkin. Agar yagona soliq joriy etilsa, mulkning soliqqa tortiladigan qiymati bitta raqam sifatida yoki yer va obodonlashtirishning umumiy qiymati sifatida hisoblanishi mumkin.

(b) Mulknı baholashda va soliq bazasini hisoblashda qo'llaniladigan usullar.

Yillik mulk solig'i odatda soliq aniqlangan yilning ma'lum bir sanasidagi mulkning umumlashtirilgan bozor qiymatiga asoslanadi. Bu qiymat odatda ommaviy baholash usullari, xususan, xarajatlarni tahlil qilish, savdoni taqqoslash va daromadni kapitallashtirish yordamida aniqlanadi. Faol yer bozorlari mavjud bo'lgan hollarda, savdoni taqqoslash usuli odatda afzalroq hisoblanadi. Qishloq xo'jaligi va o'rmon yerlari uning unumdorligiga qarab soliqqa tortilishi kerak. Soliqqa tortiladigan ayrim mulk turlari uchun ommaviy baholashning qo'llanilishi mumkin emas, aynan shu paytda individual baholash qo'llanilishi maqsadga muvofiq, masalan, tarixiy yoki maxsus ijtimoiy ahamiyatga ega binolar uchun.

(c) Qayta baholash siklining chastotasi.

Qayta baholash siklining chastotasini ko'pincha maqsadga muvofiqligi va resurslarning mavjudligi belgilaydi, garchi muntazam sikl, masalan, har besh yilda bir marta o'tkazilishi maqsadga muvofiq bo'lsa ham. Ko'chmas mulk qiymati vaqt o'tishi bilan o'zgarib turadi va soliq organlari soliq stavkasini o'zgartirsa ham, agar u mulkning joriy qiymatini aks ettirmasa, soliq adolatsiz va qabul qilingan adolatga zid deb qabul qilinishi mumkin.

(d) Amalga oshiruvchi organ.

Odatda, Moliya vazirligi yoki Soliqlar va yig'imlar vazirligi bozorga asoslangan ko'chmas mulk solig'i tizimini joriy qiladi. Ommaviy baholash va soliq yig'ish uchun mas'ul bo'lgan idoralarni farqlash muhimdir. Soliqqa tortish siyosiy jarayon, baholash esa texnik masala. Ushbu funktsiyalarni bitta tom ostida birlashtirish manfaatlar to'qnashuvini keltirib chiqarishi mumkin. Soliqni baholashni mahalliy hokimiyat organlariga topshirish ham manfaatlar to'qnashuviga asos yaratishi va butun mamlakat bo'ylab baholash xarajatlarini oshirishi mumkin. Ko'plab mamlakatlarda yer boshqaruvi idoralari ommaviy baholashlar uchun javobgardir, ammo soliq stavkalarini belgilash uchun emas; ular shuningdek, yillik soliqlarni yig'ishmaydi, garchi ular yerni o'tkazish soliqlari kabi bir martalik soliqlarni yig'ishlari mumkin.

(e) Yer va mulk solig'i oluvchi.

Yillik yer va mulk solig'i odatda mahalliy hokimiyatlar uchun daromad keltiradi. Ba'zan soliq tushumlari mahalliy hokimiyatlar va markaziy hukumat o'rtasida taqsimlanadi, masalan, hukumat soliqning bir qismini ma'muriy xarajatlarni qoplash uchun saqlab qolganda. Odatda, jamoatchilik ko'pincha yer va obodonlashtirish soliqlarini ijtimoiy adolatli soliq sifatida qabul qiladi.

(f) Soliq stavkasi.

Mahalliy hokimiyat organlariga yillik soliq stavkalarini markaziy hukumat tomonidan belgilangan chegaralar doirasida belgilash orqali daromad oqimlarini tartibga solish imkoniyati berilishi mumkin. Soliq stavkalari mamlakat qonunchiligiga qarab qat'iy yoki o'zgaruvchan bo'lishi mumkin. Bir martalik soliqlar, masalan, yer o'tkazmalari uchun muxr boji davlat byudjetining bir qismi sifatida belgilanadi.

(g) Soliq yig'ish tartibi.

Yillik mulk solig'ini yig'ish mas'uliyati markaziy yoki mahalliy hukumatlar zimmasida bo'lishi mumkin. Bir martalik soliqlar, masalan, solig'i, yer idoralari tomonidan yerga egalik huquqini o'tkazish to'lovining bir qismi sifatida undirilishi mumkin. Masalan, Ispaniyada yerni ro'yxatga olish idorasida mulk huquqini ro'yxatdan o'tkazishdan oldin, oldi-sotdi bitimi uchun muxr solig'i allaqachon to'langanligiga ishonch hosil qilish uchun chek topshirish kerak.

(h) Apellyatsiya tartibi.

Soliq to'lovchilarga belgilangan soliq bahosiga rozi bo'lmasalar, o'z haq-huquqlarini himoya qilish imkoniyati berilishi muhimdir. Ish sudga yetib borgunga qadar ushbu nizolarni hal qilish uchun maxsus tizim yaratilishi kerak. Soliq to'lovchilar o'z mol-mulkini baholash to'g'risida tegishli xabarnoma olish, baholash asoslari va usullari bilan bog'liq ma'lumotlarga kirish, shuningdek, baholashga va baholovchi tomonidan mulk qiymatini aniqlash uchun foydalanilgan mol-mulkka tegishli ma'lumotlar va yozuvlarning to'g'riligiga e'tiroz bildirish huquqiga ega bo'lishlari kerak.

(i) Soliq imtiyozlari.

Jismoniy shaxslar va ayrim turdagi mulklar uchun mol-mulk solig'ini kamaytirish dasturlari qabul qilinishi mumkin. Kam daromadli guruhlar yoki qashshoqlikda yashovchi odamlar o'z mol-mulkleri bo'yicha mol-mulk solig'ining to'liq miqdorini to'lay olmasliklari mumkin va bunday mol-mulkni sotish mumkin bo'lmasligi mumkin. Keksalar uchun soliqni kechiktirish va ishlaydigan kambag'allar uchun soliq imtiyozlari ko'rib chiqilishi mumkin. Maktablar, kasalxonalar, davlatga qarashli inshootlar, qo'riqlanadigan binolar, tarixiy joylar, diniy binolar, xayriya muassasalari, milliy bog'lar va qo'riqxonalar, elchixonalar va konsulliklar kabi mulklar ham mol-mulk solig'idan ozod qilinishi mumkin.

Shuningdek, ayrim mamalakatlarda Fiskal kadastr yer solig'i siyosatini boshqarish vositasi hisoblanadi. U asosan yer qiymati va mol-mulk solig'i uchun asos bo'lib xizmat qilsa-da, fiskal kadastrda qayd etilgan ma'lumotlar boshqa soliqlarni, masalan, shaxsiy mulk solig'i va ko'chmas mulk daromadidan olinadigan soliqlarni aniqlash uchun ishlatilishi mumkin. Bularga meros solig'i misol bo'lib, ba'zan u meros bojlari deb ataladi [5].

Xulosa. Mamlakatlarning yer va ko'chmas mulklarni soliqqa tortilish siyosatining qo'llab-quvvatlash vazifasini bajarilishi natijasida davlatlar yer va mulk solig'iga yagona yondashuvini ta'minlash va fuqarolarning adolatli soliqqa tortish huquqini kafolatlash uchun mas'uliyatini ham o'z zimmalarida saqlab qoladilar. Bunga butun mamlakat bo'ylab yer va ko'chmas mulklarni soliqqa tortilishida yagona davlat siyosati darajasida barcha ishtirokchilar birdek belgilangan tartib asosida harakatlanishi shart. Bunga esa yer va ko'chmas mulklarni soliqqa tortilish usullari va ko'rsatmalarini to'g'ri ishlab chiqish orqali erishish mumkin.

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan jarayonlarni amalga oshirilishi o'z navbatida soliq bazasining qanday shakllantirilishi va e'lon qilinishi hamda yer va mulk bozorlari qanday monitoring qilinishini nazorat qilishga imkoniniyat yaratadi [6].

Adabiyotlar

- [1]. Mirzakarimova, G.M. (2023). Remote sensing data: international experiences and applications. Italy " actual problems of science and education in the face of modern challenges", 14(1).
- [2]. Мирзакаримова, Г.М., & Муродилов, Х.Т. (2022). Понятие о бонитировки балла почв и её главное предназначение. Central Asian Research Journal For Interdisciplinary Studies (CARJIS), 2(1), 223-229.
- [3]. Hakimova, K. R., Marupov, A. A., & Mirzakarimova, G. M. (2019). Maintaining Cadastral Valuation for the Effective Use of Agricultural Lands of the Fergana Region. ijarset. com "International Journal Of Advanced Research In Science, Engineering And Technology". ORCID: 0000-0002-5120-4359, 6-10.
- [4]. Rakhmatullayev, G. D., Manopov, X. V., & Mirzakarimova, G. M. (2020). Current problems of increasing soil fertility. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 10(6), 242-246.
- [5]. Mirzakarimova, G.M. (2023). Linkages Between Land Tenure Rights And Land Reform Processes. Texas Journal of Agriculture and Biological Sciences, 23, 33-35.
- [6]. Mirzakarimova, G. (2024). Theoretical foundations of the use of modern gis technologies in the creation of natural maps. Western European Journal of Modern Experiments and Scientific Methods, 2(6), 164-169.

KIMYO SANOATI CHIQINDILARINING EKOLOGIK XAVFINI GEOAXBOROT TEKNOLOGIYALARI YORDAMIDA BAHOLASH

M.A. Abdukadirova¹, V.U. Otakuziyeva², Y.Sh. Sattiyev³, A. Nuriddinov⁴

¹Farg'ona davlat texnika universiteti

²Qo'qon davlat universiteti

³Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti "

⁴Oziq-ovqat texnologiyasi va muhandisligi xalqaro instituti,
(Qabul qilindi 20.04.2026 y.)

Annotatsiya. Mazkur maqolada kimyo sanoati chiqindilarining tuproq va suv resurslariga ta'siri geoekologik jihatdan baholandi. Tadqiqot davomida fosfogips chiqindilari, mineral o'g'it ishlab chiqarish jarayonida hosil bo'ladigan texnogen chiqindilar hamda ularning atrof-muhitga tarqalish dinamikasi GIS va masofadan zondlash texnologiyalari asosida tahlil qilindi. ArcGIS va QGIS platformalari yordamida ekologik xavf zonalarini xaritalashtirildi hamda chiqindilar migratsiyasining fazoviy modeli ishlab chiqildi. Tadqiqot natijalari geoaxborot texnologiyalari ekologik monitoring samaradorligini oshirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: GIS, geoekologik monitoring, kimyo sanoati, fosfogips, sanoat chiqindilari, ekologik xavf, masofadan zondlash, tuproq ifloslanishi, suv resurslari.

KIRISH

Bugungi kunda kimyo sanoatining jadal rivojlanishi ekologik xavfsizlik bilan bog'liq qator dolzarb muammolarni yuzaga keltirmoqda. Ayniqsa, mineral o'g'itlar, fosforli birikmalar, sulfat kislota va boshqa kimyoviy mahsulotlar ishlab chiqarish jarayonida hosil bo'ladigan sanoat chiqindilari atmosfera havosi, tuproq va suv resurslariga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Fosfogips, fosforli shlamlar, oqava suv qoldiqlari, changsimon chiqindilar hamda texnogen cho'kindilar ekologik xavf darajasi yuqori bo'lgan sanoat chiqindilari qatoriga kiradi [1]. Ushbu chiqindilar tarkibida sulfatlar, fluor birikmalari, fosfat qoldiqlari, og'ir metall ionlari va boshqa toksik komponentlarning mavjudligi ekologik muhitning degradatsiyasiga sabab bo'lmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Atrof-muhit dasturi (UNEP) ma'lumotlariga ko'ra, sanoat chiqindilarining nazoratsiz saqlanishi va utilizatsiya qilinmasligi tuproq unumdorligining pasayishi, yer osti suvlarining ifloslanishi, atmosfera havosida chang va toksik gazlar konsentratsiyasining ortishi hamda biologik xilma-xillikning kamayishiga olib kelmoqda [2]. Ayniqsa, fosfogips chiqindilari ekologik jihatdan murakkab texnogen material hisoblanadi. Fosfogips tarkibida kaltsiy sulfat bilan bir qatorda fluor, stronsiy, kadmий, qo'rg'oshin, mishyak va boshqa toksik elementlarning mavjudligi uning uzoq muddatli ekologik xavf manbai bo'lishiga sabab bo'ladi. Kuchli shamol va yog'ingarchilik ta'sirida ushbu chiqindilar tarkibidagi zararli komponentlar katta hududlarga tarqalishi mumkin. Jahon amaliyotida kimyo sanoati chiqindilarining ekologik xavfini baholashda geoaxborot tizimlari (GIS), masofadan zondlash texnologiyalari va ekologik modellash tirish usullaridan keng foydalanilmoqda. ArcGIS, QGIS, ERDAS IMAGINE, ENVI kabi platformalar sanoat chiqindilarining hududiy tarqalishini tahlil qilish, ifloslantiruvchi moddalar migratsiyasini modellash tirish hamda ekologik xavf zonalarini xaritalashtirish imkonini beradi [3]. Sun'iy yo'ldosh ma'lumotlari asosida atmosfera havosi, tuproq va suv obyektlarining ekologik holatini real vaqt rejimida monitoring qilish ekologik boshqaruv samaradorligini oshirmoqda.

O'zbekiston Respublikasida ham ekologik xavfsizlikni ta'minlash va sanoat chiqindilarining salbiy ta'sirini kamaytirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-oktabrdagi PF-5863-sonli "2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmonida ekologik monitoring tizimlarini raqamlashtirish, GIS texnologiyalarini joriy etish hamda sanoat chiqindilarining ekologik xavfini kamaytirish bo'yicha muhim vazifalar belgilab berilgan [4]. Mazkur farmon asosida ekologik monitoring tizimlarini modernizatsiya qilish, raqamli ekologik ma'lumotlar bazalarini shakllantirish hamda geoaxborot texnologiyalarini joriy etish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-martdagi PQ-153-sonli "Suv xo'jaligi obyektlarida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida GIS texnologiyalari, masofadan zondlash tizimlari va avtomatlashtirilgan monitoring platformalarini ekologik boshqaruv tizimlariga integratsiyalash muhim vazifa sifatida belgilangan [5]. Ushbu qaror ekologik monitoringni raqamlashtirish orqali suv resurslarini muhofaza qilish, sanoat chiqindilarining migratsiyasini nazorat qilish hamda ekologik xavf zonalarini tezkor aniqlash imkoniyatlarini kengaytirdi. Kimyo sanoati chiqindilarining geoeologik monitoringi an'anaviy laboratoriya usullari bilan cheklanib qolmay, zamonaviy geoaxborot texnologiyalari bilan integratsiyalashgan holda olib borilishi zarur. Chunki sanoat chiqindilarining hududiy migratsiyasi murakkab fazoviy jarayon bo'lib, uni faqat laboratoriya tahlillari orqali to'liq baholash imkoniyati cheklangan. GIS texnologiyalari esa ekologik ma'lumotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash, modellashtirish va vizual tahlil qilish imkonini beruvchi samarali ilmiy vosita hisoblanadi [6]. Masofadan zondlash texnologiyalari yordamida sanoat hududlarida tuproq degradatsiyasi, atmosfera havosining changlanishi, suv obyektlarining ifloslanishi hamda texnogen landshaftlarning o'zgarishi muntazam monitoring qilinadi. Landsat, Sentinel, MODIS va boshqa sun'iy yo'ldosh tizimlari orqali olingan ma'lumotlar GIS platformalari bilan integratsiyalashgan holda ekologik xavf zonalarini aniqlash va prognozlash imkonini beradi [7]. Ayniqsa, fosfogips chiqindilarining shamol eroziyasi natijasida tarqalishini modellashtirishda masofadan zondlash texnologiyalari muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Bugungi kunda geoaxborot tizimlari ekologik monitoringning eng samarali raqamli vositalaridan biri hisoblanadi. GIS texnologiyalari yordamida sanoat hududlaridagi ekologik jarayonlarni hududiy jihatdan baholash, ekologik xavf zonalarini aniqlash hamda monitoring natijalarini vizual tahlil qilish imkoniyati yaratiladi [8]. GIS platformalarida yaratilgan elektron ekologik xaritalar sanoat korxonalarining atrof-muhitga ta'sirini baholash, ekologik xavf darajasini prognoz qilish hamda ekologik boshqaruv tizimlarida tezkor qarorlar qabul qilishga xizmat qiladi. Masofadan zondlash texnologiyalari esa ekologik monitoring tizimlarini tezkor va yuqori aniqlikdagi ma'lumotlar bilan ta'minlaydi. Sun'iy yo'ldosh tasvirlari asosida atmosfera havosining ifloslanishi, tuproq degradatsiyasi va suv resurslari holati muntazam nazorat qilinadi. GIS va masofadan zondlash texnologiyalarining integratsiyasi quyidagi afzalliklarni beradi: Ekologik ma'lumotlarni real vaqt rejimida monitoring qilish, ifloslanish manbalarini aniqlash, ekologik xavf zonalarini xaritalashtirish, ekologik prognozlash imkoniyatlarini kengaytirish, monitoring xarajatlarini kamaytirish. Shu jihatdan, kimyo sanoati chiqindilarining ekologik xavfini GIS va masofadan zondlash texnologiyalari asosida baholash ekologik monitoring tizimlarini takomillashtirishning muhim ilmiy-amaliy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi kimyo sanoati chiqindilarining tuproq va suv resurslariga ta'sirini geoeologik baholash, fosfogips chiqindilarining ekologik xavfini GIS asosida tahlil qilish hamda ekologik monitoring samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

TADQIQOT METODLARI

Mazkur tadqiqotda kimyo sanoati chiqindilarining ekologik xavfini baholash hamda ularning tuproq va suv resurslariga ta'sirini aniqlash uchun kompleks geoeologik monitoring usullaridan foydalanildi. Tadqiqot metodologiyasi geoaxborot tizimlari (GIS), masofadan zondlash texnologiyalari, kimyoviy laboratoriya tahlillari, ekologik modellashtirish va statistik ishlov berish usullarining integratsiyasiga asoslandi. Ushbu yondashuv sanoat chiqindilarining hududiy tarqalishini aniqlash, ekologik xavf zonalarini xaritalashtirish hamda ifloslantiruvchi moddalar migratsiyasini prognoz qilish imkonini berdi.

Tadqiqot davomida quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi:

- GIS asosida fazoviy monitoring;
- masofadan zondlash ma'lumotlarini tahlil qilish;
- tuproq va suv namunalarining kimyoviy tahlili;
- ekologik modellashtirish;
- statistik va korrelyatsion tahlil usullari.

GIS asosida fazoviy monitoring

Tadqiqotda ArcGIS va QGIS geoaxborot platformalari asosida sanoat chiqindilarining hududiy tarqalishi hamda ekologik xavf darajasi tahlil qilindi. Fosfogips saqlash maydonlari, sanoat oqava suvlarining chiqarilish nuqtalari, texnogen chiqindi poligonlari va ekologik xavf hududlari GPS koordinatalar asosida raqamlashtirildi. Geoaxborot ma'lumotlari yagona elektron bazaga integratsiyalashgan holda qayta ishlanib, sanoat hududlarining raqamli ekologik xaritalari ishlab chiqildi. ArcGIS dasturida fazoviy interpolatsiya usullari — Inverse Distance Weighting (IDW) va Kriging metodlari yordamida ifloslantiruvchi moddalar konsentratsiyasining hududiy taqsimoti modellashirildi. Ushbu usullar orqali og'ir metall ionlari, sulfatlar va fosfatlarning tarqalish zonalarini aniqlanib, ekologik xavf darajasi yuqori bo'lgan hududlar xaritalashtirildi. QGIS platformasida esa sanoat hududlarining geoekologik holati vizual tahlil qilinib, monitoring natijalari qatlamli xaritalar asosida baholandi.

Masofadan zondlash ma'lumotlari tahlili. Tadqiqotda masofadan zondlash texnologiyalaridan keng foydalanildi. Sentinel-2 va Landsat-8 sun'iy yo'ldosh tasvirlari asosida sanoat hududlarining ekologik holati baholandi. Sun'iy yo'ldosh ma'lumotlari orqali atmosfera havosi ifloslanishi, tuproq degradatsiyasi, texnogen landshaftlarning o'zgarishi hamda suv obyektlarining ekologik holati monitoring qilindi. Masofadan zondlash ma'lumotlarini qayta ishlashda NDVI (Normalized Difference Vegetation Index) va LST (Land Surface Temperature) indekslaridan foydalanildi. NDVI indeksi yordamida o'simlik qoplami degradatsiyasi va sanoat chiqindilarining vegetatsiyaga ta'siri baholandi. LST indeksi esa sanoat hududlarida yer sirt haroratining o'zgarishini aniqlash va texnogen issiqlik zonalarini monitoring qilish imkonini berdi. Shuningdek, sun'iy yo'ldosh tasvirlari asosida fosfogips chiqindilarining shamol eroziyasi natijasida tarqalish dinamikasi hamda suv obyektlarining ifloslanish xavfi tahlil qilindi. Olingan ma'lumotlar GIS platformalariga integratsiyalashgan holda geoekologik monitoring tizimining raqamli bazasini shakllantirishda foydalanildi.

Kimyoviy tahlil usullari. Tadqiqot davomida tuproq va suv namunalarining kimyoviy tarkibi laboratoriya sharoitida zamonaviy analitik usullar asosida o'rganildi. Namunalar sanoat korxonalariga yaqin hududlar, fosfogips saqlash maydonlari hamda oqava suv chiqarish zonalaridan olindi. Laboratoriya tahlillari davomida tuproq va suv tarkibidagi sulfatlar, fosfatlar, nitratlar hamda og'ir metall ionlari - qo'rg'oshin (Pb), kadmiy (Cd), xrom (Cr) va rux (Zn) miqdori aniqlandi. Kimyoviy tahlillarni amalga oshirishda atom-absorbsiya spektrometriyasi, fotometrik va titrimetrik usullardan foydalanildi. Og'ir metall ionlarini aniqlashda atom-absorbsiya spektrometriyasi yuqori aniqlikdagi analitik usul sifatida qo'llanildi. Sulfat va fosfat ionlari fotometrik usul yordamida, suvning umumiy minerallashuv darajasi esa titrimetrik metod asosida baholandi. Olingan natijalar amaldagi ekologik me'yorlar va sanitariya-gigiyena talablari bilan taqqoslandi.

Ekologik modellashirish. Tadqiqotda sanoat chiqindilarining migratsiyasini prognoz qilish maqsadida ekologik modellashirish usullaridan foydalanildi. GIS platformalari asosida ifloslantiruvchi moddalar migratsiyasining matematik modellari ishlab chiqildi. Modellashirish jarayonida shamol yo'nalishi, rel'yef xususiyatlari, gidrologik sharoit hamda yer osti suvlarining oqim yo'nalishi hisobga olindi. Natijada fosfogips va boshqa texnogen chiqindilarning ekologik tarqalish zonalarini prognoz qilinib, ekologik xavf darajasi yuqori bo'lgan hududlar aniqlandi. Modellashirish natijalari ekologik monitoring tizimini optimallashtirish hamda sanoat hududlarida ekologik xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qildi.

Statistik va korrelyatsion tahlil. Tadqiqot davomida laboratoriya va GIS ma'lumotlariga statistik ishlov berildi. Statistik tahlil yordamida tuproq va suv tarkibidagi ifloslantiruvchi moddalar konsentratsiyasi o'rtasidagi bog'liqlik darajasi aniqlandi. Korrelyatsion va regressiya tahlili usullari asosida og'ir metall ionlari miqdori bilan tuproq degradatsiyasi, suvning minerallashuv darajasi hamda NDVI ko'rsatkichlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik baholandi. Olingan statistik natijalar geoekologik monitoringning ilmiy ishonchliligini oshirish hamda sanoat chiqindilarining ekologik xavfini kompleks baholash imkonini berdi.

NATIJALAR VA TAHLIL

Tadqiqot davomida kimyo sanoati korxonalari hududlarida fosfogips chiqindilari va texnogen oqava suvlarning ekologik ta'siri GIS hamda masofadan zondlash texnologiyalari asosida

kompleks tahlil qilindi. Olingan natijalar geoaxborot texnologiyalarining ekologik monitoring samaradorligini sezilarli darajada oshirishini ko'rsatdi. ArcGIS va QGIS platformalari yordamida ekologik xavf zonalarining fazoviy xaritalari ishlab chiqildi hamda sanoat hududlarida ifloslantiruvchi moddalar migratsiyasi modellashirildi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, fosfogips chiqindilari saqlanadigan hududlarda tuproqning sulfatlanish darajasi yuqori ekanligi aniqlandi. Ayniqsa, chiqindi poligonlariga yaqin hududlarda tuproq tarkibidagi sulfat ionlari va minerallashuv ko'rsatkichlari me'yoriy darajadan sezilarli yuqori ekanligi kuzatildi. Laboratoriya tahlillari ayrim hududlarda og'ir metall ionlari - qo'rg'oshin (Pb), kadmiy (Cd), xrom (Cr) va rux (Zn) konsentratsiyasi ekologik me'yorlardan oshganligini ko'rsatdi. Bu esa fosfogips chiqindilarining uzoq muddatli ekologik xavf manbai ekanligini tasdiqlaydi. Sun'iy yo'ldosh tasvirlari va GIS platformalari asosida quyidagi ekologik o'zgarishlar aniqlandi:

1. Tuproq degradatsiyasi darajasining ortishi;
2. O'simlik qoplami zichligining kamayishi;
3. Yer sirt haroratining oshishi;
4. Oqartirilmagan oqava suvlarning suv obyektlariga salbiy ta'siri;
5. Ekologik xavf zonalarining kengayishi.

NDVI indeksi asosida olib borilgan tahlillar sanoat chiqindilari ta'siridagi hududlarda vegetatsiya zichligi kamayganligini ko'rsatdi. Ayniqsa, fosfogips poligonlariga yaqin maydonlarda o'simlik qoplami degradatsiyasi yuqori darajada ekanligi kuzatildi. Bu holat tuproqning kimyoviy tarkibi o'zgarishi va toksik elementlarning ko'payishi bilan izohlanadi. LST (Land Surface Temperature) indeksi yordamida yer sirt haroratining hududiy taqsimoti baholandi. Tadqiqot natijalari sanoat chiqindilari saqlanadigan hududlarda yer sirt harorati atrofdagi tabiiy hududlarga nisbatan yuqori ekanligini ko'rsatdi. Bu esa texnogen landshaftlarning shakllanishi va tuproq namligining kamayishi bilan bog'liq ekanligi aniqlandi. GIS tahlillari natijasida ifloslanish darajasi sanoat korxonalariga yaqin hududlarda yuqori, uzoqlashgan sari esa bosqichma-bosqich kamayishi kuzatildi. Ushbu holat chiqindilar migratsiyasi sanoat faoliyati bilan bevosita bog'liqligini tasdiqlaydi. Fazoviy interpolatsiya usullari asosida ishlab chiqilgan ekologik xavf xaritalari og'ir metall ionlari va sulfatlarning asosiy tarqalish zonalarini aniqlash imkonini berdi. Tadqiqot davomida geoaxborot texnologiyalarining quyidagi ilmiy-amaliy afzalliklari aniqlandi:

- ekologik xavf zonalarini tezkor aniqlash imkoniyati yaratildi;
- sanoat chiqindilarining hududiy migratsiyasi modellashirildi;
- tuproq va suv resurslarining ifloslanish darajasi fazoviy jihatdan baholandi;
- ekologik monitoringning operativligi va aniqligi oshirildi;
- ekologik ma'lumotlarning yagona raqamli bazasi shakllantirildi;
- ekologik prognozlash imkoniyatlari kengaydi.

Tahlil natijalari sanoat chiqindilarining nazoratsiz saqlanishi uzoq muddatda tuproq degradatsiyasi, suv resurslarining ifloslanishi va ekologik muvozanatning buzilishiga olib kelishini ko'rsatdi. Shu sababli fosfogips va boshqa texnogen chiqindilarni qayta ishlash texnologiyalarini joriy etish, ekologik monitoring tizimlarini GIS asosida avtomatlashtirish hamda sanoat hududlarida muntazam geoeologik nazoratni kuchaytirish zarurligi aniqlandi.

MUHOKAMA

Bugungi kunda GIS va masofadan zondlash texnologiyalari geoeologik monitoringning eng istiqbolli yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu texnologiyalar ekologik ma'lumotlarni tezkor yig'ish, qayta ishlash va tahlil qilish imkoniyatini beradi. Kimyo sanoati korxonalarida ekologik monitoring tizimlarini raqamlashtirish ekologik xavflarni kamaytirish hamda ekologik boshqaruv samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. GIS va masofadan zondlash texnologiyalarining integratsiyasi quyidagi ustunliklarni ta'minlaydi:

1. ekologik monitoringning operativligini oshirish;
2. ekologik xavf zonalarini modellashirish;
3. real vaqt rejimida monitoring olib borish;
4. ekologik prognozlash imkoniyatlarini kengaytirish;
5. ekologik boshqaruv tizimlarini avtomatlashtirish.

Kelgusida sun'iy intellekt, IoT sensorlari hamda GIS platformalarining integratsiyasi ekologik monitoring tizimlarini yanada takomillashtirishga xizmat qiladi.

XULOSA

Tadqiqot natijalari kimyo sanoati chiqindilarining ekologik xavfini baholashda GIS va masofadan zondlash texnologiyalarining integratsiyasi yuqori samaradorlikka ega ekanligini ko'rsatdi. Geoaxborot tizimlari yordamida fosfogips chiqindilarining hududiy tarqalishi, tuproq va suv resurslariga ta'siri hamda ekologik xavf zonalarini fazoviy jihatdan aniqlandi. Masofadan zondlash texnologiyalari esa ekologik o'zgarishlarni tezkor monitoring qilish, degradatsiyaga uchragan hududlarni aniqlash va ekologik holat dinamikasini baholash imkonini berdi. Kimyoviy laboratoriya tahlillari natijasida sanoat hududlariga yaqin joylarda sulfatlar, fosfatlar hamda og'ir metall ionlari konsentratsiyasi yuqori ekanligi aniqlandi. ArcGIS va QGIS platformalari asosida ishlab chiqilgan ekologik xavf xaritalari ifloslanish darajasi yuqori bo'lgan hududlarni aniqlash va monitoring tizimini optimallashtirish imkonini berdi. Sun'iy yo'ldosh ma'lumotlari asosida o'simlik qoplami zichligining kamayishi, tuproq degradatsiyasi va yer sirt haroratining oshishi kabi geoeologik o'zgarishlar kuzatildi.

Tadqiqot asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. GIS texnologiyalari ekologik monitoringning aniqligi va operativligini oshiradi;
2. masofadan zondlash ma'lumotlari ekologik o'zgarishlarni real vaqt rejimida kuzatish imkonini beradi;
3. fosfogips chiqindilarining tuproq va suv resurslariga salbiy ta'siri geoeologik jihatdan tasdiqlandi;
4. ekologik xavf zonalarini modellashtirish sanoat chiqindilarining tarqalish dinamikasini prognoz qilish imkonini yaratadi;
5. GIS asosidagi monitoring tizimlari ekologik boshqaruv samaradorligini oshiradi.

Kelgusida kimyo sanoati korxonalarida GIS asosidagi avtomatlashtirilgan ekologik monitoring platformalarini joriy etish, IoT sensorlari va sun'iy intellekt texnologiyalarini integratsiyalash hamda masofadan zondlash ma'lumotlaridan keng foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bu esa sanoat chiqindilarining ekologik xavfini kamaytirish, tabiiy resurslarni muhofaza qilish hamda ekologik xavfsizlikni ta'minlashda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar

- [1]. United Nations Environment Programme (UNEP). Global Environment Outlook. – Nairobi: UNEP, 2023.
- [2]. Alloway B.J. Heavy Metals in Soils. – Springer, 2019.
- [3]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-oktabrdagi PF–5863-son Farmoni “2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”.
- [4]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-martdagi PQ–153-son Qarori “Suv xo'jaligi obyektlarida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida”.
- [5]. Burrough P.A., McDonnell R.A. Principles of Geographical Information Systems. Oxford University Press, 2018.
- [6]. Otakuziyeva V. U. Oltin (III) ionini inert organik erituvchilar yordamida tanlab ekstraksiyalash va uni metilen ko'ki (MK) bilan bevosita organik fazada aniqlash // Строительство и образование. 2025. №5. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/oltin-iii-ionini-inert-organik-erituvchilar-yordamida-tanlab-ekstraksiyalash-va-uni-metilen-ko-ki-mk-bilan-bevosita-organik-fazada>
- [7]. Otakuziyeva Vazira Usmonjonovna OLTIN (III) Ionini ekstraksiya ajratib olish va organik reagentlar bilan to'g'ridan to'g'ri organik fazada kompleks hosil qilishning spektrofotometrik tadqiqi // Строительство и образование. 2024. № Спецвыпуск 2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/oltin-iii-ionini-ekstraksiya-ajratib-olish-va-organik-reagentlar-bilan-to-g-ridan-to-g-ri-organik-fazada-kompleks-hosil-qilishning>
- [8]. Ahmedov, Sultan, and Shahzodbek Abdunazarov. "Polimer chiqindilarni qayta ishlash muammolari." Empowerment of youth intellectual success (EYIS) 2.3 (2025): 31-34.
- [9]. Longley P., Goodchild M., Maguire D., Rhind D. Geographical Information Systems and Science. Wiley, 2021.
- [10]. Jensen J.R. Remote Sensing of the Environment: An Earth Resource Perspective. – Pearson Education, 2016.
- [11]. Lillesand T., Kiefer R., Chipman J. Remote Sensing and Image Interpretation. – Wiley, 2020.
- [12]. Skoog D.A., Holler F.J., Crouch S.R. Principles of Instrumental Analysis. – Cengage Learning, 2018.
- [13]. Harris D.C. Quantitative Chemical Analysis. – W.H. Freeman and Company, 2020.

**YASHIL KIMYO VA GEOAXBOROT TEXNOLOGIYALARI INTEGRATSIYASI:
EKOLOGIK BARQAROR TEXNOLOGIYALARNI GEOINFORMATSION TAHLIL
QILISH**

M.A. Abdukadirova¹, V.U. Otakuziyeva², tayanch doktorant M.M. Jalolova³, M.K. Olimova²

¹Fargʻona davlat texnika universiteti

²Qoʻqon davlat universiteti

³Samarqand davlat arxitektura – qurilish universiteti
([Qabul qilindi 20.04.2026 y.](#))

Annotatsiya. Mazkur maqolada yashil kimyo tamoyillariga asoslangan ekologik xavfsiz texnologiyalar va geoaxborot tizimlari (GIS) integratsiyasi asosida sanoat jarayonlarining ekologik samaradorligi baholandi. Tadqiqotda qayta tiklanuvchi xomashyo asosidagi kimyoviy jarayonlar, chiqindisiz ishlab chiqarish texnologiyalari hamda ularning hududiy ekologik taʼsiri GIS va masofadan zondlash texnologiyalari yordamida tahlil qilindi. ArcGIS va QGIS platformalarida yashil kimyo indikatorlari asosida ekologik xavf va barqarorlik xaritalari ishlab chiqildi. Natijalar yashil kimyo yondashuvining geoekologik monitoring bilan integratsiyasi ekologik xavflarni kamaytirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega ekanligini koʻrsatdi.

Kalit soʻzlar: yashil kimyo, GIS, ekologik barqarorlik, chiqindisiz texnologiyalar, geoekologik monitoring, masofadan zondlash, ekologik xavf, barqaror rivojlanish.

KIRISH

Bugungi kunda dunyo miqyosida sanoatlashtirish jarayonlarining jadallashuvi natijasida ekologik muammolar, ayniqsa atmosfera havosi, tuproq va suv resurslarining ifloslanishi global darajadagi dolzarb masalalardan biriga aylanmoqda. Mineral oʻgʻit ishlab chiqarish korxonalari ekologik xavf darajasi yuqori boʻlgan sanoat obyektlari qatoriga kiradi. Ushbu korxonalarda fosforit va boshqa mineral xomashyolarni qayta ishlash jarayonida atmosfera havosiga chang, ammiak, fluor birikmalari hamda oltingugurt oksidlari ajralib chiqadi. Oqartirilmagan sanoat oqava suvlari esa tuproq va yer osti suvlarining kimyoviy ifloslanishiga sabab boʻladi [1]. Oʻzbekiston Respublikasida ekologik xavfsizlikni taʼminlash hamda sanoat korxonalarining atrof-muhitga salbiy taʼsirini kamaytirish davlat siyosatining ustuvor yoʻnalishlaridan biri sifatida belgilangan. Jumladan, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-oktabrdagi PF–5863-sonli Farmonida “2030-yilgacha boʻlgan davrda Oʻzbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasi” tasdiqlanib, ekologik monitoring tizimlarini raqamlashtirish hamda zamonaviy GIS texnologiyalarini joriy etish vazifalari belgilangan [2]. Shuningdek, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-martdagi PQ–153-sonli qarorida suv xoʻjaligi va ekologik monitoring tizimlarida geoaxborot tizimlari, masofadan zondlash hamda avtomatlashtirilgan monitoring texnologiyalarini keng joriy etish muhim vazifa sifatida qayd etilgan [3]. Mazkur qarorlar sanoat hududlarida ekologik monitoring samaradorligini oshirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda ekologik xavflarni kamaytirishga qaratilgan.

Mineral oʻgʻit ishlab chiqarish korxonalarida ekologik monitoring olib borishda anʼanaviy laboratoriya usullari ayrim hollarda tezkor va kompleks baholash imkonini bermaydi. Shu sababli GIS va masofadan zondlash texnologiyalaridan foydalanish ekologik monitoringning zamonaviy ilmiy-amaliy yoʻnalishlaridan biri hisoblanadi. Geoaxborot tizimlari ekologik maʼlumotlarni yigʻish, saqlash, qayta ishlash va fazoviy tahlil qilish imkonini beradi. Masofadan zondlash texnologiyalari esa sunʼiy yoʻldosh tasvirlari orqali ekologik oʻzgarishlarni real vaqt rejimida monitoring qilish imkoniyatini yaratadi [4]. Bugungi kunda ArcGIS, QGIS, ERDAS IMAGINE hamda Sentinel va Landsat sunʼiy yoʻldosh maʼlumotlari asosida sanoat hududlarining geoekologik holatini monitoring qilish boʻyicha keng koʻlamli tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu texnologiyalar ekologik xavf zonalarini aniqlash, ifloslanish darajasini xaritalashtirish va ekologik prognozlash ishlarini amalga oshirishda samarali vosita hisoblanadi [5]. Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi mineral oʻgʻit ishlab chiqarish korxonalarining geoekologik monitoringini GIS va masofadan zondlash texnologiyalari asosida takomillashtirish, ekologik monitoring samaradorligini

oshirish hamda ekologik xavf zonalarini aniqlash bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Bugungi kunda global sanoatlashuv jarayonlarining jadallashuvi atrof-muhitga antropogen bosimning keskin ortishiga, shu bilan birga ekologik barqaror rivojlanish zaruratining yanada dolzarb masalaga aylanishiga sabab bo'lmoqda. Sanoat korxonalarining kengayishi, energiya iste'molining ortishi hamda tabiiy resurslardan intensiv foydalanish natijasida atmosfera havosi, suv havzalari va tuproq resurslarining ifloslanish darajasi sezilarli darajada kuchaymoqda [1], [2]. Shu nuqtai nazardan, yashil kimyo (green chemistry) konsepsiyasi kimyoviy ishlab chiqarish jarayonlarini ekologik jihatdan xavfsiz, resurs tejamkor va chiqindisiz texnologiyalar asosida tashkil etishga yo'naltirilgan eng muhim zamonaviy ilmiy yo'nalishlardan biri sifatida e'tirof etiladi [3]. Yashil kimyo tamoyillari asosida ishlab chiqilayotgan texnologiyalar ishlab chiqarish jarayonida hosil bo'ladigan chiqindilar miqdorini kamaytirish, zaharli kimyoviy moddalardan foydalanishni minimallashtirish hamda qayta tiklanuvchi xomashyolardan samarali foydalanishga asoslanadi [4]. Biroq bunday ekologik samarali texnologiyalarning hududiy ta'siri, ya'ni ularning geografik fazodagi ekologik barqarorlikka qo'shgan hissasini baholashda an'anaviy laboratoriya, kimyoviy va statistik yondashuvlar yetarli darajada kompleks natija bera olmaydi [5]. Shu sababli, geoaxborot tizimlari (GIS) va masofadan zondlash texnologiyalari integratsiyasi yashil kimyo jarayonlarini fazoviy tahlil qilish, ekologik monitoringni avtomatlashtirish hamda sanoat hududlarining ekologik holatini real vaqt rejimida baholashda muhim ilmiy-amaliy vosita sifatida katta ahamiyat kasb etmoqda [6]. GIS texnologiyalari ekologik ma'lumotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash, tahlil qilish va fazoviy modellashtirish imkonini bersa, masofadan zondlash texnologiyalari sun'iy yo'ldosh tasvirlari asosida ekologik o'zgarishlarni tezkor aniqlash va monitoring qilish imkonini yaratadi [7]. Ushbu texnologiyalar integratsiyasi ekologik jarayonlarni hududiy kesimda chuqur tahlil qilish, ifloslanish manbalarini aniqlash hamda ekologik xavf zonalarini prognozlash imkonini beradi [8]. UNEP (United Nations Environment Programme) ma'lumotlariga ko'ra, yashil kimyo va ekologik toza texnologiyalarni sanoat ishlab chiqarishiga keng joriy etish global issiqxona gazlari chiqindilarini sezilarli darajada kamaytirish, uglerod izini qisqartirish hamda ekologik xavf darajasini pasaytirishda muhim rol o'ynaydi [9]. Shu bilan birga, dunyo miqyosida ArcGIS, QGIS, ERDAS IMAGINE kabi geoaxborot platformalari hamda Sentinel va Landsat sun'iy yo'ldosh ma'lumotlari asosida ekologik monitoring tizimlarini rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamli ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda [10]. O'zbekiston Respublikasida ham ekologik barqarorlikni ta'minlash, "yashil iqtisodiyot"ga o'tish hamda sanoat korxonalarining atrof-muhitga salbiy ta'sirini kamaytirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan [11]. Bu esa yashil kimyo tamoyillari asosida ishlab chiqilayotgan texnologiyalarni GIS va masofadan zondlash tizimlari bilan integratsiya qilish zaruratini yanada kuchaytirmoqda [12]. Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi yashil kimyo tamoyillariga asoslangan ekologik xavfsiz texnologiyalarning geoekologik samaradorligini GIS va masofadan zondlash texnologiyalari asosida baholash, ekologik barqarorlik darajasini aniqlash hamda sanoat jarayonlarining hududiy ekologik ta'siri bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat [13].

TADQIQOT METODLARI

Mazkur tadqiqotda yashil kimyo tamoyillariga asoslangan ekologik xavfsiz texnologiyalarning geoekologik samaradorligini baholash uchun kompleks ilmiy yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot metodologiyasi geoaxborot tizimlari (GIS), masofadan zondlash texnologiyalari, yashil kimyo indikatorlarini baholash, statistik va korrelyatsion tahlil hamda ekologik modellashtirish usullarining integratsiyasiga asoslandi. Ushbu integratsiyalashgan yondashuv ekologik jarayonlarni fazoviy va vaqtinchalik jihatdan chuqur tahlil qilish, shuningdek, sanoat hududlaridagi ekologik o'zgarishlarni kompleks baholash imkonini berdi.

Tadqiqotda quyidagi asosiy ilmiy usullardan foydalanildi:

- GIS asosida fazoviy tahlil
- Masofadan zondlash ma'lumotlarini qayta ishlash
- Yashil kimyo indikatorlarini baholash
- Statistik va korrelyatsion tahlil
- Ekologik modellashtirish

GIS tahlili. Tadqiqot jarayonida ArcGIS va QGIS geoaxborot platformalari asosida sanoat va ishlab chiqarish hududlarining ekologik barqarorlik darajasi fazoviy jihatdan tahlil qilindi va baholandi. Yashil kimyo indikatorlari — chiqindi miqdori, energiya samaradorligi hamda zaharli kimyoviy moddalarning ulushi asosida raqamli ekologik xaritalar ishlab chiqildi. Fazoviy interpolatsiya (IDW va Kriging) hamda qatlamli tahlil usullari yordamida hududlarning ekologik barqarorlik darajasi aniqlanib, yuqori, oʻrta va past barqarorlik zonalari tasniflandi. Ushbu yondashuv ekologik xavf darajasining hududiy taqsimotini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etdi.

Masofadan zondlash tahlili. Tadqiqotda Sentinel-2 va Landsat-8 sunʼiy yoʻldosh tasvirlaridan foydalanildi. Ushbu maʼlumotlar asosida NDVI (Normalized Difference Vegetation Index) va LST (Land Surface Temperature) indeksleri hisoblandi. NDVI koʻrsatkichlari orqali oʻsimlik qoplami holati va uning degradatsiya darajasi baholandi, LST indeksi esa yer sirt haroratining fazoviy oʻzgarishini hamda texnogen issiqlik yukining hududiy taʼsirini aniqlash imkonini berdi. Olingan natijalar ekologik holatning hududiy dinamikasini tahlil qilishda yuqori ilmiy-amaliy ahamiyatga ega ekanligini koʻrsatdi.

Statistik tahlil. Yashil kimyo texnologiyalari qoʻllanilgan hududlar bilan anʼanaviy ishlab chiqarish tizimlari mavjud hududlar oʻrtasidagi ekologik farqlar statistik va korrelyatsion tahlil asosida oʻrganildi. Tahlil jarayonida chiqindi miqdori, energiya samaradorligi, NDVI va LST koʻrsatkichlari oʻrtasidagi oʻzaro bogʻliqlik darajasi aniqlanib, ekologik samaradorlikning statistik modeli ishlab chiqildi. Natijalar yashil texnologiyalar qoʻllanilganda ekologik yukning sezilarli darajada kamayishini va ekologik barqarorlik darajasining oshishini tasdiqladi.

NATIJALAR VA TAHLIL

Tadqiqot natijalari yashil kimyo tamoyillari asosida faoliyat yurituvchi korxonalarda ekologik yuk darajasi anʼanaviy ishlab chiqarish tizimlariga nisbatan sezilarli darajada past ekanligini koʻrsatdi. Olingan natijalar ishlab chiqarishda chiqindisiz yoki kam chiqindili texnologiyalarni joriy etish nafaqat emissiya hajmini kamaytirishini, balki hududiy ekologik barqarorlikni ham sezilarli darajada yaxshilashini tasdiqladi. GIS asosida amalga oshirilgan fazoviy tahlillar va statistik baholashlar natijasida quyidagi asosiy ekologik qonuniyatlar aniqlandi:

1. Yashil kimyo texnologiyalari joriy etilgan hududlarda sanoat chiqindilari hajmi oʻrtacha **35–60 % gacha kamaygani** qayd etildi; bu ayniqsa sulfatlar va texnogen chang emissiyasi kamayishi bilan izohlanadi;
2. Tuproq monitoring natijalariga koʻra, yashil texnologiyalar qoʻllanilgan zonalarda **tuproq degradatsiyasi indeksi 0.25–0.40 oraligʻida**, anʼanaviy hududlarda esa 0.55–0.75 oraligʻida ekanligi aniqlandi;
3. NDVI (Normalized Difference Vegetation Index) tahlili yashil texnologiyalar qoʻllanilgan hududlarda koʻrsatkichlar **0.62–0.78** oraligʻida boʻlib, bu oʻsimlik qoplami zichligi va biomassaning sezilarli darajada yaxshilanganini bildiradi;
4. LST (Land Surface Temperature) indeksi natijalari sanoat chiqindilari yuqori boʻlgan hududlarda yer sirt harorati **2–4°C ga yuqori** ekanligini, yashil texnologiyalar qoʻllanilgan hududlarda esa harorat nisbatan barqaror ekanligini koʻrsatdi;
5. Suv va tuproq namunalari GIS bilan integratsiyalashgan tahlili ayrim sanoat zonalarida ogʻir metall ionlari (Pb, Cd, Cr) konsentratsiyasi meʼyoriy darajaga nisbatan **1.2–1.8 baravar yuqori**, yashil texnologiyalar qoʻllanilgan hududlarda esa normaga yaqin ekanligini koʻrsatdi.

Fazoviy modellashtirish (IDW va Kriging interpolatsiya usullari) natijalari yashil kimyo texnologiyalari qoʻllaniladigan korxonalar atrofida aniq “past ekologik xavf zonalari” shakllanganini tasdiqladi. Ushbu zonalarda ifloslantiruvchi moddalar tarqalish radiusi kamaygan boʻlib, odatda **1–3 km** masofada konsentratsiya keskin pasayishi kuzatildi. ArcGIS platformasi asosida yaratilgan ekologik barqarorlik xaritalari sanoat hududlarini ekologik holatiga koʻra uch asosiy toifaga ajratish imkonini berdi:

- **Yuqori barqaror ekologik hududlar** – yashil texnologiyalar joriy etilgan, NDVI yuqori, LST past, chiqindi emissiyasi minimal hududlar;
- **Oʻrta barqaror ekologik hududlar** – aralash texnologiyalar qoʻllanilgan, ekologik yuk oʻrtacha darajada boʻlgan zonalar;

- **Past barqaror ekologik hududlar** – an'anaviy ishlab chiqarish ustun bo'lgan, chiqindi konsentratsiyasi yuqori, tuproq degradatsiyasi kuchli hududlar.

Shuningdek, korrelyatsion tahlil natijalari ekologik yuk bilan NDVI o'rtasida **manfiy kuchli bog'liqlik** ($r \approx -0.72$) mavjudligini, LST va chiqindi miqdori o'rtasida esa **ijobiy bog'liqlik** ($r \approx 0.68$) borligini ko'rsatdi. Bu esa ekologik holatni baholashda vegetatsiya va issiqlik indeksleri muhim indikator ekanligini tasdiqlaydi. Umuman olganda, olingan natijalar yashil kimyo texnologiyalarini joriy etish sanoat hududlarining ekologik holatini sezilarli darajada yaxshilashini, shuningdek, GIS va masofadan zondlash texnologiyalari ekologik jarayonlarni kompleks, fazoviy va dinamik baholashda yuqori ilmiy-amaliy samaradorlikka ega ekanligini ko'rsatadi.

MUHOKAMA

Yashil kimyo va geoaxborot tizimlari (GIS) integratsiyasi ekologik monitoringni sifat jihatidan yangi, yuqori texnologik bosqichga olib chiqadi. Ushbu yondashuv nafaqat kimyoviy ishlab chiqarish jarayonlarini ekologik nuqtayi nazardan baholash, balki ularning hududiy-ekologik oqibatlarini fazoviy va vaqtinchalik o'lchamda kompleks tahlil qilish imkonini ham beradi. Natijada ekologik jarayonlar alohida laboratoriya natijalari darajasida emas, balki dinamik rivojlanayotgan geotizim sifatida o'rganiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, GIS texnologiyalari ekologik jarayonlarni vizual, raqamli va fazoviy tahlil qilish imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytiradi. Bu esa ekologik monitoringning aniqligi, tezkorligi hamda prognozlash imkoniyatlarini oshiradi. Ayniqsa, fazoviy interpolatsiya, qatlamli tahlil va geostatistik modellar orqali ifloslanishning hududiy tarqalish qonuniyatlarini aniqlash ekologik boshqaruv tizimlari uchun muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, yashil kimyo tamoyillari asosida ishlab chiqilgan texnologiyalar ishlab chiqarish jarayonlarida chiqindilar miqdorini sezilarli darajada kamaytirib, zaharli kimyoviy moddalarning atrof-muhitga emissiyasini minimallashtiradi. Bu esa tuproq, suv va atmosfera komponentlarining ekologik yukini kamaytirib, tabiiy ekotizimlarning barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Integratsiyalashgan yondashuv — ya'ni GIS, masofadan zondlash va yashil kimyo tamoyillarining birgalikdagi qo'llanilishi — ekologik prognozlash tizimlarini yanada takomillashtiradi. Ushbu yondashuv ifloslanish jarayonlarining hududiy tarqalishini oldindan aniqlash, ekologik xavf zonalarini modellashtirish hamda favqulodda ekologik holatlarni bashorat qilish imkoniyatini kengaytiradi. Bu esa ekologik xavflarni kamaytirish va barqaror rivojlanish tamoyillarini amaliyotga joriy etishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Kelajak istiqbollari nuqtayi nazaridan, sun'iy intellekt (AI) va IoT (Internet of Things) texnologiyalarining GIS tizimlari bilan integratsiyasi yashil kimyo asosidagi ekologik monitoringni yangi bosqichga olib chiqadi. Bunday yondashuv real vaqt rejimida ekologik ma'lumotlarni avtomatik yig'ish, ularni intellektual tahlil qilish hamda yuqori aniqlikdagi prognoz modellarini yaratish imkonini beradi. Natijada ekologik boshqaruv tizimlari yanada moslashuvchan, tezkor va ilmiy asoslangan qaror qabul qilish mexanizmiga ega bo'ladi.

XULOSA

Tadqiqot natijalari asosida yashil kimyo tamoyillariga asoslangan ekologik xavfsiz texnologiyalarni geoaxborot tizimlari (GIS) va masofadan zondlash texnologiyalari bilan integratsiyalash orqali sanoat ekologik monitoringini takomillashtirish bo'yicha quyidagi asosiy ilmiy xulosalar shakllantirildi:

1. Yashil kimyo zamonaviy ekologik muammolarni hal etishda muhim ilmiy yo'nalishlardan biri bo'lib, u ekologik xavfsiz, resurs tejankor va barqaror ishlab chiqarish tizimlarini shakllantirishda asosiy metodologik asos vazifasini bajarishi aniqlandi;
2. Geoaxborot tizimlari (GIS) ekologik jarayonlarni fazoviy tahlil qilish, ifloslanish manbalarini aniqlash hamda hududiy ekologik barqarorlik darajasini ilmiy asosda baholash imkonini berishi tasdiqlandi;
3. Yashil kimyo tamoyillari asosidagi texnologiyalarni GIS platformalari bilan integratsiya qilish ekologik monitoring tizimlarining aniqligi, operativligi va prognozlash salohiyatini sezilarli darajada oshirishi ilmiy jihatdan asoslab berildi;
4. Masofadan zondlash texnologiyalari ekologik o'zgarishlarni real vaqt rejimida kuzatish, vegetatsiya holatini baholash hamda yer sirtining termal dinamikasini tahlil qilishda muhim ilmiy-amaliy vosita ekanligi ko'rsatildi;
5. Yashil texnologiyalarni ishlab chiqarish tizimlariga joriy etish sanoat korxonalarining ekologik yukini kamaytirish, tuproq va suv resurslariga salbiy antropogen ta'sirni minimallashtirish hamda ekologik muvozanatni saqlashga xizmat qilishi tasdiqlandi.

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, yashil kimyo, GIS va masofadan zondlash texnologiyalarining integratsiyasi zamonaviy ekologik monitoring tizimlarining ilmiy asoslangan, ko'p qatlamli va raqamlashtirilgan modelini shakllantirish imkonini beradi. Kelgusida yashil kimyo tamoyillariga asoslangan ishlab chiqarish korxonalarida geoaxborot tizimlari (GIS), sun'iy intellekt (AI) hamda IoT sensor texnologiyalariga asoslangan avtomatlashtirilgan ekologik monitoring tizimlarini joriy etish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bunday yondashuv ekologik xavflarni oldindan prognoz qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, sanoat jarayonlarining ekologik samaradorligini oshirish hamda barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar

- [1]. United Nations Environment Programme (UNEP). Global Environment Outlook. – Nairobi, 2023.
- [2]. Anastas P.T., Warner J.C. Green Chemistry: Theory and Practice. – Oxford University Press, 1998.
- [3]. Alloway B.J. Heavy Metals in Soils. – Springer, 2019.
- [4]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-oktabrdagi PF–5863-son Farmoni “2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasi to'g'risida”.
- [5]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-martdagi PQ–153-son Qarori “Suv xo'jaligi obyektlarida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida”.
- [6]. Otakuziyeva V. U. Oltin (III) ionini inert organik erituvchilar yordamida tanlab ekstraksiyalash va uni metilen ko'ki (MK) bilan bevosita organik fazada aniqlash // Строительство и образование. 2025. №5. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/oltin-iii-ionini-inert-organik-erituvchilar-yordamida-tanlab-ekstraksiyalash-va-uni-metilen-ko-ki-mk-bilan-bevosita-organik-fazada>
- [7]. Otakuzieva Vazira Usmonjonovna OLTIN (III) Ionini ekstraksiya ajratib olish va organik reagentlar bilan to'g'ridan to'g'ri organik fazada kompleks hosil qilishning spektrofotometrik tadqiqi // Строительство и образование. 2024. № Спецвыпуск 2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/oltin-iii-ionini-ekstraksiya-ajratib-olish-va-organik-reagentlar-bilan-to-g-ridan-to-g-ri-organik-fazada-kompleks-hosil-qilishning>
- [8]. Environmental Systems Research Institute (ESRI). ArcGIS Documentation: GIS for Environmental Applications. Available at: <https://www.esri.com>
- [9]. Ahmedov, Sultan, and Shahzodbek Abdunazarov. "Polimer chiqindilarni qayta ishlash muammolari." Empowerment of youth intellectual success (EYIS) 2.3 (2025): 31-34.
- [10]. Axmedov, Sultan. "Construction materials concrete and reinforced concrete corrosion analysis." Развитие педагогических технологий в современных науках 4.6 (2025): 33-36.
- [11]. Otakuziyeva Vazira Usmonjonovna, Ismoilov Umid Isaqovich, Toshxujayev Shukurjon Shavkatjon o'g'li Ammoniyashgan superfosfat ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashtirish orqali minerallardan foydalanish darajasini oshirishda eruvchanlik xususiyatini yaxshilash. (2026). International journal of science and technology, 3(01), 12-16. <https://doi.org/10.70728/tech.v3.i01.003>
- [12]. Open Source Geospatial Foundation (OSGeo). QGIS User Guide. Available at: <https://qgis.org>.

ANDIJON VILOYATI QO'RG'ONTEPA TUMANI YUKSALISH MFY YOSHLAR KICHIK SANOAT ZONASIDA JOYLASHGAN SUTNI QAYTA ISHLASH, YARIM TAYYOR MAHSULOTLAR VA MUZQAYMOQ ISHLAB CHIQARISH SEXI BINO-INSHOOTLARINI INSTRUMENTAL-TEXNIK TEKSHIRUVDAN O'TKAZISH BO'YICHA ILMIY-TEXNIK XULOSA TAHLILI

D.A. Xalilov, Sh.M. Davlyatov, B.I. Kimsanov

Farg'ona davlat texnika universiteti

e-mail: khalilov@att.uz

e-mail: davlatshox@inbox.ru

ORCID: 0009-0006-7204-7192

e-mail: baxromjonkimsanov@gmail.com

ORCID: 0009-0006-7204-7192

(Qabul qilindi 20.04.2026 y.)

Annotatsiya. Ushbu maqolada Andijon viloyati Qo'rg'ontepa tumani Yuksalish MFY Yoshlar kichik sanoat zonasida joylashgan sutni qayta ishlash, yarim tayyor mahsulotlar va muzqaymoq ishlab chiqarish sexi bino-inshootlarining № 9-26-son xo'jalik shartnomasi asosida o'tkazilgan instrumental-texnik tekshiruv natijalari keltirilgan. Tekshiruv davomida poydevor, yuk ko'taruvchi va to'siq konstruksiyalar, tom yopmasi hamda muhandislik tizimlarining mavjud texnik holati zamonaviy putur yetkazmasdan

tekshirish usullari (sklerometriya, ultratovush, profometriya, geodezik nivelirlash va boshqalar) yordamida baholandi. Olingan natijalar amaldagi me'yoriy hujjatlar talablari bilan taqqoslanib, konstruksiyalarning texnik holat toifasi aniqlandi hamda binoni xavfsiz foydalanishni ta'minlash bo'yicha asoslangan tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: instrumental-texnik tekshiruv, sanoat binolari, texnik holat baholash, buzmasdan tekshirish usullari, temirbeton konstruksiyalar, korroziya, ekspluatatsiya xavfsizligi.

Аннотация. В статье представлены результаты инструментально-технического обследования зданий и сооружений цеха по переработке молока, производству полуфабрикатов и мороженого, расположенного в молодёжной малой промышленной зоне махалли Юксалиш Кургантепинского района Андижанской области, выполненного на основании хозяйственного договора № 9-26. В ходе обследования с применением неразрушающих методов контроля (склерометрия, ультразвуковое прозвучивание, профометрия, геодезическое нивелирование и др.) оценено фактическое техническое состояние фундаментов, несущих и ограждающих конструкций, кровли и инженерных систем. Полученные данные сопоставлены с требованиями действующих нормативных документов, определена категория технического состояния конструкций, разработаны обоснованные рекомендации по обеспечению безопасной дальнейшей эксплуатации объекта.

Ключевые слова: инструментально-техническое обследование, промышленные здания, оценка технического состояния, неразрушающие методы, железобетонные конструкции, коррозия, безопасность эксплуатации.

Annotation. This article presents the results of an instrumental technical inspection of the buildings and structures of the milk processing, semi-finished products and ice cream production workshop located in the youth small industrial zone of Yuksalish MFY, Qorgontepa district, Andijan region, carried out under economic contract No. 9-26. During the inspection, non-destructive testing methods (rebound hammer testing, ultrasonic pulse testing, rebar/cover-meter scanning, geodetic levelling, etc.) were used to assess the actual technical condition of the foundations, load-bearing and enclosing structures, roofing and engineering systems. The obtained data were compared with the requirements of current regulatory documents, the technical condition category of the structures was determined, and substantiated recommendations were developed to ensure the safe further operation of the facility.

Keywords: instrumental technical inspection, industrial buildings, technical condition assessment, non-destructive testing methods, reinforced concrete structures, corrosion, operational safety.

Kirish.

Oziq-ovqat sanoati korxonalariga, jumladan sutni qayta ishlash va muzqaymoq ishlab chiqarish obyektlariga mansub bino-inshootlar maxsus ekspluatatsiya sharoitida ishlaydi: yuqori namlik, o'zgaruvchan harorat (sovutish va isitish kameralari), sanitariya-gigiena talablari bo'yicha muntazam yuvish va dezinfektsiyalash kabi omillar konstruksiyalarning erta eskirishi va korrozion shikastlanishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli bunday obyektlarning texnik holatini davriy ravishda instrumental usullar bilan tekshirish va ilmiy asoslangan xulosa berish dolzarb amaliy-ilmiy ahamiyatga ega.

Mazkur tadqiqotning maqsadi — № 9-26-son xo'jalik shartnomasi asosida Andijon viloyati Qo'rg'ontepa tumani Yuksalish MFY Yoshlar kichik sanoat zonasida joylashgan sutni qayta ishlash, yarim tayyor mahsulotlar va muzqaymoq ishlab chiqarish sexi bino-inshootlarining faktik texnik holatini buzmasdan tekshirish usullari orqali aniqlash, olingan natijalarni amaldagi me'yoriy hujjatlar talablari bilan taqqoslash hamda obyektning xavfsiz ekspluatatsiyasi bo'yicha ilmiy-texnik xulosa va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari quyidagilardan iborat:

- 1) obyektning loyiha-texnik hujjatlarini o'rganish;
- 2) bino-inshootlarni vizual (ko'zdan kechirish) tekshiruvdan o'tkazish;
- 3) instrumental-texnik (batafsil) tekshiruv o'tkazish;
- 4) olingan ko'rsatkichlarni me'yoriy qiymatlar bilan taqqoslash va tahlil qilish;
- 5) konstruksiyalarning texnik holat toifasini belgilash;
- 6) ilmiy asoslangan tavsiyalar va xulosa shakllantirish.

Bundan tashqari, Farg'ona vodiysi (jumladan, Andijon viloyati) seysmik jihatdan faol hudud hisoblanadi (QMQ 2.01.03-19 bo'yicha 8-9 ballik zona). Shu sababli, ishlab chiqarish binolarining

texnik holatini va seysmik mustahkamligini instrumental usullar bilan tekshirish, ularning xavfsizligini ta'minlash dolzarb muhandislik va ilmiy vazifa hisoblanadi. Ushbu tadqiqot № 9-26 xo'jalik shartnomasi doirasida mazkur sex binolarining real texnik holatini baholash maqsadida amalga oshirildi.

Nazariy qism.

Bino va inshootlarning texnik holatini instrumental usulda tekshirish respublikamizda ShNQ 2.01.15-2021 «Mavjud bino va inshootlarning texnik holatini baholash qoidalari», GOST 31937-2011 «Zdaniya i soorujeniya. Pravila obsledovaniya i monitoringa texnicheskogo sostoyaniya» hamda beton va temirbeton konstruksiyalarga oid ShNQ 2.03.01-19 kabi me'yoriy hujjatlar talablari asosida amalga oshiriladi. Ushbu hujjatlarga ko'ra, tekshiruv jarayoni bosqichma-bosqich tashkil etiladi: tayyorgarlik bosqichi (loyiha-ijro hujjatlarini o'rganish), vizual tekshiruv bosqichi, instrumental (batafsil) tekshiruv bosqichi, zarur hollarda laboratoriya sinovlari va hisob-kitoblar, so'ngra yakuniy xulosa tayyorlash.

Instrumental tekshiruvda, odatda, konstruksiyalarni buzmasdan nazorat qilish (buzmasdan tekshirish nazorat) usullari qo'llaniladi. Beton elementlarining qirilish mustahkamligini aniqlash uchun:

sklerometrlar (masalan, elastik zarba prinsipida ishlovchi IPS-MG4.03 turdagi asboblari) qo'llaniladi;

armaturaning joylashish chuqurligi, diametri va qadami profometrlar (magnit-induktiv prinsip) yordamida aniqlanadi;

konstruksiya ichidagi nuqsonlar (bo'shliqlar, yoriqlar) ultratovush usulida tekshiriladi;

vertikal va gorizontal tekisliklardagi og'ishlar, cho'kishlar geodezik nivelir va teodolitlar yordamida o'lchanadi;

namlik darajasi elektron vlagomerlar bilan, issiqlik ko'priklari esa termografik kameralar bilan aniqlanadi.

Tekshiruv natijasida olingan miqdoriy ko'rsatkichlar me'yoriy hujjatlarda belgilangan ruxsat etilgan (chegaraviy) qiymatlar bilan taqqoslanadi. Shu asosda bino va inshootning texnik holati to'rtta toifaga bo'lib baholanadi:

I — yaxshi (normativ) holat, ekspluatatsiyaga cheklovsiz yaroqli;

II — qoniqarli holat, yengil defektlar mavjud, lekin konstruksiyaning ishlash qobiliyatiga ta'sir qilmaydi;

III — cheklangan yaroqli holat, konstruksiyalarni mustahkamlash yoki ta'mirlash talab etiladi;

IV — avariya (xavfli) holat, konstruksiyani darhol foydalanishdan to'xtatish yoki mustahkamlash zarur. Ushbu toifalash tizimi tekshiruv natijalarini ilmiy asoslash va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish uchun metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Bino va inshootlarning instrumental-texnik tekshiruv destruktiv bo'lmagan (buzProperty-metodlarsiz) nazorat (DBN) nazariyasiga asoslanadi. Beton va g'ishtli konstruksiyalarning mustahkamligini baholashda ultratovush impuls usuli va mexanik usullar (elastik qaytish, plastik deformatsiya) keng qo'llaniladi.

Konstruksiyalarning seysmik mustahkamligini hisoblashda asosiy nazariy tenglama sifatida inshootning xususiy tebranishlar davri va shakli hisobga olinadi. Ko'p qavatli yoki sanoat binolari uchun dinamik yuklamalar ostidagi kuchlanish-deformatsiya holati quyidagi differensial tenglama orqali ifodalanadi:

$$M\ddot{x}(t) + C\dot{x}(t) + Kx(t) = F(t)$$

Bu yerda:

M — inshootning massa matritsasi;

C — so'nish (dissipatsiya) matritsasi;

K — konstruksiyaning qattiqlik (jestkost) matritsasi;

F(t) — tashqi dinamik (seysmik) kuch.

Instrumental tekshiruvlar natijasida olingan materiallarning amaldagi mustahkamligi (R_{act}) va loyihaviy mustahkamligi (R_{proj}) o'rtasidagi farq aniqlanib, inshootning deformatsiyalanish darajasi baholanadi.

Amaliy tajriba natijalari.

Tekshiruv obyekti — bir qavatli sanoat binosi bo'lib, umumiy qurilish maydoni taxminan 1600 m² ni tashkil etadi va temirbeton/g'isht aralash konstruktiv tizimga ega. Bino tarkibiga sut qabul qilish va qayta ishlash sexi, yarim tayyor mahsulotlar tayyorlash bo'limi, muzqaymoq ishlab chiqarish liniyasi, sovutish kameralari va yordamchi-xizmat xonalari kiradi. Binoning foydalanishga topshirilgan yili — 2024.

Tekshiruv jarayonida quyidagi asbob-uskunalaridan foydalanildi.

(1-jadval).

№	Asbob-uskuna nomi	Markasi / modeli	O'lchash parametri	Metrologik tasdiq (kalibrovka) raqami
1	Beton qattqlik o'lchagich (sklerometr)	IPS-MG4.03 / Oniks-2.5	Betonning qirilish mustahkamligi, MPa	№ K-756254-2025 amal qilish muddati 24.12.2026.
2	Armatura qidirgich (profometr)	POISK-2.7 / Profometer PM-650	Armatura diametri va joylashish chuqurligi, mm	№ K-756255-2025 amal qilish muddati 24.12.2026.
3	Yoriq kengligini o'lchash mikroskopi	MPB-3 / Crack-meter	Yoriq kengligi, mm	№ K-756256-2025 amal qilish muddati 24.12.2026.
4	Ultratovush qalinlik o'lchagich	UT-93P / UT-1M	Element qalinligi va beton strukturasi zichligi	№ K-756257-2025 amal qilish muddati 24.12.2026.
5	Lazer masofa o'lchagich	Leica DISTO D2	Chiziqli o'lchamlar, m	№ K-756258-2025 amal qilish muddati 24.12.2026.
6	Optik nivelir	N-3 / Sokkia B40	Vertikal yo'nalishdagi og'ishlar (cho'kish), mm	№ K-756259-2025 amal qilish muddati 24.12.2026.
7	Namlik o'lchagich (vlagomer)	Testo 606-2	Qurilish konstruksiyalari namligi, %	№ K-756260-2025 amal qilish muddati 24.12.2026.
8	Termografik kamera	Testo 875i	Issiqlik ko'priklari va namlik o'choqlari	№ K-756264-2025 amal qilish muddati 24.12.2026.

Izoh.

IPS-MG4.03 va Oniks-2.5 Bu ikki qurilma — qurilish konstruksiyalarini instrumental-texnik tekshirishda eng keng tarqalgan, bir-biriga raqobatchi bo'lgan beton mustahkamligini destruktiv bo'lmagan (buzmasdan) nazorat qilish asboblari (sklerometrlar) hisoblanadi. Ikkala qurilma ham mexanik impuls (urilish-qaytish) usuliga asoslangan bo'lib, beton, g'isht va qorishmalarning siqilishdagi mustahkamlik chegarasini (MPa yoki kgs/sm² da) aniqlaydi.

MPB-3 (Mikroskop otschetnyy Brinellya) qurilmasi va elektron yoki mexanik krek-metrlar (Crack-meter — devor va konstruksiyalardagi yoriqlar kengligini va ularning dinamikasini o'lchovchi moslama) O'zbekiston Respublikasi milliy o'lchov tizimi talablariga muvofiq majburiy yoki ixtiyoriy kalibrlash (qiyoslash) sinovlaridan o'tkazilishi shart.

Instrumental tekshiruv natijasida quyidagi asosiy ko'rsatkichlar aniqlandi

(2-jadval).

№	Konstruksiya elementi	O'lchangan ko'rsatkich	Aniqlangan qiymat	Me'yoriy (ruxsat etilgan) qiymat
1	Poydevor (fundament)	Nisbiy cho'kish	54 mm	≤ 100 mm (ShNQ 2.02.01)
2	Yuk ko'taruvchi devor (g'isht)	Beton/g'isht qattiqligi	7,5 MPa	Loyiha markasidan kam emas
3	Temirbeton ustun	Beton mustahkamligi (sklerometr)	18,5 MPa (B15)	Loyiha bo'yicha B20
4	Temirbeton ustun	Himoya qatlami qalinligi	22 mm	$\geq 20-25$ mm (ShNQ 2.03.01)
5	Yopma paneli (plita)	Oraliq markazidagi egilish	7 mm	$\leq L/200$ (ShNQ 2.03.01)
6	Yopma paneli (plita)	Yoriqlar kengligi	0,08 mm	$\leq 0,3$ mm (agressiv muhitda $\leq 0,2$ mm)
7	Ichki devorlar (sovuqxona zonasi)	Namlik darajasi	8 %	$\leq 8-10$ % (ShNQ 2.01.15)
8	Tom yopmasi	Gidroizolyatsiya holati	Qoniqarli	Sizish va namlanish izlari bo'lmasligi
9	Metall konstruksiyalar (ferma/to'sin)	Korroziya chuqurligi	0,02 mm	Kesim yuzasining 5% idan oshmasligi

Vizual tekshiruv davomida sexning ayrim ichki devorlarida, ayniqsa sovutish kameralari va yuvish zonalariga tutash qismlarda, namlik izlari va mayda sathli zararlanishlar kuzatildi. Tom yopmasining gidroizolyatsiya qatlamida mahalliy shikastlanishlar va eskirish belgilari aniqlandi. Metall konstruksiyalarda (mavjud bo'lsa) yuzaki korroziya o'choqlari qayd etildi. Poydevor va yuk ko'taruvchi konstruksiyalarda avariya bop darz yoki deformatsiya alomatlari vizual ravishda aniqlanmadi.

Tekshiruv davomida qo'shimcha quyidagi amaliy natijalar olindi:

1. Poydevorlar holati: Binoning poydevor qismlari ochib ko'rilganda, gidroizolyatsiya qatlamining qisman buzilganligi aniqlandi. Namlik ta'sirida poydevor betonining yuza qismida sho'rlanish (effloressensiya) kuzatilgan.

2. Beton mustahkamligi: Seysmik belbog' (seysmopoyas) va temir-beton ustunlarning betoni ultratovush usulida tekshirilganda, ularning mustahkamlik sinfi loyihadagi B20 (M250) o'rniga amalda B15 (M200) ekanligi ma'lum bo'ldi.

3. Devorlar holati: Pishgan g'ishtdan tiklangan ko'taruvchi devorlarning qorishma mustahkamligi (markasi) M25-M50 oralig'ida ekanligi aniqlandi. Ayrim joylarda texnologik issiqlik va namlik ta'sirida g'ishtlarning uvalanishi kuzatilgan.

Natijalar tahlili.

Olingan instrumental o'lchov natijalarini amaldagi ShNQ 2.01.15-2021 va ShNQ 2.03.01-19 talablari bilan taqqoslash shuni ko'rsatadiki, binoning asosiy yuk ko'taruvchi konstruksiyalari (poydevor, ustunlar, yopma panellari) umumiy holda loyiha ko'rsatkichlariga yaqin mustahkamlik darajasini saqlab qolgan. Shu bilan birga, ayrim lokal zonlarda — xususan yuqori namlik va harorat tebranishi kuzatiladigan sovutish kameralari atrofida — betonning yuza qatlamida karbonizatsiya jarayoni tezlashgani va himoya qatlamining qisman yupqalashgani aniqlandi, bu esa kelgusida armaturaning korroziyalanish xavfini oshiradi.

Yopma panellarida qayd etilgan yoriqlar kengligi umumiy holda me'yoriy ruxsat etilgan chegaradan oshmagan, ammo ayrim nuqtalarda chegaraviy qiymatlarga yaqinlashgan holatlar

kuzatildi, bu konstruksiyalarni kelgusida muntazam monitoring qilish zaruratini ko'rsatadi. Tom yopmasidagi gidroizolyatsiya shikastlanishlari namlikning devorlar va yopma ichiga sizib kirishiga sabab bo'layotgani, bu esa o'z navbatida beton va g'isht konstruksiyalarning uzoq muddatli mustahkamligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligi aniqlandi. Umumiy tahlil natijasida obyektning texnik holati nazariy qismda keltirilgan toifalash bo'yicha asosan II toifa (qoniqarli holat, yengil defektlar mavjud) ga, ayrim lokal zonalarda esa III toifa (cheklangan yaroqli holat) belgilariga yaqin deb baholandi.

Olingan instrumental ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, bino umumiy hisobda barqaror holatda, biroq sutni qayta ishlash jarayonida ajralib chiquvchi namlik va yuvish vositalari (ishqorlar, kislotalar) devor va pol konstruksiyalariga salbiy ta'sir ko'rsatgan.

Konstruktiv element	Loyihaviy ko'rsatkich	Amaldagi holat (Instrumental)	Baholash (Kategoriya)
Poydevor betoni	B15 (M200)	B12.5 (M150)	Qoniqarli (II-toifa)
Ko'taruvchi devorlar	M75 (G'isht)	M50-M75 (Ayrim joylarda namlangan)	Chegaralangan-soz (III-toifa)
Seysmik belbog'	B20 (M250)	B15 (M200)	Qoniqarli (II-toifa)

Binoning seysmik mustahkamligini qayta hisoblash shuni ko'rsatdiki, materiallar mustahkamligining pasayishi va devorlardagi mahalliy namlanishlar tufayli inshootning 9 ballik zilzilaga bardoshlilik zaxirasi 15-18% ga kamaygan. Bu esa zudlik bilan texnik tadbirlarni amalga oshirishni talab etadi.

Tavsiyalar.

Instrumental-texnik tekshiruv va ilmiy-texnik xulosa asosida sex binosini xavfsiz ekspluatatsiya qilish uchun quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

✓ Ventilyatsiya tizimini yaxshilash: Sutni qayta ishlash va muzqaymoq ishlab chiqarish xonalaridagi yuqori namlikni kamaytirish uchun majburiy oqib keluvchi-tortuvchi (pritochno-vytyajnaya) ventilyatsiya tizimini modernizatsiya qilish.

✓ Gidroizolyatsiya va antikorroziya: Namlik yuqori bo'lgan zonalarda devor va pol yuzalarini maxsus kimyoviy chidamli va suv o'tkazmaydigan polimer qoplamalar bilan himoyalash.

✓ Konstruksiyalarni kuchaytirish: Mustahkamligi kamaygan g'ishtli devor qismlarini va ustunlarni metall to'rlar (torkret-beton) yoki kompozit materiallar (ugoplastik) yordamida kuchaytirish (rubashka kiydirish).

✓ Monitoring: Binoning deformatsiyalanish holatini kuzatish uchun devorlardagi mavjud mikrodarzlklarga mayoqchalar (mayak) o'rnatish va har 6 oyda texnik ko'rikdan o'tkazish.

1. Tom yopmasining gidroizolyatsiya qatlamini to'liq qayta tiklash va sizib o'tish joylarini bartaraf etish;

2. Yuqori namlik kuzatilgan zonalarda devorlar va yopma qismlarini quritish, samarali ventilyatsiya tizimini ta'minlash;

3. Himoya qatlami yupqalashgan temirbeton elementlarni maxsus korroziyaga qarshi himoyalovchi qoplama bilan qayta ishlash;

4. Chegaraviy qiymatlarga yaqinlashgan yoriqlarni muntazam (har 6 oyda kamida bir marta) asboblarda yordamida kuzatuvga olish va yoriq kengligining o'zgarish dinamikasini qayd etish;

5. Metall konstruksiyalardagi korroziya o'choqlarini tozalash va zamonaviy antikorrozion qoplama bilan ishlov berish;

6. Obyektning keyingi instrumental-texnik tekshiruvini ShNQ 2.01.15-2021 talablariga muvofiq belgilangan muddatlarda (lekin kamida 5 yilda bir marta, agressiv muhit zonalarida esa tezroq) o'tkazib turish;

7. Aniqlangan kamchiliklar bartaraf etilgunga qadar mazkur zonalarida yuk ko'taruvchi konstruksiyalarga qo'shimcha statik yoki dinamik yuklama berilishining oldini olish.

Xulosa.

O'tkazilgan instrumental-texnik tekshiruv natijalariga ko'ra, Andijon viloyati Qo'rg'on tepa tumani Yuksalish MFY Yoshlar kichik sanoat zonasida joylashgan sutni qayta ishlash, yarim tayyor mahsulotlar va muzqaymoq ishlab chiqarish sexi bino-inshootlarining asosiy yuk ko'taruvchi konstruksiyalari umumiy olganda qoniqarli texnik holatda bo'lib, tegishli tavsiyalar bajarilishi sharti bilan obyektни belgilangan maqsadda xavfsiz ekspluatatsiya qilish mumkin deb xulosa qilinadi.

Shu bilan birga, tom yopmasi gidroizolyatsiyasi va yuqori namlik zonalaridagi konstruksiyalar bo'yicha aniqlangan kamchiliklarni ushbu maqolada keltirilgan tavsiyalar asosida qisqa muddatda bartaraf etish, shuningdek obyektning keyingi texnik holatini davriy instrumental monitoring orqali nazorat qilib borish tavsiya etiladi.

Binoning hozirgi texnik holati **III-toifaga (chegaralangan-soz holatga)** mansub bo'lib, undan foydalanish xavfsizligini ta'minlash uchun rejali ta'mirlash va kuchaytirish ishlarini olib borish zarur.

Sanoat zonasidagi muhit (yuqori namlik, issiqlik) konstruksiyalarning eskirishini tezlashtirgan, bu esa seysmik xavfsizlik ko'rsatkichlariga salbiy ta'sir etgan.

Maqolada tavsiya etilgan muhandislik yechimlari va tavsiyalar to'liq bajarilgan taqdirda, binoning xizmat qilish muddati yana 20-25 yilga uzayadi va 9 ballik seysmik yuklamalarga bardoshlilik ta'minlanishi mumkin.

Adabiyotlar

- [1]. O'zR Qurilish vazirligi. ShNQ 2.01.15-2021 «Mavjud bino va inshootlarning texnik holatini baholash qoidolari». — Toshkent, 2021.
- [2]. QMQ 2.01.03-19. Seysmik hududlarda qurilish. Toshkent, O'zbekiston Qurilish vazirligi, 2019.
- [3]. GOST 31937-2011. Zdaniya i soorujeniya. Pravila obsledovaniya i monitoringa texnicheskogo sostoyaniya. — M.: Standartinform, 2014.
- [4]. ShNQ 2.03.01-19. Beton va temirbeton konstruksiyalar. Asosiy qoidalar. — Toshkent, 2019.
- [5]. ShNQ 2.02.01-98. Bino va inshootlar poydevori. — Toshkent, 1998.
- [6]. ShNK 2.01.21-18. Bino va inshootlarning texnik holatini tekshirish qoidolari. Toshkent, 2018.
- [7]. ГОСТ 22690-2015. Бетоны. Определение прочности механическими методами неразрушающего контроля. — М., 2015.
- [8]. ГОСТ Р 53778-2010. Здания и сооружения. Правила обследования и мониторинга технического состояния.
- [9]. Raximov A.M., Saidov B.S. Bino va inshootlarni instrumental tekshirish usullari va asbob-uskunalar. TASI, Toshkent, 2021.
- [10]. Bondarenko V.M., Suvorkin D.G. Jelezobetonnyye konstruksii sanoat binolari: nadejnost i dolgovechnost. Moskva, Stroyizdat, 2018.
- [11]. Ulug'ov I.S., Razzoqov A.A. Mavjud bino va inshootlarning texnik holatini instrumental usullarda baholash. — Toshkent: O'zbekiston, 2020.
- [12]. Davlatov M. A., Davlatov Sh. M. Methods of non-destructive testing of operational properties of buildings and structures in seismic zones of the Fergana Valley. // International Journal of Architectural and Infrastructure Development (Xalqaro me'morchilik va infratuzilmani rivojlantirish jurnali).
- [13]. Qurilish konstruksiyalarini buzmasdan tekshirish nazorat usullari bo'yicha o'quv-uslubiy qo'llanma / mas'ul mualliflar jamoasi. — Toshkent: TAQI nashriyoti, 2019.
- [14]. № 9-26-son xo'jalik shartnomasi va unga ilova qilingan texnik topshiriq hujjatlari, 25.05.2026 yil.
- [15]. Davlatov Sh. M. Application of modern laser and digital devices in technical inspection of buildings. // Science and Innovation International Scientific Journal.
- [16]. Ismailov Sh.A. Farg'ona vodiysi sharoitida sanoat binolarining seysmomustahkamligini baholash. Ilmiy jurnal "Qurilish va Me'morchilik", №3, 2023.

BAZALT TOLALARNING BETON MATRITSASIDA BIR TEKIS TAQSIMLANISH QONUNIYATLARINI VA ULARNING FIBROBETONNING MUSTAHKAMLIK XUSUSIYATLARIGA TA'SIRINI ANIQLASH

S. J. Razzakov, A. Sh. Martazayev, B. G'. Jo'rayev, O. Q. Fozilov, A. R. Axmedov, A. S. Jo'rayeva

Namangan davlat texnika universiteti

[\(Qabul qilindi 20.04.2026 y.\)](#)

Ushbu maqolada bazalt tolalarning beton matritsasi hajmi bo'ylab taqsimlanish xususiyatlari hamda ularning fibrobetonning siqilishdagi mustahkamligiga ta'siri eksperimental tadqiq etilgan. Tadqiqotda bazalt tolalarining uzunligi 5, 10, 20, 30, 40 va 50 mm, hajmiy miqdori esa 0,1–0,4 % oralig'ida o'zgartirildi. Tolalarni beton qorishmasiga kiritishning quruq aralashtirish, tayyor qorishmaga kiritish va superplastifikator eritmasida oldindan dispersiyalash usullarini o'z ichiga olgan uch xil texnologiya tadqiq qilindi. Tolalarning beton matritsasi taqsimlanish bir xilligi namunalar mustahkamligi natijalarining variatsiya koeffitsienti orqali bilvosita baholandi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, T1 texnologiyasi eng yuqori o'rtacha mustahkamlikni 34,46 MPa va eng past variatsiya koeffitsientini 3,26 % ta'minladi. Eng samarali tarkib 20 mm uzunlikdagi va 0,2 % hajmiy miqdordagi bazalt tolani T1 texnologiyasi asosida kiritish orqali olindi. Mazkur tarkibda o'rtacha siqilishdagi mustahkamlik 36,67 MPa ni tashkil etib, nazorat tarkibiga nisbatan 24,90 % ga yuqori bo'ldi, variatsiya koeffitsienti esa 2,95 % ni tashkil etdi. Olingan natijalar bazalt tolali fibrobeton tarkibini optimallashtirish, xususan, tola uzunligi, miqdori va beton qorishmasiga kiritish texnologiyasini tanlash uchun amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: bazalt tola, fibrobeton, dispers armaturalash, bir tekis taqsimlanish, siqilishdagi mustahkamlik, variatsiya koeffitsienti, aralashtirish texnologiyasi; tola uzunligi; tola hajmiy miqdori; beton matritsasi.

В данной статье экспериментально исследованы особенности распределения базальтовых волокон по объёму бетонной матрицы и их влияние на прочность фибробетона при сжатии. В исследовании варьировались длина базальтовых волокон 5, 10, 20, 30, 40 и 50 мм и их объёмное содержание в диапазоне 0,1-0,4 %. Исследованы три технологических способа введения волокон в бетонную смесь: сухое перемешивание, введение в готовую бетонную смесь и предварительное диспергирование в растворе суперпластификатора. Однородность распределения волокон в бетонной матрице косвенно оценивалась по коэффициенту вариации результатов прочности образцов. Результаты исследования показали, что технология T1 обеспечила наибольшую среднюю прочность 34,46 МПа и наименьший коэффициент вариации 3,26 %. Наиболее эффективным признан состав с базальтовым волокном длиной 20 мм и объёмным содержанием 0,2 %, введённым по технологии T1. Средняя прочность данного состава при сжатии составила 36,67 МПа, что на 24,90 % выше показателя контрольного состава, при этом коэффициент вариации составил 2,95 %. Полученные результаты имеют практическое значение для оптимизации состава базальтофибробетона, в частности для выбора длины и объёмного содержания волокон, а также технологии их введения в бетонную смесь.

Ключевые слова: базальтовое волокно, фибробетон, дисперсное армирование, равномерность распределения, прочность при сжатии, коэффициент вариации, технология перемешивания, длина волокна, объёмное содержание волокна, бетонная матрица.

This paper experimentally investigates the distribution characteristics of basalt fibers throughout the concrete matrix and their effect on the compressive strength of fiber-reinforced concrete. The study considered basalt fibers with lengths of 5, 10, 20, 30, 40, and 50 mm and fiber volume fractions ranging from 0.1% to 0.4%. Three technological methods of incorporating fibers into the concrete mixture were investigated: dry mixing, direct incorporation into the prepared concrete mixture, and pre-dispersion in a superplasticizer solution. The uniformity of fiber distribution within the concrete matrix was indirectly evaluated using the coefficient of variation of the compressive strength results. The results showed that the T1 technology provided the highest average compressive strength of 34.46 MPa and the lowest coefficient of variation of 3.26%. The most effective composition was obtained using 20 mm long basalt fibers at a volume fraction of 0.2%, incorporated according to the T1 technology. The average compressive strength of this composition reached 36.67 MPa, which was 24.90% higher than that of the control composition, while the coefficient of variation was 2.95%. The obtained results provide a practical basis for optimizing basalt fiber-

reinforced concrete mixtures, particularly for selecting the fiber length, volume fraction, and technology for incorporating fibers into the concrete mixture.

Key words: *basalt fiber, fiber-reinforced concrete, dispersed reinforcement, uniform distribution, compressive strength, coefficient of variation, mixing technology, fiber length, fiber volume fraction, concrete matrix.*

So‘nggi yillarda qurilish materiallari sohasida beton va temir-beton konstruksiyalarning mustahkamligi, chidamliligi va ekspluatatsion xususiyatlarini oshirish maqsadida dispers armaturalangan fibrobeton materiallaridan foydalanish tobora keng tarqalmoqda. An‘anaviy po‘lat tolalar bilan bir qatorda, so‘nggi o‘n yilliklarda bazalt tolalar o‘zining yuqori kimyoviy va issiqlikka chidamliligi, korroziyaga bardoshliligi hamda ekologik xavfsizligi tufayli fibrobeton texnologiyasida alohida e‘tiborga sazovor bo‘lib bormoqda. Bazalt tolali fibrobetonlarning fizik-mexanik xususiyatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlar jahon ilmiy adabiyotida keng yoritilgan. Xususan, V. Dias va C. Thaumaturgo [1] bazalt tolalarning geopolimer betonlarning egiluvchanlik xususiyatlariga ta‘sirini, B. Kabay [2] bazalt tolali betonning ishqalanish va yeyilishga chidamliligini hamda darz hosil bo‘lishiga qarshiligini, T. Ayub va boshq. [3] bazalt tolalarning yuqori mustahkamlikli betonning mexanik xossalriga ta‘sirini, J. Branston va boshq. [4] esa bazalt tolali beton konstruksiyalarning yong‘inga chidamliligini tadqiq etgan. R. Ralegaonkar va boshq. [6] hamda P. Jiang va boshq. [5] tadqiqotlarida bazalt tolalarning miqdori va uzunligining betonning siqilish va egiluvchanlikdagi mustahkamligiga ta‘siri o‘rganilgan bo‘lib, tola miqdorining ma‘lum optimal chegaradan oshishi bilan mustahkamlikning pasayishi kuzatilgani qayd etilgan.

Shu bilan birga, ko‘plab mavjud tadqiqotlarda asosan tolalarning turi, uzunligi va miqdorining beton mustahkamligiga ta‘siri o‘rganilgan bo‘lib, tolalarning beton matritsasi hajmi bo‘ylab qanchalik bir tekis taqsimlanishini ta‘minlovchi texnologik omillarga, xususan, tolalarni qorishmaga qo‘shish usuli va aralashtirish ketma-ketligiga yetarlicha e‘tibor qaratilmagan. Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, tolalarning notekis taqsimlanishi, ya‘ni ularning alohida zonalarda to‘planib qolishi natijasida dispers armaturalashning haqiqiy samaradorligi sezilarli darajada pasayishi, hatto ba‘zi hollarda beton mustahkamligining kamayishiga olib kelishi mumkin [7].

Shu sababli bazalt tolalarning beton matritsasida bir tekis taqsimlanish qonuniyatlarini, unga ta‘sir etuvchi texnologik omillarni hamda ushbu taqsimlanishning betonning siqilishdagi mustahkamlik ko‘rsatkichlariga bog‘liqligini eksperimental asosda aniqlash dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Ushbu tadqiqotning maqsadi bazalt tolalarning uzunligi, hajmiy miqdori hamda ularni beton qorishmasiga qo‘shishning uchta texnologik usuli (quruq aralashtirish, tayyor qorishmaga kiritish va superplastifikator eritmasida dispersiyalash) asosida tolalarning beton hajmida bir tekis taqsimlanish darajasini bilvosita statistik ko‘rsatkichlar orqali baholash hamda betonning siqilishdagi mustahkamligini ta‘minlovchi eng maqbul texnologik parametrlarni aniqlashdan iborat.

Tadqiqotlarda bog‘lovchi material sifatida “Namangansement” MCHJ tomonidan ishlab chiqarilgan CEM II/A-K 32,5 N markali portlandsementdan foydalanildi. Mayda to‘ldiruvchi sifatida donadorlik tarkibi 0-5 mm bo‘lgan, yirik to‘ldiruvchi sifatida esa fraksiyasi 5-20 mm bo‘lgan “Uychi Industry” TBZ kareridan olingan qum va chaqirtosh qo‘llanildi. Beton qorishmasining harakatchanligini oshirish, suv-sement nisbatini kamaytirish va tolalarning hajm bo‘ylab bir tekis taqsimlanishini yaxshilash maqsadida polikarboksilat efiri asosidagi MasterGlenium ACE 430 superplastifikatoridan foydalanildi. Dispers armaturalovchi material sifatida O‘zbekiston Respublikasi, Jizzax viloyati joylashgan “Basalt Uzbekistan” kompaniyalar guruhi korxonasida ishlab chiqarilgan bazalt tolalari qo‘llanildi. Tolalarning uzunligi 5, 10, 20, 30, 40 va 50 mm oralig‘ida, beton hajmiga nisbatan miqdori esa 0,1; 0,2; 0,3 va 0,4 % qiymatlarda olindi. Nazorat namunasi sifatida tolasiz (C0) beton tarkibi qabul qilindi. Har bir tarkib va texnologiya bo‘yicha o‘lchamlari 100×100×100 mm bo‘lgan 6 tadan kub namuna tayyorlandi.

Tolalarning beton qorishmasiga qo‘shish texnologiyasining taqsimlanish bir xilligiga ta‘sirini aniqlash maqsadida uchta texnologik usul qo‘llanildi:

T1 - quruq aralashtirish usuli: sement, mayda va yirik to'ldiruvchilar 1 daqiqa quruq aralashtirilib, so'ngra tolalar qo'shib yana 1 daqiqa aralashtirildi, keyin suvda eritilgan superplastifikator qo'shib 2 daqiqa aralashtirildi (umumiy davomiylik 4 daqiqa).

T2 - tayyor qorishmaga tola kiritish usuli: dastlab bir jinsli beton qorishmasi tayyorlanib (3 daqiqa), so'ngra tolalar kichik porsiyalarda bosqichma-bosqich kiritilib, qo'shimcha 1 daqiqa aralashtirildi.

T3 - superplastifikator eritmasida dispersiyalash usuli: tolalar dastlab qorishma suvi va superplastifikator eritmasida 1 daqiqa dispersiyalanib, so'ngra quruq komponentlar aralashmasiga qo'shib 2 daqiqa aralashtirildi.

Barcha texnologik variantlarda tolalarning umumiy miqdori, sement-suv nisbati va superplastifikator miqdori bir xil saqlandi. Tayyorlangan qorishmalar standart metall qoliplarga joylashtirilib, vibratsion stol yordamida zichlashtirildi, 24 soat qoliplarda saqlangandan so'ng 20 ± 2 °C harorat va nisbiy namligi kamida 95 % bo'lgan sharoitda 28 sutka davomida parvarish qilindi.


Tolalarning beton hajmi bo'ylab bir tekis taqsimlanganlik darajasini bilvosita baholash uchun har bir tarkib va texnologiya bo'yicha olingan siqilishdagi mustahkamlik natijalari statistik tahlil qilinib, o'rtacha qiymat ($\bar{x}$), standart og'ish (S) va variatsiya koeffitsienti (V, %) hisoblandi. Variatsiya koeffitsientining kichik qiymati tolalarning matritsada bir tekis taqsimlanganligini, katta qiymati esa ularning ayrim zonlarda to'planib qolganligini (notekis taqsimlanishini) bilvosita ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, bazalt tolalarni beton qorishmasiga qo'shish texnologiyasi betonning siqilishdagi mustahkamligiga hamda natijalarning statistik barqarorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi aniqlandi. Texnologiyalar bo'yicha umumlashtirilgan statistik ko'rsatkichlar 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval.

Bazalt tolalarni beton qorishmasida taqsimlash texnologiyalarining umumlashtirilgan statistik ko'rsatkichlari.

Texnologiya	O'rtacha mustahkamlik, MPa	O'rtacha V, %	Nazoratga nisbatan farq, MPa
C0 – nazorat	29,36	3,36	-
T1	34,46	3,26	+5,10
T2	32,41	4,25	+3,05
T3	32,21	6,19	+2,85




1-rasm. Taqsimlash texnologiyasining beton mustahkamligi va variatsiya koeffitsientiga ta'siri.

1-jadval ma'lumotlari tahliliga ko'ra, T1 texnologiyasi asosida tayyorlangan namunalar eng yuqori o'rtacha siqilish mustahkamligini namoyon etib, ushbu ko'rsatkich 34,46 MPa ni tashkil etdi. Mazkur qiymat T2 va T3 texnologiyalari bo'yicha olingan natijalardan mos ravishda 6,33 % va 6,98 % ga yuqori bo'ldi (1-rasm). Shu bilan birga, T1 texnologiyasida variatsiya koeffitsienti 3,26 % ni tashkil etib, bu nazorat tarkibidagi 3,36 % qiymatdan ham past hamda T2 (4,25 %) va T3 (6,19 %) texnologiyalariga nisbatan sezilarli darajada kichik ekanligi aniqlandi. Olingan natijalar T1 texnologiyasi bazalt tolalarning beton matritsasi bo'ylab yanada bir tekis taqsimlanishini ta'minlashi, natijada esa fibrobetonning mustahkamlik ko'rsatkichlari va struktura bir jinsliligini yaxshilashga xizmat qilishini ko'rsatadi.


T3 texnologiyasi bo'yicha tayyorlangan tarkiblarda variatsiya koeffitsientining sezilarli darajada ortishi kuzatildi. Jumladan, B10-0,4-T3 tarkibida $V=15,65$ %, B5-0,4-T3 tarkibida $V=13,32$ % hamda B50-0,3-T3 tarkibida $V=12,76$ % ni tashkil etdi. Ushbu holat tolalarni superplastifikator eritmasida dispersiyalash jarayonida, ayniqsa tola miqdori yuqori bo'lgan hollarda (0,4 %), ularning qayta agregatlanishi va klasterlar hosil qilish ehtimolining ortishi bilan izohlanadi. Natijada beton matritsada tolalarning notekis taqsimlanishi kuzatilib, texnologik jarayonning barqarorligi pasayadi hamda namunalar orasidagi mustahkamlik ko'rsatkichlarining tarqoqligi ortadi.

Bazalt tola miqdorining betonning siqilishdagi mustahkamligiga ta'sirini yanada aniqroq baholash maqsadida T1 texnologiyasi asosida tayyorlangan namunalar bo'yicha barcha tola uzunliklari uchun o'rtachalashtirilgan natijalar tahlil qilindi. Olingan natijalar 2-rasmda keltirilgan.



2-rasm. T1 texnologiyasida basalt tola miqdorining betonning siqilishdagi mustahkamligiga ta'siri.

2-rasmdan ko'rinadiki, bazalt tola miqdorining 0,1 % dan 0,2 % gacha oshirilishi betonning o'rtacha siqilishdagi mustahkamligini 34,22 MPa dan 36,15 MPa gacha oshirgan. Biroq tola miqdorining 0,2 % dan 0,3 % va 0,4 % gacha ko'paytirilishi mustahkamlikning mos ravishda 34,36 MPa va 33,11 MPa gacha pasayishiga olib kelgan. Shu bilan birga, 0,3 % va 0,4 % miqdordagi bazalt tolalar qo'llanilganda mustahkamlik ko'rsatkichlarida ma'lum darajada pasayish kuzatilgan bo'lsada, ularning qiymatlari nazorat namunasi mustahkamligidan yuqori bo'lib qoldi. Bu esa bazalt tolalarning yuqori miqdorlarida ham betonning mustahkamlik xususiyatlariga ijobiy ta'siri saqlanib qolishini, biroq maksimal samaradorlik 0,2 % miqdorda kuzatilishini ko'rsatadi. Bazalt tola uzunligining betonning siqilishdagi mustahkamligiga ta'sirini baholash maqsadida T1 texnologiyasi va optimal deb topilgan 0,2 % tola miqdori uchun olingan natijalar alohida tahlil qilindi. Mazkur tahlil natijalari 3-rasmda keltirilgan.



3-rasm. T1 texnologiyasida (tola miqdori 0.2%) basalt tola uzunligining betonning mustahkamligiga ta'siri.

3-rasm

natijalari bazalt tola uzunligining betonning siqilishdagi mustahkamligiga sezilarli ta'sir ko'rsatishini ko'rsatadi. Tola uzunligi 5 mm dan 20 mm gacha oshirilganda o'rtacha mustahkamlik 36,01 MPa dan 36,67 MPa gacha ortgan. Biroq tola uzunligining 20 mm dan 50 mm gacha yanada oshirilishi mustahkamlikning 35,63 MPa gacha izchil pasayishiga olib kelgan. Ushbu qonuniyat qisqa tolalarning beton matritsasi bo'ylab nisbatan bir tekis taqsimlanishi bilan birga, ularning beton va tola o'rtasida yetarli bog'lanish yuzasini hosil qila olmasligi, aksincha uzun tolalarning aralashtirish jarayonida o'zaro chigallashib, klasterlar hosil qilish ehtimolining ortishi bilan izohlanadi. Natijada beton strukturasi bir jinsliliigi pasayib, mustahkamlik ko'rsatkichlari kamayadi. Olingan natijalar tahlili bazalt tolali fibrobeton uchun eng samarali tarkib 20 mm uzunlikdagi bazalt tola, 0,2 % hajmiy miqdor va T1 texnologiyasi asosida tayyorlangan B20-0,2-T1 namunasi ekanligini ko'rsatdi. Mazkur tarkib eng yuqori siqilishdagi mustahkamlik ko'rsatkichini namoyon etgan bo'lib, uning nazorat betoniga nisbatan afzalliklari 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval. Optimal tarkib va nazorat betonining taqqoslanishi

Ko'rsatkich	C0	B20-0,2-T1	Farq
O'rtacha mustahkamlik, MPa	29,36	36,67	+7,31
Mustahkamlikning nisbiy o'sishi, %	-	24,90	+24,90
Variatsiya koeffitsienti, %	3,36	2,95	-0,41

2-jadval ma'lumotlari tahliliga ko'ra, B20-0,2-T1 tarkibida o'rtacha siqilishdagi mustahkamlik nazorat tarkibiga nisbatan 7,31 MPa ga yoki 24,90 % ga oshgan. Shu bilan birga, variatsiya koeffitsienti 3,36 % dan 2,95 % gacha kamaygan. Mazkur natija optimal tarkibning nafaqat yuqori mustahkamlikni, balki natijalarning yuqori takrorlanuvchanligini ham ta'minlaganini ko'rsatadi. Variatsiya koeffitsientining kamayishi bazalt tolalarning beton matritsasi bo'ylab nisbatan bir tekis taqsimlanganligi va namunalarning strukturaviy bir jinsliliigi yaxshilanganligini ko'rsatadi. Eksperimental tadqiqot natijalari bazalt tolali fibrobetonning samaradorligi faqat tola miqdori va uzunligiga emas, balki tolalarni beton qorishmasiga qo'shish va dispersiyalash texnologiyasiga ham bevosita bog'liqligini ko'rsatdi. Tola miqdori, uzunligi va qo'shish texnologiyasining optimal kombinatsiyasini tanlash orqali fibrobetonning mustahkamligi bilan bir qatorda uning strukturaviy bir jinsliliigi va natijalarning takrorlanuvchanligini ham oshirish mumkin.

XULOSA

O'tkazilgan eksperimental tadqiqotlar natijasida quyidagi asosiy xulosalarga kelindi:

1. Bazalt tolalarni beton qorishmasiga kiritish texnologiyasi betonning siqilishdagi mustahkamligi va tajriba natijalarining statistik barqarorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi aniqlandi. Tadqiq etilgan texnologiyalar orasida T1, ya'ni quruq aralashtirish usuli, eng yuqori o'rtacha mustahkamlikni 34,46 MPa hamda eng past variatsiya koeffitsientini 3,26 % ta'minladi.

2. Bazalt tola miqdorining 0,1 % dan 0,2 % gacha oshirilishi betonning siqilishdagi mustahkamligini oshirishga olib keldi. Tola miqdorining 0,2 % dan 0,3 % va 0,4 % gacha ko'paytirilishida esa mustahkamlikning ma'lum darajada pasayishi kuzatildi. Biroq ushbu tarkiblarda ham mustahkamlik nazorat betoniga nisbatan yuqori bo'lib qoldi. Shu sababli tadqiq etilgan tarkiblar doirasida 0,2 % bazalt tolasi optimal miqdor sifatida belgilandi.

3. Bazalt tola uzunligining ta'siri bo'yicha eng yuqori o'rtacha mustahkamlik 20 mm uzunlikdagi tolalarda qayd etildi. Tola uzunligining 5 mm dan 20 mm gacha oshirilishi mustahkamlikning ortishiga, 20 mm dan yuqori qiymatlarga oshirilishi esa uning pasayishiga olib keldi. Bu holat tola uzunligi va uning beton matritsasida dispersiyalanishi o'rtasida maqbul nisbat mavjudligini ko'rsatadi.

4. Tadqiqot natijalariga ko'ra, 20 mm uzunlikdagi, 0,2 % hajmiy miqdordagi bazalt tola va T1 texnologiyasi asosida tayyorlangan B20-0,2-T1 tarkibi eng samarali tarkib sifatida aniqlandi. Ushbu tarkibda o'rtacha siqilishdagi mustahkamlik 36,67 MPa ni tashkil etib, nazorat tarkibiga nisbatan 7,31 MPa yoki 24,90 % ga yuqori bo'ldi. Bunda variatsiya koeffitsienti 2,95 % ni tashkil etib, nazorat tarkibidagi 3,36 % qiymatdan ham past bo'ldi.

5. Variatsiya koeffitsienti fibrobeton namunalarining mustahkamlik natijalaridagi tarqoqlikni baholash va shu orqali tolalarning beton matritsasida taqsimlanishining bir xilligini bilvosita baholash uchun informativ statistik mezon sifatida qo'llanishi mumkin.

6. Olingan natijalar bazalt tolali fibrobeton tarkibini loyihalashda, xususan, tolaning optimal miqdori, uzunligi va beton qorishmasiga kiritish texnologiyasini tanlashda muhim amaliy ahamiyatga ega. Kelgusidagi tadqiqotlarda bazalt tolalarning beton matritsasida taqsimlanish xususiyatlarini mikrostruktura darajasida chuqurroq o'rganish, jumladan, mikroskopik tahlil, rentgen-kompyuter tomografiyasi va raqamli tasvirlarni qayta ishlash usullaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bunday tadqiqotlar tolalarning beton hajmi bo'ylab taqsimlanishi va aniqlangan mustahkamlik ko'rsatkichlari o'rtasidagi bog'liqlikni yanada aniqroq asoslash imkonini beradi.

Adabiyotlar

- [1]. Dias D. P., Thaumaturgo C. Fracture toughness of geopolymeric concretes reinforced with basalt fibers // Cement and concrete composites. – 2005. – T. 27. – №. 1. – C. 49-54.
- [2]. Kabay N. Abrasion resistance and fracture energy of concretes with basalt fiber // Construction and Building Materials. – 2014. – Vol. 50. – P. 95–101.
- [3]. Ayub T., Shafiq N., Nuruddin M.F. Mechanical properties of high-performance concrete reinforced with basalt fibers // Procedia Engineering. – 2014. – Vol. 77. – P. 131–139.
- [4]. Branston J., Das S., Kenno S.Y., Taylor C. Mechanical behaviour of basalt fibre reinforced concrete // Construction and Building Materials. – 2016. – Vol. 124. – P. 878–886.
- [5]. Jiang C., Fan K., Wu F., Chen D. Experimental study on the mechanical properties and microstructure of chopped basalt fibre reinforced concrete // Materials & Design. – 2014. – Vol. 58. – P. 187–193.
- [6]. Ralegaonkar R.V., Gavali H.R., Aswath P., Abolmaali S. Application of chopped basalt fiber in reinforced mortar // Construction and Building Materials. – 2018. – Vol. 176. – P. 619–626.
- [7]. High C., Seliem H.M., El-Safty A., Rizkalla S.H. Use of basalt fibers for concrete structures // Construction and Building Materials. – 2015. – Vol. 96. – P. 37–46.
- [8]. Fantilli A.P., Chiaia B. The work of fracture in basalt fibre reinforced concrete // Cement and Concrete Composites. – 2013. – Vol. 39. – P. 71–78.
- [9]. Rashidov T.R., Nazarov A.A. Mahalliy tolali kompozit materiallar asosida fibrobetonlarning fizik-mexanik xossalarini takomillashtirish // O'zbekiston qurilish jurnali. – 2021. – № 3. – B. 45–52.

KUCH TRANSFORMATORI ELEMENTLARINING TEXNIK HOLATINI BAHOLASHDA O‘RTA DARAJALI INDEKSLARNING NOANIQ ANALITIK IERARXIYA JARAYONI ASOSIDA OG‘IRLIK KOEFFITSIYENTLARINI ANIQLASH

D.T. Yusupov, A.I. Nosirov

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining Energetika Muammolari Instituti

e-mail: dilmurod85@list.ru

ORCID: 0009-0000-6492-3064

e-mail: asrorbeknosirov6210@gmail.com

Annotatsiya: Kuch transformatorlarining texnik holatini baholashda ko‘plab diagnostik parametrlarning o‘zaro bog‘liqligi va ularning transformator elementlariga ta’sir darajasini hisobga olish muhim ahamiyatga ega. Amaliyotda transformatorning texnik holati elektr, kimyoviy va termik jarayonlarni tavsiflovchi ko‘rsatkichlar asosida baholanadi, biroq ushbu indeksning nisbiy ahamiyatini aniqlash masalasi yetarli darajada o‘rganilmagan. Mazkur tadqiqotda kuch transformatori elementlarining texnik holatini baholash uchun o‘rta darajali diagnostik indekslar — elektr (I_e), kimyoviy (I_k) va termik (I_t) indekslarning og‘irlik koeffitsiyentlarini aniqlashning noaniq analitik ierarxiya jarayoni (FAHP) asosidagi modeli taklif etilgan. Tadqiqotda Changning extent analysis usuli qo‘llanilib, ekspert baholaridagi noaniqlik (uchburchak noaniq sonlar) yordamida hisobga olingan. Natijada o‘rta darajali indekslarning ustuvorlik darajasi aniqlanib, elektr holat indeksining eng yuqori ta’siriga, termik indeksning esa nisbatan past ta’siriga ega ekanligi asoslandi. Olingan og‘irlik koeffitsiyentlari transformator elementlarining texnik holatini kompleks baholash, integral diagnostik ko‘rsatkichlarni shakllantirish hamda qaror qabul qilish tizimlarini ishlab chiqishda qo‘llanishi mumkin.

Kalit so‘zlar: kuch transformatori, texnik holat, diagnostika, elektr indeks, kimyoviy indeks, termik indeks, FAHP, noaniq analitik ierarxiya jarayoni, og‘irlik koeffitsiyenti, Chang extent analysis.

Nazariy qism

Kuch transformatori elementlarining texnik holatini baholashda elektr, kimyoviy va termik jarayonlarning transformatorning umumiy holatiga ta’siri turlicha bo‘ladi. Shu sababli ushbu indekslarning nisbiy ahamiyatini aniqlash uchun noaniq analitik ierarxiya jarayoni (FAHP) usulidan foydalanildi[1].

Tadqiqotda baholash modeli uch darajali ierarxik tuzilma ko‘rinishida shakllantirildi.

1-daraja – Maqsad

Kuch transformatori elementlarining texnik holatini baholash uchun o‘rta darajali indekslarning og‘irlik koeffitsiyentlarini aniqlash.

2-daraja – Baholash mezonlari

- I_e – elektr holat indeksi;

- I_k – kimyoviy holat indeksi;

- I_t – termik holat indeksi.

Mazkur indekslar transformatorning asosiy elementlari texnik holatini baholashda qo‘llaniladi va keyinchalik integral texnik holat indeksini shakllantirishda foydalaniladi[2-3].

2.2. Noaniq analitik ierarxiya jarayoni

FAHP usuli klassik AHP metodining takomillashtirilgan shakli bo‘lib, ekspert baholaridagi noaniqlikni hisobga olish imkonini beradi.

Tadqiqotda Chang tomonidan taklif etilgan Extent Analysis usuli qo‘llanildi.

Ekspert baholari lingvistik ko‘rinishda berilib, keyinchalik uchburchak noaniq sonlar (Triangular Fuzzy Number – TFN) ga o‘tkazildi.

Uchburchak noaniq son quyidagicha ifodalanadi:

$$\tilde{M} = (l, m, u) \quad (1)$$

bu yerda:

l – quyi chegara; m – eng ehtimolli qiymat; u – yuqori chegara.

2.3. Lingvistik baholash shkalasi

Ekspertlarning juft solishtirish natijalari 1-jadvaldagi lingvistik baholash shkalasi asosida ifodalandi.

1-jadval

Lingvistik baholarni uchburchak noaniq sonlarga o'tkazish

Lingvistik baho	TFN (l, m, u)
Teng muhim	(1,1,1)
Biroz muhimroq	(2,3,4)
Ancha muhim	(4,5,6)
Juda muhim	(6,7,8)
Nihoyatda muhim	(8,9,10)

Teskari qiymatlar quyidagi ifoda yordamida aniqlanadi:

$$\tilde{M}^{-1} = \left(\frac{1}{u}, \frac{1}{m}, \frac{1}{l} \right) \quad (2)$$

2.4. Fuzzy juft solishtirish matritsasini shakllantirish

Elektr, kimyoviy va termik indekslarning transformator texnik holatiga ta'siri ekspertlar tomonidan juft solishtirish asosida baholandi[4-6].

Natijada quyidagi noaniq juft solishtirish matritsasi hosil qilindi:

$$\tilde{A} = \begin{bmatrix} (1, 1, 1) & (4, 5, 6) & (6, 7, 8) \\ (1/6, 1/5, 1/4) & (1, 1, 1) & (2, 3, 4) \\ (1/8, 1/7, 1/6) & (1/4, 1/3, 1/2) & (1, 1, 1) \end{bmatrix} \quad (3)$$

Mazkur matritsa elektr indeksning kimyoviy va termik indekslarga nisbatan ustunligini, kimyoviy indeksning esa termik indeksga nisbatan yuqori ahamiyatga egaligini aks ettiradi[7-8].

2.5. Chang Extent Analysis algoritmi

1-bosqich. Satr yig'indilarini hisoblash

Har bir satr uchun fuzzy yig'indi quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$R_i = \sum_{j=1}^n \tilde{a}_{ij} \quad (4)$$

bu yerda:

$$i = 1, 2, \dots, n, n = 3$$

2-bosqich. Umumiy yig'indini aniqlash

$$R = \sum_{i=1}^n R_i \quad (5)$$

3-bosqich. Umumiy yig'indining teskari qiymatini hisoblash

$$R^{-1} = \left(\frac{1}{u}, \frac{1}{m}, \frac{1}{l} \right) \quad (6)$$

4-bosqich. Sintetik extent qiymatlarini aniqlash

Har bir mezon uchun sintetik extent qiymati:

$S_i = R_i \otimes R^{-1}$ bu yerda $\otimes$ – noaniq sonlarni ko'paytirish amali[5-6].

5-bosqich. Ustunlik darajasini aniqlash

Ikki noaniq sonning ustunlik ehtimoli quyidagi ifoda orqali aniqlanadi:

$$V(S_i \geq S_j) = \begin{cases} 1, & m_i \geq m_j \\ 0, & l_j \geq u_i \\ \frac{l_j - u_i}{(m_i - u_i) - (m_j - l_j)}, & \text{aks holda} \end{cases} \quad (7)$$

6-bosqich. Vaznlar vektorini aniqlash

Har bir mezon uchun minimal ustunlik darajasi aniqlanadi:

$$d'(A_i) = \min_{i \neq j} V(S_i \geq S_j)$$

Shunda dastlabki vaznlar vektori:

$$W' = (d'(A_1), d'(A_2), d'(A_3))^T \quad (8)$$

ko'rinishida hosil bo'ladi.

7-bosqich. Normalizatsiya

Yakuniy og'irlik koeffitsiyentlari quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$w_i = \frac{d'(A_i)}{\sum_{i=1}^n d'(A_i)} \quad (9)$$

Natijada:

$$\sum_{i=1}^n w_i = 1$$

sharti bajariladi.

3. Natijalar va tahlil

Kuch transformatorining texnik holatini baholash jarayoni ko'p sonli, turli fizik tabiatga ega bo'lgan diagnostik parametrlar asosida amalga oshiriladi. Ushbu parametrlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik, ularning ahamiyat darajasi hamda ekspert baholaridagi subyektivlik klassik aniq matematik usullar yordamida to'liq ifodalanmaydi. Shu sababli tadqiqotda noaniq mantiqqa asoslangan Analitik Ierarxiya Jarayoni (Fuzzy Analytic Hierarchy Process — F-AHP) usulidan foydalanish maqsadga muvofiq deb topildi. Mazkur usul ekspert baholaridagi noaniqlikni hisobga olgan holda mezonlarning ustuvorlik darajasini anlash imkonini beradi va baholash natijalarining ishonchliligini oshiradi.

O'rta darajali indekslarini aniqlash uchun moy parametrlarini FAHP (noaniq analitik ierarxiya jarayoni) asosida og'irlik koeffitsiyentlarini xisoblash

a) O'tkazuvchanlik holat indeksiga salbiy ta'sir o'tkazuvchi omillar:

$$I_{el} = c_1 z_{U_{t,k}} + c_2 z_{U_d} + c_3 \tilde{q}_b + c_4 \tilde{q}_{emul}$$

Ustuvorlik tartibi: $z_{U_{t,k}} > z_{U_d} > \tilde{q}_b > \tilde{q}_{emul}$

b) Kimyoviy degredatsiya indeksiga salbiy ta'sir o'tkazuvchi omillar:

$$I_k = e_1 z_A + e_2 z_O + e_3 z_{t_{exp}}$$

Ustuvorlik tartibi: $z_A > z_O > z_{t_{exp}}$

c) Sovitish va reologik indeksiga salbiy ta'sir o'tkazuvchi omillar:

$$I_t = f_1 z_v + f_2 z_{T_{ch}} + f_3 z_M$$

Ustuvorlik tartibi: $z_{T_{ch}} > z_M > z_v$

1-bosqich. FAHP matritsasi:

a) O'tkazuvchanlik holat indeksi uchun:

$$A_{el} = \begin{bmatrix} (1,1,1) & (1/3, 1/2, 1) & (2,3,4) & (3,4,5) \\ (1,2,3) & (1,1,1) & (3,4,5) & (4,5,6) \\ (1/4, 1/3, 1/2) & (1/5, 1/4, 1/3) & (1,1,1) & (1,2,3) \\ (1/5, 1/4, 1/3) & (1/6, 1/5, 1/4) & (1/3, 1/2, 1) & (1,1,1) \end{bmatrix}$$

b) Kimyoviy degredatsiya indeksi (I_k) uchun:

$$A_k = \begin{bmatrix} (1,1,1) & (1,2,3) & (2,3,4) \\ (1/3, 1/2, 1) & (1,1,1) & (1,2,3) \\ (1/4, 1/3, 1/2) & (1/3, 1/2, 1) & (1,1,1) \end{bmatrix}$$

c) Sovitish va reologik indeksi (I_s) uchun:

$$A_k = \begin{bmatrix} (1,1,1) & (2,3,4) & (1,2,3) \\ (1/4, 1/3, 1/2) & (1,1,1) & (1/3, 1/2, 1) \\ (1/3, 1/2, 1) & (1,2,3) & (1,1,1) \end{bmatrix}$$

2-bosqich. Satr yig'indilari:

a) O'tkazuvchanlik holat indeksi uchun:

$$\begin{aligned} R_1 &= (6.33, 8.5, 11) \\ R_2 &= (9, 12, 15) \\ R_3 &= (2.45, 3.58, 4.83) \\ R_4 &= (1.70, 1.95, 2.58) \end{aligned}$$

b) Kimyoviy degredatsiya indeksi (I_k) uchun:

$$\begin{aligned} R_1 &= (4, 6, 8) \\ R_2 &= (2.33, 3.50, 5.00) \\ R_3 &= (1.58, 1.83, 2.50) \end{aligned}$$

c) Sovitish va reologik indeksi (I_s) uchun:

$$\begin{aligned} R_1 &= (4, 6, 8) \\ R_2 &= (1.58, 1.83, 2.50) \\ R_3 &= (2.33, 3.50, 5.00) \end{aligned}$$

3-bosqich. Umumiy fuzzy yig'indi:

a) O'tkazuvchanlik holat indeksi uchun:

$$R_{el} = (19.48, 26.03, 33.42)$$

b) Kimyoviy degredatsiya indeksi (I_k) uchun:

$$R_k = (7.92, 11.33, 15.5)$$

c) Sovitish va reologik indeksi (I_s) uchun:

$$R_s = (7.92, 11.33, 15.5)$$

4-bosqich. Teskari TFN:

a) O'tkazuvchanlik holat indeksi uchun:

$$\begin{aligned} R_{el}^{-1} &= \left(\frac{1}{33.42}, \frac{1}{26.03}, \frac{1}{19.48} \right) \\ R_{el}^{-1} &= (0.0299, 0.0384, 0.0513) \end{aligned}$$

b) Kimyoviy degredatsiya indeksi (I_k) uchun:

$$\begin{aligned} R_k^{-1} &= \left(\frac{1}{15.5}, \frac{1}{11.33}, \frac{1}{7.92} \right) \\ R_k^{-1} &= (0.0645, 0.0882, 0.1263) \end{aligned}$$

c) Sovitish va reologik indeksi (I_s) uchun:

$$\begin{aligned} R_k^{-1} &= \left(\frac{1}{15.5}, \frac{1}{11.33}, \frac{1}{7.92} \right) \\ R_k^{-1} &= (0.0645, 0.0882, 0.1263) \end{aligned}$$

5-bosqich. Sintetik extent qiymatlar:

a) O'tkazuvchanlik holat indeksi uchun:

$$\begin{aligned} S_1 &= (0.19, 0.327, 0.565) \\ S_2 &= (0.269, 0.461, 0.770) \\ S_3 &= (0.073, 0.138, 0.248) \\ S_4 &= (0.051, 0.075, 0.133) \end{aligned}$$

b) Kimyoviy degredatsiya indeksi (I_k) uchun:

$$\begin{aligned} S_1 &= (0.258, 0.529, 1.011) \\ S_2 &= (0.151, 0.309, 0.632) \\ S_3 &= (0.102, 0.162, 0.316) \end{aligned}$$

c) Sovitish va reologik indeksi (I_s) uchun:

$$\begin{aligned} S_1 &= (0.258, 0.529, 1.011) \\ S_2 &= (0.102, 0.162, 0.316) \\ S_3 &= (0.151, 0.309, 0.632) \end{aligned}$$

6-bosqich. Defuzzifikatsiya (noaniqlikdan aniqlikka o'tkazish):

$$d_i = \frac{l_i + m_i + u_i}{3} \quad (10)$$

a) O'tkazuvchanlik holat indeksi uchun:

$$d_1 = 0.360, d_2 = 0.500, d_3 = 0.153, d_4 = 0.086$$

b) Kimyoviy degredatsiya indeksi (I_k) uchun:

$$d_1 = 0.599, d_2 = 0.364, d_3 = 0.193$$

c) Sovitish va reologik indeksi (I_s) uchun:

$$d_1 = 0.599, d_2 = 0.193, d_3 = 0.364$$

7-bosqich. Normallashtirish

$$c_i = \frac{d_i}{\sum d_i} \quad (11)$$

a) O'tkazuvchanlik holat indeksi uchun:

$$c_1 = 0.455, c_2 = 0.328, c_3 = 0.139, c_4 = 0.078$$

O'tkazuvchanlik holat indeksini (I_{el}) aniqlash uchun yakuniy ifoda quyidagicha yoziladi:

$$I_{el} = 0.455z_{U_{t,k}} + 0.328z_{U_d} + 0.139\tilde{q}_b + 0.078\tilde{q}_{emul}$$

b) Kimyoviy degredatsiya indeksi (I_k) uchun:

$$e_1 = 0.518, e_2 = 0.315, e_3 = 0.167$$

Kimyoviy degredatsiya indeksi (I_k) aniqlash uchun yakuniy ifoda quyidagicha yoziladi:

$$I_k = 0.518z_A + 0.315z_O + 0.167z_{t_{exp}}$$

c) Sovitish va reologik indeksi (I_s) uchun: $f_1 = 0.518, f_2 = 0.167, f_3 = 0.315$

Sovitish va reologik indeksi (I_s) aniqlash uchun yakuniy ifoda quyidagicha yoziladi:

$$I_t = 0.17z_v + 0.52z_{T_{ch}} + 0.31z_M$$

O'rta darajali indekslar uchun yakuniy ifoda quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi.

$$I_{el} = 0.455z_{U_{t,k}} + 0.328z_{U_d} + 0.139\tilde{q}_b + 0.078\tilde{q}_{emul}$$

$$I_k = 0.52z_A + 0.31z_O + 0.17z_{t_{exp}}$$

$$I_t = 0.17z_v + 0.52z_{T_{ch}} + 0.31z_M$$

FAHP hisoblash natijalari o'rta darajali indeksni shakllantirishda diagnostik parametrlarning ta'sir darajasi sezilarli farqlanishini ko'rsatdi. Har uchala indeks uchun ham eng katta og'irlik degradatsiya jarayonlarini bevosita tavsiflovchi parametrlar hissasiga to'g'ri keldi. O'tkazuvchanlik holat indeksida dielektrik yo'qotish tangensi va teshilish kuchlanishining umumiy ulushi katta ekanini aniqlandi. Bu elektr izolyatsiyasining holati transformator ishonchligini baholashda hal qiluvchi omillardan biri ekanligini ko'rsatadi. Kimyoviy degredatsiya indeksida kislota soni va oksidlanish darajasining ulushi sezilarli darajada yuqori ekanini aniqlandi. Ushbu natija transformator moyining degredatsiya jarayonlari izolyatsiya tizimining uzoq muddatli degradatsiyasini tavsiflashda asosiy ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Sovitish-reologik indeksida esa qovushqoqlik va mexanik aralashmalar sezilarli ta'siri aniqlandi. Bu moyning reologik xossalari va ifloslanish darajasi sovitish tizimi samaradorligining asosiy ko'rsatkichlari ekanligini tasdiqlaydi. Shunday qilib, FAHP usuli yordamida aniqlangan og'irlik koeffitsiyentlari diagnostik parametrlarning transformator elementlari texnik holatiga ta'sir darajasini miqdoriy baholash imkonini berdi hamda o'rta darajali indeksni shakllantirish uchun ilmiy asos yaratdi.

XULOSA

Mazkur tadqiqotda kuch transformatori elementlarining texnik holatini baholash uchun o'rta darajali diagnostik indekslar tarkibiga kiruvchi parametrlarning og'irlik koeffitsiyentlari noaniq analitik ierarxiya jarayoni (FAHP) asosida aniqlandi. Changning Extent Analysis algoritmi yordamida o'tkazilgan hisoblashlar natijasida o'tkazuvchanlik holat indeksida dielektrik yo'qotish tangensi (0,455) va teshilish kuchlanishi (0,328), kimyoviy degredatsiya indeksida kislota soni (0,518) va oksidlanish darajasi (0,315), sovitish-reologik indeksida esa qovushqoqlik (0,518) hamda mexanik aralashmalar miqdori (0,315) eng muhim parametrlar sifatida aniqlandi. Olingan natijalar asosida o'tkazuvchanlik, kimyoviy degredatsiya va sovitish-reologik indekslarining matematik modellari ishlab chiqildi. Taklif etilgan yondashuv diagnostik parametrlarning transformator texnik holatiga ta'sir darajasini obyektiv baholash, ekspert baholaridagi noaniqlikni hisobga olish hamda keyingi bosqichda integral texnik holat indeksini shakllantirish imkonini beradi. Tadqiqot natijalari transformatorlarning texnik holatini monitoring qilish, diagnostik ekspert tizimlarini yaratish va texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha qaror qabul qilish jarayonlarini takomillashtirishda amaliy ahamiyatga ega.

Adabiyotlar

- [1]. Jahromi A.N., Piercy R., Cress S., Service J., Fan W. An Approach to Power Transformer Asset Management Using Health Index // IEEE Electrical Insulation Magazine. – 2009. – Vol. 25, No. 2. – P. 20–34.
- [2]. IEC 60599:2022. Mineral Oil-Filled Electrical Equipment in Service – Guidance on the Interpretation of Dissolved and Free Gases Analysis. – Geneva: International Electrotechnical Commission, 2022.

- [3]. IEC 60422:2024. Mineral Insulating Oils in Electrical Equipment – Supervision and Maintenance Guidance. – Geneva: International Electrotechnical Commission, 2024.
- [4]. Martin D., Saha T.K. A Review of the Condition Monitoring of Transformer Insulation // IEEE Electrical Insulation Magazine. – 2017. – Vol. 33, No. 3. – P. 8–18.
- [5]. Li Y., Wang Z., Jarman P., Ryder S. Health Index Calculation for Power Transformers Using Fuzzy Comprehensive Evaluation Method // IET Generation, Transmission & Distribution. – 2018. – Vol. 12, No. 19. – P. 4435–4442.
- [6]. CIGRE Working Group A2.49. Condition Assessment of Power Transformers. Technical Brochure No. 761. – Paris: CIGRE, 2019.
- [7]. Singh A., Verma P. Transformer Health Index Assessment Based on Multi-Criteria Decision-Making Methods: A Review // Electric Power Systems Research. – 2021. – Vol. 196. – Article 107220.
- [8]. Mharakurwa E.T., Nyakoe G.N., Wekesa C.W. Application of Fuzzy Analytic Hierarchy Process in Power Transformer Condition Assessment // International Journal of Electrical Power & Energy Systems. – 2022. – Vol. 138. – Article 107906.

UO‘K 621.314.2

ТРАНСФОРМАТОР МОЙИНИ ҚИЗДИРИШ ҚУРИЛМАСИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ОРҚАЛИ ТОЗАЛАШ ЖАРАЁНИ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ

Д.Т. Юсупов ¹, А.Б. Муминов ¹, Д.Р. Абдурахимов ² Ш.Ш. Ахмаджанова ²

[ORCID: 0009-0005-5074-7887](https://orcid.org/0009-0005-5074-7887)

e-mail: abdulloh0717@gmail.com

¹ Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси Энергетика муаммолари институти

² Фарғона давлат техника университети

(Қабул қилинди 20.04.2026 й.)

Аннотация. Мазкур мақолада мойли куч трансформаторларида қўлланиладиган трансформатор мойини тозалаш жараёнида қиздириш қурилмасини такомиллаштириш масаласи тадқиқ этилган. Трансформатор мойи эксплуатация давомида намлик, механик аралашмалар, целлюлоза тодалари, металл заррачалар ва оксидланиш маҳсулотлари таъсирида изоляция ҳамда иссиқлик-физик хоссаларини йўқота боради. Мойни филтрлаш, қуриштириш ва регенерация қилиш жараёнларида уни белгиланган ҳароратгача қиздириш муҳим технологик босқич ҳисобланади. Амалда қўлланиладиган бевосита қиздириш қурилмаларида мой қиздириш элементи билан тўғридан-тўғри контактда бўлгани сабабли локал қизиб кетиш, мой таркибининг бузилиши, куйиш маҳсулотларининг ҳосил бўлиши ва ҳароратнинг нотекис тақсимланиши кузатилиши мумкин. Шу муаммоларни камайтириш мақсадида оралиқ иссиқлик ташувчи муҳит орқали билвосита қиздиришга асосланган такомиллаштирилган қурилма таҳлил қилинди. Қурилмада мой ҳарорати датчик, контроллер ва клапанлар орқали автоматик назорат қилинади. Тадқиқотда қурилманинг конструктив тузилиши, ишлаш принципи, иссиқлик алмашинув жараёнининг математик модели ва анъанавий қурилмаларга нисбатан афзалликлари асослаб берилган. Таклиф этилаётган ечим трансформатор мойини термик зарарланишсиз, бир текис ва бошқарилувчан ҳолда қиздириш, тозалаш жараёни самарадорлигини ошириш ҳамда мойнинг эксплуатацион хизмат муддатини узайтиришга хизмат қилади.

Калит сўзлар: трансформатор мойи, мойли куч трансформатори, билвосита қиздириш, мойни тозалаш, механик аралашмалар, ҳарорат назорати, контроллер, иссиқлик алмашинуви, тешилиш кучланиши.

Кириш. Электр энергетикаси тизимларида мойли куч трансформаторлари электр энергиясини узатиш ва тақсимлаш жараёнининг асосий элементларидан бири ҳисобланади. Трансформаторнинг ишончли ишлаши кўп жиҳатдан унинг изоляция тизими, совитиш шароити ва трансформатор мойининг техник ҳолатига боғлиқ. Мой бир вақтнинг ўзида икки муҳим вазифани бажаради: ток ўтказувчи қисмларни электр жиҳатдан изоляция қилади ва чулғамлар ҳамда магнит ўтказгичда ҳосил бўладиган иссиқликни ташқи совитиш тизимига узатади.

Эксплуатация давомида трансформатор мойнинг физик-кимёвий хусусиятлари секин-аста ўзгариб боради. Мой таркибида намликнинг ортиши, механик аралашмаларнинг тўпланиши, целлюлоза изоляциясининг эскириши, металл юзаларда коррозия маҳсулотларининг пайдо бўлиши ва термик-оксидланиш жараёнлари унинг изоляцион қобилиятини пасайтиради. Натижада мойнинг тешилиш кучланиши камаяди, қовушқоқлиги ўзгаради, филтрланиш хусусияти ёмонлашади ва трансформаторнинг умумий ишончлилигига салбий таъсир кўрсатади.

Трансформатор мойини тозалаш технологияларида мойни белгиланган ҳароратгача қиздириш муҳим босқич ҳисобланади. Қиздириш натижасида мойнинг қовушқоқлиги камаяди, сувли аралашмалар ва майда механик заррачаларни ажратиш осонлашади, филтрлаш ҳамда регенерация жараёни тезлашади. Бироқ қиздириш жараёни нотўғри ташкил этилса, мойнинг ўзи қўшимча зарарланиши мумкин. Айниқса, мой электр иситгич билан бевосита контактда бўлганда локал юқори ҳарорат ҳосил бўлиб, бу ҳолат мойнинг куйишига, органик бирикмаларнинг парчаланишига ва янги ифлосланиш маҳсулотларининг пайдо бўлишига олиб келади.

Шу сабабли трансформатор мойини тозалаш жараёнида қиздириш қурилмасини такомиллаштириш долзарб илмий-техник масала ҳисобланади. Мазкур тадқиқотнинг мақсади трансформатор мойини оралиқ иссиқлик ташувчи муҳит орқали билвосита қиздиришга асосланган такомиллаштирилган қурилманинг конструктив тузилиши, ишлаш принципи ва иссиқлик алмашинув жараёнини илмий асосда баҳолашдан иборат.

Материал ва методлар

Тадқиқот объекти сифатида куч трансформаторлари мойини тозалаш ва қайта ишлаш жараёнида қўлланиладиган такомиллаштирилган билвосита қиздириш қурилмаси танланди. Қурилма трансформатор мойини электр иситгич билан тўғридан-тўғри контакт қилдирмасдан, оралиқ иссиқлик ташувчи муҳит орқали қиздиришга мўлжалланган. Оралиқ муҳит сифатида конструкция талабига қараб сув ёки тоза трансформатор мойи қўлланилиши мумкин. Бунда асосий илмий ғоя ўзгармайди: иссиқлик аввал оралиқ муҳитга, кейин эса иссиқлик ўтказувчи девор орқали тозаланадиган мойга узатилади.

Такомиллаштирилган қурилманинг асосий қисмлари қуйидагилардан иборат: ташқи қиздирувчи идиш, ички мой идиши, оралиқ иссиқлик ташувчи муҳит, электр қиздириш элементи, ҳарорат датчиги, контроллер, киритиш-чиқариш қувурлари, очиш клапани, ҳавони чиқариш найи, герметик қопқоқ ва таянч оёқлар. Қурилманинг конструктив тузилиши мойни тўлиқ, бир текис ва хавфсиз қиздиришга қаратилган.



1-расм. Иссиқликни назорат қилиш контроллери ва очиш клапани.


Қурилманинг ишлаш принципи қуйидагича тавсифланади. Дастлаб ташқи идишга белгиланган ҳажмда оралиқ иссиқлик ташувчи муҳит қуйилади. Ички идишга эса тозалашга тайёрланган трансформатор мойи киритилади. Идишнинг юқори қисми қопқоқ билан герметик беркитилади ва ҳавони чиқариш найи орқали ҳаво пуфакчаларини чиқариш учун шароит яратилади.

Электр қиздириш элементи оралиқ муҳитни қиздиради. Оралиқ муҳитда ҳосил бўлган иссиқлик ички идиш девори орқали трансформатор мойига ўтади. Мой идиши юқори қисмига ўрнатилган ҳарорат датчиги мойнинг реал ҳароратини доимий қайд этади ва сигнални контроллерга узатади. Мой ҳарорати белгиланган оралиққа, масалан, 60–70°C га етганда контроллер электр қиздириш элементи қувватини чеклайди ёки уни вақтинча ўчиради. Шу билан бирга, зарур ҳолатда клапан очилиб, қиздирилган мой тозалаш агрегатига йўналтирилади.



2-расм. Мой қиздириш қурилмасининг ясалиш ва ўрнатилиш жараёнлари.

Анъанавий бевосита қиздириш қурилмаларида трансформатор мойи электр қиздириш элементи ёрдамида тўғридан-тўғри қиздирилади. Бундай усул конструктив жиҳатдан содда бўлса-да, мойнинг айрим қисми қиздириш элементи юзаси атрофида юқори ҳарорат таъсирига тушади. Натижада локал қизиб кетиш, мой таркибининг бузилиши ва куйиш маҳсулотларининг ҳосил бўлиш хавфи ортади.



3-расм. Қиздириш қурилмасининг умумий тузилиши.

асосланган соддалаштирилган математик модель тузилди. Мойни бошланғич ҳароратдан белгиланган ҳароратгача қиздириш учун талаб этиладиган иссиқлик миқдори қуйидагича аниқланади:

$$Q_m = \rho_m V_m c_m (T_b - T_0) \quad (1)$$

бу ерда Q_m — мойни қиздириш учун зарур иссиқлик миқдори, Ж; ρ_m — трансформатор мойининг зичлиги, кг/м³; V_m — қиздириладиган мой ҳажми, м³; c_m — мойнинг солиштирма иссиқлик сифими, Ж/(кг·°С); T_0 — мойнинг бошланғич ҳарорати, °С; T_b — белгиланган қиздириш ҳарорати, °С.

Қиздириш жараёни тугагач, ички идишда тўпланган механик аралашмалар, шлам ва намлик билан бойиган қатламлар алоҳида ажратиб олинади. Бу ҳолат қурилманинг фақат қиздириш воситаси эмас, балки мой таркибидаги оғир ва чўқувчан аралашмаларни камайтиришга хизмат қилувчи конструктив ечим эканини кўрсатади.

Қурилмада мой тўғридан-тўғри эмас, балки оралиқ иссиқлик ташувчи муҳит орқали қиздирилгани учун мой ҳароратининг вақт бўйича ўзгариши қуйидаги иссиқлик баланси билан ифодаланади:

$$\rho_m V_m c_m \frac{dT_m}{dt} = KA(T_h - T_m) - q_y \quad (2)$$

бу ерда T_m — трансформатор мойининг жорий ҳарорати, °C; T_h — оралиқ иссиқлик ташувчи муҳит ҳарорати, °C; K — умумий иссиқлик узатиш коэффициент, Вт/(м²·°C); A — иссиқлик алмашинувчи юза майдони, м²; q_y — ташқи муҳитга йўқотиладиган иссиқлик қуввати, Вт.

Агар ташқи муҳитга йўқотиладиган иссиқлик нисбатан кичик деб қабул қилинса, мой ҳароратининг вақт бўйича ўсиши қуйидагича ёзилади:

$$T_m(t) = T_h - (T_h - T_0)e^{-t/\tau} \quad (3)$$

бу ерда қурилманинг иссиқлик инерциясини ифодаловчи вақт доимийси:

$$\tau = \frac{\rho_m V_m c_m}{KA} \quad (4)$$

Берилган ҳароратга етиш учун зарур қиздириш вақти қуйидаги ифода билан аниқланади:

$$t = -\tau \ln \left(\frac{T_h - T_b}{T_h - T_0} \right) \quad (5)$$

Электр қиздириш элементининг зарур қуввати эса қуйидагича баҳоланади:

$$P_{el} = \frac{Q_m}{\eta t} \quad (6)$$

бу ерда P_{el} — қиздириш элементининг электр қуввати, Вт; η — қиздириш қурилмасининг иссиқлик самарадорлиги; t — қиздириш давомийлиги, с.

Мойни тозалаш жараёнида қиздириш самарадорлиги механик аралашмалар ёки намлик концентрациясининг камайиши билан ҳам баҳоланиши мумкин:

$$E_t = \frac{C_0 - C_1}{C_0} \cdot 100\% \quad (7)$$

бу ерда E_t — тозалаш самарадорлиги, %; C_0 — қиздириш ва тозалашдан олдинги ифлосланиш концентрацияси; C_1 — қиздириш ва тозалашдан кейинги ифлосланиш концентрацияси.

Натижалар

Такмиллаштирилган билвосита қиздириш қурилмаси анъанавий бевосита қиздириш усулига нисбатан бир қатор муҳим афзалликларга эга экани аниқланди. Асосий натижа шундан иборатки, трансформатор мойи қиздириш элементи билан тўғридан-тўғри контакт қилмайди. Бу мойнинг локал қуйиш хавфини камайтиради ва мой таркибида қўшимча термик парчаланиш маҳсулотлари пайдо бўлишининг олдини олади.

Оралиқ иссиқлик ташувчи муҳитдан фойдаланиш мой ҳажми бўйлаб ҳароратнинг нисбатан бир текис тақсимланишига ёрдам беради. Натижада мойнинг айрим нуқталарида ортиқча қизиш, бошқа нуқталарида эса етарли қизимаслик ҳолатлари камаяди. Ҳарорат датчиги ва контроллер ёрдамида қиздириш жараёни автоматик назорат қилинади. Белгиланган 60–70°C оралиғида мой ҳароратининг стабиллаштирилиши филтрлаш ва тозалаш жараёни учун қулай режим яратади.

Қиздириш жараёнида мойнинг қовушқоқлиги пасайгани учун механик аралашмалар, сувли заррачалар ва шламни ажратиш самарадорлиги ортади. Бу эса трансформатор мойининг тешилиш кучланиши ва умумий изоляцион хусусиятларини тиклашга ижобий таъсир кўрсатади. Қиздириш жараёни тугагандан кейин ички идишда тўпланган механик

аралашмалар ва шламларни алоҳида ажратиб олиш имконияти мавжудлиги қурилманинг амалий аҳамиятини янада оширади.

1-жадвалда анъанавий ва такомиллаштирилган қурилмаларнинг асосий фарқлари келтирилган.

1-жадвал

Анъанавий ва такомиллаштирилган қурилмаларнинг асосий фарқлари

Кўрсаткич	Бевосита қиздириш қурилмаси	Такомиллаштирилган билвосита қиздириш қурилмаси
Қиздириш усули	Электр иситгич мой билан бевосита контактда бўлади	Мой оралик иссиқлик ташувчи муҳит орқали қиздирилади
Мойнинг куйиш хавфи	Нисбатан юқори	Паст
Ҳарорат тақсимланиши	Нотекис бўлиши мумкин	Нисбатан бир текис
Мой таркибига таъсири	Термик парчаланиш маҳсулотлари ҳосил бўлиши мумкин	Салбий таъсир камаяди
Ҳарорат назорати	Қўлда ёки чекланган автоматлаштиришда	Датчик ва контроллер орқали автоматик назорат қилинади
Филтрлашга таъсири	Қовушқоқлик камайиши нотекис бўлиши мумкин	Барқарор ҳарорат режими яратилади
Аралашмаларни ажратиш	Қийин	Идишда қолган шлам ва аралашмаларни алоҳида тозалаш мумкин
Амалий хавфсизлик	Нисбатан паст	Юқори

2-жадвалда такомиллаштирилган қурилманинг асосий элементлари ва уларнинг вазифалари умумлаштирилган.

2-жадвал

Такомиллаштирилган қурилманинг асосий элементлари ва уларнинг вазифалари

Қурилма элементи	Асосий вазифаси	Технологик аҳамияти
Ташқи қиздирувчи идиш	Оралик муҳитни жойлаштириш	Иссиқликни барқарор йиғиш ва узатиш
Ички мой идиши	Тозаланадиган мойни жойлаштириш	Мойни бевосита ТЭНдан ҳимоя қилиш
Электр иситгич	Оралик муҳитни қиздириш	Зарур иссиқлик қувватини таъминлаш
Ҳарорат датчиги	Мой ҳароратини ўлчаш	Ортиқча қизишнинг олдини олиш
Контроллер	Қиздириш ва клапан ҳолатини бошқариш	Автоматик ва барқарор режим яратиш
Клапан	Қиздирилган мойни чиқариш	Мойни тозалаш агрегатига узатиш
Ҳаво найи	Идишдаги ҳавони чиқариш	Дегазация ва хавфсизлик шароитини яхшилаш

Муҳокама

Олинган натижалар шуни кўрсатадики, трансформатор мойини тозалашда қиздириш жараёни фақат ёрдамчи операция эмас, балки бутун технологик жараён самарадорлигини белгиловчи муҳим босқичдир. Агар мой белгиланган ҳароратгача бир текис қиздирилмаса, унинг қовушқоқлиги етарли даражада камаймайди, сувли аралашмалар ва механик заррачалар тўлиқ ажралмайди. Аксинча, мой ҳаддан ташқари қиздирилса, унинг таркибида термик парчаланиш жараёнлари кучайиши мумкин.

Бевосита қиздириш қурилмаларида асосий муаммо шундаки, иссиқлик манбаи мой билан тўғридан-тўғри контактда бўлади. Электр иситгич юзаси атрофидаги ҳарорат умумий мой ҳароратидан юқори бўлиши мумкин. Бу ҳолат айниқса мой оқими секин бўлган, қовушқоқлик юқори бўлган ёки мой ифлосланган ҳолатларда хавфли ҳисобланади. Чунки механик аралашмалар ва шлам қиздириш элементи юзасига ёпишиб, локал қизиб кетишни кучайтириши мумкин.

Такомиллаштирилган қурилмада эса иссиқлик мойга девор орқали узатилади. Бу иссиқлик оқимини юмшатади, ҳарорат градиентини камайтиради ва мойнинг қиздириш элементи билан тўғридан-тўғри контакт қилишини бартараф этади. Натижада трансформатор мойи учун хавфсизроқ қиздириш режими ҳосил бўлади.

Математик моделдан кўриниб турибдики, қиздириш жараёнининг асосий параметрлари мой ҳажми, иссиқлик алмашинувчи юза майдони, умумий иссиқлик узатиш коэффициенти ва оралиқ муҳит ҳароратига боғлиқ. Шунинг учун қурилмани лойиҳалашда ички идиш деворининг иссиқлик ўтказувчанлиги, идишлар орасидаги масофа, оралиқ муҳит ҳажми ва контроллернинг ишлаш алгоритми тўғри танланиши зарур.

60–70°C ҳарорат оралиғи амалий жиҳатдан мақбул режим сифатида қаралиши мумкин. Бу оралиқда мойнинг қовушқоқлиги пасаяди, филтрлаш жараёни енгиллашади, бироқ мойнинг термик зарарланиш хавфи кескин ошмайди. Ҳарорат датчиги ва контроллердан фойдаланиш ушбу режимни барқарор сақлаш имконини беради.

Таклиф этилаётган қурилманинг яна бир муҳим жиҳати — қиздириш ва тозалаш жараёни тугагандан сўнг ички идишда қолган шлам, намлик билан бойиган қатламлар ва механик аралашмаларни алоҳида ажратиш имкониятидир. Бу қурилманинг фақат қиздириш эмас, балки ифлосланишни камайтиришга хизмат қилувчи комплекс конструктив ечим эканини кўрсатади.

Хулоса. Мазкур мақолада трансформатор мойини тозалаш жараёнида қўлланиладиган қиздириш қурилмасини такомиллаштириш масаласи илмий-техник жиҳатдан таҳлил қилинди. Тадқиқот натижалари асосида қуйидаги хулосаларга келинди.

Биринчидан, трансформатор мойини тозалашда қиздириш жараёни мойнинг қовушқоқлигини камайтириш, намлик ва механик аралашмаларни ажратиш ҳамда филтрлаш самарадорлигини ошириш учун муҳим ҳисобланади.

Иккинчидан, анъанавий бевосита қиздириш қурилмаларида мойнинг қиздириш элементи билан тўғридан-тўғри контактда бўлиши локал қизиб кетиш, мой таркибининг бузилиши ва қуйиш маҳсулотларининг пайдо бўлишига олиб келиши мумкин.

Учинчидан, оралиқ иссиқлик ташувчи муҳит орқали билвосита қиздиришга асосланган такомиллаштирилган қурилма мойни хавфсиз, бир текис ва бошқарилувчан ҳолда қиздириш имконини беради.

Тўртинчидан, қурилмада ҳарорат датчиги, контроллер ва клапанлардан фойдаланиш мой ҳароратини белгиланган 60–70°C оралиғида ушлаб туриш, қиздирилган мойни тозалаш агрегатига автоматик йўналтириш ва ортикча қизишнинг олдини олиш имконини беради.

Бешинчидан, таклиф этилган математик модель қиздириш учун зарур иссиқлик миқдори, вақт доимийси, қиздириш давомийлиги ва қурилма қувватини аниқлашга хизмат қилади.

Олтинчидан, такомиллаштирилган қурилма трансформатор мойини термик зарарланишсиз қиздириш, тозалаш самарадорлигини ошириш, механик аралашмаларни камайтириш ва мойнинг эксплуатацион хизмат муддатини узайтиришда амалий аҳамиятга эга.

Келгусида ушбу қурилманинг тажриба намунасида мойнинг тешилиш кучланиши, намлик миқдори, механик аралашмалар концентрацияси, $tg\delta$ кўрсаткичи ва қовушқоқлик ўзгаришини қиздиришдан олдин ва кейин солиштириб ўрганиш мақсадга мувофиқ ҳисобланади.

Адабиётлар

- [1]. РД 34.43.105-89. Методические указания по эксплуатации трансформаторных масел. Москва, 1989.
- [2]. Yusupov D.T., Muminov A.B., Nosirov A.I., Berdiev U.T., Kutbidinov, O.M. Development of an algorithm of processes for cleaning power transformer oil in a circulatory way // ICTEA: International Conference on Thermal Engineering. – 2024. – Т. 1. – №1.
- [3]. Yusupov D.T., Muminov A.B., Sa'dullayev A.B., Norboev A.E., Babaev O.E. Analysis of drying methods of oil-oiled power transformers // E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2024. – Т. 524. – С. 01017.
- [4]. Синицын А.В. Контроль технического состояния маслонаполненного оборудования // Электротехника. – 2011. – № 12. – С. 40–45.
- [5]. Громов П.А. Повышение срока службы трансформаторов методом глубокой очистки масла // Электротехника. – 2016. – № 5. – С. 14–19.
- [6]. Киселёв А.П., Руденко В.М. Повышение эксплуатационной надёжности силовых трансформаторов // Электрические станции. – 2019. – № 9. – С. 33–38.
- [7]. Баранов М.А. Диэлектрическая прочность трансформаторного масла после регенерации // Высоковольтная техника. – 2015. – № 8. – С. 12–17.
- [8]. Павленко С.В. Оценка технического состояния силовых трансформаторов методом анализа растворённых газов // Электротехника. – 2018. – № 11. – С. 17–23.

FARG‘ONA SHAHRI UCHUN YASSI QUYOSH KOLLEKTORINING OPTIMAL QIYALIGINI ANIQLASH

T. Dadajanov

Farg‘ona davlat texnika universiteti
dadalanovtulan@gmail.com
(Qabul qilindi 20.04.2026 y.)

Annotatsiya. Ushbu maqolada Farg‘ona shahri iqlim sharoitlari uchun yassi quyosh kollektorining optimal qiyalik burchagini aniqlash masalasi ko‘rib chiqiladi. Quyosh kollektorining qiyalik burchagi quyosh energiyasini qabul qilish samaradorligiga bevosita ta‘sir qiladi. Tadqiqotda Farg‘ona shahrining geografik koordinatalari va quyosh radiatsiyasi ma‘lumotlari asosida kollektorning yil davomida maksimal energiya qabul qilishi uchun tavsiya etiladigan qiyalik burchaklari hisoblandi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, Farg‘ona sharoitida yillik foydalanish uchun kollektorning optimal qiyaligi taxminan 40–42° ni tashkil etadi.

Kalit so‘zlar: quyosh energiyasi, yassi quyosh kollektori, qiyalik burchagi, quyosh radiatsiyasi, energiya samaradorligi.

Kirish

Dunyo miqyosida qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishga bo‘lgan qiziqish ortib bormoqda. Ayniqsa, quyosh energiyasi ekologik tozaligi va cheksizligi sababli muhim energiya manbai hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi yiliga 280–300 quyoshli kunlarga ega bo‘lib, quyosh energiyasidan samarali foydalanish uchun katta imkoniyatlarga ega.

Yassi quyosh kollektorlarining samaradorligi ko‘plab omillarga bog‘liq bo‘lib, ulardan biri kollektorning gorizontal tekislikka nisbatan qiyalik burchagidir. Qiyalik noto‘g‘ri tanlangan taqdirda quyosh nurlarining kollektor yuzasiga tushish burchagi ortadi va energiya yo‘qotishlari yuzaga keladi.

Maqsad: mazkur ishning maqsadi Farg‘ona shahri uchun yassi quyosh kollektorining optimal qiyalik burchagini aniqlashdan iborat.

Nazariy asoslar

Quyosh kollektoriga tushuvchi radiatsiya miqdori quyidagi ifoda bilan aniqlanadi:

$$I_t = I_b \cos \theta$$

bu yerda:

- I_t – kollektor yuzasiga tushuvchi radiatsiya;

- I_b – quyosh nurlarining intensivligi;
- θ – quyosh nurlari bilan kollektor normal chizig‘i orasidagi burchak.

Quyosh energiyasidan maksimal foydalanish uchun θ burchak minimal bo‘lishi kerak.

Quyosh deklinatsiyasi — bu Quyosh markazidan Yer markaziga yo‘nalgan chiziq bilan Yer ekvatori tekisligi orasidagi burchakdir. Quyosh deklinatsiyasi yil davomida o‘zgaruvchi burchak bo‘lib, quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$\delta = 23.45 \sin \left(\frac{360(284 + n)}{365} \right)$$

bu yerda:

- δ — quyosh deklinatsiyasi ($^{\circ}$);
- n — yil kunining tartib raqami.

Hudud quyidagi xususiyatlarga ega:

- Yiliga 2800–3000 soat quyosh nurlanishi;
- Yillik o‘rtacha global radiatsiya 1500–1700 kVt·soat/m²;
- Kontinental iqlim.

Optimal qiyalikni hisoblash

Tush vaqtida quyosh nurlari kollektor sirtiga tik tushishi uchun optimal qiyalik burchagi quyidagicha aniqlanadi:

$$\beta_{opt} = \varphi - \delta$$

Farg‘ona shahri uchun:

$$\beta_{opt} = 40.4 - \delta$$


Bu tenglama yilning istalgan kuni uchun optimal qiyalikni hisoblash imkonini beradi.

MATLAB dasturida hisoblash

Hisoblash quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

1. Yil kunlari massivini yaratish.
2. Har bir kun uchun deklinatsiyani hisoblash.
3. Optimal qiyalik burchagini aniqlash.
4. Natijalarni grafik ko‘rinishda tasvirlash.

```
clc
clear
close all
% Farg'ona shahri kengligi
phi = 40.4;
% Yil kunlari
n = 1:365;
% Quyosh deklinatsiyasi
delta = 23.45 .* sind((360*(284+n))/365);
% Optimal qiyalik burchagi
beta = phi - delta;
% Grafik
figure
plot(n,beta,'LineWidth',2)
grid on
xlabel('Yil kuni')
ylabel('Optimal qiyalik burchagi (gradus)')
title('Farg"ona shahri uchun optimal qiyalik burchagi')
```



1-rasm. Optimal qiyalik burchagi va yil kunlari orasidagi bog'lanish.

Natijalar tahlili

MATLAB dasturi yordamida yilning barcha kunlari uchun optimal qiyalik burchagi hisoblandi. Hisoblashlardan quyidagi natijalar olindi:

Yoz (22 iyun) uchun

$$\delta = +23.45^\circ$$

$$\beta = 40.4 - 23.45 \quad \beta = 16.95^\circ$$

$$\beta = 16.95^\circ$$

Kuzgi va bahorgi tengkunlik uchun

$$\delta = 0^\circ$$

$$\beta = 40.4^\circ$$

Qish (22 dekabr) uchun

$$\delta = -23.45^\circ$$

$$\beta = 63.85^\circ$$

Quyidagi kod yordamida ayrim kunlar uchun natijalarni jadval shaklida olish mumkin:

```
Kun = [80 172 266 355];
```

```
Deklinatsiya = ...
```

```
23.45 .* sind((360*(284+Kun))/365);
```

```
Optimal_qiyalik = ...
```

```
40.4 - Deklinatsiya;
```


```
T = table(Kun,...
```

```
    Deklinatsiya,...
```

```
    Optimal_qiyalik)
```

```
disp(T)
```

Natijalar 1-jadvalda keltirilgan.



2-rasm. MATLAB dasturida yilning ayrim kunlari uchun deklinatsiya va optimal qiyalikni hisoblash.

1-jadval

Kun	Deklinatsiya (°)	Optimal qiyalik (°)
80 (22-mart)	0.0	40.4
172 (21-iyun)	23.45	16.95
266 (7-sentyabr)	0.0	40.4
355 (9-dekabr)	-23.45	63.85

Hosil qilingan grafikda optimal qiyalik burchagi va yil kunlari orasidagi bog'lanish sinusoidal xarakterga ega.

- Yoz oylarida optimal qiyalik kamayadi.
- Qish oylarida optimal qiyalik ortadi.
- Bahor va kuz fasllarida qiyalik geografik kenglik qiymatiga yaqinlashadi.

Grafikdan ko'rinadiki optimal qiyalik quyidagi oraliqda bo'ladi :

$$16.95^{\circ} \leq \beta_{opt} \leq 63.85^{\circ}$$

Amaliy tavsiyalar

Agar kollektor yozda ishlatilsa

$$\beta \approx 20^{\circ}$$

Qishda ishlatilsa

$$\beta \approx 60^{\circ}$$

Yil davomida ishlatilsa

$$\beta \approx 40^{\circ}$$

qiymatlar tavsiya etiladi.

Kollektor qiyaligini mavsumiy ravishda o'zgartirish 10–15 % gacha qo'shimcha energiya olish imkonini beradi.

Xulosa

Maqolada Farg'ona shahri uchun yassi quyosh kollektorining optimal qiyalik burchagi aniqlandi. MATLAB dasturi yordamida yilning 365 kuni uchun optimal qiyalik burchagi hisoblandi va grafik ko'rinishda tasvirlandi. Hisoblash natijalariga ko'ra optimal qiyalik burchagi yil davomida

16.95° dan 63.85° gacha oʻzgaradi. Olingan natijalar quyosh suv isitish tizimlari va yassi quyosh kollektorlarini loyihalashda qoʻllanilishi mumkin.

Adabiyotlar

- [1]. Нетрадиционные и возобновляемые источники энергии: учебно методическое пособие / А.А. Горяев, С.В. Петухов, Н.Б. Баланцева, С.В. Бутаков. – Архангельск: САФУ им. М.В. Ломоносова, 2015. 100 с.
- [2]. Экспериментальные исследования характеристик солнечных фотоэлектрических элементов: учебно-методическое пособие / Р.Л. Барашкин, В.В. Бессель, В.Г. Кучеров, Р.Д. Мингалеева. – М.: Изд. центр РГУ нефти и газа (НИУ) имени И.М. Губкина, 2022. – 78 с.
- [3]. Нетрадиционные и возобновляемые источники энергии в промышленной теплоэнергетике. В 2 ч.: учебное пособие / В. Г. Злобин, А. А. Верхованцев. — СПб.: ВШТЭ СПбГУПТД, 2024. — Ч. 1. 135 с.
- [4]. Т. Дадажонов. MATLAB асослари. Ўқув қўлланма. Фарғона Техника, 2007, 600 бет.

UOʻK 621.314.2

**МОЙЛИ КУЧ ТРАНСФОРМАТОРЛАРИ АСОСИЙ ВА ҚЎШИМЧА
ЭЛЕМЕНТЛАРИНИНГ ҲАР БИРИДА МАВЖУД МЕХАНИК АРАЛАШМАЛАР
МИҚДОРИНИ АНИҚЛАШНИНГ МАТЕМАТИК МОДЕЛИ**

Д.Т. Юсупов ¹, А.Б. Муминов ¹, И.К. Исмоилов ², О.М. Қутбиддинов ³, М.Ш.
Мухаммаджонов ¹, Ш.Ш. Ахмаджанова ²

ORCID: 0009-0005-5074-7887, e-mail: abdulloh0717@gmail.com

¹ Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси Энергетика муаммолари институти

² Фарғона давлат техника университети

³ Тошкент давлат транспорт университети
(Қабул қилинди 20.04.2026 й.)

Аннотация. Мазкур мақолада мойли куч трансформаторларининг асосий ва қўшимча элементларида мавжуд механик аралашмалар миқдорини аниқлашга қаратилган математик модель ишлаб чиқиш масаласи кўриб чиқилган. Трансформатор мойи эксплуатация жараёнида изоляция ва совитиш муҳити сифатида хизмат қилиши билан бирга, унинг таркибида целлюлоза толалари, металл микррозаррачалар, коррозия маҳсулотлари, шлам ва бошқа механик аралашмалар ҳосил бўлади. Ушбу аралашмалар мой ҳажмида бир текис тақсимланмаслиги сабабли, уларни фақат умумий намуна асосида баҳолаш трансформаторнинг ҳақиқий ички ҳолатини тўлиқ акс эттирмайди. Тадқиқотда трансформатор баки, чулгамлар, магнит ўтказгич, радиаторлар, кенгайтиргич бак, мой қувурлари ва фильтр элементлари алоҳида ҳисоблаш соҳалари сифатида қаралиб, ҳар бир элемент учун механик аралашмаларнинг ҳосил бўлиши, мой оқими билан ҳаракатланиши, чўкиши ва қайта кўтарилиши масса баланси асосида ифодаланган. Таклиф этилган модель механик аралашмаларнинг локал тўпланиш зоналарини аниқлаш, мойни тозалаш самарадорлигини баҳолаш ва трансформаторнинг техник ҳолатини чуқурроқ диагностик таҳлил қилиш имконини беради.

Калим сўзлар: мойли куч трансформатори, трансформатор мойи, механик аралашмалар, математик модель, масса баланси, чўкинди, диагностика, изоляция ҳолати.

Кириш. Электр энергетика тизимларида мойли куч трансформаторлари электр энергиясини узатиш, тақсимлаш ва истеъмолчиларга белгиланган кучланиш даражасида етказиб бериш жараёнининг асосий техник бўғинларидан бири ҳисобланади. Трансформаторларнинг узлуксиз ва ишончли ишлаши электр таъминоти барқарорлиги, sanoat корхоналари технологик жараёнларининг тўхтовсизлиги, коммунал хўжалик объектлари ҳамда ижтимоий инфратузилмаларнинг нормал фаолияти учун муҳим аҳамиятга эга. Шу сабабли трансформаторларнинг техник ҳолатини баҳолаш, уларда содир бўладиган ички физик-кимёвий жараёнларни ўрганиш ва эксплуатация давомида юзага келадиган нуқсонларни эрта аниқлаш энергетика соҳасидаги долзарб илмий-амалий масалалардан бири ҳисобланади.

Мойли куч трансформаторларида изоляция ва совитиш тизими ўзаро чамбарчас боғланган ҳолда ишлайди. Трансформатор мойи бир вақтнинг ўзида бир нечта муҳим вазифани бажаради: чулғамлар ва магнит ўтказгич орасида электр изоляция муҳитини ҳосил қилади, актив қисмларда юзага келадиган иссиқликни совитиш тизимига узатади, ички элементларни оксидланиш ва қисман коррозиядан ҳимоя қилади ҳамда трансформаторнинг умумий техник ҳолатини баҳолашда диагностик муҳит вазифасини ўтайди [2, 7].

Эксплуатация жараёнида трансформатор мойи идеал тоза муҳит сифатида сақланиб қолмайди. Ҳароратнинг ўзгариши, электр майдони таъсири, кислород ва намлик билан ўзаро таъсир, қаттиқ изоляция материалларининг эскириши, металл юзаларнинг микрозаррачаши, вибрация, гидродинамик оқимлар ва таъмирлаш-монтаж ишлари натижасида мой таркибида турли хил механик аралашмалар пайдо бўлади. Бундай аралашмаларга целлюлоза толалари, металл микрозаррачалар, лак ва изоляция материаллари қолдиқлари, коррозия маҳсулотлари, шлам, чанг, майда қаттиқ заррачалар ҳамда мойнинг оксидланиши натижасида ҳосил бўладиган чўкинди моддалар киради [3–6, 9].

Механик аралашмаларнинг трансформатор мойида мавжуд бўлиши бир қарашда оддий ифлосланиш сифатида баҳоланиши мумкин. Бироқ уларнинг таъсири анча мураккаб ва кўп омилли характерга эга. Майда қаттиқ заррачалар мойнинг электр мустаҳкамлигини пасайтириши, изоляция оралиқларида қисман разрядлар пайдо бўлишига шароит яратади. Шу билан бирга, механик аралашмалар мойнинг иссиқлик ўтказиш хусусиятларига ҳам таъсир кўрсатади. Айниқса, радиаторлар, мой қувурлари ва бак тубида чўкинди тўпланиши совитиш жараёнини ёмонлаштиради, мой айланишини секинлаштиради ва актив қисмлар ҳароратининг ортишига олиб келиши мумкин. Ҳароратнинг ортиши эса изоляция материалларининг эскириш жараёнини тезлаштиради [1, 3, 8, 9].

Трансформаторларда механик аралашмаларнинг хавфли жиҳати шундаки, улар мой ҳажмида бир текис тақсимланмайди. Оғир металл заррачалар ва йирик шлам бўлаклари асосан бак тубида тўпланиши мумкин. Целлюлоза толалари ва енгил заррачалар мой оқими билан чулғамлар оралиғи, радиаторлар ва мой каналлари бўйлаб ҳаракатланади. Оқим тезлиги паст бўлган ҳудудларда эса майда аралашмалар аста-секин чўкиб, локал ифлосланиш зоналарини ҳосил қилади. Демак, трансформатор мойидан олинган битта умумий намуна ҳар доим ҳам ички элементлардаги ҳақиқий ифлосланиш ҳолатини тўлиқ акс эттирмайди [1, 8, 9].

Амалда трансформатор мойи ҳолатини баҳолашда кўпинча электр мустаҳкамлик, намлик миқдори, кислоталик сони, $\text{tg}\delta$, газлар таркиби ва механик аралашмалар концентрацияси каби кўрсаткичлар таҳлил қилинади. Бу кўрсаткичлар мойнинг умумий сифатини баҳолашда муҳим аҳамиятга эга. Бироқ механик аралашмаларнинг айнан қайси элементда кўпроқ тўплангани, уларнинг мой билан ҳаракатланувчи ва чўккан қисмлари нисбати, шунингдек, вақт бўйича ўзгариш динамикаси одатда алоҳида ҳисобга олинмайди. Натижада трансформаторнинг ички ифлосланиш харитасини тузиш, профилактик тозалаш нуқталарини аниқлаш ва мойни қайта ишлаш самарадорлигини баҳолашда маълум ноаниқликлар юзага келади [2, 3, 5, 6].

Мавжуд ёндашувларда трансформатор кўпинча ягона мой ҳажмига эга объект сифатида қаралади. Бундай соддалаштириш айрим ҳолатларда амалий жиҳатдан қулай бўлса-да, узок муддат эксплуатацияда бўлган трансформаторлар учун етарли аниқлик бермаслиги мумкин. Чунки эксплуатация муддати ортиши билан трансформаторнинг турли қисмларида механик аралашмаларнинг ҳосил бўлиш ва тўпланиш интенсивлиги бир хил бўлмайди. Масалан, чулғамларда қаттиқ изоляция эскириши натижасида целлюлоза толалари кўпроқ ажралиши мумкин, магнит ўтказгич атрофида металл микрозаррачалар пайдо бўлиши эҳтимоли юқори, радиаторларда эса мой оқими секинлашган зоналарда шлам тўпланади. Шу сабабли трансформатор элементларини алоҳида ҳисоблаш соҳаларига ажратиш илмий ва амалий жиҳатдан асосли ҳисобланади [4, 7, 9].

Механик аралашмалар миқдорини элементлар кесимида баҳолаш трансформатор диагностикасида янги ёндашувни шакллантиради. Бунда трансформатор баки, чулғамлар,

магнит ўтказгич, радиаторлар, кенгайтиргич бак, мой қувурлари, филтрлар ва арматура қисмлари ўзаро боғланган тизим сифатида қаралади. Ҳар бир элементда мой ҳажми, оқим йўналиши, заррачаларнинг чўкиш имконияти, қайта кўтарилиш эҳтимоли ва ички аралашма ҳосил бўлиш манбалари мавжуд. Ушбу омилларни ягона математик модель орқали ифодалаш трансформатор мойидаги механик аралашмаларнинг умумий эмас, балки локал тақсимланишини аниқлашга имкон беради.

The reference standard uncertainty ($u_5 = 0.250^{\circ}\text{C}$) and repeatability ($u_2 = 0.220^{\circ}\text{C}$) are the dominant contributors, accounting for 38.6% and 29.9% of the total combined variance respectively. The combined standard uncertainty $u_c(y) = 0.413^{\circ}\text{C}$ yields an expanded uncertainty $U = 0.826^{\circ}\text{C}$ at $k = 2$. This finding has direct practical implications: investment in higher-order reference standards and improved repeatability protocols offers the greatest return in terms of uncertainty reduction. Figure 5 presents the uncertainty budget in visual format.

Application of the linear drift correction model (Equation 5) to a distributed temperature sensor




Figure 1. Sensor drift correction results: (a) raw sensor output $y(t)$ with the linear drift trend ($a = 0.025^{\circ}\text{C/h}$, $b = 0.5^{\circ}\text{C}$) and $\pm 0.6^{\circ}\text{C}$ uncertainty envelope; (b) drift-corrected output $y'(t)$ with residual uncertainty band.

network operating over a 100-hour continuous measurement campaign demonstrated a significant improvement in measurement stability and accuracy. The drift rate parameter $a = 0.025^{\circ}\text{C/h}$ and offset $b = 0.5^{\circ}\text{C}$ were estimated from 12 intermediate calibration check points distributed uniformly across the observation period. Figure 1 presents both the raw sensor output with the fitted drift trend line and the drift-corrected output signal.

Application of the correction reduced the RMS systematic deviation from 1.78°C (at $t = 100\text{ h}$, raw signal) to 0.31°C (corrected) - an 82.6% reduction in systematic error. The residual variability in the corrected signal reflects random noise and is consistent with the Type A repeatability component $u_2 = 0.220^{\circ}\text{C}$ identified in the uncertainty budget (Section 3.2).

4. Conclusion

This paper has presented a comprehensive integrated framework for the digital transformation of metrological systems, addressing end-to-end traceability, GUM-compliant uncertainty modelling, smart sensor network integration, blockchain-based data integrity, and AI-driven predictive calibration within a unified architecture aligned with CIPM Strategy 2030+ and ISO/IEC 17025:2017.

First, the adoption of digital calibration certificates produces quantitatively significant improvements in metrological infrastructure efficiency, reducing certificate preparation time by up to 90.6%, cutting data entry errors by 96.4%, and raising end-to-end traceability coverage from 45% (paper) to 97% (DCC), directly supporting the efficiency requirements of Industry 4.0 manufacturing environments. Second, the seven-component uncertainty budget demonstrates that reference standard quality and measurement repeatability are the dominant sources of calibration uncertainty, providing clear prioritization criteria for uncertainty reduction investment. Third, the linear drift correction algorithm reduces systematic measurement error by 82.6% in long-term sensor deployments, enabling extended calibration intervals without compromising metrological accuracy.

Fourth, blockchain integration provides cryptographically verifiable audit trails with negligible computational overhead (3.2 ms per block validation), confirming its practical viability for industrial-scale metrological applications. Fifth, the LSTM/Random Forest/Gaussian Process ensemble predictive model achieves 91.3% prediction accuracy for 30-day calibration need forecasting, enabling a 34% reduction in total calibration events without increasing the rate of undetected out-of-tolerance conditions. Sixth, the PDCA-structured roadmap provides a practical, phased pathway for laboratory digital transformation aligned with current international standards.

References

- [1]. Beamex. Digital Calibration Certificate (DCC) - What is it and why should you care? *Blog post*, 2023. <https://blog.beamex.com/digital-calibration-certificate/>
- [2]. Bruns, T.; Eichstädt, S.; Hagen, R.; Hutzschenreuter, D.; Lehmann, E.; Mauch, L. The Storage within Digital Calibration Certificates of Uncertainty Information Obtained Using a Monte Carlo Method. *Metrology* 2022, 2(1), 1–18. <https://doi.org/10.3390/metrology2010001>
- [3]. EPJ Web of Conferences. Digital Calibration Certificates (DCC): Benefits and Challenges to Overcome for Implementation. *EPJ Web Conf.* 2025, 255, 01001. <https://doi.org/10.1051/epjconf/202525001>
- [4]. Gadelrab, R.; Abd El-Hafiz, S. K.; Khairy, M.; Shehata, M. A Remote Calibration Device Using Edge Intelligence. *Sensors* 2022, 22, 7237. <https://doi.org/10.3390/s22197237>
- [5]. Hackel, S.; Schönhals, S.; Doering, L.; Engel, T.; Baumfalk, R. The Digital Calibration Certificate (DCC) for an End-to-End Digital Quality Infrastructure for Industry 4.0. *Sci* 2023, 5, 11. <https://doi.org/10.3390/sci5010011>
- [6]. Kan, K.; Jia, W.; Cheng, Z.; Yan, B. Design and Implementation of Digital Calibration Certificate for RFID Tag Storage. *Sensors* 2024, 24, 1456. <https://doi.org/10.3390/s24031456>
- [7]. Li, X.; Zhang, Y.; Zhou, R. Synchronous Remote Calibration for Electricity Meters Using a Hybrid Genetic Algorithm. *Sensors* 2022, 22, 7238. <https://doi.org/10.3390/s22197238>

REAL VAQT MONITORINGI ASOSIDA TRIKOTAJ DEFORMATSIYASINI RAQAMLI O‘LCHASH

N.Y. Sharibayev¹, A.M. Kayumov²

¹Namangan Muhandislik texnologiyalari instituti,

²Farg‘ona davlat texnika universiteti,

3293535ahror@gmail.com

(Qabul qilindi 20.04.2026 y.)

Annotatsiya. Trikotaj matolarning deformatsiyaga uchrash xususiyati ularning shakl saqlash darajasini belgilovchi muhim omillardandir. Ushbu maqolada matoning deformatsiya holatini real vaqt rejimida raqamli monitoring qilish uchun SCADA (Supervisory Control and Data Acquisition) tizimidan foydalanish imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi. An‘anaviy laboratoriya sinovlari ko‘p hollarda tayyor mahsulot asosida amalga oshirilsa-da, bu usul matodagi deformatsion o‘zgarishlarni aniqlashda sustlik ko‘rsatadi.

Taklif etilayotgan yondashuvda ip tarangligi, to'qish tezligi, namlik va harorat kabi texnologik parametrlar sensorlar orqali doimiy ravishda kuzatilib, deformatsiyaning boshlanishi va darajasi tezkor aniqlanadi. Trikotaj strukturalarining cho'zilish, bukilish va stress relaksatsiya bosqichlaridagi fizik-mexanik javoblari algoritmik tahlil qilinib, real vaqtli monitoring orqali shakl saqlash indikatorlari aniqlanadi. Natijalar SCADA platformasida avtomatlashtirilgan tarzda vizualizatsiya qilinadi. Bu esa ishlab chiqarish jarayonida sifatni nazorat qilish, nuqsonlarni barvaqt aniqlash va trikotaj matolarning ekspluatatsion xususiyatlarini optimallashtirish imkonini beradi.

Kalit so'zlar. Trikotaj mato, Deformatsiya tahlili, Real vaqt monitoringi, SCADA tizimi, Sensor texnologiyasi, Shakl saqlash, Elastiklik ko'rsatkichlari, To'qish jarayoni, Raqamli o'lchash, Ekspluatatsion barqarorlik.

Kirish. Trikotaj matolar bugungi kunda yengil sanoat, sport kiyimlari, tibbiy mahsulotlar va texnik to'qimalar kabi keng yo'nalishlarda ishlatilayotgan funksional materiallar sirasiga kiradi. Ularning asosiy afzalliklari orasida yuqori elastiklik, moslashuvchanlik, yumshoqlik, engil vazn, havo o'tkazuvchanlik va gigienik xususiyatlar mavjud. Shu bilan birga, trikotaj matolar shakl saqlash va deformatsiyaga chidamlilik darajasi bo'yicha ba'zi cheklovlariga ega bo'lib, bu omillar mahsulotning ekspluatatsion barqarorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Matoning dastlabki geometrik shaklini saqlab qolish qobiliyati (ya'ni shakl saqlash) mahsulotning ergonomikasi, estetik ko'rinishi va umr davomiyligi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Cho'zilish, bukilish, burish yoki tashqi kuchlar ta'sirida yuzaga keladigan deformatsion o'zgarishlar matoning sirt silliqqligini, o'lcham mosligini va foydalanish qulayligini susaytiradi. Shakl barqarorligini ta'minlash uchun ilgak geometriyasi, tolaviy tarkib, ipning fizik-mexanik xususiyatlari, to'qish strukturasining turi, pardoqlash jarayonlari va termik ishlovlar asosiy determinant omillar hisoblanadi (Peirce, 1937; Hearle & Thwaites, 1969)[1].

So'nggi yillarda trikotaj matolar deformatsiyasini baholash bo'yicha turli laboratoriya usullari taklif etilgan, xususan Kawabata Evaluation System (KES), Fabric Assurance by Simple Testing (FAST) kabi obyektiv metodlar ishlab chiqilgan (Collier, 2007)[2]. Biroq bu usullar asosan sinovdan keyingi baholashga asoslangan bo'lib, real vaqt rejimida matoning fizik holatini aniqlash imkoniyatini bermaydi. Bundan tashqari, ishlab chiqarish jarayonida yuzaga keladigan harorat, namlik, ip tarangligi, to'qish tezligi kabi dinamik parametrlarning birgalikdagi ta'sirini kuzatib borish imkoniyati cheklangan[3,4].

Mazkur muammoni bartaraf etish maqsadida raqamli monitoring tizimlaridan, xususan SCADA (Supervisory Control and Data Acquisition) platformasidan foydalanish istiqbolli yo'nalishlardan biri hisoblanadi. SCADA texnologiyasi yordamida turli fizikaviy parametrlarni real vaqt rejimida o'lchash, tahlil qilish va natijalarni vizual tarzda monitoring qilish mumkin bo'ladi. Bu esa ishlab chiqarish liniyalarida trikotaj matolarning deformatsiyaviy xatti-harakatlarini tezkor aniqlash, nuqsonlarni barvaqt bartaraf etish va sifat nazoratini avtomatlashtirish imkonini beradi[5].

Ushbu tadqiqot aynan trikotaj matolar deformatsiyasining shakl saqlash xususiyatlariga ta'sirini real vaqt rejimida raqamli monitoring qilish, ya'ni SCADA tizimiga asoslangan integratsion yondashuv orqali o'rganishga qaratilgan. Bu yondashuv amaliy jihatdan texnologik samaradorlikni oshirish bilan birga, ilmiy jihatdan deformatsiya jarayonining mexanizmini chuqur anglashga xizmat qiladi.

Kuzatiladigan texnologik parametrlarni aniqlash

Matoning deformatsiyaga uchrash jarayoniga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi asosiy texnologik parametrlarga quyidagilar kiritildi:

Ip tarangligi (N): To'qish vaqtida ipning tortilish kuchi matoning cho'zilish darajasiga bevosita ta'sir qiladi.

To'qish tezligi (rpm): Dastgohning aylanish tezligi deformatsiyaga sabab bo'luvchi impulslarni kuchaytirishi mumkin.

Ishlab chiqarish muhiti harorati (°C): Haroratning oshishi ipning elastiklik koeffitsientini kamaytiradi.

Havodagi nisbiy namlik (%RH): Nam muhitda tolalar yumshab, ilgaklararo ishqalanish pasayadi.

Mato choʻzilishi (mm): Matoning jismoniy deformatsiyasini ifodalovchi asosiy koʻrsatkich sifatida olinadi. Bu parametrlar avvalgi ilmiy ishlarda trikotaj deformatsiyasiga sezilarli taʼsir koʻrsatgan omillar sifatida qayd etilgan (Peirce, 1937; Hearle & Thwaites, 1969; Vasilchenko, 1982).

Sensor tizimini tanlash va integratsiyalash

Har bir parametr uchun yuqori aniqlikdagi sensorlar tanlandi:

1-jadval: sensor turi va oʻlchov diapazoni

Parametr	Sensor turi	Oʻlchov diapazoni
Ip tarangligi	Strain gauge (tenzodatchik)	0–10 N
Toʻqish tezligi	Rotary encoder	0–1500 rpm
Harorat	Digital temperature sensor (DS18B20)	-20°C – +80°C
Namlik	DHT22 yoki SHT31	0–100% RH
Mato choʻzilishi	Ultrasonic/laser rangefinder	0–200 mm

Sensorlar Arduino Mega yoki STM32 mikrokontrolleri bilan SCADA tizimiga ulanadi. Olingan maʼlumotlar RS-485 yoki Wi-Fi orqali SCADA kompyuteriga uzatiladi.

Raqamli monitoring va maʼlumotlar yigʻish

SCADA interfeysi uchun Wonderware InTouch, WinCC yoki OpenSCADA kabi muhitlardan foydalanish imkoniyati koʻrib chiqildi. Tizimda:

- Har bir sensor parametrining real vaqtli grafik koʻrinishi;
- Parametrlarga mos meʼyordagi ogohlantirish chegaralari;
- Arxivlash funksiyasi (maʼlumotlar .csv shaklida eksport qilinadi);
- Mato deformatsiyasi boʻyicha real vaqtli xulosa chiqaruvchi algoritmlar joriy etildi.

Deformatsiyani aniqlovchi algoritm ishlab chiqish.


Shakl saqlash xususiyatini ifodalovchi deformatsiya koeffitsienti D quyidagi formulada hisoblandi:

$$D = \frac{L_t - L_0}{L_0} \times 100\%$$

Bu yerda: L_0 — dastlabki uzunlik (mm),

L_t — vaqt oraligʻida oʻlchangan hozirgi uzunlik (mm).

D 5% dan oshsa, mato "deformatsiyalangan" deb belgilanadi. SCADA algoritmi ushbu koʻrsatkich asosida avtomatik ogohlantirish yaratadi.



Ekspirimental sinovlar oʻtkazish tartibi

Sinov quyidagi sharoitlarda olib borildi:

Matolar turi: Single jersey, rib va interlock trikotajlar

Ip turlari: Paxta, polyester, paxta+lycra (5%) aralashmalar

Sharoitlar: Harorat – 20°C, 40°C, 60°C; Namlik – 40%, 60%, 80%

Toʻqish uskunasi: 36 silindrli dumaloq trikotaj dastgohi

Har bir mato uchun 5 ta takroriy o'lov amalga oshirildi. Har bir parametr uchun eksperimental natijalar SCADA tizimi orqali grafik va jadval ko'rinishida tahlil qilindi.

Yuqoridagi diagrammada turli **ip turlari** va **mato turlari** bo'yicha deformatsiya koeffitsienti (%) taqqoslanmoqda. Grafik asosida quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin:

- **Cotton+Lycra** iplar deformatsiyani eng yaxshi ushlab turadi (eng past koeffitsient).
- **Polyester** ipli matolar, ayniqsa **Rib** strukturasida, deformatsiyaga nisbatan kuchliroq bardoshlilik ko'rsatmoqda.
- Har bir mato turida ip tarkibining o'zgarishi deformatsiyaga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Tadqiqot davomida SCADA tizimi orqali trikotaj matolarning deformatsiya xususiyatlari real vaqt rejimida kuzatildi va raqamli shaklda tahlil qilindi. Quyida olingan asosiy natijalar keltiriladi:

Deformatsiya koeffitsientining mato va ip turiga bog'liqligi

Cotton+Lycra ipli matolar barcha harorat va namlik sharoitlarida eng past deformatsiya koeffitsientini ko'rsatdi (1.5–3.0% atrofida).

Polyester ipli matolar yuqori haroratda (60°C) ham shaklga nisbatan barqaror bo'lib, deformatsiya 4.0–5.2% darajasida qayd etildi.

Cotton (paxta) ipli matolarda esa harorat va namlikning oshishi bilan deformatsiya koeffitsienti 5.9–6.5% gacha yetgani kuzatildi.

Bu natijalar shuni ko'rsatadiki, ip tarkibi shakl saqlash qobiliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, elastik komponent (Lycra) qo'shilishi deformatsiyani sezilarli kamaytiradi.

Mato strukturali ta'siri

- Interlock va Rib matolarida deformatsiya darajasi Single Jerseyga nisbatan pastroq bo'ldi.
- Interlock matolarda deformatsiya 1.5–4.2% oraliqda, Rib matolarda esa 2.2–5.1% oraliqda qayd etildi.
- Single Jersey strukturasida deformatsiya eng yuqori (4.1–6.5%) bo'ldi, ayniqsa paxtali iplar bilan.

Bu natijalar matoning tuzilishida qatlamlilik va ilgak konfiguratsiyasining barqarorlikni oshiruvchi omil ekanini tasdiqlaydi.

Atrof-muhit omillarining ta'siri (harorat va namlik)

Harorat oshgani sari deformatsiya koeffitsienti barcha mato va ip turlarida ortdi.

Namlik 60–80% oralig'iga yetganda mato ilgaklarining ishqalanishi kamayib, deformatsiya o'sishi tezlashdi.

Ayniqsa, paxta ipli matolarda bu ta'sir sezilarli bo'lib, 60°C va 80% RH sharoitida deformatsiya maksimal darajaga yetdi.

SCADA tizimi samaradorligi

Tizim yordamida har bir sinov uchun real vaqtli grafik chiziqlar, deformatsiya darajasi o'zgarishi va chegara holatlarda avtomatik ogohlantirishlar ishlab chiqildi.

Deformatsiya koeffitsienti 5% dan oshganda tizim xavf holatini aniqlab, vizual belgilar bilan aks ettirdi.

Ma'lumotlar arxivga saqlandi va .csv formatda eksport qilish orqali keyingi tahlillar uchun foydalanildi.

Xulosa. Trikotaj matolarining shakl saqlash xususiyatlari ularning ekspluatatsion sifati, ergonomikasi va estetik jozibasida muhim o'rin tutadi. Tadqiqot davomida ushbu xususiyatni baholashda an'anaviy laboratoriya sinovlariga qaraganda real vaqt rejimida ishlovchi raqamli monitoring tizimining ustunliklari aniqlandi. SCADA platformasi asosida ishlab chiqilgan monitoring tizimi to'qish jarayonida yuzaga keluvchi texnologik parametrlar (ip tarangligi, harorat, namlik, cho'zilish darajasi va h.k.)ni uzluksiz kuzatib bordi hamda deformatsiya koeffitsientini aniqlash algoritmlari orqali matoning shaklga barqarorligini baholash imkonini berdi.

Eksperimental sinovlar shuni ko'rsatdiki, trikotaj matolar deformatsiyaviy xatti-harakatlari

ip turi, mato strukturasining ko'p qatlamligi hamda atrof-muhit omillariga (harorat va namlik) sezilarli darajada bog'liq. Ayniqsa, cotton+lycra iplarining qo'llanishi deformatsiyani kamaytirishi aniqlangan bo'lsa, polyester matolar yuqori haroratda deformatsiyaga bardoshlilik ko'rsatgan. Interlock strukturasidagi matolar eng barqaror natijalarni bergan bo'lib, bu struktura shakl saqlash uchun istiqbolli yo'nalishlardan biri sifatida e'tirof etiladi.

Raqamli monitoring tizimining asosiy afzalligi — real vaqtli tahlil, avtomatik ogohlantirish, va vizual grafik kuzatuv imkoniyatlaridir. Bu esa nafaqat ilmiy-tadqiqot maqsadlarida, balki sanoat korxonalarida sifatni barqaror nazorat qilish, texnologik jarayonlarni optimallashtirish va mahsulotdagi nuqsonlarni erta aniqlash uchun katta ahamiyatga ega.

Umuman olganda, ushbu tadqiqot SCADA tizimi asosida trikotaj matolarning shaklga chidamliligini baholash bo'yicha kompleks, ilg'or va amaliyotga yo'naltirilgan yondashuvni taklif etadi. Natijalar yengil sanoat, sport kiyimlari, tibbiy trikotaj va texnik tekstillar ishlab chiqarish yo'nalishlari uchun muhim ilmiy-amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar

- [1]. Peirce, F.T. (1937). The Geometry of Cloth Structure. Journal of the Textile Institute, 28: T45–T96.
- [2]. Leaf, G.A.V. & Glaskin, A. (1955). The Geometry of Plain-knitted Loops. J. Textile Inst., 46(8): 587–605.
- [3]. Hearle, J.W.S., & Thwaites, J.J. (1969). Mechanics of Elastic Performance of Textile Materials. Textile Institute, Manchester.
- [4]. Makarov, B.P. (1978). Sinteticheskie volokna i ikh primeneniye. Legprombitizdat.
- [5]. Vasilchenko, V.N. (1982). Stabilizatsiya trikotazhnykh struktur. M.: Legprombitizdat.
- [6]. Kurbatov, A.V. (1985). Kompyuternoe modelirovaniye petelnykh soedineniy. Leningrad Univ. Press.
- [7]. Muminjonovich, K. A. (2023). To'qimachilik korxonalari salohiyatini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish. Journal of technical research and development, 1(1), 77-80.
- [8]. Kholodov, S. (2005). Deformatsionnye protsessy pri vlagotermicheskoy obrabotke. Textilnaya Promyshlennost'.
- [9]. Muminjonovich, K. A. (2024). Trikotaj to'qimasi tarkibidagi ip xususiyatlari va deformatsiyaga ta'siri. Al-Farg'oniy avlodlari, (4), 22-27.
- [10]. Kaynak, M. (2000). Effects of Elastane on Knitted Fabric Stability. Textile Res. J., 70(8): 725–730.
- [11]. Зулунув, Р. М., & Каюмов, А. М. (2024). Идентификация и сортировка текстиля для автоматизированной обработки с помощью ближней инфракрасной спектроскопии. Universum: технические науки, 1(3 (120)), 38-41.

УДК 006.91:681.2

MODERN METHODS OF METROLOGICAL ASSURANCE FOR INTELLIGENT MEASUREMENT SYSTEMS: A COMPREHENSIVE ANALYSIS (2018–2025)

A. Mamatov

Fergana State Technical University,

E-mail: akmaljon9790011@gmail.com ORCID: 0009-0007-2148-8702

(Received on April 20 th, 2026)

Abstract. This article examines modern approaches to metrological assurance of intelligent measurement systems and analyzes the transition from traditional calibration methods to smart metrology frameworks. Particular attention is paid to the integration of Internet of Things technologies, artificial intelligence algorithms, and cloud-based calibration services into contemporary metrological practice. The results show that automated calibration systems reduce human-factor effects, shorten calibration time, and improve uncertainty evaluation. A hierarchical traceability framework incorporating real-time uncertainty estimation and predictive maintenance elements is proposed.

Keywords: metrological assurance; smart metrology; calibration systems; measurement uncertainty; IoT sensors; traceability chain.

1. Introduction

The rapid advancement of Industry 4.0 technologies has fundamentally transformed the landscape of metrological assurance, necessitating a paradigm shift from traditional calibration methodologies to intelligent, data-driven approaches [1]. Modern measurement systems are increasingly characterized by their interconnected nature, real-time data processing capabilities, and

integration with cloud-based analytical platforms. This evolution presents both unprecedented opportunities and significant challenges for metrological professionals and quality assurance engineers working to maintain measurement integrity across diverse industrial applications [2].

The foundation of metrological assurance lies in the establishment and maintenance of traceability chains that connect field measurements to national and international measurement standards [3]. Traditional traceability frameworks, while robust and well-established, often struggle to accommodate the dynamic nature of modern measurement environments where sensor networks operate continuously under varying conditions [4]. The emergence of smart sensors equipped with embedded calibration capabilities and self-diagnostic functions has introduced new possibilities for maintaining measurement accuracy without the need for frequent physical recalibration [5].

This study addresses the critical need for comprehensive frameworks that integrate traditional metrological principles with emerging technologies. We examine the theoretical foundations of measurement uncertainty propagation in networked sensor systems and propose novel algorithms for real-time uncertainty estimation. The research also investigates the economic implications of transitioning from time-based to condition-based calibration strategies, providing quantitative evidence for decision-makers in industrial settings [6].

2. Theoretical framework

The metrological traceability chain represents a hierarchical structure through which measurement results can be related to stated references, typically national or international standards, through an unbroken chain of calibrations [7]. National metrology institutes maintain primary standards with the highest achievable accuracy, while calibration laboratories provide secondary references for industrial applications.

The measurement uncertainty budget constitutes a fundamental component of metrological assurance, quantifying the dispersion of values that could reasonably be attributed to the measurand [8]. Modern uncertainty analysis employs the Guide to the Expression of Uncertainty in Measurement (GUM) framework, which classifies uncertainty components into Type A (statistically evaluated) and Type B (evaluated by other means) categories. The combined standard uncertainty is calculated using the root-sum-square method, accounting for correlation effects between input quantities when applicable.

3. Methodology

Our research methodology combines theoretical analysis with empirical validation through case studies across multiple industrial sectors. The study employed a mixed-methods approach, integrating quantitative measurements from sensor networks with qualitative assessments from metrology professionals. Data collection spanned a period of three years (2022-2024), involving over 500 calibration events across temperature, pressure, flow, and electrical measurement domains [9].

The experimental setup comprised a distributed sensor network consisting of 120 intelligent sensors connected through an IoT gateway to a cloud-based data processing platform. Each sensor was equipped with self-diagnostic capabilities and automated drift detection algorithms. Reference measurements were obtained using calibrated laboratory standards with traceability to national measurement institutes. Statistical analysis was performed using specialized metrology software compliant with ISO/IEC 17025 requirements [10].

Table 1: Sensor Network Configuration Parameters

Parameter	Value	Unit
Number of sensors	120	units
Sampling frequency	10	Hz
Calibration interval	12	months
Measurement range	-40 to +120	deg C
Target uncertainty	0.05	deg C

4. Results and analysis

The analysis of measurement uncertainty trends over the period 2018-2025 reveals a consistent downward trajectory, as depicted in Figure 2. The average measurement uncertainty decreased from 0.15% in 2018 to 0.035% in 2025, representing a 76.7% improvement. This significant reduction can be attributed to the implementation of smart calibration techniques, improved sensor manufacturing processes, and enhanced data processing algorithms [11].




Figure 2: Trend of Measurement Uncertainty Reduction (2018-2025).

The distribution of measurement types across the sensor network, illustrated in Figure 3, demonstrates the dominance of temperature measurements (28%) followed by pressure (22%) and flow measurements (18%). This distribution reflects the typical requirements of industrial process control applications, where thermal and hydraulic parameters are critical for quality assurance and safety compliance [12].

Table 2: Comparison of Traditional vs Smart Metrology Approaches

Parameter	Traditional	Smart	Improvement
Calibration time	4 hours	2.2 hours	45%
Human error rate	3.2%	0.7%	78%
Annual cost	\$45,000	\$28,500	37%
Uncertainty achieved	0.08%	0.052%	35%

5. Discussion

The comparative analysis between traditional and smart metrology approaches, visualized in Figure 4, reveals significant performance advantages for intelligent systems across multiple dimensions. Smart metrology demonstrates superior performance in accuracy (90% vs 75%), precision (92% vs 80%), automation (85% vs 50%), and traceability (95% vs 90%). These improvements translate into substantial operational benefits, including reduced calibration downtime, enhanced measurement reliability, and improved compliance with regulatory requirements [13].




Figure 5: Calibration Interval Optimization: Accuracy vs Cost Trade-off

Figure 5 presents the critical trade-off between calibration interval duration and associated costs. Extending calibration intervals from 3 months to 12 months yields cost savings of 38%, while accuracy degradation remains within acceptable limits (4.5% loss). However, further extension to 24 months results in unacceptable accuracy loss (12%) despite higher cost savings (55%). This analysis supports the recommendation for annual calibration cycles for most industrial applications, balancing economic considerations with measurement integrity [14].

Table 3: Environmental Factors Affecting Sensor Performance

Factor	Range	Error Impact	Mitigation
Temperature	-40 to +80 C	High (3.2%)	Compensation
Humidity	0-95% RH	Medium (1.8%)	Sealing
Vibration	0-20 g	Medium (2.5%)	Isolation

6. Conclusion

This comprehensive study demonstrates the substantial benefits of transitioning from traditional to intelligent metrological assurance systems. The integration of IoT technologies, machine learning algorithms, and cloud-based calibration services has resulted in measurable improvements across all key performance indicators. Measurement uncertainty reductions of up to 76.7% over the study period validate the effectiveness of smart metrology approaches. The economic analysis confirms that intelligent calibration strategies offer significant cost advantages while maintaining or improving measurement quality [15].

Future research directions include the development of blockchain-based traceability systems for enhanced data integrity, integration of digital twin technologies for predictive calibration scheduling, and expansion of the proposed frameworks to address emerging measurement challenges in quantum computing and nanotechnology applications. The findings of this study provide a foundation for organizations seeking to modernize their metrological infrastructure while maintaining compliance with international standards and regulatory requirements.

Reference

[1]. ISO/IEC 17025:2017. General requirements for the competence of testing and calibration laboratories. International Organization for Standardization, Geneva, 2017.

[2]. JCGM 100:2008. Evaluation of measurement data - Guide to the expression of uncertainty in measurement (GUM). Joint Committee for Guides in Metrology, 2008.

- [3]. Estler, W.T. Measurement as inference: Fundamental concepts. Journal of Research of NIST, 2020, 105(6), 597-608.
- [4]. Pendrill, L.R. Using measurement uncertainty in decision-making and conformity assessment. Metrologia, 2018, 55(1), S1-S7.
- [5]. Willink, R. A procedure for the evaluation of measurement uncertainty based on moments. Metrologia, 2019, 42(5), 329-343.
- [6]. [6] Kacker, R., Jones, A. On use of Bayesian statistics to make the Guide to the Expression of Uncertainty in Measurement consistent. Metrologia, 2021, 40(5), 235-248.
- [7]. [7] Sommer, K.D., Siebert, B.R.L. A systematic approach to the modelling of measurements for uncertainty evaluation. Metrologia, 2019, 43(4), 200-210.
- [8]. [8] Bich, W., Cox, M.G., Harris, P.M. Evolution of the Guide to the Expression of Uncertainty in Measurement. Metrologia, 2022, 43(4), S161-S166.
- [9]. [9] EURAMET. Guidelines on the determination of uncertainty in acoustical measurements. European Association of National Metrology Institutes, 2020.
- [10]. [10] NIST. NIST Policy on Metrological Traceability. National Institute of Standards and Technology, 2023.
- [11]. [11] Ilic, D., Butorac, J. Use of intelligent instruments in modern metrology. IEEE Transactions on Instrumentation and Measurement, 2021, 60(2), 421-428.
- [12]. [12] White, D.R. The meaning of measurement in metrology. Accreditation and Quality Assurance, 2022, 26(4), 269-286.
- [13]. [13] Zhang, N.F. The uncertainty associated with the weighted mean of measurement data. Metrologia, 2023, 43(4), 195-204.
- [14]. [14] da Silva, R.J.N., Camoes, M.F.G.F.C. The role of uncertainty in the evaluation of measurement competence. Accreditation and Quality Assurance, 2023, 22(5), 281-286.
- [15]. [15] Possolo, A. Five key founding principles of metrology. Metrologia, 2024, 52(6), S213-S222.

TRIKOTAJ MASHINALARI UCHUN AQLLI MONITORING TIZIMINI YARATISH YO'LLARI

A.M. Kayumov

¹Farg'ona davlat texnika universiteti, O'zbekiston.
3293535ahrar@gmail.com, tel: 91 329 35 35

Annotatsiya: Zamonaviy to'qimachilik sanoatida trikotaj mahsulotlarini sifatli va nuqsonsiz ishlab chiqarish uchun ilg'or monitoring texnologiyalarining joriy etilishi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu maqolada trikotaj mashinalari uchun aqlli monitoring tizimini yaratish yo'llari ko'rib chiqiladi. Asosiy e'tibor Yarn Input Tension (ip kirish kuchlanishi – YIT) parametriga qaratilib, bu ko'rsatkich asosida mahsulot sifati va nosozliklarni aniqlash imkoniyati tahlil qilinadi. Maqolada KnitLab tizimi misolida real vaqtda ishlov berish, signal tahlili, nosozliklarni erta aniqlash, statistik usullar, hamda sun'iy intellekt yondashuvlari (masalan, shablonlar bilan solishtirish, AMCD) asosida ishlov berishning afzalliklari yoritiladi. Monitoring tizimining ishlab chiqarishdagi samaradorlikka, mashina ishlash uzluksizligiga va texnik xizmat ko'rsatish xarajatlarini kamaytirishga ta'siri ilmiy asosda bayon etiladi. Yakuniy natijalar, ushbu tizimni trikotaj sanoatida keng joriy etish imkoniyatlarini ochib beradi.

Kalit so'zlar. Trikotaj mashinasi, Aqlli monitoring, Yarn Input Tension (YIT), Nosozlikni aniqlash, KnitLab tizimi, Signalni raqamli qayta ishlash, Matched Filter, AMCD (o'rtacha farq o'lchovi), Real vaqtda nazorat, Sifat nazorati, Sun'iy intellekt, Sensorli tizimlar.

Zamonaviy sanoat jarayonlarida ishlab chiqarishning uzluksizligi, mahsulot sifati va resurslardan samarali foydalanish asosiy ustuvor yo'nalishlar hisoblanadi. Xususan, to'qimachilik sanoatining muhim tarmoqlaridan biri bo'lgan trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarishda yuqori texnologiyalarga asoslangan yondashuvlar joriy etilishi sohaning global raqobatbardoshligini ta'minlashda katta rol o'ynaydi.

Trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish jarayonida ishlatiladigan trikotaj mashinalari juda yuqori tezlikda ishlaydi va yuzlab ignalardan iborat bo'lishi mumkin. Bunday murakkab mexanizmda sodir bo'ladigan eng kichik nosozlik ham mahsulot sifatiga sezilarli darajada ta'sir

ko'rsatadi. Agar bu nosozliklar vaqtida aniqlanmasa, bir necha metrlab trikotaj mato nuqsonli holda ishlab chiqarilishi mumkin, bu esa iqtisodiy zarar, ishlab chiqarishning to'xtashi va qo'shimcha xizmat xarajatlariga olib keladi.

Ushbu muammoning dolzarbligi sababli so'nggi yillarda real vaqtda monitoring, avtomatik nosozlik aniqlash, sensorli nazorat va raqamli signalni qayta ishlash kabi texnologiyalarning trikotaj ishlab chiqarish jarayoniga integratsiyasi kengaymoqda. Monitoring tizimlari yordamida ishlab chiqarish holatini doimiy nazorat qilib borish, ishlab chiqarish sifat ko'rsatkichlarini avtomatik tahlil qilish va har qanday chetga chiqish holatlarini oldindan aniqlash imkoniyati yaratiladi. Ayniqsa, Yarn Input Tension (ip kirish kuchlanishi, YIT) kabi parametrlar trikotaj jarayonining asosiy ko'rsatkichlaridan biri bo'lib, ular asosida mahsulot sifati, mashina ish faoliyati va ehtimoliy nosozliklar haqida to'liq tasavvurga ega bo'lish mumkin.

Shu nuqtai nazardan, bu maqola trikotaj mashinalari uchun aqlli monitoring tizimini yaratishning asosiy yo'llarini tahlil qiladi. E'tibor asosan KnitLab nomli monitoring tizimiga qaratilgan bo'lib, ushbu tizim real vaqt rejimida YIT parametrini o'lchash va tahlil qilish imkonini beradi. Mazkur tizim kuch, optik va pozitsion sensorlar asosida ishlaydi hamda zamonaviy raqamli signalni qayta ishlash usullari yordamida nosozliklarni aniqlaydi.

YIT o'zgarishlari ko'plab omillarga bog'liq: igna holati, trikotaj materiali, ipning fizik xususiyatlari, mashina tezligi, ip uzatish tizimidagi muvozanat va h.k. Har qanday nomuvofiqlik yoki anomalni YIT signalida sezilarli o'zgarish bilan namoyon bo'ladi. Ushbu signalni raqamli shaklda tahlil qilish orqali nafaqat mavjud muammoni aniqlash, balki uning joylashuvini aniqlash va sababi haqida xulosa qilish mumkin.

Ilgari sanoatda asosan igna holati yoki tayyor matoga asoslangan vizual nazorat usullari qo'llanilgan bo'lsa, bugungi kunda matched filter, AMCD (Average Magnitude Cross-Difference), Synchronized Time Average (STA) kabi raqamli tahlil metodlari yordamida har xil turdagi nosozliklarni aniqlash imkoniyati paydo bo'ldi. Ushbu metodlar har bir trikotaj aylanishini tahlil qilib, nosozlik yuzaga kelganini avtomatik aniqlashga yordam beradi. Bu esa inson omiliga bog'liq xatoliklarni kamaytiradi va ishlab chiqarish jarayonini optimallashtiradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, ushbu maqolaning asosiy maqsadi — trikotaj mashinalarida nosozliklarni erta aniqlash, ishlab chiqarish sifatini oshirish va texnik xizmat ko'rsatish samaradorligini ta'minlash uchun aqlli monitoring tizimini ishlab chiqarishning metodologik yondashuvlarini ko'rib chiqishdir. Maqolada KnitLab tizimi asosida olib borilgan tajriba natijalari, signalni qayta ishlash algoritmlari, tizimning texnik imkoniyatlari va amaliy qo'llanilishi haqida batafsil ma'lumot beriladi.

Ushbu tadqiqot trikotaj mashinalarida yuzaga keluvchi nosozliklarni **real vaqtda** aniqlash uchun aqlli monitoring tizimlarini ishlab chiqarish va ularni tajriba asosida sinab ko'rishga qaratilgan. Metodologiya bir nechta asosiy bosqichlardan iborat bo'lib, quyida har biri batafsil yoritiladi:[1]

Monitoring tizimining umumiy tuzilmasi

Tadqiqotda asosiy monitoring vositasi sifatida KnitLab nomli tizim tanlandi. KnitLab — bu trikotaj mashinasiga integratsiya qilinadigan apparat-dasturiy vosita bo'lib, u Yarn Input Tension (YIT) parametrini real vaqtda o'lchashga mo'ljallangan. Tizim quyidagi asosiy komponentlardan tashkil topgan:

Kuchlanish sensori (strain gauge) — YIT qiymatini aniqlaydi (0–200 cN diapazonda)

Optik sensor — signalni sinxronlashtirish uchun ishlatiladi

Pozitsion sensor (enkoder) — aylanish tezligi va pozitsion aniqlikni ta'minlaydi

DAQ (Data Acquisition) moduli — sensor ma'lumotlarini yig'ib, tahlil dasturiga yuboradi

LabVIEW muhiti — real vaqtda vizualizatsiya va tahlil vositasi

Tizimga hech qanday mashina tuzilmasini o'zgartirmasdan osongina o'rnatilishi mumkin bo'lib, uni har xil turdagi trikotaj mashinalariga moslashtirish mumkin[2].

O'lchov va signal yig'ish bosqichi

Ma'lumotlarni yig'ish quyidagi tartibda amalga oshirildi:

Trikotaj mashinasiga kuchlanish sensori o'rnatildi

Mashina ishlash jarayonida har bir aylanishda YIT qiymatlari 10–15 kHz chastotada yozib borildi

Har bir aylanish (kurs) uchun taxminan 2000 ta nuqta yig'ildi

Sinxronlashtirish enkoder yordamida amalga oshirildi: har bir aylanish uchun aniq va bir xil miqdorda o'lchov nuqtalari ta'minlandi

Bu bosqichda yig'ilgan signal raqamli shaklda saqlanadi va keyingi bosqichda filtrlanadi hamda tahlil qilinadi[3].

Signalni raqamli qayta ishlash

YIT signalida mavjud bo'lgan tabiiy tebranishlar, fon shovqinlar va sanoat vibratsiyasi tahlilni qiyinlashtiradi. Shu sababli, signalni quyidagi usullar orqali tozalash va silliqlash amalga oshirildi:

Cheklangan chastota filtrasi (low-pass filter) — ortiqcha yuqori chastotalarni yo'qotish


Sinxron o'rtacha qiymat (Synchronized Time Average, STA) — doimiy elementlarni ajratish

Normalizatsiya — har xil tezliklar va ip turlarida signalni solishtirish imkonini yaratish

Signal tayyor holga keltirilgach, u nosozlik aniqlash algoritmlariga yuboriladi.

Nosozliklarni aniqlash algoritmlari

Nosozliklarni aniqlash uchun ikki asosiy metod qo'llanildi:



Matched Filter (MF)

Bu usul signalni ma'lum bir shablon (ideal signal) bilan solishtirib, eng katta o'xshashlikni topadi. Agar signal ichida nosozlikka xos shakl bo'lsa, u aniqlanadi.

Afzalliklari:

Kam shovqinli muhitda yuqori aniqlik ($\approx 96\%$)

Aniq shablonlar bilan ishlash imkoniyati

Kamchiliklari:

Har bir turdagi nosozlik uchun alohida shablon kerak

Real vaqtda ko'p shablonli hisoblashlar resurs talab qiladi[4-5]

AMCD (Average Magnitude Cross-Difference)

Bu metod sog'lom signal va yangi signalni solishtirib, farqlarning o'rtacha qiymatini topadi. Eng kichik farq — sog'lom holatga yaqinlikni bildiradi, katta farq — nosozlik belgisidir.

Afzalliklari:

Har xil nosozliklarni umumiy yondashuvda aniqlay oladi

Avtomatik o'rganish va moslashuvga mos

Kamchiliklari:

Doimiy nosozliklarni ba’zida silliqib yuborishi mumkin

Real vaqt hisoblashda resurs sarfi biroz yuqori

Joylashuv aniqlash va signal interpretatsiyasi

Aniqlangan nosozlikdan so‘ng tizim quyidagi ma’lumotlarni beradi:

Nosozlikning joylashuvi: igna raqami va kam pozitsiyasi

Nosozlik turi: past kuchlanish, yuqori kuchlanish, signal uzilishi

YIT grafigi: real vaqt signal ko‘rinishi, silliqilgan signal, statistik tafovutlar

Bu ma’lumotlar yordamida texnik xodimlar mashinani tezda to‘xtatib, nuqsonli elementni aniqlashi va almashtirishi mumkin.

Tajriba sharoitlari

Monitoring tizimi quyidagi sharoitlarda testdan o‘tkazildi:


Mashina: 168 ignali, 3.75 dyuymli silindrli, ijobiy ip uzatish tizimli trikotaj mashinasi

Material: Polyester (240 dtex), paxta (24 tex)

Ishlash tezligi: 0.15 – 0.6 m/s

Nosozliklar: igna sinishi, sinker yo‘qligi, ip uzilishi

Test soni: 1000+ aylanish



2-rasm: Turli tezliklarda (0.15, 0.3 va 0.6 m/s) trikotaj mashinasida YIT (ip kuchlanishi) signalining o‘zgarishini [6].

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, trikotaj mashinalarida real vaqtda monitoring tizimlarini joriy etish mahsulot sifatini oshirish va ishlab chiqarish samaradorligini ta’minlashda muhim omil hisoblanadi. Ayniqsa, Yarn Input Tension (YIT) parametrini asosiy indikator sifatida tanlash nosozliklarni erta aniqlash va aniqlik bilan joylashtirish imkonini beradi.

Tajribalarda foydalanilgan KnitLab monitoring tizimi optik, kuchlanish va pozitsion sensorlar orqali YIT signalini aniq qayd eta oldi. Tahlil natijalari Matched Filter usuli yordamida yuqori aniqlikdagi, shablon asosidagi nosozlik aniqlashga erishilganini ko‘rsatdi ($\approx 96\%$). AMCD (Average Magnitude Cross-Difference) algoritmi esa har xil turdagi nosozliklarni umumiy yondashuv bilan aniqlashda samarali bo‘lib, 92–95% aniqlikni ta’minladi. Bu usullar birgalikda qo‘llanilganda, doimiy va epizodik nosozliklar ishonchli tarzda aniqlanishi mumkin.

Tajriba sharoitlari turli tezliklarda (0.15 m/s dan 0.6 m/s gacha) olib borildi va har bir holatda YIT signalida sezilarli farqlar kuzatildi. Nosozlik yuz bergan holatlarda signal o‘zgarishlari tahlil qilingan va ularning joylashuvi, davomiyligi, chastotasi aniqlangan. Tizim avtomatik tarzda texnik xodimni ogohlantirib, mashinani to‘xtatish va qayd qilish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Bu esa ishlab chiqarishda nuqsonli mato hajmini sezilarli darajada kamaytiradi.

YIT signalining statistik va raqamli analiz usullari yordamida chuqur tahlili trikotaj mashinasining texnik holatini baholashda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Ayniqsa, STA (Synchronized Time Average) texnikasi doimiy nuqsonlarni, Matched Filter esa shablon asosida

aniqlashni, AMCD esa turli nosozlik holatlarini umumiy baholashni ta'minlashi orqali ularni integratsiyalashgan holda qo'llash katta afzallik beradi.

Aadabiyotlar.

- [1]. Catarino, A., Rocha, A., Monteiro, J. L., & Soares, F. (2004). *A new system for monitoring and analysis of the knitting process*. IEEE Xplore. <https://doi.org/10.1109/ICMECH.2004.1364475>.
- [2]. Ifeachor, E. C., & Jervis, B. W. (2002). *Digital Signal Processing: A Practical Approach (2nd ed.)*. Prentice Hall. <https://www.pearson.com/en-us/subject-catalog/p/digital-signal-processing-a-practical-approach/P200000000343/>.
- [3]. Spencer, D. J. (1989). *Knitting Technology (2nd ed.)*. Pergamon Press. <https://www.sciencedirect.com/book/9780080365168/knitting-technology>.
- [4]. Makarov, B.P. (1978). Sinteticheskie volokna i ikh primeneniye. Legprombitizdat.
- [5]. Vasilchenko, V.N. (1982). Stabilizatsiya trikotazhnykh struktur. M.: Legprombitizdat.
- [6]. Kurbatov, A.V. (1985). Kompyuternoe modelirovaniye petelnykh soedineniy. Leningrad Univ. Press.

KO'P-AGENTLI KATTA TIL MODELLARI YORDAMIDA DASTUR KODNI AVTONOM OPTIMALLASHTIRISH

A.A. Tillaboyev¹, N. Yu. Mamasodiqova²

¹“Cyber university” davlat universiteti, taaline@umail.uz

²Farg'ona davlat texnika universiteti, nodiramamasodikova@gmail.com
(Qabul qilindi 20.04.2026 y.)

Annotatsiya: Ushbu maqolada biz dasturiy ta'minot sifatini yaxshilash maqsadida an'anaviy qoida hamda bazali statik tahlil vositalarining cheklovlarini bartaraf etishga qaratilgan innovatsion yondashib, tahlil qilamiz. Tadqiqot vaqtida Ko'p-Agentli Tizimlar (MAS) va Katta Til Modellari (LLM) asosida avtonom, iterativ va o'z-o'zini tahlil qiluvchi (self-reflective) refaktoring arxitekturasini ko'rib chiqildi. Beshta ixtisoslashgan agent va LangGraph 0.2 sun'iy intellekt agentlari faoliyatini muvofiqlashtirish va boshqarish, freymvorkiga asoslangan tizimning ishlash prinsiplari, shuningdek, tree-sitter kutubxonasi yordamida AST parsing va CodeCarbon vositasi bilan energiya monitoringi tizimi tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, taklif etilgan arxitektura dasturiy ta'minotning vaqt murakkabligini, xotira sarfini hamda energiya iste'molini sezilarli darajada kamaytiradi. Shu bilan birga, o'ta katta loyihalarda kontekst oynasi cheklovlari va hisoblash resurslari narxining yuqoriligi ushbu texnologiyani keng joriy etishda asosiy to'siq bo'lib qolmoqda.

Kalit so'zlar: ko'p-agentli tizimlar, katta til modellari, avtonom refaktoring, self-reflective loop, O-notation optimizatsiyasi, xotira boshqaruvi, energiya samaradorligi, Green IT, dasturiy ta'minot muhandisligi.

Kirish

Zamonaviy IT va dasturiy muhandislik sohasida yaratilayotgan tizimlarning tezkorligi hamda kod sifatini oshirish bosh masala hisoblanadi. Shu sababli, dastur kodlarini avtomatik ravishda optimallashtiradigan intellektual vositalarga bo'lgan talab keskin kuchaymoqda. Hozirgi vaqtda sanoat miqyosida ishlab chiqilgan dasturiy mahsulotlarning tez va oson, samarali refaktoring qilinishi eng muhim masalalardan biriga aylangan.

Mavjud statistik ma'lumotlarga ko'ra, amaliyotda yozilgan dasturiy ta'minot kodlarining deyarli 60 foizidan 80 foizigacha bo'lgan qismi kelajakda chuqur qayta ishlash (refaktoring) va optimallashtirish bosqichlaridan o'tishi zarur. Bundan tashqari, global IT infratuzilmasi va ma'lumotlar markazlari vaqt o'tishi bilan ko'p energiya iste'mol qilishi dasturiy ta'minotning energiya samaradorligini (Green IT) oshirishni nafaqat iqtisodiy, balki ekologik jihatdan ham dolzarb vazifaga aylantirdi.

Dasturiy kodni tekshirishda keng qo'llaniladigan ESLint, SonarQube yoki PMD kabi an'anaviy statik tahlil tizimlari asosan sintaktik kamchiliklar hamda kod yozish qoliqlarini aniqlashga moslashgan. Ularning funktsionalligi qat'iy qoidalar bilan cheklangani sababli, algoritmik murakkablikni mustaqil tahlil qilish imkoniyati yetarli emas. Ular o'zgaruvchan algoritmik murakkablikni, xotira oqimlarini (memory leaks) va energiya sarfini mustaqil aniqlab, avtomatik

ravishda tuzata olmaydi. Shu sababli, zamonaviy texnologik yechimlar asosida ishlab chiqilgan intellektual qurilmalar va tizimlarga, xususan, Katta Til Modellari (LLM) va Ko‘p-Agentli Tizimlar (MAS) arxitekturasida doirasida katta ehtiyoj mavjud.

Katta Til Modellari (masalan, Claude 3.7 Sonnet va GPT-4o) kodni tushunish, generatsiya qilish va kontekst tahlilida inqilobiy imkoniyatlar namoyish etmoqda. Biroq, yakka LLM agenti ko‘p fayllik murakkab loyihalarni global kontekst asosida optimallashtirishda xatoliklarga yo‘l qo‘yishi mumkin. Ushbu muammoni hal etish uchun ixtisoslashgan agentlarning o‘zaro hamkorligiga asoslangan Multi-Agent Systems (MAS) paradigmasi yangi imkoniyatlarni ochib bermoqda (1-rasm).

Taqdim etilayotgan ko‘p-agentli model dasturiy ta‘minot infratuzilmasiga integratsiya qilinadigan dinamik komponent bo‘lib, u algoritmik mantiqiy oqimlarni hamda funksional bog‘liqliklarni optimallashtirishga xizmat qiladi. Tizim tarkibidagi intellektual skanerlash modullari, markaziy boshqaruvchi (orquestrator) va LLM yadrosi funksiyalarning semantik xususiyatlariga moslashgan holda ish yuritadi. Bu esa dasturchining kod yozish metodologiyasini individual tarzda tahlil qilib, reabilitatsiya bosqichida eng samarali optimallashtirish trayektoriyasini tanlash imkonini beradi.

Mazkur maqolaning maqsadi dasturiy ta‘minot muhandisligida qo‘llaniladigan ko‘p-agentli LLM optimizatsiya tizimlarining texnologik xususiyatlarini tahlil qilish, ularning amaliy samaradorligini (vaqt, xotira, energiya bo‘yicha) baholash hamda ushbu yo‘nalishdagi muammolar va istiqbollarni aniqlashdan iborat.


Tadqiqot usullari

Mazkur ilmiy izlanishning ustuvor maqsadi - dasturiy ta‘minotni ishlab chiqish va reabilitatsiya qilish jarayonida innovatsion ko‘p-agentli optimizatsiya texnologiyalarini tatbiq etishning tizimli va funksional jihatlarini tadqiq qilish hamda ularning samaradorlik ko‘rsatkichlarini ilmiy asoslashdan iborat. Nazariy asoslar va xalqaro tajriba tahlili bosqichida jahon miqyosidagi avtonom dasturiy injiniring agentlari tanqidiy tahlil qilindi.

Tadqiqot doirasida LangGraph 0.2 freymvorki asosida yo‘naltirilgan asiklik (DAG) va tsiklik (Self-loop) graf ko‘rinishidagi 5 ta ixtisoslashgan agentdan iborat intellektual boshqaruv tizimi arxitekturasida ishlab chiqildi. Tizimning konstruktiv va funksional arxitekturasida quyidagi asosiy komponentlardan tashkil topgan:

1. **Orchestrator Agent (Tizim dispetcheri):** Ko‘p-agentli muhitning markaziy tuguni bo‘lib, agentlararo axborot almashinuvini rejalashtirish, vazifalarni taqsimlash va tsiklik boshqaruv jarayonlarini muvofiqlashtiradi.

2. **Analyzer Agent (Sintaktik va dinamik tahlil moduli):** Mavhum sintaktik daraxt (AST) strukturasini shakllantirishda tree-sitter texnologiyasiga tayanadi. U kod tarkibidagi siklomatik murakkablikni o‘lchash hamda operativ xotira profili ma‘lumotlarini yig‘uvchi diagnostika qatlamidir.



1-rasm. Ko‘p-agentli avtonom refaktoring tizimining tarkibiy sxemasi.

3. **Refactoring Agent (Kod modifikatori):** libCST va Javaparser kabi ixtisoslashgan paketlar ko‘magida kod sathidagi zarur tuzatishlarni bevosita amalga oshiruvchi hamda mantiqiy fikrlash zanjiri (CoT) algoritmlari asosida ishlovchi ijrochi blokdir.

4. **Verification Agent (Semantik nazorat tizimi):** pytest hamda JUnit 5 muhitlari orqali modifikatsiya qilingan dasturiy komponentlarning funksional ekvivalentligini real vaqt rejimida tekshiradi va regresiya xatolarining oldini oladi.

5. **Explanation Agent (Hujjatlashtirish interfeysi):** Kiritilgan barcha texnik o‘zgarishlarni, refaktoring sabablarini va audit izlarini dasturchiga tushunarli bo‘lgan tabiiy tilda bayon qiluvchi izohlash modulidir.

$$Q(t+1) = f(Q(t), \text{Feedback}(t), \text{Context}(t))$$

Bu yerda $Q(t)$ — t -iteratsiyadagi kompozit kod sifat ko‘rsatkichi bo‘lib, vaqt murakkabligi (C), xotira samaradorligi (M), energiya metrikasi (E) va o‘qilish darajasining (R) og‘irlik o‘rtachasi hisoblanadi:

$$Q(t) = w_1 \cdot C(t) + w_2 \cdot M(t) + w_3 \cdot E(t) + w_4 \cdot R(t)$$

Empirik tadqiqotlar asosida og‘irlik koeffitsiyentlari

$$w_1 = 0.35, w_2 = 0.35, w_3 = 0.20, w_4 = 0.20$$

deb belgilandi. Algoritm $\Delta Q = |Q(t+1) - Q(t)| < \varepsilon$ konvergensiya shartiga yetganda (bunda $\varepsilon = 0.01$ va $t = 6$) tsiklni **max** to‘xtatadi. Energiya samaradorligini baholashda **CodeCarbon** vositasi yordamida quyidagi formula qo‘llanildi:

$$E = P \times (T - T') \text{ [Wh] saved avg before after}$$

Tadqiqotning amaliy eksperimentlari Intel Core i9-13900KS (24 yadro, 5.8 GHz), 64 GB DDR5 RAM operatsion muhitida, GitHub platformasidan olingan 120 ta ochiq kodli loyiha va 1,240 ta funksiya (512 ta Python, 418 ta Java, 310 ta JavaScript) ustida o‘tkazildi.

Natijalar va muhokama

- high standards of sanitary and hygienic safety.

At the same time, heat-sensitive components of products (vitamins, phenolic compounds, and aromatic substances) may degrade under high-temperature exposure. Therefore, optimization of drying parameters represents an important technological challenge.

The results indicate that drying temperature and air velocity are the primary factors determining the intensity of heat and mass transfer. Increasing temperature accelerates moisture diffusion, however:

- thermo-oxidative degradation of ascorbic acid intensifies;
- carotenoids and anthocyanins undergo degradation;
- color darkening occurs due to Maillard reactions.

Studies by Vega-Gálvez et al. (2009) likewise confirm that moderate temperature regimes ensure maximum preservation of bioactive compounds.

An increase in air velocity reduces boundary layer resistance and enhances the convective mass transfer coefficient. However, excessively high air velocity may increase energy consumption and lead to surface hardening (case hardening) of the product.

During drying, the following structural changes occur in biological tissues:

- deformation of cell walls;
- loss of turgor pressure;
- narrowing of capillary channels;
- reduction in porosity.

These changes intensify at high drying rates, whereas low-temperature and controlled drying help preserve microstructural integrity.

The degree of structural degradation is directly related to rehydration capacity. A high rehydration ratio indicates minimal damage to the product microstructure.

A major drawback of conventional convective drying systems is significant heat loss. A large portion of thermal energy is discharged to the environment with exhaust air.

Modern energy-efficient technologies address this limitation.

Heat pump drying systems offer:

- closed-cycle operation;
- recovery of latent heat;
- 40-60% reduction in energy consumption;
- capability for low-temperature drying.

Reusing heat from exhaust air significantly improves system efficiency.

According to Sharma and Chen (2009), solar dryers substantially reduce energy consumption while ensuring environmental sustainability.

Konvektiv quritishning boshqa quritish usullari bilan solishtirilishi

Table-3.

<i>Method</i>	<i>Advantages</i>	<i>Disadvantages</i>
<i>Convective drying</i>	economical; flexible	high energy consumption
<i>Vacuum drying</i>	low-temperature processing	high capital cost
<i>Freeze-drying (lyophilization)</i>	maximum quality preservation	very expensive
<i>Infrared drying</i>	rapid drying	risk of non-uniform heating
<i>Microwave drying</i>	fast and efficient	technological complexity

Convective drying provides an optimal balance between product quality and economic efficiency.

In recent years, IoT sensors, artificial intelligence algorithms, and real-time monitoring systems have been increasingly applied to optimize the drying process. Intelligent systems enable:

- real-time monitoring of moisture content and temperature;
- minimization of energy consumption;
- automatic optimization of the drying process;
- standardization of product quality.

Uzbekistan's agroclimatic conditions are highly favorable for fruit production and the manufacture of dried products. Due to high solar radiation levels, the implementation of solar-convective drying technologies represents an economically and environmentally efficient solution.

The development of convective drying technology:

- reduces post-harvest losses;
- increases the production of export-oriented products;
- creates additional income sources in rural areas;
- strengthens food security.

The obtained results are consistent with heat and mass transfer theory and align with international research on the drying of biological materials. The diffusion-controlled nature of drying kinetics, the existence of optimal temperature regimes, and the advantages of energy-efficient technologies were scientifically substantiated.

Future research should focus on the following directions:

- development of hybrid drying technologies;
- process control based on artificial intelligence;
- identification of regimes that maximize the preservation of bioactive compounds;
- design of low-energy dryer constructions;
- improvement of mathematical models of the drying process.

Conclusion. Convective drying technology represents an effective and scientifically grounded method for fruit preservation and processing. The reduction of moisture content and water activity

during drying ensures microbiological stability and significantly extends product shelf life. The results indicate that the main stage of the drying process is limited by internal moisture diffusion.

The optimal drying regime (50-60°C) preserves bioactive compounds while maintaining color, aroma, and rehydration capacity. Although higher temperatures accelerate drying, they also intensify vitamin degradation and color changes. Modern energy-efficient drying systems, including heat pump-assisted and solar-convective dryers, offer significant potential to reduce energy consumption, lower production costs, and ensure environmental sustainability. Integrating convective drying with automated control systems and renewable energy sources represents a promising direction for improving the efficiency of food processing.

References

- [1]. Лыков А.В. Теория сушки. Москва: Энергия, 1968, с. 5-120.
- [2]. Гинзбург А.С. Основы теории и техники сушки пищевых продуктов. Москва: Пищевая промышленность, 1973, с. 33-150.
- [3]. Кудра Т., Струмилло Ч. Процессы сушки пищевых материалов. Москва: Колос, 1998, с. 60-180.
- [4]. Филиппов В.И. Тепломассообмен при сушке пищевого сырья. Санкт-Петербург: ГИОРД, 2005, с. 45-140.
- [5]. Мирзаев А., Абдуллаев Ш. Қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини сақлаш ва қайта ишлаш технологияси. Тошкент: Ўқитувчи, 2010, 85-156-бетлар.
- [6]. Рахматов О.Р., Юлдашев Б.Ю. Озиқ-овқат маҳсулотларини қуритиш технологияси. Тошкент: Фан, 2012, 42-118-бетлар.
- [7]. Турсунов Х.Т. Қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини қайта ишлаш асослари. Тошкент: Тафаккур, 2016, 97-173-бетлар.
- [8]. Абдурахмонов З.А. Meva va sabzavotlarni saqlash texnologiyasi. Toshkent: Fan va texnologiya, 2018, 55-132-betlar.
- [9]. Юсупов С., Каримов Н. Озиқ-овқат технологияси ва хавфсизлиги асослари. Тошкент: IQTISOD-MOLIYA, 2019, 120-198-бетлар.
- [10]. Исмоилов М.М. Қуритиш жараёнида энергия тежамкор технологиялар. *Ўзбекистон техника журналы*, 2021, №3, 44-52-бетлар.
- [11]. Хамидов Б.Э. Қуёш энергияси асосида мева маҳсулотларини қуритиш. *Қишлоқ хўжалиги инновациялари журналы*, 2020, №2, 33-41-бетлар.

BENZIN TARKIBIGA ORGANIK QO'SHIMCHALAR KIRITISH ORQALI OKTAN SONINI OSHIRISH JARAYONLARINI TADQIQ QILISH

X.A. Xolmatova¹ U.X. Sodikov²

¹ *Farg'ona neftni qayta ishlash zavodi*

² *Farg'ona davlat texnika universiteti, usmonjonsodikov89@gmail.com
(Qabul qilindi 20.04.2026 y.)*

Annotatsiya: Mazkur ilmiy tadqiqot ishida avtomobil benzinlarining oktan sonini oshirish maqsadida organik qo'shimchalarning fizik-kimyoviy ta'siri o'rganildi. Tadqiqot davomida bazaviy benzin tarkibiga texnik spirt va M-646 erituvchisi turli nisbatlarda qo'shib, hosil bo'lgan aralashmalarning tarkibi gaz xromatografiyasi–massa spektrometriyasi (GC-MS) hamda infraqizil (IQ) spektral tahlil usullari yordamida tahlil qilindi. Olingan natijalarda etanol, metanol, toluol, ksilol va boshqa aromatik uglevodorodlarning mavjudligi aniqlandi. Tadqiqot natijalari oxygenat va aromatik qo'shimchalarning detonatsiyaga chidamlilikni oshirishdagi muhim rolini ko'rsatdi. Organik qo'shimchalarning sinergetik ta'siri natijasida AI-92 va AI-95 standartlariga yaqin yoqilg'i kompozitsiyalarini hosil qilish imkoniyati aniqlandi.

Kalit so'zlar: oktan soni, benzin, etanol, texnik spirt, M-646, aromatik uglevodorodlar, detonatsiya, GC-MS, IQ tahlil, oxygenat qo'shimchalar.

KIRISH Bugungi kunda avtomobil transporti sanoatining jadal rivojlanishi yuqori sifatli motor yoqilg'ilariga bo'lgan ehtiyojni keskin oshirmoqda. Ichki yonuv dvigatellarining samaradorligi, ekspluatatsion barqarorligi hamda ekologik xavfsizligi ishlatiladigan yoqilg'ining fizik-kimyoviy xossalarga bevosita bog'liqdir [1].

Motor benzinlarining eng muhim sifat ko'rsatkichlaridan biri detonatsiyaga chidamlilik hisoblanadi. Detonatsiya – bu yonilg'i aralashmasining nazoratsiz portlashsimon yonish jarayoni bo'lib, u dvigatel qismlarining tez yeyilishiga, quvvatning kamayishiga hamda yonilg'i sarfining ortishiga olib keladi [2].

Detonatsiyaga chidamlilik odatda oktan soni bilan ifodalanadi. Oktan soni qancha yuqori bo'lsa, benzinning siqilish vaqtida o'z-o'zidan alanganish ehtimoli shuncha past bo'ladi [3].

Hozirgi vaqtda AI-92 va AI-95 markali benzinlar eng ko'p qo'llaniladigan yoqilg'i turlari hisoblanadi. Ushbu markadagi benzinlarni ishlab chiqarish uchun neftni qayta ishlash sanoatida katalitik reforming, izomerizatsiya, alkilatsiya kabi murakkab texnologik jarayonlardan foydalaniladi [4]. Biroq ushbu texnologiyalar katta energiya sarfi va murakkab uskunalarni talab qilishi sababli iqtisodiy jihatdan qimmat hisoblanadi.

So'nggi yillarda organik qo'shimchalar yordamida oktan sonini oshirish texnologiyalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa oxygenat qo'shimchalar – etanol va metanol – yuqori oktan soniga egaligi sababli istiqbolli komponentlar sifatida qaralmoqda [5].

Etanol tarkibida kislorod mavjudligi sababli yonilg'ining to'liqroq yonishini ta'minlaydi va chiqindi gazlar tarkibidagi zararli moddalarni kamaytiradi [6]. Shu bilan birga aromatik uglevodorodlar – toluol, benzol va ksilollar – detonatsiyaga qarshilikni oshiruvchi samarali komponentlar hisoblanadi [7].

M-646 erituvchisi tarkibida turli organik erituvchilar va aromatik komponentlar mavjud bo'lib, ular benzinning bug'lanish xususiyatlari va detonatsiyaga chidamliligiga ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Mazkur tadqiqot ishining asosiy maqsadi bazaviy benzin tarkibiga texnik spirt va M-646 erituvchisi asosidagi organik qo'shimchalar kiritish orqali oktan sonini oshirish imkoniyatlarini instrumental tahlil usullari yordamida o'rganishdan iborat.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, unda organik qo'shimchalarning tarkibiy komponentlari GC-MS va IQ spektral usullari yordamida chuqur tahlil qilinib, ularning detonatsiyaga chidamlilikka ta'siri ilmiy asoslangan.

Motor yoqilg'ilarining oktan sonini oshirish bo'yicha ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Jahon amaliyotida yuqori oktanli yoqilg'ilar ishlab chiqarishda oxygenat qo'shimchalardan keng foydalaniladi [8].

Amerika Qo'shma Shtatlari va Yevropa mamlakatlarida bioetanol asosidagi yoqilg'ilar ekologik xavfsiz alternativ yoqilg'i sifatida joriy etilgan [9]. Etanolning oktan soni yuqori bo'lib, u detonatsiyaga chidamlilikni oshiradi.

Metanol ham yuqori oktanli qo'shimcha hisoblanadi. Biroq metanolning korrozion faolligi va suv bilan yuqori aralashuvchanligi uning amaliy qo'llanilishini cheklaydi [10].

Aromatik uglevodorodlar, xususan toluol va ksilollar, yuqori oktanli komponentlar sifatida benzin tarkibida keng qo'llaniladi [11].

GC-MS usuli neft mahsulotlari tarkibini tahlil qilishda eng samarali instrumental usullardan biri hisoblanadi. Ushbu usul yordamida komponentlarning retention time, molecular mass va area % ko'rsatkichlari aniqlanadi [12].

IQ spektroskopiya usuli esa funksional guruhlarini aniqlash va organik moddalar tarkibini tasdiqlashda keng qo'llaniladi [13].

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, organik qo'shimchalar yordamida oktan sonini oshirish istiqbolli yo'nalish hisoblanadi. Biroq texnik spirt va M-646 erituvchisi asosidagi aralashmalar bo'yicha tadqiqotlar yetarli darajada o'rganilmagan.

Tadqiqot obyekti

Tadqiqot obyekti sifatida bazaviy avtomobil benzini va unga qo'shilgan organik qo'shimchalar tanlab olindi.

Ishlatilgan reagentlar

Tadqiqot davomida quyidagi materiallardan foydalanildi:

bazaviy avtomobil benzini;

texnik spirt;

M-646 erituvchisi;
laboratoriya reagentlari.
Asbob-uskunalar

Tadqiqot davomida namunalarning fizik-kimyoviy xossalarini aniqlash uchun zamonaviy instrumental usullardan foydalanildi.

1-jadval.

Tadqiqotda foydalanilgan asbob-uskunalar

№	Jihoz nomi	Vazifasi
1	GC-MS analizatori	Kimyoviy tarkibni aniqlash
2	IQ spektrometri	Funksional guruhlarni aniqlash
3	Laboratoriya mikseri	Namunalarni aralashtirish
4	O'lchov silindrlari	Hajmiy nisbatlarni tayyorlash

GC-MS analizatori yordamida namunalar tarkibidagi organik komponentlar identifikatsiya qilindi. IQ spektrometri orqali esa kislorodli birikmalar va aromatik strukturalar aniqlandi.

Bazaviy benzina turli nisbatlarda texnik spirt va M-646 erituvchisi qo'shildi. Namunalar laboratoriya mikseri yordamida homogen holatga keltirildi.

Hosil bo'lgan aralashmalar instrumental tahlil usullari yordamida tekshirildi.

GC-MS tahlili davomida texnik spirt tarkibida etanolning yuqori miqdorda mavjudligi aniqlandi.

2-jadval.

Texnik spirt tarkibining GC-MS natijalari

Komponent	Area %	Similarity
Ethanol	50.04	86
Ethanol	47.45	78
Methyl alcohol	2.52	97

Natijalarga ko'ra etanol aralashmadagi asosiy oxygenat komponent hisoblanadi.

Metanolning mavjudligi ham detonatsiyaga chidamlilikka ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

M-646 erituvchisi tarkibida aromatik uglevodorodlar mavjudligi aniqlandi.


3-jadval.

Aromatik komponentlarning GC-MS natijalari

Komponent	Area %
Octane	18.12
Toluene	16.82
Xylene	3.82
Trimethylbenzene	1.31

Mazkur komponentlar yuqori oktanli muhit hosil qilishga yordam beradi.

Diagramma 1. Organik komponentlarning ulushi



1-rasm Diagrammadan ko'rinib turibdiki, etanol eng katta ulushni tashkil qilgan.

IQ spektral natijalar, IQ spektral tahlilda: O-H bog'lari; aromatik halqalar; C-H valent tebranishlari aniqlangan.

Bu natijalar organik qo'shimchalarning tarkibida oxygenat va aromatik komponentlar mavjudligini tasdiqlaydi.

Tadqiqot natijalari organik qo'shimchalarning benzinning oktan sonini oshirishda samarali ekanligini ko'rsatdi.

Etanol yuqori oktan soniga egaligi sababli detonatsiyaga qarshilikni oshiradi [14]. Kislorodli struktura esa yonilg'ining to'liqroq yonishini ta'minlaydi.

M-646 tarkibidagi aromatik uglevodorodlar ham detonatsiyaga chidamlilikni oshirishga xizmat qiladi. Ayniqsa toluol va trimetilbenzol yuqori oktanli komponent sifatida muhim ahamiyatga ega [15].

GC-MS natijalarida etanol va aromatik komponentlarning birgalikdagi mavjudligi sinergetik ta'sir hosil qilganligi kuzatildi.

Natijalar AI-92 va AI-95 standartlariga yaqin yoqilg'i kompozitsiyalarini olish imkoniyatini ko'rsatdi.

XULOSA Olib borilgan tadqiqotlar natijasida texnik spirt tarkibidagi etanol va metanol komponentlari benzinning detonatsiyaga chidamliligini oshirishda samarali oxygenat qo'shimchalar ekanligi aniqlandi. Ushbu komponentlarning yuqori oktan soniga egaligi yonilg'ining ekspluatatsion xususiyatlarini yaxshilashga xizmat qilishi kuzatildi.

Tadqiqot davomida M-646 erituvchisi tarkibidagi aromatik uglevodorodlar, xususan toluol va boshqa aromatik komponentlar benzinning detonatsiyaga qarshiligini oshirishda muhim rol o'ynashi eksperimental jihatdan tasdiqlandi.

Gaz xromatografiyasi–massa spektrometriyasi (GC-MS) tahlillari organik qo'shimchalar tarkibidagi asosiy komponentlarni yuqori aniqlikda identifikatsiya qilish imkonini berdi hamda namunalarning kimyoviy tarkibi bo'yicha ishonchli analitik ma'lumotlar olinishini ta'minladi.

Infraqizil (IQ) spektral tahlil natijalari namunalar tarkibida oxygenat va aromatik funksional guruhlar mavjudligini tasdiqlab, GC-MS tahlillaridan olingan natijalarni to'ldirdi va ularning o'zaro mosligini ko'rsatdi.

Texnik spirt va aromatik organik qo'shimchalarning birgalikdagi sinergetik ta'siri natijasida AI-92 va AI-95 standartlariga yaqin fizik-kimyoviy xossalarga ega bo'lgan yoqilg'i kompozitsiyalarini hosil qilish imkoniyati mavjudligi aniqlandi.

Olingan tadqiqot natijalari avtomobil benzinlarining oktan sonini oshirishda organik qo'shimchalardan foydalanish istiqbolli ilmiy-amaliy yo'nalish ekanligini ko'rsatdi hamda yuqori oktanli motor yoqilg'ilarini ishlab chiqarish texnologiyalarini takomillashtirish uchun muhim ilmiy asos yaratdi.

Adabiyotlar

- [1]. Speight J.G. Handbook of Petroleum Product Analysis. Wiley Source
- [2]. Heywood J.B. Internal Combustion Engine Fundamentals. McGraw Hill Source
- [3]. ASTM D2699 – Research Octane Number Standard. [ASTM Standard](#)
- [4]. Gary J.H. Petroleum Refining Technology and Economics. Elsevier Source
- [5]. Ethanol Fuel Research. [U.S. Department of Energy](#)
- [6]. Oxygenated Fuel Additives Review. [MDPI Research](#)
- [7]. Aromatic Hydrocarbons in Fuel Technology. ScienceDirect Source
- [8]. Fuel Additives and Octane Enhancement Technologies. ScienceDirect Fuel Additives
- [9]. Bioethanol in Automotive Fuels. IEA Bioenergy
- [10]. Methanol Fuel Characteristics. Methanol Institute
- [11]. Octane Number and Aromatic Compounds. ScienceDirect Octane Research
- [12]. GC-MS Applications in Petroleum Analysis. [ScienceDirect GC-MS](#)
- [13]. Infrared Spectroscopy in Organic Chemistry. Chem LibreTexts
- [14]. Ethanol as Octane Improver. Energy.gov Research
- [15]. Fuel Chemistry and Aromatic Components. [ACS Publications](#)

УЎК: 633.511:631.4:621.7.019

ЭКОЛОГИК ИҚЛИМ ЎЗГАРИШИ ШАРОИТИДА ҒЎЗА ДЕФОЛИАЦИЯСИНИ САМАРАДОРЛИГИНИ АНИҚЛАШДА ОБ-ҲАВОНИНГ ТАҲЛИЛИ

М.М. Убайдуллаев

“Фарғона давлат техника университети”

E-mail: mubaydullaev6554@gmail.com, тел: 90 274-65-54

(Қабул қилинди 20.04.2026 й.)

Аннотация. Ҳар бир ҳудуднинг табиий иқлим ва тупроқ шароитлари, ғўзани парваришлашда ўтказилаётган агротехник тадбирлар етиштирилаётган ҳомиёнинг миқдорига ва сифатига ўз таъсирини кўрсатади. Айниқса, ғўза дефолиацияси ўтказиладиган далаларда табиий-иқлим шароитларининг ўрни муҳимдир. Ушбу мақолада экологик иқлим ўзгаришининг ҳозирги ҳолати, унинг оқибатлари, Фарғона вилоятининг ўтлоқи соз тупроқлари шароитида С-8290, С-6775, С-9090, Наманган-77 ва Андижон-35 ўрта толали ғўза навларида дефолиация агротадбирини ўтказиш учун об-ҳаво ҳарорати тажриба йиллари кесимида ўрганилган ва ёгингарчилик март ойида ўртача 19,6 мм ни, апрелда 7,2 мм ни, май ойида 17,4 мм ни ва июнь ойида эса 6,3 мм ни ташкил этиб, асосий ёгингарчилик март ойида 19,6 мм бўлганлиги каби илмий асосланган маълумотлар келтирилган.

Калит сўзлар: иқлим ўзгариши, ғўза, ҳарорат, ёгингарчилик, кўрсаткичлар.

1. Кириш. Юртимизда глобал иқлим ўзгариши натижасида кун сайин қуйидаги салбий оқибатларга олиб келмоқда. Жумладан, ҳарорат кўтарилиши натижасида сувнинг буғланиш кўрсаткичининг ошиши айрим ҳудудларда сув ресурслари камайишига, танқислигига таъсир қилмоқда; экологик танглик оқибатида йил давомида умуман ёгингарчилик бўлмаган кунлар сони ортмоқда; тупроқда сизот сув сатҳининг пастлаб кетиши натижасида ҳосилдорлик кўрсаткичлари тушиб кетмоқда; тубдан исиш ва совиш каби беқарор аномал ҳодисаларнинг ўзгариши қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари ва меваларнинг касалланишига ҳамда нобуд бўлишига олиб келмоқда [2].

Бошқа экинлар сингари ғўза ўсимлигининг ҳам ўсиб ривожланишида, бир фазадан иккинчи фазага ўтишида табиий иқлим шароити, яъни ҳаво ҳарорати, намлиги, ёгингарчилик миқдори, эсаётган шамол тезликлари ва бир қатор табиий омиллар муҳим аҳамиятга эга. Чунки, ўсимлик танасида кечадиган ҳар қандай физиологик-биокимёвий жараёнлар, реакциялар маълум ҳарорат, намлик ва ёруғликда содир бўлади. Ҳар бир ҳудуднинг табиий иқлим ва тупроқ шароитлари, ғўзани парваришлашда ўтказилаётган агротехник тадбирлар етиштирилаётган ҳомиёнинг миқдорига ва сифатига ўз таъсирини кўрсатади. Айниқса, ғўза дефолиацияси ўтказиладиган далаларда табиий-иқлим шароитларининг ўрни муҳимдир. Шу муносабат билан тажриба ўтказилган йилларда ҳудуднинг табиий иқлим шароитлари асосий омиллардан бири сифатида аниқлаб борилиши долзарб ҳисобланади [3].

Ўзанинг ривожланиши, баргининг кам ёки кўплиги ва ҳавонинг ҳароратига қараб бир хўжаликда дефолиацияга киришишдан олдин дала шароити ўрганилиб, бу тадбирни табақалаштирилган ҳолда ўтказиш лозим [5].

Ҳарорат қанча баланд бўлса, дефолиантнинг барг ичига кириш қобилияти шунча юқори бўлади. Ишлатилаётган дефолиантлар ҳарорат 17-18 даражадан паст бўлса, яхши таъсир кўрсатмайди [4].

2. Адабиётлар шарҳи. М.Муҳаммаджонов ва А.Зокировларнинг ёзишича дефолиация ўтказишда ҳаво ҳарорати муҳим аҳамият касб этади. Иссиқлик ҳароратининг 18-21 °С атрофида бўлиши мўътадил ҳисобланади. Суткалик ҳарорат 14-15 °С бўлса барглارнинг тўкилиши камаяди, агар ҳарорат 21 °С дан ортиб кетса дефолиант меъёрини 10 фоизга камайтириш керак бўлади [1].

Т.Тўрахўджаев, Н.Арслоновларнинг фикрича, дефолиацияни ўтказишда ғўза навларининг ўзига ҳос хусусиятларини ва атроф муҳитни барча омиллари таъсирини ҳисобга олиш зарур, шундагина дефолиация самарали бўлади [12].

E.J.Jones, G.D.Wills, J.E.Hanks ва A.B.Curry ларнинг аниқлашларича, кўсакнинг тўла етилиб пишишигача бўлган муддат ўсув шароити ва об-ҳаво шароитларига боғлиқ бўлади. Иссиқ ва қуруқ иқлим кўсакларнинг пишишини тезлаштиради, аксинча салқин ва нам иқлим шароитлари кўсаклар пишишини секинлаштиради [6].

J.Logan, C.O.Gwathmey ларнинг таъкидлашларича, қўлланилган дефолиантларнинг таъсири кундузги ва кечки ҳаво ҳароратларига боғлиқ бўлади [7].

К.Насриддинов Андижон вилоятида Бутифос дефолиантини ташқи омилларга боғлиқ ҳолда ғўзага қўллаш меъёрларини аниқлаб, шундай ҳулосага келдики, дефолиациядан олдин тупроқ намлиги 60-70% бўлиши керак, акс ҳолда дефолиация жуда кам самара беради [9].

J.A.Riley нинг айтишича, пахта терими даврида ғўза қатор ораларидаги ҳаво намлигининг ортиши, тола сифатини пасайтиради. Қолаверса бу ердаги ҳавонинг нисбий намлиги асосан ғўзанинг барг сатҳи юзасига боғлиқ бўлиб, барглар тўкилгач бу кўрсаткич камайган [8].

L.G.Thead таъкидлашича, қурғоқчил ҳароратли минтақаларда пахта етиштириувчилар кўпинча ноқулай шароитларда ўсган ғўзани дефолиация қилишда муаммоларга дуч келишади. Тупроқ намлигининг пастлиги ва ҳаво ҳароратининг юқорилиги сабабли ғўза стресс ҳолатга тушади [10].

А.Имомалиев, К.Худойбергановларнинг фикрича ғўзани дефолиация қилишда ҳаво ҳароратини, тупроқ намлигини, шамол тезлиги каби табиий омилларни инобатга олиш зарур ҳисобланади ва шундагина қўлланилган дефолиантлар ўзининг ижобий хусусиятини намоён этади [11].

Дефолиантларни турли об-ҳаво шароитларида ва турли агротадбирларга боғлиқ ҳолда ўрта толали ғўза навларида мақбул меъёр ва муддатларини баҳолаш олиб бораётган изланишларнинг янгилигини ва ечилиши лозим бўлган долзарб муаммо эканлигини кўрсатади.

Демак, юқоридаги олимларнинг олиб борган илмий маълумотларининг шарҳларига қараганда дефолиациянинг самарадорлиги кўпгина агротадбирларга боғлиқлигига гувоҳ бўламиз. Лекин, бу борадаги муаммолар тўлалигича ўрганилмаганлиги, илмий жиҳатдан ҳал қилинмаганлиги, қолаверса кейинги йилларда об-ҳавонинг кескин ўзгариб бориши ёки ҳар бир худуднинг иқлим шароитларига мос янги, ярим юмшоқ таъсир этувчи турли хил хорижий ва маҳаллий дефолиантларнинг яратилиши, ғўзани сунъий баргсизлантириш бўйича илмий изланишларни узулуксиз давом эттиришни тақазо этади.

3. Тадқиқот материаллари ва услуги. Юқоридаги долзарб вазифалардан келиб чиқиб, 2018-2022 йиллар давомида мавзу юзасидан тадқиқотларимиз Фарғона вилоятининг Қува туманида жойлашган Пахта селекцияси, уруғчилиги ва етиштириш агротехнологиялари илмий-тадқиқот институти илмий тажриба станциясининг ўтлоқи соз, механик таркибига кўра оғир кумок, кам шўрланган, сизот сувлари 1,6-1,8 метр чуқурликда жойлашган тупроқ шароитида олиб борилди. Илмий изланишлар Дала ва лабораториядаги илмий изланишлар ПСУЕАТИда қабул қилинган “Методика полевых опытов с хлопчатником” (1981), “Дефолиантларни синаш бўйича услубий кўрсатмалар” (2004) ва “Дала тажрибаларини ўтказиш услублари” (2007) қўлланмалари асосида олиб борилган. Маълумотларга статистик ишлов беришда Б.Доспеховнинг “Методика полевого опыта” (1985) қўлланмасидан фойдаланилган.

Тажриба даласининг тупроқларига агрокимёвий тавсиф беришда тажрибани бошлашдан олдин 0-30 ва 30-50 см қатламлардан тупроқ намуналари олиниб, тупроқдаги умумий чиринди миқдорини аниқлаш учун И.В.Тюрин, умумий азот ва фосфорни аниқлашда И.М.Малцева ва Л.Н.Гритценко услубларидан, нитратли азотни аниқлашда ионометрик асбобдан, ҳаракатчан фосфорни аниқлашда Б.П.Мачигин ва алмашинувчи калийни аниқлашда П.В. Протасов услубларидан фойдаланилган.

Пахта толасининг технологик хусусиятлари "Методы определения свойств хлопковолокна" (1972) услубида аниқланди. Толанинг нави ЛПС-4 дастгоҳида, тола чиқими жиндан чиқариш, 1000 дона чигит вазни лаборатория тарозисида ўлчаш йўли билан аниқланган. Ўсимлик барг сатҳининг юзаси А.Ничипорович (1961) услубига асосан аниқланган.

Дефолиациядан олдин, етти ва ўн тўрт кун ўтгач ҳар бир вариантда ўсимликда қуриган, ярим қуриган, яшил барглар, очилган ва ярим очилган кўсақлар сони ҳисобланди сўнгра олинган маълумотлар фоиз ҳисобида келтирилган.

Чигитнинг мойдорлиги ва ядродаги мой ва чиқим миқдори аниқланган.

Ҳар бир пахта терими олдиан I ва II қайтариқлардан вариантлар буйича 50 донадан кўсақ пахтаси умумий терим ҳисобида териб олиниб, олинган намуналардан бир дона кўсақ

пахта вазни ва пахта толасининг технологик хусусиятлари ҳамда чигит сифати вариантлар бўйича аниқланган.

Ўтказилган барча таҳлиллар «Методы определения свойств хлопка-волокна», (Москва, 1972) услубномаси асосида ва ГОСТ 3274, 0-72, ГОСТ 3274, 5-72, ГОСТ 2182, 0-76 бўйича аниқланди. Толанинг нави ЛПС-4 асбоби ёрдамида, чигитнинг мойдорлиги Соксклет асбобида аниқланган. Олинган ҳосил ва фенологик кузатиш маълумотларига Б.А.Доспеховнинг (1979; 1981) "Методика полевого опыта" қўлланмаси асосида дисперсион таҳлил услубида математик ишлов берилган.

Иқтисодий самарадорлик "Основные положения определения экономической эффективности использования в сельском хозяйстве результатов НИР, новой техники и изобретений, рационализаторский предложений" (1987) қўлланмасида келтирилган услублар бўйича ҳисобланган.

4. Таҳлил ва натижалар. Тадқиқотлар 2018-2022 йиллар мобайнида олиб борилди. Тажриба давомида табиий иқлим шароитлари, яъни ҳаво ҳарорати ва ёгингарчилик миқдори, шамол тезлиги кузатиб борилди. Вилоят ҳудуди Қўқон ва Фарғона агроиқлим туманларига бўлинади. Қўқон агроиқлим туманининг шимолий чегараси Сирдарё бўйлаб, ғарби эса Қайроққум сув омборигача боради. Жанубий чегараси катта Фарғона канали бўйлаб, шарқи Андижон вилояти билан чегарадош. Бу туман юқори термик ҳароратга эгаллиги билан ажралиб туради. Самарали ҳаво ҳароратининг йиллик йиғиндиси 2500-2800 °С га тенг, яъни иссиқ минтақага мансуб. Об-ҳаво шароити 44-46 °С иссиқдан, 16-19 °С совуққачан боради. Бир йилда илиқ кунлар 206-218 га тўғри келади. Бу туман ўзининг ниҳоятда қурғоқгарчилиги билан ажралиб туради. Масалан, ўртача йиллик ёгингарчилик миқдори Ултармада атиги 85 мм ни, Қўқонда 86 мм ни ташкил этади. Туманнинг энг ҳарактерли белгиси, айниқса баҳор ойларида шамолнинг кўплигидир. Қўқон шамоли деган кучли шамоллар баҳорда тез-тез бўлиб туради. Шамолнинг тезлиги ҳатто 35-45 м/сонияни ташкил қилади.

Фарғона вилоятининг Қува туманидаги Фарғона филиалида жойлашган "Федченко" номли метеорологик шахобчасининг маълумотларига кўра тадқиқот ўтказиш йилларида қишлоқ хўжалиги экинларининг ўсиши ва ривожланиши учун ҳаво ҳароратида кескин ўзгариш бўлмади яъни, ўртача мўтадил шароит бўлди.




1-диаграмма. Ҳаво ҳарорати ва ёгингарчилик миқдори, мм.

Олиб борилган йилнинг биринчисида (1-2-тажрибалар) яъни 2018 йилда, ҳаво-ҳарорати январь, февраль ойларида кўп йиллик (-0,2 ва 2,7) дан баланд (3,2 ва 5,6 °С) бўлиб,

ёғин миқдори январь ойида 17,3 мм ни ва февраль ойида 8,4 мм. ни ташкил этди. Шунинг таъкидлаш керакки, баҳор ойлари жуда серёғин келиб, хаттоки июнь ойигача давом этди. Чунончи, ёғингарчилик март ойида ўртача 19,6 мм ни, апрелда 7,2 мм ни, май ойида 17,4 мм ни ва июнь ойида эса 6,3 мм ни ташкил этиб, асосий ёғингарчилик март ойида 19,6 мм бўлди. Шу боисдан ерга чигит қадаш ишлари 15-20 кунга орқага сурилди. Ёз ойларида ҳаво ҳарорати ўртача кўп йилликдан паст бўлмаган ҳолда, 26,6-27,2-26,0 °C ни, куз ойларида эса кўп йилликдан бироз юқори бўлганлиги боис бир оз кеч бўлсада ғўза ниҳоллари яхши ривожланиб энг сўнги агротехник тадбирлардан бири бўлган ғўза дефолиациясини ўтказишга имкон туғилди.

2019-йилнинг январь ва февраль ойларида ҳаво-ҳарорати кўп йилликдан баландроқ бўлиб ўртача 1,8-4,3 °C ни ташкил этди. Ушбу йили ёғингарчилик бошқа йилларга нисбатан кўп бўлиб январь ва февраль ойларида 25,2 ва 16,6 мм ни ташкил этганлиги кузатилган ган бўлса, март ва апрель ойларида ёғингарчилик миқдори бироз камайган ҳолда 13,0-21,2 мм ни ташкил этди. Ҳаво ҳарорати март ва апрель ойларида 12,3-16,8 °C ни ташкил этиб, кўп йилликга ва 2018-йилга нисбатан бироз юқорироқ бўлганлиги учун чигитни ўз вақтида экиб олиш имконини берди.

Ҳаво ҳарорати 2020 йилда чигит экиш учун жуда қулай келиб апрель ойининг иккинчи ва учинчи декадаларида 15,4-21,2 °C ни ташкил этган ҳолда олдинги йилларга нисбатан бироз юқорироқ бўлганлиги ва ёғингарчилик ҳам апрель ойининг иккинчи декадасида бир оз кўп миқдорда бўлиб 26,2 мм ни, апрель ойининг учинчи декадасида ёғингарчилик оз яъни 3,3 мм ни ташкил этган билан ажралиб турди.



2-диаграмма. Об-ҳавонинг ҳарорат кўрсаткичлари.

Таъкидлаш жоизки, бу (2020) йили ҳар уччала дала тажрибаларида чигитлар 27-апрел куни экилиб, тўла ниҳоллар ундириб олинган. демак, иқлимни қулай келганлигидан далолат беради. 2021-йилнинг баҳорида ўртача ойлик ҳаво ҳарорати (мартда) 12,6 °C ни ташкил этган ҳолда кўп йилликдан 3,3 °C га юқори бўлган ҳолда апрелда бу кўрсаткичлар мутаносиб равишда 5,9 °C – 0,3 °C ни ташкил этганлиги кузатилган. Бу йилнинг шароитида чигит 11-апрелда экилиб, 19-апрелда 59 % ниҳоллар униб чиққанлиги аниқланган (3-тажриба). Тадқиқотларнинг охириги (2022) йилида март ойида ўртача ҳаво ҳарорати 12,5 °C га тенг бўлиб, 1,1 °C юқори бўлганлиги кузатилган. Ёғингарчилик эса апрелда 7,6 мм ни ташкил этган ҳолда кўп йилликдан 14,7 мм га кам бўлган, натижада чигит суви беришга тўғри келган. Сентябрь, октябрь ойларида ҳаво ҳарорати ўртача 20 ва 15,7 °C ни ташкил этиб, кўп йилликдан мутаносиб равишда 0,2 °C га ва 2,1 °C га юқори бўлганлиги пахта ҳосилини ўз муддатларида йиғиб – териб олишга шароит яратган.

1-жадвал

Об-ҳаво шароитлари тўғрисида маълумот, 2018-2022 йй.

(Фарғона вилояти Қува туманидаги ПСУАБИТИ нинг “Федченко” номли агрометеорология станцияси маълумоти)

Ойлар	Январь			Февраль			Март			Апрель			Май			Июнь								
Ҳаво ҳарорати, °C																								
Йиллар	I	II	III	Ўр	I	II	III	Ўр	I	II	III	Ўр	I	II	III	Ўр	I	II	III	Ўр				
2018	3,6	3,0	2,9	3,2	3,3	2,0	11,5	5,6	14,7	10,9	15,5	13,7	13,9	17,7	18,9	16,8	22,2	19,9	23,0	21,7	26,9	27,0	25,8	26,6
2019	1,3	2,0	2,0	1,8	3,6	5,4	3,9	4,3	9,7	13,0	14,2	12,3	17,6	18,0	14,9	16,8	20,5	22,7	22,5	21,9	22,6	24,2	26,7	24,5
2020	1,6	1,0	1,5	1,4	4,5	4,0	7,8	5,4	8,4	13,1	14,6	12,0	14,2	15,4	21,2	16,9	20,8	20,5	26,1	22,5	26,0	25,7	25,2	25,8
2021	1,7	1,9	2,6	2,0	3,4	2,5	8,1	4,6	12,1	11,2	14,6	12,6	14,0	17,8	16,1	15,9	20,8	18,9	23,1	20,9	27,0	26,8	26,4	26,9
2022	1,5	1,0	1,2	1,2	3,5	4,1	6,9	6,5	9,3	13,1	15,1	12,5	16,1	16,1	19,8	17,3	20,5	21,2	22,8	21,5	23,5	25,6	26,5	25,2
Қўп йиллик	0,0	-0,4	-0,1	-0,2	1,7	2,3	4,2	2,7	7,2	8,8	11,8	9,3	13,5	16,5	18,5	16,2	19,4	21,2	22,5	21,0	24,3	25,8	27,1	25,7
Ёғингарчилик маълумоти, мм																								
2018	7,1	4,6	5,6	17,3	8,4	-	-	8,4	0,0	16,0	3,6	19,6	6,4	0,0	0,8	7,2	6,2	7,0	4,2	17,4	0,0	3,3	3,0	6,3
2019	9,1	11,3	4,8	25,2	4,8	11,2	0,6	16,6	5,1	6,1	8,8	13,0	9,3	3,1	8,8	21,2	0,0	0,3	4,8	5,1	9,4	1,9	0,0	11,3
2020	4,5	8,1	3,6	16,2	-	34,0	12,9	46,9	9,4	-	2,1	11,5	5,0	26,5	3,3	34,5	4,0	4,5	0,0	8,5	2,4	0,0	0,0	2,4
2021	8,1	7,8	4,6	20,5	4,8	10,5	1,8	17,1	8,1	-	3,1	11,2	4,8	0,5	0,7	6,0	6,0	7,0	4,2	17,2	0,0	1,0	0,0	1,0
2022	5,6	5,9	3,7	15,2	3,7	32,4	13,0	49,1	7,6	5,1	6,1	18,8	5,1	1,1	1,4	7,6	0,5	0,4	4,6	5,0	8,1	3,9	0,0	12,0
Қўп йиллик	7,5	8,3	7,8	23,6	8,2	12,0	5,2	25,4	8,1	9,8	19,4	28,3	6,9	8,8	6,7	22,4	8,2	7,5	8,5	24,2	4,4	2,2	3,0	9,6

5. Хулоса ва таклифлар.

1. Умуман олганда, тадқиқот ўтказилган йилларда (2018-2022) ғўзанинг ўсиб ривожланиши учун об-ҳавонинг қулай табиий шароитда бўлганлиги, яъни ҳавонинг ҳарорати ва самарали ҳарорат йиғиндиси етарли бўлганлиги қайд этилди. Қолаверса, дефолиация даврида ёғингарчиликлар бўлмаганлиги ҳамда ҳавонинг ўртача ҳарорати 22 °С дан юқори бўлганлиги ҳам қўлланилган дефолиантлар учун қулай иқлим бўлиб, дала тажрибаларини услубий жиҳатдан тўғри ўтказилишига асос бўлган.

2. Ғўза навларининг ўсиши ва ривожланиши об-ҳавонинг мўтадил бўлганлиги қараб уларнинг биологик хусусиятларига боғлиқ ҳолда ниҳолларни униб чиқиш даражасининг давоми бўлиб ҳисобланади. С-8290 ғўза навининг амал даври охирида бош поянинг баландлиги 93,4 см, ҳосил шохлари сони 13,6 донани, кўсақлар сони 13,9 донани, шу жумладан очилганлари 34,6 %, ярим очилганлари эса 2,9 % га тенгбўлган ҳолда нисбатан юқори кўрсаткичлар С-9090 навида олинган ва С-8290 навидан мутаносиб равишда 1,8 см, 0,2; 0,1 дона ва 5,8; 1 юқори, кўсақлар сони Наманган-77 навиникидан 0,8 дона, очилганлари 7,0 % га, ярим очилганлари 0,5 % га, қолаверса Андижон-35 навиникидан 1,1 донага ва 7,3; 1,8 % га, С-6775 навиникидан эса 1,1 дона ва 6,9; 2,9 % га ортиқча бўлганлиги аниқланган.

3. Ғўза навларининг қуруқ масса тўплаши аввало йилнинг об-ҳаво иқлим шароитларига қолаверса уларнинг биологик хусусиятларига боғлиқ бўлиб, С-8290, Наманган-77, С-9090, Андижон-35 ва С-6775 ғўза навларининг пишиш давридаги пахта вазнлари мутаносиб равишда 48,4; 47,9; 49,7; 48,0 ва 46,8 г ни, 1 ўсимликнинг қуруқ массаси эса 140,6; 139,9; 143,5; 141,5 ва 136,5 г ни ташкил этган ҳолда нисбатан юқори кўрсаткичлар С-9090 навида кузатилиб, пахта вазни С-8290 навиникидан 1,3 г, Наманган-77 никидан 2,0 г, Андижон-35 навиникидан 1,7 г ва 2,9 г га ҳамда 1 ўсимликнинг вазни 2,9; 3,6; 2,0 ва 7,0 г га ортиқча бўлганлиги кузатишган.

4. Дефолиантларнинг самарадорлиги об-ҳаво ҳароратининг турли омилларига ва ғўза навларининг барг сатҳи юзасига ҳам боғлиқлиги, лекин пахта ҳосили ва унинг сифати барг сатҳи юзасига тўғри пропорционал эмаслиги кузатишган. Ғўза навларининг барг сатҳи юзаси гуллаш давридан бошлаб пишиши кузатилиб, нисбатан мақбул кўрсаткичлар С-9090 ғўза навида олинган ва пишиш даврида 28864,4 м²/га ни ташкил этган ҳолда С-8290 навиникидан 1269,0 м²/га ортиқча, аммо Наманган-77 навиникидан 673,7 м²/га, Андижон-35 дан 1009,8 м²/га ва С-6775 навиникидан 873,2 м²/га камроқ эканлиги аниқланган.

Адабиётлар

- [1]. Мухаммаджонов М., Зокиров А. Ғўза агротехникаси. –Тошкент: Мехнат, 1995. –Б. 334-338.
<https://kun.uz/uz/news/2021/08/12/iqlim-ozgarishi-va-insoniyat-global-isish-natijasida-yuzaga-kelishi-mumkin-bolgan-tahdidlar>
- [2]. Тешаев, Ф. Ж., & Убайдуллаев, М. М. (2020). Определение эффективных норм новых дефолиантов в условиях лугово-солончаковых почв Ферганской области при раскрытии коробочек 50-60% сортов хлопчатника С-8290 и С-6775. Актуальные проблемы современной науки, (5), 62-64.
- [3]. Имомалиев А.И., Худойбергенов К. Мухим агротехника усуллари // Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги-Тошкент, 1980.№8.-Б.16.
- [4]. Назаров Р. Ғўза баргини сунъий тўктириш // Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги-Тошкент, 2004, .№8.-Б.11.
- [5]. Jones E.J., Wills G.D., Hanks J.E and A.B.Curry.Effect of adjuvants, nitrogen salts and ethephon on cotton defoliant, pp. 603-605. In Proceedings Beltwide Cotton Conference, Orlando, Fla., Jan.3-7, 1999.
- [6]. Logan J., Gwathmey C.O. Effects of weather on cotton responses to harvest-aid chemicals.Journal of Cotton Science 2002.6:1-12.
- [7]. Riley J.A. Monthly wather Rev.no 1985.-pp.89.
- [8]. Насриддинов К. Мухим тадбир // Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги-Тошкент, 1977,. №8.-Б.50.
- [9]. [Thead L.G.Flair boll opener (endothall), results from 1995-96 experimental use permit trails in southeastern United States.pp.1370-1371.In Proceedings Beltwide Cotton Conference, New Orleans, La.,Jan.6-10,1997.
- [10]. Имомалиев А., Худойбергенов К. Мухим агротехника усуллари // Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги-Тошкент, 1980, .№8.-Б.16.
- [11]. Тўраходжаев Т., Арслонов Н.Дефолиация ва ҳосил // Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги-Тошкент, 1985, .№8.-Б.18.

ДИЗЕЛ ЁҚИЛҒИЛАРИНИ ҚЎШИМЧАЛАР ЁРДАМИДА МОДИФИКАЦИЯЛАШ

У.Х. Содиков¹, С.М. Туробжанов², Х.И. Кадиров³.

¹Фаргона давлат техника университети

²Ислом Каримов номидаги Тошкент давлат техника университети

³Тошкент кимё-технология институти

usmonjonsodikov89@gmail.com

(Қабул қилинди 20.04.2026 й.)

Аннотация. Мақолада дизел ёқилғини сифатини ва хусусиятини кутариш учун унга бир нечта керакли моддалар қушилади, шу туғирисида мақалада ўтқазилган тадқиқотлар келтирилган. Бугунги кунга келиб, қўшимчалар ёқилғи ишлаб чиқариш ва улардан фойдаланиш техник кўрсаткичларнинг зарур элементи ҳисобланади. Дизел ёқилғиси учун цетан сонини оширувчи қўшимчалар. Ҳозирги вақтда дизел ёқилғиси кўпчилик нефтни қайта ишлаш заводларида нефт аралаш малари ёрдамида ишлаб чиқарилади. Дизел ёқилғиси нефтнинг бирламчи қайта ишлаш орқали олинади. Унинг таркибий қисмларида параффин, нафтен, ароматик углеводородлар бўлиб, уларнинг цетан сони 45-47га тенг. Шу муносабат билан Россиянинг бир қатор нефтни қайта ишлаш заводларида ишлаб чиқарилган дизел ёқилғисининг цетан миқдори таҳлил қилинди.

Калит сузлар. Дизел, модда, қушимча, нефт, қайта ишлаш, заводлар, қурилма, расмлар, жадваллар, атотраспорт, нормалар, ёқилғи.

Кириш. Автотранспорт саноатининг ривожланиши ва автомобил двигателларининг ишлаши учун экологик талабларнинг кучайиши билан замонавий дизел ёқилғисини ишлаб чиқариш турли хил функционал мақсадлар учун қўшимчалардан фойдаланмасдан амалда ошириб бўлмайди. Бугунги кунга келиб, қўшимчалар ёқилғи ишлаб чиқариш ва улардан фойдаланиш техник кўрсаткичларнинг зарур элементи ҳисобланади [1-13]. Қўшимчаларнинг янги глобал ассортименти ишлаб чиқариш, вазифасига кўра бир биридан фарқ қилувчи бир неча ўнлаб турларни ва ўн минглаб савдо брендларини ўз ичига олади.

Асосан, қўшимчалар баъзи кимёвий моддалар ёрдамида дизел ёқилғисининг хусусиятларини ўзгартиради. Анъанавий равишда қўшимчаларни икки турга бўлиш мумкин:

- дизел ёқилғиси сифатини стандартлар талабларига мувофиқлаштириш учун фойдаланилади. Буларга куйинишга қарши, цетан сонини оширувчи ва депрессант-дисперсант қўшимчалар киради;

-ёқилғининг ёниш жараёнидаги хусусиятларини спецификация талабларидан ташқари яхшилаш ва ёқилғига ўзига хос сифат кўрсаткичларига таъсир доирасини бериш.

Энг кенг тарқалган қўшимчалар гуруҳлари ва уларнинг дизел ёқилғиларида тавсия этилган таркиби 1-расмда кўрсатилган.

Цетан сонини оширувчи, куйинишга қарши ва депрессант-дисперсант қўшимчалар бугунги кунда энг кўп тарқатилди.

Сўнгги пайтларда таркибида олтингугурт миқдори паст бўлган дизел ёқилғиси ишлаб чиқарилмоқда, бу уларнинг мойланишининг ёмонлашишига олиб келади, бу эса ёқилғи ускуналарининг хизмат қилиш муддатига таъсир қилади [1-13].

Юқори босимли ёқилғи насосларининг ишлаши учун хос бўлган чегара ишқаланиш режимида ишқаланиш юзаларида сўрилган ва трибо-кимёвий реакцияларда иштирок этадиган сирт фаол органосульфур бирикмалари муҳим рол ўйнайди, химоя плёнкасини ҳосил қилади.

Ёқилғи таркибига цетанни сонини оширувчи ва сусайтирувчи маълум қўшимчаларнинг киритилиши куйинишга қарши хусусиятларнинг ёмонлашишига олиб келиши мумкин, бу эса двигател қисмларининг ишдан чиқишини тезлаштиради.

Ушбу камчиликларни бартараф этишнинг энг кенг тарқалган усули - куйинишга қарши қўшимчалардан фойдаланиш.



1-расм. Дизел ёқилғиси қўшимчаларининг таснифи.

Яқин вақтгача Россиянинг қўшимчалардан фойдаланиш ёқилғилар ишлаб чиқариш саноатида асосан Слариант, Инфинеум, Лубризол, БАСФ ва бошқалар каби хорижий ишлаб чиқарувчилар томонидан олиб келинар эди. Фақат 2003 йилдан кейин қўшимчаларни маҳаллийлаштиришга катта эътибор қаратила бошлади. 1-жадвалда маҳаллий ишлаб чиқарувчилар томонидан бир нечта қўшимчаларнинг номлари келтирилган [1-13].

1-жадвал

Россияда ишлаб чиқарилган қўшимчаларнинг номлари

№ п/п	Қўшимча номи	Ишлаб чиқарувчи
2	Альта	ОАО «ВНИИ НП»
3	Миксент-2030	ОАО «Алтайский центр прикладной химии»
4	Каскад-5	ООО «Пластнефтехим»
5	Байкат	ОАО «ВНИИ НП», ОАО «АЗКиОС»
6	Комплексол-Эко-Д	ООО «Новокуйбышевский завод масел и присадок»

2-жадвалда Евро дизел ёқилғиларида фойдаланиш учун тасдиқланган куйинишга қарши қўшимчалар рўйхати келтирилган.

2-жадвал

Евро дизел ёқилғиларида фойдаланиш учун тасдиқланган куйинишга қаршиқўшимчалар рўйхати.

Қўшимча номи	Ишлаб чиқарувчи	НҚИЗ сони
Додилубе 4940	Слариант	19
Керокорр ЛА 99С	БАСФ	9
HiTech 4140А	Афгон	6
LZ 539 М	Лубризол	5
РС-32	Тотал	2
Инфинеум Р 690	Инфинеум	1
OLI-550	Инносес Инс.	1
Байкат	ОАО «Ангарский завод катализаторов и органического синтеза»	5
Комплексол-Эко-Д	ООО «Новокуйбышевский завод масел и присадок»	4

2-жадвалдан кўриниб турибдики, Евро дизел ёқилғисини ишлаб чиқариш учун асосан хорижий ишлаб чиқарувчиларнинг куйинишга қарши қўшимчалари қўлланилади.

Экспериментал тадқиқотлар. Дизел ёқилғиси учун цетан сонини оширувчи қўшимчалар. Ҳозирги вақтда дизел ёқилғиси кўпчилик нефтни қайта ишлаш заводларида нефт аралаш малари ёрдамида ишлаб чиқарилади. Дизел ёқилғиси нефтнинг бирламчи қайта ишлаш орқали олинади. Унинг таркибий қисмларида парафин, нафтен, ароматик углеводородлар бўлиб, уларнинг цетан сони 45-47га тенг. Шу муносабат билан Россиянинг бир қатор нефтни қайта ишлаш заводларида ишлаб чиқарилган дизел ёқилғисининг цетан миқдори таҳлил қилинди.

3-жадвалда Россия Федерациясининг бир қатор нефтни қайта ишлаш заводларида ишлаб чиқариладиган дизел ёқилғиларининг цетан сонлари кўрсатилган [14-28].

3-жадвал

Россия Федерациясининг айрим нефтни қайта ишлаш заводларининг дизел ёқилғиларининг цетан сонининг қийматлари

Ишлаб чиқарувчи	Цетан сони
ОАО «Уфимский НПЗ»	50
ОАО «Куйбышевский НПЗ»	50
ОАО «Новокуйбышевский НПЗ»	48
ЗАО «Рязанская НПК»	48
ОАО «Орскнефтеоргсинтез»	48

3-жадвалдан кўрсатиб ўтилганидек, ҳозирги вақтда нефтни қайта ишлаш заводлари томонидан ишлаб чиқарилаётган дизел ёқилғиларининг цетан сонининг қийматлари Европа стандарти EN590 талабларига жавоб бермайди, унга кўра цетан сонининг қиймати 51,0 бирликдан кам бўлмаслиги керак.

Жадвалда келтирилган нефтни қайта ишлаш заводларининг цетан сонини қийматлари "тақчиллиги" ўртача 2-3 бирликни ташкил қилади. Цетан сонини 2 бирликка ошириш учун 0,1% оғирликдаги қўшимчани ёқилғига аралаштириш орқали эришиш мумкин. Бундан келиб чиққан ҳолда, 2018 йилда дизел ёқилғисига бўлган эҳтиёж йилига 42 минг тоннани ташкил қилади. Россияда тадқиқот натижасида ўзлаштирилган қўшимчаларни ишлаб чиқариш учун зарур технологиялар мавжуд.

Тадқиқот натижалари.Тажрибаларда шафтоли данаги мойи асосида цетан сонини ошириш ва куйинишга, тутунга қарши қўшимчани олиш масаласини ҳал қилиш жараёнида хом ашё турлари, кам миқдорда нитрат ва сульфат кислоталарнинг нисбати ва концентрацияси, реакция вақти ва жараён ҳарорати, маълумотлар келтирилган. Экспериментал синов мисоли сифатида куйида этил спиртининг ишлаб чиқариш қолдиқлари бошланғич-қайнаш ҳарорати 95°C фракциясига асосланган куйиниш қарши қўшимча олинади.


Қўшимчанинг синтези куйидагича амалга оширилди: дастлаб 80 дан 100°C гача бўлган ҳарорат оралиғида аралаштиргичда бензол ва сульфат кислота ўзаро таъсирлаштириб сульфонат олинади ва иситиш ҳаммоми билан жиҳозланган реакторга 1,6 г эфир юкланди. Реакция жараёнида оксидланиш жараёнларини ингибирловчи калций гидрооксид жараёнини барқарорлаштириш учун ишлатилган.

Кейин доимий иситиш ва аралаштириш билан сульфатлаш аралашмаси 4-5 мл/мин тезликда 35,0 мл миқдорида 7-9 дақиқа давомида дозаланди. Сульфатлар аралашмаси 15,0 мл сульфат кислотани 58,8% концентрацияси билан аралаштириш йўли билан олинган ва концентрацияси 20,0% бўлган 93,3 мл сульфат кислота ишлатилади.

Жараён ҳарорати 80 дан 100°C гача бўлган оралиқда сақланган сульфатловчи аралашмани реакторга дозалашдан сўнг, хом ашё бошланғич қайнаш ҳароратда 95°C нинг бир қисми этил спирти ишлаб чиқаришнинг қолдиқлари 4-5 мл/дақ миқдорида 26,0 мл миқдорида аста-секин дозаланади.

Сульфатловчи аралашмада сульфат кислотанинг ортикча миқдори нитрат кислотанинг барча молекулаларини эфирлаш жараёнида асосий элемент бўлган нитрат ионининг муҳим миқдорини ҳосил қилиш билан диссоциацияланишига имкон беради. Хом ашёнинг нитрат ва сульфат кислоталарга нисбати 1:0,08:0,8 ни ташкил қилади [14-28].

1-расмда кўндирма синтези учун лаборатория қурилмаси курсатилган.



1-расм - Кўндирма синтези учун лаборатория қурилмаси. 1-аралаштиргич; 2 - уч бўйинли конуссимон колба; 3 – хом ашё бюреткаси; 4 - термометр; 5 - совутиш ваннаси.

Хом ашёни дозалашнинг танланган режими билан ҳароратнинг бироз ошиши кузатилди, хом ашёни киритиш пайтида ҳарорат 9°C дан ошмайди.

Маълумки, сульфатлаш жараёнига таъсир этувчи омиллардан бири бу амалга ошириш вақтидир. Кўпгина ҳолларда, бу вақт реакция кинетикаси билан эмас, балки реакция массасидан иссиқликни олиб ташлашнинг мумкин бўлган тезлиги билан чегараланади. Натижада, иссиқлик узатишнинг кучайиши жараённинг вақтини сезиларли даражада қисқартириши мумкин. Бизнинг тадқиқотларимизда, қайнаш ҳарорати 195°C фракциясининг барча миқдори киритилгандан сўнг, сульфрлаш, реакция аралашмасини 1,0-1,5 соат давомида интенсив аралаштириш билан амалга оширилди, бу 2,0-2,5 соатни талаб қилди. Бунинг сабаби, бутун жараён давомида паст ҳарорат 0 дан 8°C гача бўлган ораликда сақланган. Интенсив аралаштиришдан сўнг ҳосил бўлган маҳсулот чўктирилди ва иккита суяқ қатлам ҳосил бўлиши кузатилди, юқори қатлам оч сариқ рангли органик суяқлик, пастки қисми эса сарфланган кислоталар аралашмаси эди. Кейинчалик, пастки қатлам 10% оғирликдан фойдаланган ҳолда зарарсизлантирилди. Нейтрал муҳит олинмагунча қўшилган гидроксиди ($\text{Ca}(\text{OH})_2$) нинг сувли эритмасидан фойдаланилади. Кейинчалик, олинган нейтралланган туз қатлами реакцияга киришмаган кислоталардан юқори органик қатламни уч марта ювиш учун ишлатилган (лакмус қоғозида органик юқори қатлам билан алоқа қилган кислотали муҳит кўрсатилган). Биринчи ювиш пайтида юқори қатламга 10 мл миқдорида ювиш суяқлиги қўшилди, сўнг 15 дақиқа давомида интенсив аралаштириш амалга оширилди, шундан сўнг ҳосил бўлган маҳсулот чўктирилиб, икки қатламга ажратилади: юқори органик қатлам, пастки қатлам кислоталар сарфланган. Биринчи ювиш тартибига ўхшаб, иккинчи ювиш ҳам амалга оширилди. Ювишнинг учинчи босқичида иккинчи ювишдан кейин юқори органик қатламга 10 мл нейтрал пастки қатлам ва 4 мл 10% оғирликда ($\text{Ba}(\text{OH})_2$) гидроксидининг сувли эритмаси қўшилади, кейин интенсив аралаштириш амалга оширилади қўшимчага ва реакцияга киришмаган қолдиққа ажратилади.

Тадқиқот натижалари. Ушбу тажриба жараёнида тутинга қарши ва цетан сонини ошириш учун қўшимча сифатида хизмат қилиши мумкин бўлган 21 мл маҳсулот олинди.

Шундай қилиб, кўриб чиқилган тажрибада хомашё конвертацияси 88% ни ташкил этди. Ишлаб чиқилган қўшимчанинг компонент таркиби 4-жадвалда кўрсатилган.

4-жадвал


Куйиниш ва Тутунга қарши қўшимчанинг компонент таркиби

Компонентнинг номланиши	Таркиб, %.
1	2
кетонлар:	13,57
- 2-метил-гексанон-3	2,43
- гептанон-4	2,66
- гептанон-3	8,48
спиртлар:	2,97
- 3-метилоктанол-3	2,97
сульфоспиртлар:	4,60
- 2-нитрооктанол-1	1,90
- 2-нитро-2-этилпропандиол-1,3	2,70
азот кислотаси эфирлари:	18,28
- 2-метилпропилнитрат	8,02
- бутилнитрат	10,26
мураккаб эфирлар:	22,37
- бутилбутионат	11,38
-2-этилгексилбутионат	4,25
-2-гидрокси-1-пропилстеанат	3,48
-2-этилгексанол-1-3-флорацетат	3,26
алкилнитратлар:	3,05
- 2-этилгексилнитрат	1,90
-1-нитрогексан	2,15
алканлар:	15,04
- 2,3,5-триметилгептан	15,04
қўшимча компонентлар:	7,12
Реакцияга киришмаган компонентлар:	12,00
- 2-пропилпентанол-1	9,80
- 1,1-дибутоксидбутан	2,20
Жами:	100,00

Ушбу бирикмаларнинг мавжудлиги, бизнинг фикримизча, ишлаб чиқилган қўшимчани киритиш билан дизель ёқилғиларининг тутун ҳосил қилувчи бирикмаларнинг миқдорини камайишига олиб келади.

Тадқиқот ишида синтез қилинган цетан сони кўтарувчи ва тутунга қарши қўшимчалар айрим физик-кимёвий сифат кўрсаткичлари аниқланди, хусусан, қуйидаги натижаларга эришилди: қўшимчанинг зичлиги 20°C да 840 дан -860 кг/м³ гача, кинематик қовушқоқлик 2,10 дан 3,07 мм²/с гача эканлиги, чақнаш ҳарорати, 77°C дан юқори ҳароратда ёпиқ тигельда аниқланди. Бундан ташқари, ишлаб чиқилган қўшимчанинг ИҚ спектроскопия таҳлили ўтказилди, натижалари 2-расмда келтирилган.

Маълумки, тутунга қарши ва цетан сонини оширувчи қўндирманинг ИҚ спектрида О-SO₂ гуруҳларига тўғри келадиган 1260 ва 1615 см⁻¹ да интенсив ютилиш зоналари мавжуд. 3.2.2-расмда ишлаб чиқилган қўндирманинг ИҚ спектрида 1200 ва 1600 см⁻¹ оралиғида аниқ интенсив ютилиш зоналари кўрсатилганлиги кўришимиз мумкин. Бу эса ишлаб чиқилган қўндирмада О-NO₂ гуруҳлари мавжудлигини ва шунга мос равишда унинг цетан сонини оширувчи хусусиятларини мавжудлигини кўрсатади.



2-расм. Дизел ёқилғиси учун олинган куйиниш ва тутун қарши қарши қўшимчанинг ИҚ –спектри.

Шундай қилиб, лаборатория тадқиқотлари натижасида этил спиртларини ишлаб чиқаришда дистиллаш қолдиғининг бошланғич қайнашда 95°C фракциясини нитратлаш асосида дизель ёқилғиси учун тутунга қарши қўшимчани синтез қилишнинг фундаментал имкониятлари кўрсатилди. Этил спиртларини ишлаб чиқаришда дистиллаш қолдиғининг бошланғич қайнашда 95°C фракцияси асосида қўшимчаларни синтез қилиш учун юқорида

тавсифланган шароитларда, унинг физик-кимёвий хусусиятларини қўшимча ўрганиш ва унинг цетан сонини ошириш учун дизель ёқилғисидаги қўшимчанинг зарур дозасини аниқлаш учун қўшимчанинг тажриба намуналари олинди.

Yana bir cheklov shundaki, raqamli texnologiyalarni noto'g'ri tashkil etish fanni faqat texnik buyruqlar majmuasiga aylantirishi mumkin. Shu bois metodikada chizmachilikning nazariy asoslari, geometrik tahlil, grafik standartlar va kasbiy loyiha faoliyati birgalikda olib borilishi shart.

NATIJARLAR VA MUHOKAMA

1. Raqamli texnologiyalarning falsafiy-madaniy va didaktik tahlili

Muhandislik kompyuter grafikasi inson tafakkuridagi geometrik tasavvurni raqamli shaklda ifodalash vositasidir. An'anaviy chizma madaniyati asrlar davomida texnik fikrni vizual ifodalashning asosiy shakli bo'lib kelgan bo'lsa, bugungi kunda raqamli texnologiyalar ushbu jarayonni interaktiv, qayta ishlanadigan va ko'p formatli ko'rinishga olib chiqdi. Bu holat grafik ta'limning mazmunini kengaytirib, uni faqat chizma bajarish emas, balki raqamli loyihalash madaniyati sifatida talqin qilishga asos yaratadi [3].

Didaktik jihatdan raqamli texnologiyalar ko'rgazmalilik, faollik, izchillik, amaliy yo'naltirilganlik va individuallashtirish tamoyillarini kuchaytiradi. Talaba obyektini bir vaqtning

o'zida chizma, model, kesim, o'lcham va vizual taqdimot shaklida ko'ra oladi. Bu esa murakkab fazoviy munosabatlarni tushunishni yengillashtiradi, xatoni tez aniqlash va tuzatish imkonini beradi [7].

2. Muhandislik grafikasi ta'limida raqamli texnologiyalarning o'rni

Tadqiqot natijalari raqamli texnologiyalarning muhandislik grafikasi ta'limida uch asosiy vazifani bajarishini ko'rsatdi. Birinchi vazifa — o'quv-bilish jarayonini faollashtirish. Dasturiy muhitda chizmani bajarish talabaniing diqqatini faqat chiziqli chizishga emas, balki obyekt tuzilishini tushunishga, o'lchamlar orasidagi bog'liqlikni aniqlashga va konstruktiv mantiqni anglashga yo'naltiradi.

Ikkinchi vazifa — kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish. CAD dasturlari orqali talaba real ishlab chiqarish, arxitektura yoki dizayn jarayonlarida qo'llaniladigan grafik hujjatlar bilan ishlashni o'rganadi. Uchinchi vazifa — mustaqil ta'limni kuchaytirish. Elektron topshiriqlar, videodarslar va onlayn nazorat vositalari talabaniing darsdan tashqari faoliyatini tizimlashtiradi [8].

3. O'zbekistonda muhandislik kompyuter grafikasi ta'limining rivojlanish bosqichlari

O'zbekistonda muhandislik grafikasi ta'limi dastlab an'anaviy chizmachilik, chizma geometriya va texnik rasm asosida shakllandi. Keyingi bosqichda kompyuter texnologiyalarining ta'limga kirib kelishi natijasida grafik fanlar mazmuniga CAD dasturlari kiritila boshlandi. Dastlab bu jarayon kompyuterda oddiy 2D chizma bajarish bilan cheklangan bo'lsa, hozirgi davrda 3D modellashtirish, parametrik loyihalash, elektron portfoliolar va virtual taqdimotlar bilan boyimoqda.

Hozirgi bosqichda muhandislik kompyuter grafikasi fani bo'lajak o'qituvchi, dizayner, muhandis va texnologlar uchun kasbiy tayyorgarlikning muhim komponentiga aylandi. Ayniqsa, tasviriy san'at va muhandislik grafikasi yo'nalishlarida bu fan pedagogik mahorat, grafik madaniyat va raqamli kompetensiyani birlashtiruvchi integrativ maydon vazifasini bajaradi.

4. Jamoatchilik va kasbiy ongga ta'sir mexanizmlari

Raqamli grafik texnologiyalar nafaqat ta'lim jarayoniga, balki jamiyatdagi vizual savodxonlik va loyihaviy fikrlash madaniyatiga ham ta'sir ko'rsatadi. Bugungi shaharsozlik, dizayn, qurilish va ishlab chiqarish loyihalari avvalo raqamli chizmalar, 3D modellar va vizual taqdimotlar orqali muhokama qilinadi. Shu ma'noda muhandislik kompyuter grafikasi jamiyatda texnik axborotni tushunish, baholash va izohlash madaniyatini shakllantiradi.

Kasbiy ongga ta'sir mexanizmi esa chizma va modelni universal muloqot vositasi sifatida anglash bilan bog'liq. Talaba raqamli grafik hujjat orqali o'z fikrini aniq, ixcham va standartlarga mos tarzda ifoda etadi. Bu jarayon uning mas'uliyatini, texnik madaniyatini va kasbiy kommunikatsiya qobiliyatini oshiradi [4].

5. Xalqaro tajriba bilan taqqoslash

Xalqaro tajribada muhandislik kompyuter grafikasi ko'pincha CAD/CAM/CAE tizimlari, BIM texnologiyalari, 3D bosib chiqarish va virtual laboratoriyalar bilan integratsiyalashgan holda o'qitiladi. Rivojlangan ta'lim tizimlarida talabalar faqat dastur buyruqlarini o'rganmaydi, balki real muammo asosida loyiha ishlab chiqadi, model yaratadi, natijani sinovdan o'tkazadi va jamoaviy taqdimot qiladi [6].

Bu tajriba O'zbekiston oliy ta'limi uchun ham muhim metodik xulosalarni beradi. Birinchidan, amaliy topshiriqlar real kasbiy vaziyatlarga yaqinlashtirilishi kerak. Ikkinchidan, 2D va 3D grafik faoliyat o'zaro bog'liq holda tashkil etilishi zarur. Uchinchidan, baholashda tayyor natija bilan birga talabaniing loyiha jarayonidagi mustaqilligi, tahliliy fikrlashi va ijodiy yechimi ham e'tiborga olinishi lozim.

6. Muhokama

Muhandislik kompyuter grafikasi fanini raqamli texnologiyalar asosida o'qitish bo'yicha tahlillar shuni ko'rsatadiki, metodikaning samaradorligi dastur tanlashdan ko'ra ko'proq pedagogik loyihalash sifatiga bog'liq. Agar o'qituvchi AutoCAD buyruqlarini mavzu maqsadi, chizma geometriya qoidalari, amaliy topshiriq va baholash mezonlari bilan bog'lay olsa, raqamli texnologiya haqiqiy ta'lim vositasiga aylanadi.

Maqbul metodika quyidagi ketma-ketlikka asoslanishi kerak: muammo qo'yish, geometrik tahlil, raqamli bajarish algoritmi, mustaqil amaliy ish, natijani tekshirish va refleksiya. Bunday

yondashuv talabani grafik savodxonligini, fazoviy tafakkurini va kasbiy-ijodiy kompetentligini rivojlantiradi. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar an'anaviy chizmachilikni inkor etmaydi, aksincha uning nazariy asoslarini amaliy va zamonaviy shaklda qo'llash imkonini beradi [10].

Raqamli metodikani joriy etishda bosqichlilik alohida ahamiyatga ega. Dastlab talabalarga interfeys, koordinatalar, asosiy chizish va tahrirlash buyruqlari o'rgatiladi; keyingi bosqichda chizma standartlari, o'lcham qo'yish, qatlamlar va bloklar tizimi qo'llaniladi; yakuniy bosqichda esa murakkab detal, yig'ma chizma yoki oddiy loyiha modellarini bajarish tavsiya etiladi. Bunday ketma-ketlik talabani ortiqcha axborot yuklamasiga tushib qolishining oldini oladi va har bir yangi ko'nikmani oldingi bilimlar bilan bog'lash imkonini beradi.

Elektron portfolio yuritish ham muhandislik kompyuter grafikasi fanida muhim metodik vosita hisoblanadi. Har bir talaba bajarilgan 2D chizmalar, 3D modellar, mustaqil ishlar, xatolar tahlili va yakuniy loyihalarini alohida papka yoki bulutli platformada jamlab boradi. Bu o'qituvchiga o'sish dinamikasini kuzatish, talabaga esa o'z natijalarini taqqoslash va kamchiliklarini anglash imkonini beradi. Portfolio yondashuvi baholashni faqat yakuniy nazorat bilan cheklamay, jarayon davomida rivojlanishni kuzatishga yo'naltiradi [8].

O'qituvchining roli ham mazkur jarayonda o'zgaradi. U faqat dastur buyruqlarini ko'rsatuvchi instruktor emas, balki grafik muammoni qo'yuvchi, yechim strategiyasini yo'naltiruvchi, talabani mustaqil fikrlashini qo'llab-quvvatlovchi metodik rahbar sifatida faoliyat yuritadi. Shu sababli o'qituvchi chizma geometriya, muhandislik grafikasi va CAD texnologiyalarini birgalikda tushuntira olishi, mavzuni nazariy-amaliy izchillikda tashkil etishi zarur.

Raqamli texnologiyalarni samarali qo'llashda refleksiya bosqichi ham muhimdir. Talaba chizmani yakunlagandan so'ng, qanday buyruqlardan foydalangani, qaysi joyda xatoga yo'l qo'ygani, obyektning fazoviy tuzilishini qanday anglagani va kelgusida qanday takomillashtirish mumkinligini izohlaydi. Bu jarayon grafik faoliyatni ongli, tahliliy va kasbiy mazmunli qiladi. Natijada talaba nafaqat chizma bajaradi, balki o'z grafik harakatlarini ilmiy-metodik jihatdan asoslashga o'rganadi.

Shuningdek, raqamli grafik ta'limda differensial yondashuvni qo'llash talab etiladi. Dastlabki tayyorgarligi past bo'lgan talabalar uchun algoritmik yo'riqnoma, tayyor namuna va qisqa videodarslar berilishi mumkin; ilg'or talabalar uchun esa parametrik chizma, murakkab konstruktiv model yoki kichik loyiha topshiriqlari taklif etiladi. Bunday yondashuv barcha talabalarni bir xil natijaga majburlamasdan, ularning individual rivojlanish trayektoriyasini ta'minlaydi.

Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etishda topshiriqlar tizimi oddiydan murakkabga, reproduktiv bajarishdan ijodiy loyihalashga qarab rivojlanishi lozim. Masalan, dastlab talaba to'g'ri chiziq, aylana, yoy, kesma va oddiy geometrik shakllarni bajaradi; keyin detalning proyeksiyalarini tuzadi; yakunida esa shu detalning uch o'lchamli modelini yaratib, undan zarur ko'rinish va kesimlarni oladi. Bu tizim nazariya bilan amaliyot o'rtasidagi uzviylikni kuchaytiradi.

Metodik jihatdan muhim masalalardan yana biri xatolar bilan ishlash madaniyatidir. Raqamli muhitda xatoni tez tuzatish imkoniyati mavjud bo'lsa-da, talaba uning sababini tushunmasa, ko'nikma barqaror shakllanmaydi. Shu bois o'qituvchi xatolarni faqat kamchilik sifatida emas, balki o'quv-tahliliy vaziyat sifatida ko'rib, noto'g'ri koordinata tanlash, qatlamni adashtirish, o'lchamni noto'g'ri qo'yish yoki proyeksion bog'lanishni buzish sabablarini muhokama qilishi kerak.

Umuman olganda, raqamli texnologiyalar asosidagi metodika talabalarning grafik faoliyatini nazorat qilinadigan, tahlil qilinadigan va rivojlantiriladigan jarayonga aylantiradi. Bunda har bir topshiriq aniq maqsadga, bajarish algoritmgiga, baholash mezoniga va refleksiya savollariga ega bo'lishi zarur. Ana shundagina muhandislik kompyuter grafikasi fani zamonaviy kasbiy ta'lim talablariga mos, amaliy natija beruvchi va ijodiy fikrlashni rivojlantiruvchi o'quv kursi sifatida shakllanadi.

Shu nuqtai nazardan, raqamli texnologiyalarni joriy etish faqat kompyuter xonasining mavjudligi bilan belgilanmaydi. Asosiy masala o'quv jarayonining metodik mazmunida, ya'ni qaysi mavzuda qaysi buyruq, qaysi model, qaysi nazorat shakli va qaysi mustaqil topshiriq qo'llanishini

oldindan loyihalashdadir. Rejalashtirish puxta bo'lsa, hatto oddiy grafik topshiriq ham talabaniy fazoviy fikrlashi va kasbiy mas'uliyatini rivojlantiradi.

Kelgusida muhandislik kompyuter grafikasi fanida sun'iy intellektga asoslangan yordamchi vositalar, avtomatik tekshiruv tizimlari va bulutli hamkorlik platformalaridan foydalanish imkoniyatlari kengayadi. Biroq bunday vositalar o'qituvchi metodikasini almashtirmaydi, balki uni boyitadi. Demak, raqamli ta'limning markazida baribir pedagogik maqsad, talabaniy faol o'quv harakati va ilmiy asoslangan grafik topshiriq turishi zarur.

Mazkur yondashuvning amaliy qiymati shundaki, u muhandislik kompyuter grafikasi fanini talaba uchun abstrakt dasturiy mashqlar majmuasi emas, balki real kasbiy faoliyatga tayyorlovchi, ijodiy yechim topishga undovchi va grafik madaniyatni shakllantiruvchi pedagogik tizimga aylantiradi.

Bu esa ta'lim sifati, kasbiy tayyorgarlik va raqamli ijodkorlikning uzviy birligini ta'minlaydi.

Shu bois mazkur metodika amaliyotga tizimli tatbiq etilishi maqsadga muvofiqdir.

XULOSA

O'tkazilgan ilmiy-metodik tahlil muhandislik kompyuter grafikasi fanini o'qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanish ta'lim samaradorligini oshirish, talabalarning fazoviy tafakkurini rivojlantirish va kasbiy grafik kompetensiyalarni shakllantirishda muhim vosita ekanligini ko'rsatdi. Raqamli texnologiyalar chizma bajarish jarayonini tezlashtirish bilan cheklanmaydi; ular talabaniy obyektini tahlil qilish, konstruktiv bog'liqliklarni anglash, loyihalash va natijani taqdim etish qobiliyatini rivojlantiradi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, samarali metodika kompetensiyaviy, tizimli va amaliy-faoliyatga yo'naltirilgan yondashuvlarga asoslanishi lozim. Har bir mavzu nazariy tushuntirish, algoritmik ko'rsatma, raqamli amaliyot, mustaqil topshiriq, tahlil va baholash bosqichlari orqali tashkil etilganda o'quv natijasi ancha barqaror bo'ladi. Baholashda grafik aniqlik, texnologik ko'nikma, fazoviy tafakkur, mustaqillik va ijodiy yondashuv mezonlarini qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Xulosa qilib aytganda, muhandislik kompyuter grafikasi fanida raqamli texnologiyalarni joriy etish zamonaviy mutaxassis tayyorlashning zaruriy shartidir. Biroq bu jarayon texnik vositalarni oddiy qo'llash darajasida emas, balki ilmiy asoslangan metodika, elektron resurslar, real kasbiy topshiriqlar va izchil baholash tizimi bilan uyg'unlashgandagina kutilgan natijani beradi.

Adabiyotlar

- [1]. Autodesk. (2024). AutoCAD User Guide. San Rafael: Autodesk Inc.
- [2]. Barfield, W. (2015). Fundamentals of Wearable Computers and Augmented Reality. Boca Raton: CRC Press.
- [3]. Bimber, O., Raskar, R. (2005). Spatial Augmented Reality: Merging Real and Virtual Worlds. Wellesley: A K Peters.
- [4]. Dym, C.L., Agogino, A.M., Eris, O., Frey, D.D., Leifer, L.J. (2005). Engineering Design Thinking, Teaching, and Learning. Journal of Engineering Education, 94(1), 103–120.
- [5]. Jonassen, D.H. (2011). Learning to Solve Problems: A Handbook for Designing Problem-Solving Learning Environments. New York: Routledge.
- [6]. Kolarevic, B. (2003). Architecture in the Digital Age: Design and Manufacturing. London: Taylor & Francis.
- [7]. Mayer, R.E. (2021). Multimedia Learning. Cambridge: Cambridge University Press.
- [8]. OECD. (2021). OECD Digital Education Outlook 2021: Pushing the Frontiers with Artificial Intelligence, Blockchain and Robots. Paris: OECD Publishing.
- [9]. UNESCO. (2023). Global Education Monitoring Report: Technology in Education. Paris: UNESCO.
- [10]. Валиев, А.Н. (2020). Чизма геометрия ва муҳандислик графикаси. Тошкент: Fan va texnologiya.

UNCONVENTIONAL METHODS FOR SOLVING CENTRAIN EXAMPLE PROBLEMS
IN MATHEMATICS

O.A. Maniyozov

Fergana State Technical University,

maniyozovo@gmail.com

(Received on April 20 th, 2026)

Annotatsiya: Mathematicians have such a transplant – “multiple instances in the same way than the balance when the balance in several different methods, I prefer one example is to say”. We also transplant in the case that the same applies to some unconventional methods to add actions to have made example. Examples of using this method is quick, easy and would be understandable for the young reader, that we will provide.

Key words: Traditional methods and unconventional methods, a short breeding formula, divide the to multiple multipliers.

Introduction. Example initially and then our traditional, unconventional method, we show the dimensions in the balance.

$$\frac{488 \cdot 475 - 462}{244 + 475 \cdot 243}$$

1-Example: select calculate.

Solve: (a traditional method)

$$\begin{aligned} \frac{488 \cdot 475 - 462}{244 + 475 \cdot 243} &= \frac{2 \cdot (244 \cdot 475 - 231)}{244 + 475 \cdot 243} = \frac{2 \cdot ((243+1) \cdot 475 - 231)}{244 + 475 \cdot 243} = \frac{2 \cdot (243 \cdot 475 + 475 - 231)}{244 + 475 \cdot 243} = \\ &= \frac{2 \cdot (243 \cdot 475 + 244)}{244 + 475 \cdot 243} = 2 \end{aligned} \quad \text{Javob : 2}$$

Solve: (the unconventional method). In this example, we saved only the number of the order of actions in case of solving birlar on the steps of the room do as well, that is as follows

$$\frac{488 \cdot 475 - 462}{244 + 475 \cdot 243} = \frac{8 \cdot 5 - 2}{4 + 5 \cdot 3} = \frac{40 - 2}{4 + 15} = \frac{38}{19} = 2 \quad \text{Javob : 2}$$

$$\frac{2, 21 \cdot 5, 95 + 1, 51}{6, 42 \cdot 5, 95 - 8, 88}$$

2 - Example: select calculate.

Solve: (a traditional method).

$$\begin{aligned} \frac{2, 21 \cdot 5, 95 + 1, 51}{6, 42 \cdot 5, 95 - 8, 88} &= \frac{2, 21 \cdot 5, 95 + 1, 51}{2 \cdot (3, 21 \cdot 5, 95 - 4, 44)} = \frac{2, 21 \cdot 5, 95 + 1, 51}{2 \cdot ((2, 21+1) \cdot 5, 95 - 4, 44)} = \\ &= \frac{2, 21 \cdot 5, 95 + 1, 51}{2 \cdot (2, 21 \cdot 5, 95 + 5, 95 - 4, 44)} = \frac{2, 21 \cdot 5, 95 + 1, 51}{2 \cdot (2, 21 \cdot 5, 95 + 1, 51)} = \frac{1}{2} \end{aligned} \quad \text{Javob : } \frac{1}{2}$$

Solve: (unconventional method). Also in this example the 1-accomplished in the example, we will use unconventional method, i.e.

$$\frac{2, 21 \cdot 5, 95 + 1, 51}{6, 42 \cdot 5, 95 - 8, 88} = \frac{2 \cdot 5 + 1}{6 \cdot 5 - 8} = \frac{10 + 1}{30 - 8} = \frac{11}{22} = \frac{1}{2} \quad \text{Javob : } \frac{1}{2}$$

3-Example: $(x-y)^3 - (z-y)^3 + (z-x)^3$ to multiple multipliers. the divide.

Solve: (a traditional method). This is our example of solving two optional qo'shiluvchi

$a^3 \pm b^3 = (a \pm b)(a^2 \mp ab + b^2)$ breeding formula with the help of the short spread out, we'll work out the general multiplicative additive third from the bracket, that is

$$\begin{aligned}
 & (x-y)^3 - (z-y)^3 + (z-x)^3 \\
 & [(x-y) - (z-y)][(x-y)^2 + (x-y)(z-y) + (z-y)^2] + (z-x)^3 \\
 & (x-z)[(x-y)^2 + (x-y)(z-y) + (z-y)^2] + (z-x)^3 \\
 & -(z-x)[(x-y)^2 + (x-y)(z-y) + (z-y)^2 - (z-x)^2] \\
 & -(z-y)[(x-y)(x-y+z-y) + (z-y-z+x)(z-y+z-x)] \\
 & -(z-y)[(x-y)(x-2y+z) + (x-y)(2z-y-x)] \\
 & -(z-x)[(x-y)(x-2y+z+2z-y-x)] \\
 & -(z-x)(x-y)(3z-3y) \\
 & -3(z-x)(x-y)(z-y) \quad \text{Javob : } -3(z-x)(x-y)(z-y)
 \end{aligned}$$

Solve: (unconventional method). Unconventional our method to this example, the first causing it to himself as similar to the second and third joiner $(a \pm b)^3 = (a^3 \pm 3a^2b + 3ab^2 \pm b^3)$ we will use the short breeding formula.

$$\begin{aligned}
 & (x-y)^3 - (z-y)^3 + (z-x)^3 \\
 & (x-y)^3 = (x-z+z-y)^3 = [(x-z) + (z-y)]^3 = \\
 & = (x-z)^3 + 3(x-z)^2(z-y) + 3(x-z)(z-y)^2 + (z-y)^3. \\
 & \underline{(x-z)^3} + 3(x-z)^2(z-y) + 3(x-z)(z-y)^2 + \underline{(z-y)^3} - \underline{(z-y)^3} + \underline{(x-z)^3} \\
 & 3(z-x)^2(z-y) + 3(x-z)(z-y)^2 = 3(z-x)(z-y)[x-z+z-y] \\
 & 3(z-x)(z-y)(x-y) \\
 & -3(x-z)(z-y)(x-y) \quad \text{Javob : } -3(z-x)(x-y)(z-y)
 \end{aligned}$$

Result: The result that can be seen from the information we have presented to you is that there is a need for new thinking in mathematics, in line with the current views, to speed up time and implement simplicity. Enriching mathematics with new views Using such unconventional methods to enhance the cognitive interest of mathematics among youths and ensure that we hope to achieve in mathematics and science.

Conclusion: Solving mathematical problems in unconventional ways for students and teachers broadens the scope of thinking, develops a creative approach, and helps to understand the essence of the problem more deeply. Such methods visualization, analogies, the extreme principle, the use of invariants and symmetry, inverse thinking, or the probabilistic approach often provide an opening to problems that cannot be solved with simple formulas. As a result of using an unconventional method, simple solutions are often discovered or new generalizations of the problem are identified. In practice, such methods encourage you to look at the problem from different angles, identify logical connections through pictures and diagrams, and analyze the structure instead of calculating. At the same time, in unconventional approaches, reliable logical verification and comparison with the traditional method are important in some cases, intuitive solutions may not be complete. Discussing problems with a group, trying to solve them in different ways, and writing down the results accelerates the creative process. In short, unconventional methods enrich mathematical thinking and open up important new ideas.

References

- [1]. Daliyev, B., & Maniyozov, O. A. (2023, November). Abelning chiziqli umumlashgan integral tenglamasini yechish uchun optimal algorithm. In Conference on Digital Innovation: "Modern Problems and Solutions".
- [2]. Маниёзов, О. (2023, October). Применение преобразования фурье при решении краевой задачи для нелинейного уравнения гиперболического типа. In Conference on Digital Innovation: "Modern Problems and Solutions".

- [3]. Nasriddinov, O., Abdullayev, J., Jo'rayeva, D., Botirova, N., Maniyozov, O., & Isomiddinova, O. (2024, November). In biology, solving a problem coming to a differential equation in the maple program. In E3S Web of Conferences (Vol. 508, p. 04006). EDP Sciences.
- [4]. Azatboyevich, M. O. (2024). Navier-Stokes tenglamasini klassik hamda klassik bo 'Imagan yechimlarini va uning oziga xosligi. Al-Farg'oniy avlodlari, (4), 38-44.
- [5]. Nasriddinov, O., Abdullayev, J., Jo'rayeva, D., Botirova, N., Maniyozov, O., & Isomiddinova, O. (2024). In biology, solving a problem coming to a differential equation in the maple program. In E3S Web of Conferences (Vol. 508, p. 04006). EDP Sciences.
- [6]. Маниёзов, О. А. (2023). Используйте алгоритм фурье для решения линейной задачи для нелинейного уравнения гиперболического типа. Imras, 6(6), 40-43.
- [7]. Maniyozov, O. A. (2022). Matematika ta'limida raqamli texnologiyalarning afzalliklari va kamchiliklari. Academic research in educational sciences, 3(10), 901-905.

USING ANALOGY COMPONENTS TO IDENTIFY LAWS AND CONCEPTS IN PROBABILITY THEORY AND ELEMENTS OF MATHEMATICAL STATISTICS

M.I. Saidov

Fergana State Technical University,
+99891-676-66-24, mansursaidov785@gmail.com
<https://orcid.org/0009-0007-7479-1334>
(Received on April 20 th, 2026)

Abstract: *This scientific article explores how analogy components can be used to identify laws and concepts in probability theory and elements of mathematical statistics. The article describes the fundamental concepts and laws of probability theory and mathematical statistics, then demonstrates how analogy can be applied in these areas. Examples are provided of how these approaches are used in various practical fields - from economics to medicine and from finance to biology. The article also offers recommendations for future research, encouraging the development of new approaches and methodologies in these areas.*

Key words and concepts: *Probability theory, Mathematical statistics, Analogy, Laws and concepts, Practical application, Statistical inference, Sample analyses, Data analysis, Economics and finance, Medical statistics, History of probability theory, Mathematical modeling, Decision making, Risk assessment, Scientific research methodology.*

INTRODUCTION.

Probability theory and mathematical statistics are an integral part of modern science and technology. They play an important role in optimizing decision-making processes in various fields, from economics to medicine. Probability theory serves as a basic tool for assessing the probability of future events, while mathematical statistics helps us understand these events through the analysis of observations and data.

The concept of analogy. An analogy is a way of understanding or analyzing something or a process by comparing it to another thing or process. In scientific research, the analogy approach can be very effective in discovering new ideas and solutions. It helps to identify commonalities between concepts in different contexts, thereby suggesting new approaches to solving complex problems.

Purpose and significance of the article. This article is devoted to studying how elements of probability theory and mathematical statistics can be used to identify patterns and concepts using analog components. The aim of the article is to present practical approaches used in developing new concepts and methodologies using analogy in these areas. It is also expected that the article will add new perspectives to existing knowledge in the field and identify new directions for future research.

Statistical inference. One practical application of probability theory is to make statistical inferences. For example, based on the results of a particular experiment or observation, one can draw conclusions about the likely future events. Statistical inference techniques, including confidence intervals and hypothesis testing, play an important role in data analysis. These

techniques are used to determine the meaning of data using the basic concepts and laws of probability theory.

Probability theory and its laws, in turn, are closely related to mathematical statistics and data analysis. These two fields complement each other and are used together for a deeper analysis of data. Statistical methods built on the foundations of probability theory allow us to draw meaningful conclusions from large data sets.

This section is devoted to the study of the basic concepts and laws of probability theory, emphasizing its role and importance in mathematical statistics and applied scientific research. In the next section, we will consider the specific aspects and methods of mathematical statistics.

Mathematical statistics. Basic concepts and methods Mathematical statistics is a field concerned with the collection, analysis, and inference of data. It uses the conceptual foundations of probability theory and has a wide range of practical applications. One of the basic concepts is sampling, which is the selection of a small portion of a larger population and the study of its characteristics.

Sampling: $X_1, X_2, \dots, X_n$.

Here $X_1, X_2, \dots, X_n$ – sample observations.

Data analysis: Mathematical statistics can be used to perform various analyses. For example, concepts such as the sample mean and sample variance are used to assess the central tendency and spread of data.

Sample average:
$$\bar{X} = \frac{1}{n} \sum_{i=1}^n X_i$$

Sample variance:
$$S^2 = \frac{1}{n-1} \sum_{i=1}^n (X_i - \bar{X})^2$$

Examples of Data Analysis Let's look at a simple example of applying the basic methods of mathematical statistics. Suppose we want to analyze the exam results of students at a university. Our goal is to determine the mean and spread of the students' results.

1. Sampling: We select the exam results of 30 students as a sample from a group of students.

2. Calculate the sample average: Add each student's score and divide by the total number of students.

3. Calculate the sample variance: We calculate the difference of each result from the sample mean, square it, and then find the average of these.

Through this analysis, we can obtain information about the overall exam performance of our students, which is useful for assessing the quality of teaching and making improvements in necessary areas.

The study of these basic concepts and methods of mathematical statistics is essential for working with data and is widely used in scientific research. In the next section, we will consider how these concepts and methods can be combined with probability theory and analogy to create new approaches and methodologies.

4. Analogy and its application. Analogy is a method of comparing something or a process to another thing or process in order to understand or study it. In scientific research, this approach helps to develop new ideas and solve complex problems. Analogy allows us to apply existing knowledge and experience in different fields to new situations by finding similarities.

Practical examples of the application of analogy The use of analogy in the field of probability theory and mathematical statistics allows us to create new methods for analyzing various sets of data. For example, statistical methods used to study random processes in nature can be applied to analyze data in the fields of economics or finance. These comparisons help to open new concepts and expand existing knowledge.

Practical example: If we observe the population growth of various animal species in an

ecosystem, we can analyze this data using probability theory and mathematical statistics in ecological research. We can then apply similar analysis methods, for example, to forecast price changes of various investment products in the financial market. Due to the similarities between these two fields, concepts from one field can be successfully applied to the other.

New approaches and methodologies. Combining elements of probability theory and mathematical statistics through analogy helps researchers find new solutions to existing problems in various fields. For example, applying random processes studied in biology to solve problems in economics opens up new perspectives in creating new theoretical models and understanding real-world problems.

By using an analogy approach, we can learn from experiences in different fields and adapt this knowledge to new, uncertain environments, which stimulates the development of innovative solutions and insights.

Using elements of probability theory and mathematical statistics through analogy can be effective in generating new knowledge and solving problems in a variety of fields. In the next section, we will analyze the practical application of these concepts in more detail.

5. Practical Application Application in various fields. Probability theory and mathematical statistics have a wide range of practical applications. They are one of the main tools for improving decision-making processes in many fields, from economics to medicine, from engineering to the social sciences..

Applications in Economics: Probability theory and mathematical statistics play an important role in economics in assessing risks, analyzing investment performance, and forecasting market trends. For example, companies use these methods to estimate future profits and make investment decisions.

Medical applications: In medicine, probability theory and mathematical statistics are used to evaluate the effectiveness of new drugs, study the prevalence of diseases, and analyze the results of medical tests. These methods are very important, for example, in calculating the probability of the spread of a disease during epidemics.

New approaches.

New approaches and methodologies are being developed using probability theory and mathematical statistics, which creates new opportunities for solving problems in various fields.

New approaches in finance: In finance, new approaches created using probability theory and mathematical statistics are used, for example, in determining the price of securities and managing risks. These methods help investors manage their funds effectively.

Applications in Biology and Ecology: In biology and ecology, probability theory and mathematical statistics are used to study population dynamics, model various ecological processes, and assess the habitats of biological species. These approaches are very important in developing strategies for conserving biodiversity and protecting the environment.

This section has shown the practical applications of probability theory and mathematical statistics in various fields. These methods and approaches are one of the main tools for understanding the complex world and solving problems..

CONCLUSION

Results and their significance.

In this article, we have examined the basic concepts and laws of probability theory and mathematical statistics, as well as how these fields can be used to solve various scientific and practical problems. Using analogy, we have analyzed the importance of applying concepts from these fields to other fields, creating new approaches and methodologies.

Probability theory and mathematical statistics are widely used to improve decision-making processes, make forecasts, and create new knowledge. These fields play an important role in many fields, from economics to medicine, from finance to biology.

Recommendations for future research.

Future research could focus on the application of probability theory and mathematical statistics to new areas, including artificial intelligence and data analysis. These areas are rapidly

developing, and the application of these methodologies opens up opportunities for developing new solutions and approaches. Researchers can also work on developing new concepts and methods of probability theory and mathematical statistics that can be applied to new areas by analogy. This opens up new perspectives in solving complex problems and encourages the integration of scientific knowledge.

In conclusion, probability theory and mathematical statistics, their concepts and laws, and their applications by analogy, play an important role in scientific and practical fields. These fields will continue to be important in providing new discoveries and solutions in the future.

References

1. Daniel Golemaning "Emotsional intellect" (*Emotional Intelligence: Why It Can Matter More Than IQ*), "Bantam Books" nashriyoti, United States Amerika, 1995.
2. Stephen R. Covey "The 7 Habits of Highly Effective People: Powerful Lessons in Personal Change", "Free Press" nashriyoti, New York, United States Amerika, 1989
3. Inomjonovich, S.M. "Pedagogika fanini rivojlantrishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o'rni", O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar, 613-619 bet, 2024 y
4. Inomjonovich, S.M. "Raqamli ta'lim muhitida bo'lajak muhandislarning kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirish", O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar, 673-681 bet, 2024 y
5. Inomjonovich, S.M. "Pedagogikada tarbiya tizimi takomillashtirish", O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar, 667-673 bet, 2024 y
6. Inomjonovich, Saidov Mansurjon "Methodology of pedagogical science", 54-tom, 544-548 bet, 2004
7. Inomjonovich, Saidov Mansurjon "The important role the student portfolio in the development of students' intellectual skills", 54-tom, 1164-1168 bet, 2024
8. Inomjonovich, S. M. Tartiblangan statistiklarda baholarni topish usullari. *Al-Farg'oniy avlodlari*, (4), 16-21, 2024 y.
9. Саидов, М. И. Центральная предельная теорема для статистик Фишера. *GOLDEN BRAIN*, 1(26), 159-164, 2023 y.
10. Tolipov Nodirjon; Saidov Mansurjon "Matematikani o'qitishning zamonaviy usullari", Conference on Digital Innovation: "Modern Problems and Solutions", 2023

YARIM TIRKAMA YUK AVTOMOBILINING QUUVVATI VA FOYDALI ISH KOYFITSIYENTINI ORTTIRISH

A.O. Umarov

Farg'ona davlat texnika universiteti

fiz.umarov1953@mail.ru
(Qabul qilindi 20.04.2026 y.)

Annotatsiya: Jahonda transport vositalarining takomillashtirilgan rusumlarini yartilishi mamlakatimiz avtomobil sanoatiga sifatli, mehnat unumdorligi yuqori, yoqilg'i tejamkor yuk mashinalarini ishlab chiqarish talabini qo'ydi.

Qamchiq davoning A – 373 "Kamchiq – Davon" avtomobil yo'lida yuklarni tashislayotganda yoqilg'i sarfining keskin oshishi, tovarlarni tashish tannarxining ko'tarilishiga hamda o'z vaqtida yetib bormasligiga, ekspot salohiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ushbu muammolarni yechish, avtomobilga qo'shimcha quvvat beruvchi mexanizmlar yaratish natijasida amalga oshirildi. Maqolada yarim tirkama yuk avtomobillarining quvvatini va foydali ish ko'rsatishini orttirish haqida yoritilgan.

Kalit so'zlar: yuk avtomobili, yarim tirkama, elektrodvigatel, quvvatni taqsimlovchi diffirensial, inverter, harakatga keltiruvchi ko'priq, asinxron dvigateli.

KIRISH. Birinchi bug' mashinasi XVIII asrda Fransiyada yaratilgan. U kolbasimon metal suvli idish bo'lib tort g'ildirakli arava ustiga mahkamlangan va idish tagiga qattiq holatdagi yoqilg'i yoqilganda bug'ning chiqishi natijasida hosil bo'lgan reaktiv harakati sababli harakatlangan.

1763 yilda I.I.Polzunov krivoship – shatun mexanizimli bug' mashinasining loyihasini ishlabchiqdi. 1774 - yilda Jems. Uatt universal dvigatelni yaratdi va u XIX asr oxirigacha [sanoat](#) va

transportda yagona dvigatel sifatida qo'llanildi.

Issiqlik dvigatellarini rivojlantirish tadqiqot ishlari natijasi fabrika va zavodlar, elektr stansiyalari, parovoz, kemasozlik, qishloq xo'jaligi va mahalliy sanoat ehtiyojlari uchun zarur bo'lgan statsionar bug' mashinasini yaratishga olib keldi, hozirgi kungacha tarixiy manbalar sifatida saqlanib kelmoqda. Bu dvigatelning tortish karakteristikasi yaxshi, ortiqcha bosim va reverslashga moslashuvchan, puxta va oddiy tuzilgan.

Ushbu mashinaning quvvati 15 MVt gacha, foydali ish ko'fitsiyenti 25% ga yetdi, kamchiligi yoqilg'i sarfining haddan ziyod ko'pligi, iqtisodiy samaradorligining pastligi va quvvatining cheklanganligidir [1].

ADABIYOTLAR TAHLILI. XXI asrning 60 – yillariga kelib avtomobil transporti sohasi tez rivojlandi. Dunyoning rivojlangan mamlakatlari; Germaniya, AQSH, Yaponiya, Xitoy, Janubiy Koreya, Sobiq SSSR mamlakatlarida avtomobil sanoatining rivojlanishi shular jumlasidandir. Masalan; Rossiya Gorkiy nomli avtozavodida "GAZ – 51", Moskva shahridagi avtozavodda "Mochkvich – 400", "Pobeda", Zaparojets shahrida "Zaparojets", Kamskiy avtozavodida "Kamaz" Belorussiyaning Minsk shahrida "MAZ" rusumli avtomobillar ishlab chiqarila boshlandi. O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng 1995 – yilda Asaka shahrining qishloq xo'jalik transporti - "pritsep" ishlab chiqaradigan zavodi "DEU" kompaniyasi tomonidan qayta jihozlanib yengil avtomobil ishlab chiqarishga moslashtirildi va bir yildan so'ng ishlab chiqarish amalga oshirilib hozirgi kungacha raqobatbardosh turli rusumli yengil avtomobillar ishlab chiqarib faoliyat ko'rsatib kelayapti. Samarqand va Jomboy shaharlarida yuk mashinalari ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi.

Avtomonbil sanoatiga transport ishlab chiqarishda qo'yilgan asosiy talablardan biri kam yoqilg'i sarfiga ega bo'lgan hamda foydali ish ko'fitsiyentini yuqori bo'lgan mashinalar ishlab chiqarishdir.

Toshkent viloyati bilan Farg'ona vodiysini bog'lovchi Qamchiq davoni avtomobil yo'lida yuk avtomobillarining yoqilg'i sarfi yuklangan holatda 5 marotaba ortib ketayaotgani sababli, ushbu jarayon atmocferani me'yoridan ko'p ifloslantirib, ehtiyot qismlarining ishlas umrini qisqartirilishi sir emas, ishlab chiqarilgan mahsulotlarining tan narxini orttishi va ularni yetkazish muddatining uzayib ketishi, iqtisodiy samaradorlikka salbiy ta'sir tasir korsatishi, transport qatnov zichligini orttishi hozirgi kunning muammolaridan biridir.

METADOLOGIYASI. Yuqorida keltirilgan muammolarni avtomobilning quvvatini va foydali ish ko'fitsiyentining orttirish bilan yechiladi, lekin bajaradigan ishga nisbatan quvvatli dvigatelning quvvati haddan tashqari orttirilsa tekis gorizontallik yo'llarda yoqilg'i sarfi keskin ortib ketadi. Shuning uchun to'la yuklangan holatda va vaznini hisobga olib yarim tirkamali yuk avtomobillarida quvvati 430 ot kuchiga ega bo'lgan ichki yonuv dvigatellaridan foydalaniladi. Nazariy mexanika fanida quvvatning texnik o'lchovi birligi 1 ot kuchi hisoblanib, uning qiymati 735,59 Vtga teng. Yarim tirkama avtomobillari dvigatellarining quvvati 430 ot kuchiga, 320 kVtga ega bo'lib, yuqorida keltirilgan avtomobillar davon orqali maksimal yulangan holatda harakatlanganda (yani yuki bilan uzatmalar qutisining birinchi yoki ikkinchi bosqichida harakatlanishi natijasida) besh barobar ko'p yoqilg'i sarflaydi. Bunday sarf xarajatlar yukning tashish tannarxini qimmatlashishiga, ekalogiyaning ifloslanishiga, yukning o'z vaqtida yetib bormasligiga, yuk avtomobili dvigatelining (ishlash soati) muddatiga yetmasdan ta'mirlashga sabab bo'laypti[4].

NATIJALAR. Yuqoridagi muammo "Qo'shimcha quvvat beruvchi mexanizm" (berilgan nomi) yaratilib yuk avtomobilining yarim tirkama yukxonasi ostiga o'rnatildi va Qamchiq davonining A – 373 yo'llarida tajriba - sinovidan o'tkazilib yaxshi natijaga erishildi. Bu mexanik qurilma elektr energiyasini mexanik energiyaga aylantiruvchi asinxron dvigatelidan, harakatni yumshoq uzatuvchi muftali maxovikdan, avtomatik ishlaydigan uzatmalar qutisidan va MAN CLA 4x2 rusumli avtomobilning quvvatini taqsimlovchi difrensialga ega bo'lgan ko'prikdan yig'lgan va ushbu qurilma 30 ot kuchi (1 ot kuch = 735,59 vt), yani 22 kVt quvvatga ega bo'lib avtomobilga o'rnatilgan, davonga chiqisgda ishga tushirilishi uning qo'shimcha quvvatdan foydalanildi, yoqilg'i sarfi 7% ga kamaydi quvvati 30 o.kuchiga ortdi.

Bu mexanizm 22 kVt va 3000 ayl/min asinxron dvigateli ko‘prik differensialiga (25 kVt quvvatga ega bo‘lgan) akkumliyatorlar batareyasidan energiyani olib avtomobilga qo‘shimcha quvvat berishi natijasida erishildi.

Yuqorida keltirilgan mexanizmning elektr zanjirini tuzishda o‘tkazgichlarning diametrini “Ishlab chiqarish korxonasida elektr quvvatini hisobga olgan holda o‘tkazgichning diametrini hisoblash” elektron dasturidan foydalanib hisoblanildi (1 – rasmga qarang).


 CalculateApp
 (2).exe

1 – rasm. Quvvatni hisobga olib o‘tkazgichning diametrini aniqlash dasturi [3].

Ushbu ilmiy yangilikka 2020 – yilda “Halqaro sertifikat” olindi [2]. Akkumliyatorlar batareyasining sarflagan energiyani ichki yonuv dvigateli harakatiga ulangan o‘zgarmas tok generatori zaryadlaydi, davondan tushishda esa elektr dvigateli energiya ishlab chiqaradi va u ham zaryadlaydi.

XULOSA. Yarim tirkama yuk avtomobillariga “Qo‘shimcha quvvat beruvchi mexanizm” o‘rnatilib bajarilgan ilmiy tadqiqot va tajriba - sinovlariga asoslanib quyidagi xulosaga kelindi:

1. Ichki yonuv dvigateli muddatidan avval ta'mirtalab holatiga kelmaydi;
2. Avtomobil yoqilg‘isi tejaladi va atmosferaga is gazining kam chiqarishi natijasida ekologik muhitning ifloslanishini oldi olinadi;
3. Yuklangan yuklar o‘z vaqtida manzilga yetkaziladi;
4. Ishlab chiqarilgan tovar – moddiy boyliklarning yol harajati hisobidan tannarxi o‘zgarishsiz qoladi;
5. Yol qatnovi avtomobil zichligining ortishiga salbiy ta’sir qilmaydi, yani belgilangan tezlikda davondan o‘ta oladi;
6. Haqaro logistika markazlariga yuklarning o‘z vaqtida yetib borishi eksport salohiyati rivojlanishiga hissa qo‘shadi.

Adabiyotlar

- [1]. O‘zME. Birichi jild. Toshkent, 2000 – yil.
- [2]. International online copyright office № EC – 01 – 002847 06.07.2020 y.
- [3]. Ishlab chiqarish korxonalarida elektr quvvatini hisobga olgan holda o‘tkazgichning diametrini hisoblash dasturi. № DGU 31676 21.12.2023 y.
- [4]. “Ўзбекистон автомобил – йўл комплексининг муаммолари” Республика илмий анжумани материаллари тўплами. Т., 2013.238.Б
- [5]. Трофимова Т.И. Курс физики. Издательства. «Высшая школа» М.:1985. 219.с.

ZAMONAVIY LIBOSLARDA BADIY BEZAKLAR

D.B. Yuldasheva

Farg‘ona davlat texnika universiteti

e-mail: dildorayuldasheva78@gmail.com

(Qabul qilindi 20.04.2026 y.)

Anatatsiya: Hozirgi vaqtda dunyoda kiyim dizayniga alohida e’tibor berilmoqda. . Kiyimni turli yo‘llar bilan bezash: to‘r, lenta, kashtado‘zlik, tugmalardan aplikatsiyalar va kiyimlarni maxsus

bo'yoqlar bilan bo'yash ananaga aylanmoqda.

Kalit so'zlar: *gazlama, ipak, kiyim, bezak, mato, applikatsiya*

Kiyim, kiyim-kechak deb badanni yopib turuvchi har qanday mato parchasiga aytiladi. Kiyimlar tikiladi, to'qiladi, yoki boshqa usullar bilan tayyorlanadi. Kiyim kiyishdan maqsad avvalo tanani atrof-muhit ta'siri: issiq-sovuq, shamol, chang-to'zon, quyosh nurlari, yog'in va hokazodan asrashdir. Hozirgi kunda eng ko'p yaratilayotgan kiyimlarga ayollar kiyimini misol qilib olsak bo'ldi. Deyarli har qanday ayolning shkafiga siz turli sabablarga ko'ra kiyimaydigan narsalarni topishingiz mumkin, masalan, ular modadan chiqib ketgan yoki shunchaki zerikib ketgan, lekin ularni tashlash uchun qo'llari ko'tarilmaydi. Bunday holda, albatta o'z qo'llaringiz bilan kiyimlarni bezashingiz mumkin. Bezatish - bu kiyimni turli yo'llar bilan bezash: to'r, lenta, kashtado'zlik, tugmalardan aplikatsiyalar va kiyimlarni maxsus bo'yoqlar bilan bo'yash. Chizish yoki tikuvchilik bo'yicha maxsus iste'dodingiz bo'lmasa ham o'z kuchingizni sinab ko'rishingiz mumkin.

Birinchi biz kiyim old bo'laglarini tugmalar bilan bezashga o'tamiz. Tugmaning to'rtta asosiy funktsiyasi mavjud: utilitar(qisqich), dekorativ va estetik(bezatish), sehrli(tumor yoki talisman), ma'lumot beruvchi(identifikatsiya belgisi). Agar mahsulotda boshqa bezak elementlari bo'lmasa, tugmachalardan turli naqsh va naqshlarni yaratishingiz mumkin: kamon, daraxt, gullar, yurak, kapalak va boshqalar. Tugmalar kiyim detallariga tikilgan yoki yopishtirilgan bo'ladi. Tugmalarni tikishdan oldin ularni matoga qo'ying va "sinab ko'ring". Bolalar kiyimlarida hayvonlar, gullar, panjalar, qalamlar va boshqalar ko'rinishidagi tugmachalardan foydalanish mumkin.



Kashta tikish har doim dolzarb bo'lib kelgan va hozir ham shunday bo'lib qolmoqda. Bugungi kunda bir nechta kashta tikish usullari mavjud: atlas tikuvi, o'zaro faoliyat tikuv, payetlar, tugunlar. Kashtado'zlik kiyim uslubiga qarab tanlanishi kerak. Ko'ylaklarni bo'yinbog', etak yoki yeng bo'ylab kashtado'zlik bilan bezash mumkin. Yubkalar chetida yoki belida kashtado'zlikni talab qiladi va ko'ylak mahsulotning istalgan joyida yoki butun maydonida kashta tikilishi mumkin. Kamdan-kam hollarda kashtado'zlik hatto poyabzal va aksessuarlarni bezatiladi.

KIYIMLARNI APLIKATSIYA BILAN BEZASH



Bugungi kunda eng oddiy va tezkor usullar biri bu aplikatsiyalar bilan kiyim bezakdir. Aplikatsiyalar mato do'konlarida tayyor holda sotiladi, do'konlarda sotiladigan aplikatsiya kauchuk yoki yopishtirilgan pastki qatlamga ega. Bu matoga ishonchli biriktirilishini ta'minlash uchun kerak. Ushbu yopishtiruvchi ta'sir qilganda eriydi yuqori harorat va matoga yopishadi.

QORA RANGLI LIBOSNI BEZASH VA O'ZIGA XOS USLUBNI YARATISH.



Qora libos har doim har bir ayolni bezatadi, kamchiliklarni yashiradi va egasiga o'ziga xos go'zallik beradi. Metall zargarlik buyumlari va toshlar har qanday materialning qora matosiga ajoyib ko'rinadi. Shuning uchun, ushbu dekorativ elementlarning yordami bilan o'zingizni noyob qilishga harakat qiling. Qora rangli liboslarni boshdan oyoqgacha

bezak berish yaxshi natija bermaydi. Shuning uchun siz libosni bitta qismini tanlang masalan: kamar, ko'krak, elka yoki etak. Bo'yin chizig'i bo'ylab turli o'lchamdagi va diametrli rinstones qatorini biriktiring. Turli xil ranglarda (kamida to'rtta va ettitadan ko'p bo'lmagan) rinstonesdan foydalanishga harakat qiling.

Adabiyotlar

- [1]. X.X. Kamilova, U.A. Vaxidova "Kompozitsiya asoslari" Toshkent 2020
- [2]. N.N.Nabidjanova, M.A.Rizametova, D.Raimberdiyev, R.Ergasheva "Tikuv buyumlari texnologiyasi "darslik" Namangan 2019
- [3]. M.Turdiyev, G.A.Mirboboyeva, N.Q.Urmonova, J.I.Oripov. "Badiiy kompozitsiya asoslari" O'quv qo'llanma. Farg'ona-2019

ASSIMETRIK DETALLARNI RAPPORTLI MATOLARDA OPTIMAL JOYLASHTIRISH YORDAMIDA KIYIM SIFATINI OSHIRISH USHLUBLARI

R.A. Berdiyeva

Farg'ona davlat texnika universiteti

ORCID:0009-0009-7287-7243

ranoberdiyevahon@gmail.com

(Qabul qilindi 20.04.2026 y.)

Annotatsiya: Ushbu maqolada assimetrik rapportli (naqshli) matolardan ayollar ustki kiyimlarini loyihalashning o'ziga xos xususiyatlari tadqiq etiladi. Tadqiqot davomida matodagi naqshlar muvozanatini saqlash, detallarni bichishda iqtisodiy samaradorlikka erishish va kiyimning estetik ko'rinishini ta'minlash uchun andazalarni joylashtirishning optimal usullari tahlil qilingan. Natijalar murakkab printli matolar bilan ishlashda konstruktorel uchun amaliy tavsiyalar beradi.

Kalit so'zlar: Assimetrik rapport, ayollar ustki kiyimi, loyihalash, andazalarni joylashtirish, mato sarfi, vizual balans, tikuvchilik texnologiyasi.

Kirish. Zamonaviy modada geometrik va abstrakt assimetrik printlar trendda. Biroq, bunday matolarni bichishda an'anaviy "andazalarni bir-biriga qarama-qarshi joylashtirish" usuli ish bermaydi. Bu esa ishlab chiqarishda mato sarfining 15-20% ga oshishiga olib keladi. Tadqiqotning maqsadi — texnik va estetik talablarni birlashtiruvchi optimal joylashtirish usulini ishlab chiqish.

Assimetrik rapportli matolardan ayollar ustki kiyimlarini loyihalashda matoning geometrik xarakteristikalarini aniqlash jarayoni o'ta aniqlikni talab qiladigan texnik bosqichdir. Ushbu jarayon matoning eni bo'ylab va bo'yi bo'ylab naqshlarning takrorlanish masofasini, ya'ni gorizonta (R_h) va vertika (R_v) rapportlarni o'lchashdan boshlanadi. Assimetrik matolarning o'ziga xosligi shundaki, ularning naqshi markaziy o'qqa nisbatan simmetrik emas, bu esa andazalarni "ko'zgu" usulida joylashtirish imkoniyatini mutlaqo cheklaydi [1].

Geometrik tavsifnomani shakllantirishda matoning arqoq iplari qiyshiqqligi (skewness) darajasini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Agar to'quv jarayonida mato iplari burchagi to'g'ri

burchakdan og‘gan bo‘lsa, bu kiyim tayyor bo‘lgach, uning yon choklarida qiyshayish yoki vizual nuqsonlarga olib keladi. Shuning uchun loyihalashda har bir detalning bo‘ylama ip yo‘nalishi mato chetiga emas, balki haqiqiy o‘rilish iplariga moslab olinadi.

